accept [æk'sept] v 1) qabul qilmoq; **to ~ an offer** taklifni qabul qilmoq; **to ~ a present** tuhfaning qabul qilib olish; **to ~ in deposit** biror narsani saqlab berish uchun olish; **to ~ smb.** kimningdir (*uylanish yoki turmushga chiqish*) taklifini qabul qilmoq; **to ~ delivery of goods** mollarni (*buyumlarni*) qabul qilmoq; **it is ~ ed that ...**; ... deb qabul qilingan; **He is ~ ed as one of us.** Biz uni o'zimizniki deb hisoblaymiz.; 2) yo'l qo'ymoq, ijozat bermoq, ruxsat bermoq; rozi bo'lmoq, unamoq, iqrorga bo'lmoq, bo'yinga olish; **I ~ the correctness of your statement.** Sizning fikringizni to'g'ri ekanligiga qo'shilaman.; 3) xayrixoh munosabatda bo'lmoq, iltifotli munosabatda bo'lmoq, muruvvatli munosabatda bo'lmoq; 4) savdo aksept qilish (*ahdnoma shartini qabul qilish, aksept deb atash*); (*hujjatlar asosida pul berish uchun beriladigan rozilik ham aksept deb ataladi*); **to ~ person** yuz-xotir qilib ko'rsatmoq, yuz-xotir qilib namoyon qilmoq; **to ~ the fact** dalillar bilan tanishish, asoslarni ko'rib chiqish.

acceptability [æk.septə'biliti] n maqbul bo'lish, yaroqlilik.

acceptable [æk'septəbl] a 1) ma'qul; yaroqli, muvofiq keladigan, maqbul; 2) yoqimli, ko'ngilli, yoqadigan, ko'ngildagi, matlub, aziz, qimmatli; **if the proposal is ~ to you**

agar taklif sizga ma'qul bo'lsa; **Thank you tea would be very ~.** Rahmat, choy bo'lsa yo'q demayman.; **a book is always an ~ gift** kitob bu yaxshi sovg'a.

acceptance [æk'septəns] n 1) qabul qilish, kutib olish, qabul; 2) ma'qullash, yoqtirish, maqtash, taqdirlash; 3) so'zning mazmuniga tushunib yetish; 4) *savdo.* aksept ~ **general** vekselni gap-so'zsiz akseptlash; ~ **qualified** (*yoki special*) vekselni shartlar qo'yib akseptlash; ~ **flight** av qabul-topshiruv sinov uchishi; ~ **of persons** yuz-xotir qilish, yuzidan o'ta olmaslik; ~ **of an invitation** taklifni qabul qilish; **We've had five's for the reception.** Qabulga besh kishi taklifnoma olishdi.

acceptation [æk'sept'eifən] n so'z va gaplarning mazmunini yaxshi tushunib olish, aytilgan gaplarga fahmi yetmoq.

accepted [æk'septid] a hammaga ma'qul, barchaga yoqqan, ommalashtirilgan, barchaga tanilgan, barchaga ma'lum bo'lgan; **the ~ truth** hammaga ma'lum bo'lgan haqiqat, hammaga ayon bo'lgan haqiqat; **Nowadays it's the ~ thing that women wear trousers.** Hozir ayollarga shim kiyib yurish rasm bo'lgan.

accepter [æk'septə] n qabul qiluvchi, qabul qilib oluvchi shaxs; ~ **of persons** qiziqish paydo qiluvchi, rag'batlantiruvchi, havasmand qiluvchi.

acceptor [æk'septə] n *savdo.* akseptant.

access [ˈækses] n kirish (*yoki foydalanish*) huquqi, kirish (*yoki foydalanish*) uchun ijozat; 2) o'tish, yaqinlashish, yaqin kelish, yaqin borish; ~ **to World markets** jahon

bozoriga yaqinlashish (*chiqish*); 3) zo'rayish, zo'riqish (*g'azab va kasallikka oid*).

accessary I [ək'sesəri] *a yur.* birga qatnashgan, birga ishtirok etgan, birga aralashgan, sherik bo'lgan.

accessary II [ək'sesəri] = **accessory**.

accessibility [ək'sesi'biliti] *n* 1) kirish (*o'tish, borish*) mumkin bo'lgan; 2) ko'rish va xizmat ko'rsatishning qulayligi.

accessible [ək'sesəbl] *a* 1) kirish mumkin (*oson*) bo'lgan, erishish, mumkin bo'lgan; beriladigan, ko'ndigan (*ta'sirga*); ~ **to bribery** sotqin, poraxo'r.

accession I [ək'seʃən] *n* 1) o'sish, qo'shish, ortish, ko'payish, orttirish, to'ldirish; 2) kirish, kira olish; 3) vazifani bajarishga kirishish, o'tirish.

accession II [ək'seʃən] *v* taxtga o'tirmoq; ~ **to the throne** taxtga o'tirmoq; ~ **catalogue** yangi qabul qilingan kitoblar katalogi.

accessorial [ˌæksə'soriəl] *a* yordamchi, ko'makchi, qo'shimcha.

accessory I [ək'sesəri] *a* 1) *yur.* sherik, ishtirok etgan shaxs, aralashgan; ~ **after the fact** jinoyat sodir etilgandan keyingi sherik; yashiruvchi; ~ **before the fact** jinoyat hodisasidan oldingi sherik, g'alamis; 2) qo'shimcha, qo'shimcha qilib beriladigan; yordamchi, ko'makchi; 3) ikkinchi darajali; 4) armatura.

accessory II [ək'sesəri] *n pl* buyumlar, jihozlar, asboblar, anjomlar.

accessory III [ək'sesəri] *a* qo'shimcha; ~ **material** qo'shimcha material; ~ **defenses** *harb.* ko'makchi mudofaa inshootlari; ~ **buds** *bot.* o'simta (*qo'shimcha*) kurtak.

accidence [ˈæksidəns] *n* 1) *gram.* morfologiya; 2) qandaydir fanning negizi, asosi, poydevori.

accident [ˈæksidənt] *n* 1) baxtsiz hodisa, halokat, falokat, fojia, muvaffaqiyatsizlik; **to meet with an-** avariya uchramoq; **fatol** ~ o'linga olib kelgan baxtsiz hodisa; **industrial** ~ ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa; 2) voqea, hodisa, tasodif; **by** ~ tasodifan, tasodifiy ravishda, kutilmaganda, beixtiyor, noxosdan; **by a lucky** ~ baxtli hodisa bilan; 3) *geol.* notekis, past-baland, egri-bugri; ~ **insurance** baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish; ~ **prevention** baxtsiz hodisalardan (*falokatdan*) ogohlantirish, xavfsizlik texnikasi; ~ **rate amer.** sanoatdagi mayib bo'lishlik koeffitsienti; ~ **s will happen (in the best regulated families)** oila a'zolari o'rtasidagi kelishmovchilik, ro'zg'or janjalsiz bo'lmaydi; obro'li oiladagi mojaro.

accidental I [ˌæksə'dəntl] *a* tasodifiy; ikkinchi darajali; ~ **coincidence** tasodifiy mos kelish; ~ **discharge** *harb.* to'satdan o'q otish.

accidental II [ˌæksə'dəntl] *n* tasodif, kutilmagan narsa, ahamiyatsiz, muhim bo'lmagan.

accidentally [ˌæksi'dentəli] *adv* tasodifan, tasodifiy ravishda, kutilmaganda; hech kimning xayolida bo'lmagan, hech kim o'ylamagan.

acclaim I [ə'kleim] *n* olqish, qutlash.

acclaim II [ə'kleim] *v* tabrikلامoq, capak chalmoq, qarsak urmoq, olqishlamoq; baqirib, shang'illab, shovqin-suron solib, qizg'in olqishlamoq, e'lon qilmoq, ko'pchilikka ma'lum qilmoq, tashlamoq; chin yurakdan muborakbod etmoq, qizg'in tabrikلامoq; **to ~ the winner** g'olibni tabrikلامoq.

acclamation [ˌæklə'meɪʃən] *n* 1) qizg'in ma'qullash, maqtash, yoqti-

rish; 2) (*oddiy pl*) maqtash nidolari, xitoblari, chaqiriqlari; **carried by** ~ bir ovozdan ma'qullanganligi tufayli ovozga qo'yamay qabul qilindi.

acclimate [ə'klaimeit] *v* iqlimlashtirmoq, iqlimga moslashtirmoq.

acclimatization [ə'klaimeitəizeifən] *n* iqlimlashtirish, iqlimga moslashtirish.

acclimatize [ə.klaimeitəiz] *v* 1) iqlimlashtirmoq; 2) *refl.* iqlimga muvofiqlashtirmoq, biror yerning sharoitiga moslashtirmoq; **He couldn't ~ himself to the life in that new place.** U yangi joydagi hayotga odatlana olmadi, yangi joydagi yashash tarzi unga to'g'ri kelmadi; **to ~ oneself to the surroundings** atrofda sharoitga moslash(tir)moq; **to become ~ d** yangi sharoitga moslashmoq.

acclivity [ə'kliviti] *n* qiya ko'tarilish.

acclivous [ə'klaivəs] *a* nishab, qiya.

accommodate [ə'kɔmədeit] *v* 1) moslashtirmoq; **to ~ oneself to smth.** biror narsaga moslashmoq, biror narsaga odatlanmoq; **to ~ oneself to smb.** biror kishiga o'rganib qolmoq; 2) boshpana bermoq, joylashtirmoq; **to ~ for the night** tunash uchun joy bermoq; **to be well ~ d** yaxshi joylashib olmoq; **the hotel ~ s a hundred guests** mehmonxonaga yuz kishi joylashishi mumkin (*mehmonxonaga yuz kishi sig'adi, mehmonxonada yuz kishiga joy bor*); **the delegates were ~ d in hotels** delegatlar mehmonxonalarga joylashdilar; **to ~ a guest in a spare room** mehmonlarni alohida xonalarga joylashtirmoq; **I was ~ d in a hotel.** Meni mehmonxonaga joylashtirib qo'ydilar (*men mehmonxonaga joylashdim*); **I can ~ him for anight in my flat.** Men unga bir kechaga uyimdan joy berishim mumkin.

3) ta'minlamoq, qarz bermoq; **to ~ smb. with a loan** bировga qarz bermoq; 4) yarashtirmoq, bartaraf qilmoq (*janjalni, nizoni*); **to ~ opinions** fikrni (*nuqtai nazarni*) kelishib olish; 5) yordam bermoq, xizmat ko'rsatmoq; **to ~ client** mijozga xizmat ko'rsatmoq.

accommodating [ə'kɔmədeitiŋ] *a* 1) xizmatga tayyor, xizmatini ayamaydigan; marhamatli, xushmuomala, nazokatli, iltifotli; 2) chiqishib ketadigan, chiqishadigan; gapga ko'nadigan, bo'sh keladigan ko'ngilchan, so'zga unaydigan; **in an ~ spirit** murosula ruhida.

accommodation [ə.kɔmə'deifən] *n* 1) bino, turarjoy, boshpana, faqat tunash uchun joy; **~ with every convenience** barcha qulayliklarga ega bo'lgan turarjoy; **for your ~** sizga qulay bo'lishi uchun; 2) joy, makon, boshpana, yetimxona, panogoh, bekinadigan joy; **hotel ~** mehmonxonadagi xona; 3) *harb.* harbiy qismni joylashtirish; **There's a good ~ for the workers near the factory.** Zavodning yaqinida ishchilar uchun yaxshi uylar qurildi. **I hope to find ~ in a hotel.** Mehmonxonadan joy olaman deb umid qilaman; **The hotel has ~ for 300 guests.** Mehmonxonada 300 kishi joylashishi mumkin; **~ is expensive here.** Bu yerda turarjoy qimmat; 4) uyg'unlashtirish, moslashtirish, muvofiqlashtirish, uyg'unlashish, moslashish, muvofiqlash; 5) kelishish, rozilik olish.

accommodation-ladder [ə.kɔmə'deifən'lədə] *n* *deng.* pillapoya, olib qo'yiladigan narvon.

accommodation train [ə.kɔmə'deifən'trein] *n* mahalliy yo'lovchi poyezdi.

accompaniment [ə'kɔmpəniment] *n* 1) kuzatib borish, kuzatib qo'yish,

ergashib borish; 2) *mus.* joʻr boʻlish.

accompany [əˈkʌmpəni] v 1) hamroh boʻlmoq, yoʻldosh boʻlmoq, kuzatib qoʻymoq, ergashib bormoq, yoʻldosh; 2) *musiq.* joʻr boʻlmoq.

accomplice [əˈkɒmplis] n tili bir, sherik, qatnashgan, aralashgan, ishtirok etgan (*jinoyatda*).

accomplish [əˈkɒmplif] v 1) bajarmoq, koʻrsatmoq, ado etmoq, yetib kelmoq, qozonmoq, erishmoq, oxiriga yetkazmoq, tugatmoq, maqsadiga yetmoq; **How did you ~ this?** Siz buni qanday bajardingiz? to ~ a task topshiriqni bajarmoq; to ~ a promise vaʼdaga vafo qilmoq; to ~ a feat jasorat koʻrsatmoq; **He ~ ed in a week what others do in a month.** Boshqalar bir oyda bajaradigan ishni u bir haftada bajardi.; **He ~ ed his object.** U oʻz maqsadiga erishdi; 2) mukammallashtirish, bekam-koʻst qilmoq; 3) ishini pishiq qilmoq, koʻzlagan maqsadiga toʻliq erishmoq.

accomplished [əˈkɒmplifɪt] a 1) qilingan, bajarilgan, tugatilgan, oxiriga yetkazilgan, tamom qilingan; ~ fact boʻlganligi toʻgʻrisidagi dalil; 2) bitkazilgan, qilib boʻlingan; ~ violonist eng yaxshi, juda yaxshi skripkachi; 3) yaxshi maʼlumotga ega boʻlgan; tarbiyalangan, odobli, madaniyatli; 4) izlanuvchan (*xarakter toʻgʻrisida*).

accomplishment [əˈkɒmplifmənt] n 1) bajarish, yutuq, ado etish, oxiriga yetkazish, tugatish; 2) yetish, yetishish, erishish, yutuq, muvaffaqiyat; 3) *pl* maʼlumotli, bilimli, oʻqimishli odam.

accord I [əˈkɔːd] n 1) rozilik, unash, yakkilik; **with one** ~ bir ovozdan, yakkilik bilan, birdamlik bilan; **of its own** ~ oʻzidan-oʻzi; **of one's own** ~ oʻz xohishi bilan; **with**

one~ bir ovozdan (*yakkilik bilan*); **The students of their own** ~ **contributed to the fund for the victims of the fire.** Yongʻindan zarar koʻrganlar jamgʻarmasiga talabalar oʻz xohishlari bilan pul yigʻdilar; **The problem won't go away of it's own** ~ muammo oʻz-oʻzidan yechilmaydi; 2) kelishish, bitishish; **to bring into** ~ moslashtirmoq; 3) muvofiqlik, loyqlik, munosiblik, moslik, uygʻunlik; 4) *mus.* akkord (*muzikada turli balandlikda boʻlgan bir necha (eng kami uch) tovushning moslashib kelishi*), sozlik, ohangdoshlik, ohangdosh (*soʻz*), tovushlar; **one's own** ~ ixtiyoriy, koʻngilli; **off it's own** ~ oʻziboʻlarchilik.

accord II [əˈkɔːd] v 1) kelishmoq, murosa qilmoq, muvofiq boʻlmoq, loyiq boʻlmoq, munosib boʻlmoq, mos kelmoq, moslashtirmoq; 2) bermoq, topshirmoq, taqdim qilmoq, oʻz erkiga qoʻymoq, oʻz ixtiyoriga qoʻyib bermoq; **to ~ hearty welcome** chin yurakdan qabul qilmoq.

accordance [əˈkɔːdəns] n muvofiqlik, moslik, mos kelish, munosiblik, loyqlik, rozilik, unash, iʼjrolik, yakkilik; **in ~ with smth.** nʼinagadir moslashish, nimagadir rozi oʻlish.

accordant [əˈkɔːdənt] a 1) rozi, koʻngan, muvofiq, soz, ohangdosh; 2) tegishli, muvofiq, loyiq, munosib.

according I [əˈkɔːdɪŋ] *prep.* binoan, koʻra.

according II [əˈkɔːdɪŋ] *adv* shunday qilib, shuning uchun ham; ~ **as** (*cj -dek ishlatiladi*) tegishlicha, muvofiq, ravishda, yarasha, ...ga qarab, salomga qarab alik; **You will be paid ~ as you work.** Ishingizga qarab pul toʻlanadi; ~ **to** (*prep* ...ga oʻxshab ishlatiladi) a) ...ga qarab, ...dan; **He came ~ to his promise.**

U va'dasiga binoan o'z vaqtida yetib keldi; b) gapiga qaraganda, so'zi bo'yicha, aytishiga qaraganda.

accordingly [ə'ko:diŋli] *adv*
1) munosib, loyiq, muvofiq, yarasha, -ga binoan; 2) shunday qilib; demak, binobarin, shuning uchun, shu sababli.

accordion [ə'ko:dʒən] *n* akkordeon, garmon.

accost I [ə'kɒst] salomlashish, murojaat qilish.

accost II [ə'kɒst] salomlashmoq, murojaat qilmoq, kimgadir yopishmoq (*asosan, fohishalar to'g'risida*).

accouchement [ə'ku:ʃma:ŋ] *fr. n* tug'ish, ko'z yorish.

accoucheur [.æku:ʃə] *fr. n* doya.

accoucheuse [.æku:ʃə:z] *fr. n* doya, akusher (*ayol*).

account I [ə'kaunt] *n* 1) hisob raqam, to'lovnoma, hisob-kitob, hisoblash, hisobot, to'lash; **bank** ~ bankdagi hisob raqam; ~ **current** hozirgi hisob raqam; **joint** ~ umumiy hisob; **grocer's** ~ baqqol to'lovnomasi, baqqoldan olingan to'lovnoma; ~ **rendered** to'lash uchun (*takror*) taqdim etilgan to'lovnoma; **on smbs.** ~ kimningdir hisobiga, kimningdir hisob raqamida (*bankda*); **to pay (to settle) an** ~ to'lovnoma bo'yicha to'lash, to'lamoq; **to keep ~ of smth.** *buxg.* biror narsaning hisobini yuritmoq; **to adjust ~ s** *buxg.* daftarlarni tartibga keltirmoq; **to cast ~ s** hisob-kitob qilmoq; 2) hisobot, axborot, axborot berish, bayon qilish; **to give (to render, to send in) an** ~ hisobot bermoq, hisobot taqdim qilmoq; **to call (to bring) to** ~ hisobot (*tushuntirish*) talab qilmoq; **to give an ~ of smth.** biror narsa to'g'risida hisobot bermoq; **to give an ~ of one's absence** yo'q bo'lganligi sababini tushuntirmoq; 3) fikr, baho; **accuding**

by all ~s, by all ~s umumiy fikrga ko'ra, hamma gapirishicha; 4) sabab, asos; **on this ~** shu sababli, shunga ko'ra; **on what ~?** nima uchun? nima sababli?; **not on any ~, on no ~** hech qachon; **on ~ of** tufayli, oqibatida, sababli; **on the public ~** jamiyat manfaatlariga; 5) ahamiyat, ahamiyatlilik, muhimlik; **of good (much, high) ~** qimmatga (*ahamiyatga*) ega bo'lgan, obro' qozongan; **of small ~** ahamiyatsiz, hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagan; 6) foyda, manfaat; **to find one's ~ in smth.** biror narsadan o'z manfaati yo'lida foydalanmoq; **to lay (one's) ~ s for (on, with) smth.** biror narsaga umid qilmoq, biror narsa ilinjida bo'lmoq; **the great ~** qiyomat kuni; **to take into ~ e'tiborga** olmoq; **to be called to one's ~s, to go to one's ~, amer. to hand in one's ~ own** tavakkal qilib, butun mas'uliyatni o'z bo'yiga olib.

account II [ə'kaunt] *v* 1) tushuntirish; **to ~ for one's absence (one's being late)** o'zining yo'qligini sababini tushuntirmoq; **I cannot ~ for this behaviour.** Uning xatti-harakatini izohlay olmayman; 2) hisoblamoq, tan olmoq; **to ~ smth. a merit** biror narsani fazilat deb hisoblamoq; **I ~ him a hero.** Men sizni qahramon deb hisoblayman; **He was ~ ed to be guilty.** Uni gunohkor deb topishdi.; **He was much ~ ed.** Uni juda yuqori baholashardi.; 3) (**for**) hisobot bermoq, javob bermoq, javobgar bo'lmoq; **He ~ ed for the money.** U olingan pul uchun hisobot berdi.; **He will ~ for** javob beradi.

accountability [ə'kauntə'biliti] *n*
1) mas'uliyat, javobgarlik; 2) hisobdor, hisobot beruvchi, tobe.

accountable [ə'kauntəbl] *a*
1) ma'suliyatli, javobgar, hisobot

beruvchi (**to** - *kimgadir*; **for** - *nima uchundir*); **to be** ~ **for one's** actions o'z qilmishiga javob bermoq; **to be** ~ **to smb. for themoney one spends** sarflangan pullar uchun kimningdir oldida javob bermoq (*kimgadir hisobot bermoq*); **I will be held** ~ **for this**. Buning uchun javob berishimga to'g'ri keladi.; **I am** ~ **to the director for the work of the department**. Bo'limning ishi to'g'risida direktorga hisobot berishim kerak.; 2) kafolat beruvchi, kafil, javobgarlikni o'z bo'yniga olgan; 3) tushuntirib bo'ladigan, izohlab bo'ladigan, sharhlab bo'ladigan.

accountancy [ə'kauntənsi] *n* buxgalterlik ishi, hisobchilik; **He has gone in for** ~. U hisobchi bo'ldi.

accountant [ə'kauntənt] *n* 1) hisobchi, buxgalter; **My friend's farther is an** ~. Do'stimning otasi hisobchi bo'lib ishlaydi.; 2) *yur.* javobgar; ~ **office** moliya bo'limi, buxgalteriya.

accountant - general [ə'kauntənt dʒ enərəl] *n* bosh hisobchi..

accounting [ə'kauntɪŋ] *n* 1) buxgalterlik, hisobchilik ishi; 2) buxgalterlik daftarlarni yuritish; ~ **cost** kalkulyatsiya.

accoutre [ə'ku:tə] *v* kiyintirmoq, kiygizmoq, jihozlamoq, shaylamoq, kerakli yaroq bilan ta'minlamoq, kiyim-kechak bilan ta'minlamoq.

accoutrements [ə'ku:təmənts] *n* *pl* *harb.* (*shaxsiy*) anjom (*asosan charmdan qilingan*)

accredit [ə'kredit] *v* 1) vakolat bermoq, vakil qilmoq, vakil qilib belgilamoq, vakil qilib yuborilmoq; chet davlatga vakil qilib tayinlamoq; **He was** ~ **ed to the chairman**. Unga rais bilan muzokara olib borish vakolati buyurilgan; 2) nisbat bermoq,

mansub deb bilmoq (**to, with**) **He was** ~ **ed with this poem, this poem was** ~ **ed to him**. Bu she'rni u yozgan deyishadi; 3) *ishonmoq*; **I** ~ **ed his tale**. Uning afsonasiga ishonдим; 4) sifatini kafolatlamoq.

accredited [ə'kredit] *a* 1) vakil qilib tayinlangan, vakil qilib yuborilgan, rasmiy vakolatga ega bo'lgan; 2) hamma qabul qilgan; rasm bo'lib qolgan; ~ **milk** tekshirilgan sut.

accrete I [ə'kri:t] *a* *bot.* tutashib o'sgan.

accrete II [ə'kri:t] *v* 1) bitib ketmoq; 2) o't bosib ketmoq, jun bosib ketmoq, o'sgan narsa ichida qolmoq.

accretion [ə'kri:fən] *n* 1) o'sish, ortish, ko'payish, ulab ko'paytirish, ulab uzaytirish, payvand qilish; ~ **of power** hokimiyatning kuchayishi; ~ **of territory** hududni kengaytirish; 2) *biol.* tabiatan o'sish.

accrue [ə'kru:] *v* 1) ko'paymoq, oshmoq, o'smoq, kengaymoq, kattaashmoq, to'planib qolmoq, jamg'arilmoq; ~ **d interest** ko'paygan foizlar; 2) (**to**) nasib bo'lmoq, nasibasi qo'shilmoq; kelib chiqmoq, sodir bo'lmoq; 3) **to** ~ **a right** *yur.* biror huquqqa ega bo'lmoq.

accumulate [ə'kju:mjuleit] *v* 1) jamg'armoq, yig'moq, to'plamoq, ortirmoq, bir joyga yig'ib g'aramlamoq; **to** ~ **knowledge** bilimini oshirmoq; **to** ~ **a mass of facts** ko'p miqdorda ashyoviy dalillar to'plamoq.

accumulation [ə'kju:mju'leifən] *n* 1) jamg'arma, to'plangan narsa; jamg'arish, to'plash, yig'ish; ~ **of power** kuch to'plash; ~ **of scientific data** ilmiy ma'lumotlar toplash; 2) jamlash, yig'im terim; **primitive** ~ *iqt. siyos.* boshlang'ich jamg'arma; 3) to'plash, yig'ilish, yig'ilib qolgan narsa, to'da;

omma, juda ko'p, ko'pgina, bir talay, bir to'da, talaygina, ancha.

accumulative [ə'kju:mjələtiv] *a*
1) jamg'arilgan, to'plangan; ~ **formation** 2) *geol.* to'plangan hosilalar.

accumulator [ə'kju:mjələitə] *n*
1) manfaatparast odam, tamagir;
2) *tex.* akkumulyator; 3) *tex.* yig'adigan asbob.

accuracy [ækjʊrəsi] *n* 1) aniqlik, to'g'rilik, rasolik, tayinlik, muayyanlik, chinlik, haqiqat; ~ **of fire** *harb.* merganlik, bexatolik; 2) diqqat bilan, sinchiklab, puxta; ~ **of reading** hisobotning aniqligi; **The task was executed with the greatest possible** ~. Topshiriq juda puxtalik bilan bajarilgan edi.

accurate [ækjʊrit] *a* 1) aniq, rost, tayin, muayyan, to'g'ri, chin; 2) puxta, sinchiklab, diqqat bilan; ~ **within 0,001 mm** 0,001mm aniqlik (to'g'rilik) bilan; **He is ~in his work.** U o'z ishining ustasi.; **Are your scales ~?** Sizning tarozingiz to'g'ri ko'rsatadimi? **He is always ~ in his use of word.** U doimo to'g'ri gapirishga odatlangan. 3) mergan, mo'ljalchi, mo'ljallaganini uradigan (*o'q otish to'g'risida*); 4) o'lchangan.

accurately [ækjʊritli] *adv* aniq, rosa, xuddi, xuddi o'zi.

accursed [əkə:sid] *a* 1) la'nati, 2) nafrat qo'zg'aydigan, manfur, jirkanch, qabih, xunuk, iflos, juda yomon, la'natlangan; **to be under ~ of ...** ...da ayblamoq.

accusation [ækju: 'zeiʃən] *n*
1) ayb, aybnoma, ayblash, qoralash; **to bring an ~ against smb.** kimnidir ayblamoq; 2) *yur.* ayblov xulosasi.

accusative [əkju:zətiv] *a gram.* tushum kelishigi.

accusatorial [əkju:zə'to:riəl] *a yur.* ayblashga, qoralashga oid,

ayblovchi, qoralovchi.

accusatory [əkju:zətəri] *a* fosh qiluvchi, aybini ochuvchi, sirini oshkor qiluvchi, ochib ko'rsatuvchi, ochib beruvchi.

accuse [əkju:z] *v* 1) ayblamoq, qoralamoq, ayb qo'ymoq, aybini ko'rsatmoq; **to ~ smb. of a crime** kimnidir jinoyat sodir qilganlikda ayblamoq; 2) topmoq, fosh qilmoq; **He was ~d of taking money.** Uni pul o'g'irlashda aybladilar.

accuser [əkju:zə] *n* 1) ayblovchi, qoralovchi; 2) shikoyatchi.

accustom [əkʌstəm] *v* o'rgatmoq, odatlantirmoq; **to ~ oneself to smth.** nimagadir o'rganib qolmoq; **be ~ ed** odatlanib qolmoq.

accustomed [əkʌstəmd] *a*
1) odatlangan, o'rganan, ko'nikgan, o'rgatilgan, odatlantirilgan; **He is ~ to getting up early.** U erta turishga odatlangan; 2) odatiy, oddiy; **He spoke with ~ ease.** U odatdagidek erkin gapirardi.

ace [eis] *n* 1) xol, yutuq; 2) qarta, tuz; **the ~ of trumps**; a) asosiy kuzur; b) eng asosli dalil; 3) birinchi toifali uchuvchi; mashhur sportchi; **the ~ of ~s**; 4) *so'zl.* kichkina zarrasi, zarracha, bir oz; eng yaxshi uchuvchi; **with in an ~ of** -dan qilcha, sal bo'lmasa; **He was within an ~ of telling.** Uning aytib qo'yishiga bir bahya qoldi.

acephalous [əsəfələs] *a zool.*
1) boshsiz (*mollyuskalar guruhi to'g'risida*); 2) rahbardan mahrum etilgan, boshliqsiz; 3) birinchi qatorsiz (*she'r to'g'risida*).

acerbate [əsə:bit] *v* 1) achitmoq, taxir (*tish qamashadigan*) qilmoq; 2) g'azablantirmoq, quturtirmoq, achchiqlantirmoq, jahlini chiqarmoq.

acerbity [əsə:biti] *n* 1) taxir, kakra, nordon; 2) dag'allik, qo'pollik,

qo'rslik, qattqlik.

acetate ['æsitit] *n* 1) *kim.* sirka kislotasining tuzi, atsetat; 2) atsetatli; ~ **silk** atsetatli, sun'iy ipak.

acetik [ə'si:tik] *a* sirkali; ~ **acid** uksus kislotasi.

acetify [ə'setifai] *v* *kim.* sirkaga aylantirmoq, sirkaga aylanmoq.

acetous ['æsitəs] *a* sirkali, nordon, qimizak, achchiq.

acetylene [ə'setili:n] *n* atsetilyen.

ache I [eik] *n* og'riq (*surunkali*); **to have an** ~ og'riqni boshdan kechirish; **to give on** ~ og'ritmoq.

ache II [eik] *v* og'rimoq, kasal bo'lmoq; **My head (ear, stomach, tooth)** ~ *s.* Boshim (*qulog'im, qornim, tishim*) og'riyapti; **he ~ d all over** uning hamma yeri og'rirdi.

acheless ['eiklis] *a* og'riqsiz, ozorsiz, bezor.

achievable [ə'tʃi:vəbl] *a* yetib borgan, yetib kelgan, qozongan, erishgan.

achieve [ə'tʃi:v] *v* 1) erishmoq; yetishmoq, yetib bormoq, yetib kelmoq; **to ~ one's purpose (aim, end, object, ambition)** o'z aytganiga (*maqsadiga*) erishmoq; 2) muvaffaqiyatli bajarimoq; oxiriga yetkazmoq, tugatmoq; **our plan was ~d** rejamiz muvaffaqiyatli bajarildi.

achievement [ə'tʃi:vmənt] *n* 1) yutuq, g'alabaga erishish, muvaffaqiyat; **coniderable** ~ jiddiy yutuqlar; **to be proud of one's** o'z yutug'idan faxrlanmoq; 2) bajarish, ado etish, bajarilish; 3) qahramonlik, botirlik, jasorat; **heroic** ~ *s* qahramonona ish.

achilles [ə'kili:z] *n* *grek af.* Axill.

achromatic [.ækrou'mætik] *a* rangsiz, tussiz, xira, nursiz, bo'yal-magan.

achromatism [ə'kroumætizm] *n* rangsizlik, xiralik, tussizlik.

acid I ['æsid] *a* 1) nordon, qimizak, achchiq, noxush, burishgan; ~ **looks** xomush, ta'bi xira.

acid II ['æsid] *n* 1) kislota; 2) zahar, o'tkir, o'yuvchi, zaharli, kinoyali, kinoyaomiz; 3) *kim.* kislota aralashtirilgan, kislotali, burishgan; ~ **dye** kislota aralashtirilgan bo'yoq; ~ **radical** kislotali radikal; ~ **salt** tuzli, tuz...; ~ **test** jiddiy sinov.

acidic [ə'sidik] *a* kislotali, nordon, achchiq, qimizak.

acidify [ə'sidifai] *v* oksidlash, nordon qilish, achchiqroq qilish.

acidity [ə'siditi] *n* kislotalaning va b.q. achchiqligi, nordonligi, zaharligi, o'tkirligi, o'yuvchanligi.

acidize ['æsideiz] *v* oksidlash, nordonlashtirmoq.

acidly ['æsidli] *adv* 1) achchiq, zahar, o'tkir, o'yuvchi, jahli tez chiqadigan, salga achchiqlanadigan; 2) e'tiborsiz, beparvolik bilan.

acid - proof ['æsidpru:f] *a* kislotalardosh.

acidulate [ə'sidjuleit] *a* achchiqroq qilmoq, kislota qo'shmoq.

acidulous [ə'sidjuləs] *a* 1) achchiqroq, nordonroq, achchiq, nordon, qimizak; 2) norosi, ko'p noliydigan.

ack-ack ['æk'æk] *n* 1) *harb. jarg.* zenit to'pi; 2) zenit artilleriyasi; 3) zenit artilleriyasining o'ti.

acknowledge [ək'nɒlidʒ] *v* 1) tushunmoq, tan olmoq, anglamoq, fahmlamoq, iqror bolmoq; 2) tasdiqlamoq, isbot qilmoq (*biror narsani olganlikni*); **to ~ receipt** olganlikni tasdiqlamoq; 3) minnatdorchilik bildirmoq (*biror narsa uchun*) **to ~ gifts** sovg'alar uchun; 4) *yur.* haqiqiyiligini tan olmoq; ishonchliligini tasdiqlamoq.

acknowledgement [ək'nɒlidʒmənt]

n 1) tan olish, e'tirof etish; 2) tasdiqlash, olganlik to'g'risida xabar berish (*yoki ta'ziya bildirish*); 3) ta-shakkur, minnatdor-chilik; **in ~ of smth.** biror narsa uchun minnatdor-chilik ifodasi sifatida; 4) *yur.* tasdiqlash, rasmiy bayonat.

acclinic [ə'klinik] *a* gorizontaal, nishabsiz.

acme ['ækmi] *n* (*nimaningdir*) eng yuqori nuqtasi; **the of skill** mahorat cho'qqisiga erishish.

acne ['ækni] *n* husnbuzar, g'udda (*yuзда*).

acock [ə'kɔk] *adv* 1) chakkaga qo'yib, chakkaga qo'ndirib (*bosh kiyim haqida*); 2) odobsizlik bilan.

acolyte ['ækoulaɪt] *n* 1) *cherk.* xizmatkor, diniy oyatlarni o'quvchi kishi; 2) yordamchi, ko'makchi, izdosh.

aconite ['ækənait] *n bot.* akonit, parpi (*dorivor o'simlik*).

acorn [eɪkɔ:n] *n* cho'chqa yon-g'oq.

accoustic [ə'ku:stɪk] 1) *a* akustika (*tovushga oid*); ~ **velocity** tovush tezligi; ~ **material** tovush o'tkazmaydigan material; ~ **sounder deng.** ekolot; 2) eshitish; ~ **apparatus** eshitish apparati; ~ **wave** tovush to'lqini.

accoustically [ə'ku:stɪkəli] *adv* akustika, akustika nuqtai nazaridan.

accoustician [ə'ku:stɪʃən] *n* 1) akustika bo'yicha mutaxassis; 2) eshitish apparatlari ustasi.

accoustics [ə'ku:stɪks] *n* akustika.

acquaint [ə'kweɪnt] *v* 1) tanishtirmoq, tanishish, tanishmoq; **to ~ smb. with smth.** kimnidir biror narsa bilan tanishtirmoq; **to be ~ ed** tanish bo'lmoq; 2) xabar qilmoq, xabardor qilmoq, ogohlantirmoq, bildirmoq,

darak bermoq, ma'lum qilmoq; **I have the honour to ~ you with following rasm.** Sizga quyidagilarni ma'lum qilish sharafiga muyassarman.

acquaintance [ə'kweɪntəns] *n* 1) tanishlik, oshnachilik, tanishish; 2) tanish, oshna, ma'lum, taniqli; **to make the ~ of smb.** birov bilan tanishmoq; **bowing (nodding) ~ ko'z** tanish, salom-alik qilib yurish.

acquainted [ə'kweɪntɪd] *a* 1) tanish, oshna; 2) bilimdon, tajribali, biladigan, xabardor (*biror narsadan*).

acquest ['æ'kwɛst] *n* 1) olish, egallash, ega bo'lish; 2) *yur.* sotib *yoki* in'om sifatida olingan narsa (*ammo meros sifatida emas*).

acquiesce [ˌækwi'ɛs] *v* indamay *yoki* istar-istamay rozilik bildirmoq; **He will never ~.** U hech qachon rozi bo'lmaydi; **They have ~d in his resignation.** Ular uning iste'foga chiqishiga majbur bo'ldilar.

acquiescence [ˌækwi'ɛsns] *n* indamay *yoki* istar-istamay rozi bo'lish, yon berish, tan berish, bo'sh kelish.

acquiescent [ˌækwi'n'ɛsnt] *a* indamay rozi bo'ladigan, yon beradigan, gapga ko'nadigan, bo'sh keladigan, ko'ngilchan.

acquire [ə'kwaɪə] *v* egallamoq, erishmoq, olmoq, ega bo'lmoq, qozonmoq, qo'lga kirgizmoq, bilib olmoq; **to ~ friends** do'stlar o'ttirmoq; **to ~ distination** mashhur bo'lmoq.

acquired [ə'kwaɪəd] *a* o'ziniki qilib olgan, tug'ma bo'lmagan, meros qoldirmagan.

acquirement [ə'kwaɪəmənt] *n* 1) egallash, olish, ega bo'lish, erishish, yutuq, qo'lga kirgizish, o'rganib olish, o'rganish; 2) olingan bilim, malaka oshirish.

acquisition [ˌækwi'zɪʃən] *n* olish,

ega bo'lish, egallash, hosil qilish, orttirish; **xarid**, sotib olingan narsa; **This picture is one of my resent** ~s. Bu rasm mening oxirgi xaridlarimdan biri; **second language** ~ ikkinchi tilni o'zlashtirirish.

acquisitive [ə'kwizitiv] *a* 1) manfaatparast; tamagir, yulg'ich; 2) zehni o'tkir, zehni baland, uquvli, bir narsani o'ziga tez oladigan.

acquit [ə'kwit] *v* 1) (of) oqlamoq; **He was ~ ted of the crime.** U jinoyatda aybdor emas deb topildi; 2) (of from) ozod qilmoq (*majburiyat, qarz va shu kabilardan*); 3) to'lamoq (*qarzni*); **to ~ evil for evil** yomonlikka yomonlik bilan javob qaytarmoq; 4) to ~ oneself o'zini tutmoq.

acquittal [ə'kwitl] *n* 1) yur. aybsiz topish, to'g'ri deb topish, oqlab hukm chiqarish; 2) bajarish, ustidan chiqish (*majburiyat, qarz va shu kabilar*).

acquittance [ə'kwitəns] *n* 1) bo'shatish, xalos qilish (*vazifasidan, qarzdan*); 2) tilxat (*qarzni to'laganlik haqida*).

acre [eikə] *n* 1) akr (*Angliyada va Shimoliy Amerikada 0,4047 gektarga teng yer o'lchovi*); 2) *pl* yer. yer-suv.

acreage [eikəridʒ] *n* arklarda o'lchangan yer maydoni.

acid [ˈækrɪd] *a* 1) o'tkir, achchiq (*ta'm va b.lar*); 2) kuchli, zo'r, jiddiy, shiddatli, keskin, serjahl, dag'al, qo'pol, qo'rs (*xarakter to'g'risida*); 3) jahlni chiqaradigan, kinoyali.

acridity [ˌækrɪˈdɪti] *n* 1) o'tkirlilik, keskinlik (*taom, ichimlik*); 2) dag'al, qo'pol (*xatti-harakat*).

acrimonious [ˌækrɪˈmʊnɪəs] *a* serzarda, zahar, badjahl, zarbi tez (*xulq-atvorga oid*); achchiq, zaharli, kinoyali, pichingli, istehzoli.

acrimony [ˈækrɪməni] *n* badjahl (*xulq-atvorga oid*).

acrobat [ˈækrəbæt] *n* akrobat (*murakkab mashqlarni bajaruvchi sportchi yoki sirk artisti*).

acrobatic [ˈækrəʊˈbætɪk] *a* akrobatikaga oid.

acrobatics [ˌækrəʊˈbætɪks] *n pl* 1) akrobatika; 2) *av.* figurali uchish.

acropoleis [əˈkrɒpələɪs] *n pl* akropol, ark (*Yunonistonda*).

acropolis [əˈkrɒpəlɪs] *n (pl -ses [-siz], leis)* akropol, ark (**The artikli bilan ishlatiladi**).

across I [əmˈkrɒs] *adv* 1) ko'ndalang, eniga; **a line drawn ~ ko'ndalangiga (eniga)** chizilgan chiziq; **the river is more than a mile.** Daryoning kengligi bir mildan ortiq; 2) u tomonga-bu tomonga; **When did he come ~?** U bu tomonga qachon o'tdi? **By his time he is ~ .** U hozir o'sha yerda (o'sha tomonga); 3) birini ustiga ikkinchisini qo'yib; **with arms ~** qo'l qovushtirib.

across II [əˈkrɒs] *prep.* 1) o'rtasidan, orqali; ~ **country** mamlakatni o'rtasidan (*to'g'risiga*) kesib o'tish; 2) tashish, olib o'tish (*qayiqda, paromda*); 3) duch (*to'qnash*) kelish; **to come, to run ~** uchratmoq, to'qnash kelmoq (*tasodifan*).

act I [ækt] *n* 1) ish, xatti-harakat; ~ **of kindness** xayrli ish; ~ **of grace** iltifot, ezgulik; 2) harakat, jarayon; **unilaterol** ~ bir tomonlama harakat; ~ **of God** tabiiy ofat; ~ **s of force** kuch ishlatish bilan to'liq harakat; 3) hujjat, qonun, qaror, yechim; **constituent** ~ ta'sis hujjat; ~ **A of Parliament** parlament qarori; ~ **of the law** yuridik xujjati; 4) *teatr.* parda, saxna.

act II [ækt] *v* 1) harakat qilmoq; o'zini biror tarzda tutmoq; **to ~ immediately** kechiktirmay harakat qilmoq; **to ~ wisely** o'zini yaxshi

tutmoq; **to ~ up to one's promise** va'dada turmoq; **to ~ on (upon) advice** maslahatga muvofiq harakat qilmoq; 2) *teatr.* ijro etmoq, o'ynamoq (*rol*); o'jarlik, mug'ambirlik qilmoq; **to ~ Othello imn "Othello" "Otello"** da Otello rolini o'ynamoq; **to ~ the fool** o'zini sodda qilib ko'rsatmoq; 3) ta'sir qilmoq; **to ~ well** yaxshi ta'sir qilmoq, yordam bermoq (*dori to'g'risida*); **acids ~ an metal** kislotalar metallga ta'sir qiladi.

acting I ['æktɪŋ] *a* 1) vazifasini bajaruvchi; vaqtincha; ~ **manager** bajaruvchi; 2) ishlaydigan; ~ **model** ishlaydigan model.

acting II ['æktɪŋ] *a* 1) *teatr.* o'y-nash, ijro etish; 2) *pl* ishlar, xatti-harakat; 3) faol, g'ayratli faoliyat.

actinia [æk 'tɪniə] *n pl actiniae zool* aktiniya (*dengiz hayvonining bir turi*).

actinic [æk 'tɪnik] *a kim.* aktiniy (*uran ma'danida uchraydigan radioaktiv element*).

actinism ['æktɪnɪzəm] *n kim.* aktiniyga oid, aktinizm.

actinium [æk 'tɪniəm] *n* aktiniya.

action [ækʃən] *n* 1) harakat, faoliyat; **in ~** harakatdagi, ishlab turgan; **to bring into ~** harakatga keltirmoq, ishga tushirmoq; **time has come for ~** harakat qilish vaqti keldi; **physical ~** jismoniy (*fizik*) harakat; ~ **of the heart** yurak faoliyati; 2) harakat, xatti-harakat, qiliq, muomala; **noble (mean) ~** oliyjanob (qabih) xatti-harakat; **to suit the ~ to the word** so'zni ish bilan (*amalda*) tasdiqlamoq; **joint ~** hamkorlikdagi harakat; 3) ta'sir etish, ta'sir ko'rsatish; **the ~ of a drug** dorining ta'siri; 4) *yur.* da'vo, sud jarayoni, sud ishi; **amicable ~** ikkala tomon roziligi bilan qo'zg'algan sud ishi; **to bring an ~ against smb.** bironvga qarshi ish qo'zg'amoq; 5) jang,

urush, jangovar harakatlar; **to bring (to put) into ~** jangga kiritmoq; **to be killed (to fall) in ~** jangda halok bo'lmoq.

actionable ['ækʃnəbl] *a yur.* sudlov ishini qo'zg'ashga asos bo'ladigan.

activate ['æktiveɪt] *v amer.* 1) aktivlashtirmoq; reaksiyaga kirishish qobiliyatini oshirmoq; radioaktiv qilmoq; 2) *amer. harb.* qismga kiritmoq; qismni tuzmoq va butlamoq.

activated ['æktiveɪtɪd] *a* aktivlangan; ~ **carbon** aktivlangan uglerod (*ko'mir*); ~ **mine harb.** portlatgichi o'rnatilgan mina.

active ['æktiv] *a* 1) faol, serharakat; ~ **a child** serharakat bola; **to be ~ for one's age** o'z yoshi uchun faol (*tetik*); 2) amaldagi, samarali, ta'sirli, haqiqiy; ~ **help** haqiqiy yordam; 3) amaldagi ishlab turgan; ~ **laws** amalda bo'lib turgan qonunlar; ~ **remedy** tez ta'sir etuvchi vosita; 4) haqiqiy, amaldagi; ~ **army** haqiqiy xizmatdagi armiyaning shaxsiy tarkibi; 5) *gram.* aniq, haqiqiy ~ **voice** aniq daraja; 6) *mol.* foizli, foiz keltiradigan, aktivdagi; ~ **debt** foizli qarz.

activist ['æktɪvɪst] *n* 1) yuqori mehnat unumdorligiga erishayotgan ishchi; 2) faol, g'ayratli, shiddatli arbob; faol choralar tarafdori.

activity [æk 'tɪvɪti] *n* 1) faoliyat; 2) ishchanlik, faollik, serharakatlik; **time of full ~** eng faollik davri; ~ **in the market tij.** bozordagi jonlanish; 3) faoliyat, harakat (*ma'lum sohada*); ~ **classroom activities** sinf mashg'ulotlari; **literary activities** adabiy faoliyat.

actor ['æktə] *n* 1) aktyor, artist; 2) arbob.

actress ['æktɪs] *n* artist ayol, aktrisa.

actual ['æktjuəl, 'æktʃuəl] *a* 1) haqiqiy, asl, bor narsa, amaliy; **in ~**

fact haqiqatda; ~ **speed** haqiqiy tezlik; 2) hozirgi, shu kundagi, zamonaviy, dolzarb, joriy; **posiyon of affairs** ~ **state of things** ishlarning hozirgi ahvoli.

actuality [ˌæktʃʊˈæliːti] *n* 1) haqiqat, reallik; 2) shart-sharoit, dalil-isbotlar; ~ **film** hujjatli film.

actualize [ˌæktʃʊəlaɪz] *v* 1) bajar-moq, amalga oshirmoq, yuzaga chiqazmoq; 2) haqqoniy qilib (*amaliy*) bayon qilmoq.

actually [ˌæktʃʊəli] *adv* 1) dalil-isbotga asoslangan, haqiqatda, aslida; **Do you ~ mean it?** Haqiqatda ham shuni nazarda tutyapsizmi? 2) ayni paytda, hozir, shu kunda; **Which is the political group ~ in power?** Hozir hokimiyat tepasida qaysi siyosiy guruh turibdi?

actuate [ˌæktʃueɪt] *v* 1) harakatga kelmoq, undamoq, majbur qilmoq; 2) yel qoʻzgʻatmoq.

acuity [əˈkjuːɪti] *n* 1) oʻtkirlik, keskinlik, jiddiylik; 2) qattiq ogʻriq.

acumen [əˈkjuːmən] *n* ziyraklik, hushyorlik, oʻtkirlik, farosatlilik, idroklilik, zehnlilik.

acuminate [əˈkjuːmɪnɪt] *v* oʻtkir-lamoq, uch chiqarmoq, qayramoq.

acute [əˈkjuːt] *adv* 1) oʻtkir; ~ **angle** oʻtkir burchakli; ~ **point** oʻtkir uchli; 2) oʻtkir farosatli, sezgir; ~ **mind** oʻtkir aql; 3) kuchli, keskin ~ **pain** kuchli ogʻriq; ~ **pleasure** haqiqiy lazzat; 4) keskin, baland, qattiq (*tovush toʻgʻrisida*).

ad [æd] *n* (*advertisement soʻzining qisqartirilgan shakli*), eʼlon, reklama, bildirish, **want** ~ gazetaning talab va taklif boʻlimidagi eʼlon.

adage [ˈædɪdʒ] *n* maqol, matal, zarbulmasal, hikmatli soʻz, chuqur maʼnoli gap.

adagio [əˈdɑːdʒiəu] *n mus.* adajio.

adamant I [ˈædəmənt] *n* juda qattiq maʼdan *yoki* metall; 2) sheʼriy qatʼiylik; **will of ~**; mustahkam iroda; 3) ogʻz olmos, brilliant.

adamant II [ˈædəmənt] *a* sabotli, matonatli, qatʼiyatli; **to be ~** matonatli boʻlmoq.

adamantine I [ˌædəˈmæntain] *n* 1) *min.* adamantin; 2) *kon.* toblangan poʻlat pitrasi.

adamantine II [ˌædəˈmæntain] *a* 1) olmos xususiyatiga ega boʻlgan; juda qattiq; 2) yengilmas, bukilmas.

Adam's apple [ˌædəmzˈæpl] *n* kekirdak.

adapt [əˈdæpt] *v* 1) moslamoq, moslashtirmoq, muvofiqlashtirmoq; **to ~ plans to suit new circumstances** rejalarni yangi vaziyatga muvofiq oʻzgartirmoq; **to ~ oneself to (for)** moslashmoq; 2) moslashtirmoq, qayta ishlamoq, osonlashtirmoq (*matn, kitob va b.larni*); **to ~ book (for use in schools)** kitobni maktabda oʻqish uchun soddalashtirmoq.

adaptability [əˌdæptəˈbɪlɪti] *n* muvofiqlashtirish, uygʻunlashtirish, uygʻunlashish, moslashtirish, moslashish, muvofiqlashish.

adaptable [əˈdæptəbl] *n* osonlik bilan koʻnikadigan, tez moslashadigan, darrov muvofiqlashadigan.

adaptation [ˌædəpˈteɪʃən] *n* 1) uygʻunlashtirish, uygʻunlashish, moslashish, moslashtirish, muvofiqlashtirish; 2) qayta ishlash, oʻzgartirish.

adapter [əˈdæptə] *n* adapter, to-vush olgich.

adaptive [əˈdæptɪv] *a* moslasha-yotgan, qoʻllanilayotgan.

adawn [əˈdɔːn] *adv* tongda.

a-day [ˈeɪdeɪ] *n* 1) birinchi atom bombasi sinalgan kun; 2) atom hujumi mumkin boʻlgan kun;

3) harbiy hujum; oldindan mo'ljallangan har qanday kun.

a-day, aday ['eidei] *adv* har kuni.

a-days, adays [eideiz] *adv* kunduzi.

add [æd] *v* 1) qo'shmoq, qo'shib olmoq, orttirmoq, birlashtirmoq; 2) *mat.* qo'shmoq; **to ~ fuel (oil) to the fire** olovga yog' sepmoq, avj oldirmoq.

addenda [ə' denda] *n* ilovalar, qo'shimchalar, qo'shimcha qilish, ilova qilish (*kitob, shartnoma va b.larga*).

addendum [ə' dendəm] *n* ilova, qo'shimcha (*kitob, shartnoma va b.larga*) ilova qilish, to'ldirish.

adder ['ædə] *n* 1) qora ilon; *amer.* suv ilon; 2) hisoblash mashinasi.

addict I ['ædikt] *n* giyohvand, nashavand, bangi.

addict II ['ædikt] *v* 1) **to ~ oneself to smth.** biror narsaga berilib ketmoq; **to ~ oneself to drink** ko'p ichmoq; 2) **(to) bag'ishlamoq; to ~ one's mind to business** faqat ish to'g'risida o'ylamoq.

addiction [ə' dikʃən] *n* havas, ishtiyoq, layoqat (*nimagadir*) zararli odat, ziyon keltiradigan xislat; **~ to drink** ichkilikka berilgan.

adding machine ['ædiŋmətʃi:n] *n* hisoblash mashinasi.

addition [ə' diʃən] *n* 1) qo'shish, ko'paytirish, to'ldirish; **in ~ to it** qo'shimcha sifatida, ... dan tashqari; **~ in the margin** hoshiyadagi qaydlar; 2) *kim.* aralashma, qotishma; 3) qo'shimcha.

additional [ə' diʃən] *a* qo'shimcha, qo'shimcha qilib beriladigan, ustama; **~ charges** qo'shimcha xarajatlar.

addle ['ædl] *a* aynigan, palag'da, sasigan, kovak, achigan, bo'rsigan, ichi bo'sh, bema'ni, ma'nosiz.

addle ['ædl] *v* aynimoq (*tuxum*), sasimoq, boshni aylantiradigan, pa-

lag'da bo'lmoq, chirimoq, adashtirmoq, chalkashtirmoq, chatoq qilmoq.

addle-brained ['ædlbreind] *a*

1) kallasi bo'm-bo'sh, kallasi xoli, miyasi yo'q, ahmoq, bemiya, aqlsiz; 2) devona, majnun, jinni, ishqiboz, shaydo.

addled ['ædl] *a* buruq, burulgan, aynigan, hidlangan, sasigan, jiyib ketgan, palag'da bo'lib qolgan (*tuxum*).

addle-headed ['ædlhedid] = **addle-brained**.

addle-pated ['ædlpeitid] = **addle-brained**.

address [ə' dres] *n* 1) manzil; **to change one's ~** ko'chmoq, manzilni o'zgartirmoq; 2) murojaat, nutq; **opening ~** kirish so'zi; **formal ~** rasmiy nutq; **to give (to deliver) an ~** nutq so'zlamq; 3) uslub (*gapirish*); 4) uddaburonlik, ustalik, san'at; **to shaw great ~** ustomonlikni namoyon qilmoq.

address [ə' dres] *v* 1) yo'llamoq, yubormoq, jo'natmoq; **to ~ a letter to smb.** biror kishiga xat yollamoq; **He ~ ed me to his chief.** U meni boshlig'iga yubordi; 2) murojaat qilmoq, so'zlamq; **Were your words ~ ed to me or to him?** So'zlaring menga qaratilganmi *yoki* ungami? **to ~ a meeting** majlisda nutq so'zlamq; 3) **to ~ oneself to smth.** biror narsaga kirishmoq, biror narsaga murojaat qilmoq.

addressee [.ædre'si:] *n* adresat, manzil egasi, oluvchi (*xat va shu kabilarni*).

adduce [ə' dju:s] *v* ko'rsatmoq, keltirmoq, tanishtirmoq.

adducement [ə' dju:sənt] *a anat.* muskulni majburan chiqazmoq, mushaklarni mashqlar yordamida katta qilmoq.

adduction [ə' dʌkʃən] *n* 1) dalil

keltirish, asosni ko'rsatish, biror narsaga asoslanish; 2) muskulni yetishtirish, kattalashtirish.

adenoids ['ædmɔɪdz] *n* adenoidlar (og' izdagi shish).

adept I ['ædept] *a* xabardor, bilarmon, ma'lumotli.

adept II ['ædept] *n* bilimdon, mutaxassis, tekshiruvchi.

adequate ['ædikwɪt] *a* 1) yetarli, talabga javob beradigan, o'xshash; 2) **Two pounds a week is not ~ to support a family.** Haftasiga ikki funt oilani boqishga juda kamlik qiladi; ~ **compensation** tegishli (*muvofiq keladigan*) tovon; **Is language ~ to describe it?** Buni so'z bilan tasvirlab bo'ladimi? 2) vakolatli; **He is an ~ man for your job.** U sizning ishingiz uchun munosib kishi.

adequation [.ædi 'kweɪfən] *n* 1) tenglash, tenglashtirish; 2) ekvivalent (*bir narsaga har jihatdan tengdosh bo'lgan ikki narsa*).

adhere [əd 'hiə] *v* 1) yopishmoq, yopishib qolmoq, yopishib turmoq, osilmoq; **~ d to our shoes** loy botinkamizga yopishib qoldi; 2) (*prinsip va b.larga*) **to ~ decision** farazga rioya qilmoq, farazni bajarmoq, qattiq ushlamoq, mahkam tutmoq, sodiq bo'lib qolmoq.

adherence [əd 'hiərəns] *n* 1) sadoqat, sodiqlik; to'g'rilik, tarafdorlik, rostlik, ixlosmandlik, chinlik; ~ **to a cause** biror ishga sodiqlik; 2) qattiq rioya qilish (*qoidaga va b.larga*); ~ **to specification** texnik shartlarga qat'iy rioya qilish.

adherent I [əd 'hiərənt] *n* tarafdor, yoqlovchi, izdosh, ergashuvchi.

adherent II [əd 'hiərənt] *a* yopishqoq, yelimshak, shirali; mahkam yopishib turadigan, jips bo'lib turadigan.

adherer [əd 'hiərə] *n* ishqiboz,

ixlosmand.

adhesion [əd 'hi:ʃən] *n* 1) yopishish, yelimlab ulash; ~ **of soil** q.x. yopishqoq (*tuproq*); 2) sadoqat, sodiqlik (*prinsip va b.larga*); 3) *tex.* ulanish; 4) *tib.* ulash, tikish.

adhesive [əd 'hi:sɪv] *a* yopishqoq, shirali, yelimshak, bog'lovchi; ~ **plaster** yopishqoq tasma (*plastir*).

adhesiveness [əd 'hi:sɪvnis] *n* 1) yopishqoqlik, shiralilik; 2) *psixol.* tasavvurlarni fikran bir-biriga bog'lash qobiliyati.

ad hoc ['əd 'hɔk] *a* lot. mazkur (*yuzaga kelgan*) holatda; ~ **committee** maxsus qo'mita, ad xok qo'mitasi.

adieu [ə 'dju:] *fr. int.* xayr! Alvido!

adieu [ə 'dju:] *n* xayrlashish, xushlashish, vidolashish.

adipose ['ædɪpɔs] *n* mol yog'i.

adipose ['ædɪpɔs] *a* semiz, sermoq, yog'li, yog'bosgan.

adiposity [ədi 'pɔsɪti] *n* semirish, yog'bosish; to'lalilik, yo'g'onlik.

adit ['ædɪt] *n* 1) kirish, o'tish, kiradigan joy, yo'l, o'tish; yaqinlashtirish, yaqin keltirish; 2) *kon.* qiya kovlangan yer osti yo'li.

adjecency [ə 'dʒeɪsənsi] *n* 1) qo'shnilik; chegaradosh, yondosh; 2) *pl* tevarak-atrof.

adjacent [ə 'dʒeɪsənt] *a* yondosh, tutash, qo'shni, yonma-yon; ~ **villages** yaqin atrofdagi qishloqlar.

adjectival [.ədʒək'taɪvəl] *a* gram. sifat tarzida ishlatadigan.

adjective I ['ədʒɪktɪv] *n* gram. sifat (*so'z turkumi*).

adjective II ['ədʒɪktɪv] *a* gram. ↳ sifatga taalluqli bo'lgan, sifatga qarashli bo'lgan, sifatga xos bo'lgan, sifat xususiyatiga ega bo'lgan; 2) mustaqil bo'lmagan, nomustaqil, qaram.

adjoin [ə 'dʒɔɪn] *v* yondosh bo'lmoq, yondashmoq, yopishib turmoq,

chegaradosh bo'limoq; **the playground** ~ **a the school sport** maydonchasi maktabga tutashgan; **The two countries** ~. Bu ikki mamlakat umumiy chegaraga ega.

adjoining I [ə'dʒɔɪnɪŋ] *a* yondosh, chegaradosh, qo'shni.

adjoining II [ə'dʒɔɪnɪŋ] *a* kelib qo'shilish, yondashish, qatorga kirish, borib taqalish.

adjourn [ə'dʒɔ:n] *v* 1) kechiktirmoq, keyinga surmoq, muhlat bermoq, uzaytirmoq, muddatni cho'zmoq, keyinga surmoq, keyinga qoldirmoq; **to ~ a meeting** majlisni keyinga qoldirmoq; tanaffus e'lon qilmoq; 2) yopmoq (*majlisni, yig' ilishni*); 3) boshqa joyga o'tish, majlisni boshqa binoga ko'chirish.

adjournment [ə'dʒɔ:nmənt] *n* 1) keyinga surish, kechiktirish (*majlis va b.ni*); 2) tanaffus (*majlis va b.larda*).

adjudge [ə'dʒʌdʒ] *v* 1) hukm, qaror chiqarmoq, hukm qilmoq; **to ~ smb. (to be) guilty** birovni aybdor deb topmoq; **to ~ smb. to jail** qamoqqa hukm qilmoq; 2) **(to)** foydasiga hukm chiqarmoq.

adjudgement [ə'dʒʌdʒmənt] *n* 1) sud hukmi, qarori; hukm chiqarish; 2) foydasiga hukm chiqarish.

adjudicate [ə'dʒu:dikeɪt] *v* sud qilmoq, muhokama qilmoq, fikr yurgizmoq, qaror chiqazmoq, bir qarorga kelmoq.

adjunct [ˈædʒʌŋkt] *n* 1) qo'shimcha, ilova; qo'shimcha qilish, ilova qilish, to'ldirish (**to**); 2) *gram.* aniqlovchi; 3) yordamchi, dastyor; 4) *pl tex.* qo'shimcha detallar.

adjunct professor [ˈædʒʌŋktprəˌfəsə] *n amer.* ad'yunkt-professor.

adjuration [ædʒuəreɪʃən] *n* 1) yalib yolverish, iltijo qilish; 2) *yur.* qasam, ont; 3) ont ichqizish, qasamyod

qildirish.

adjure [ə'dʒʊə] *v* yalimmoq, o'tinmoq, iltijo qilmoq.

adjust [ə'dʒʌst] *v* 1) tartibga keltirmoq, hal qilmoq; 2) yo'lga qo'yimoq, to'g'rilamoq, sozlammoq.

adjustable [ə'dʒʌstəbl] *a* tartibga keltiradigan, moslanadigan; ~ **bookshelf** kitob javonidagi suriladigan tokcha.

adjusted [ə'dʒʌstɪd] 1) *a* ~ **fire** aniq, mo'ljalga olib otilgan o'q.

adjuster [ə'dʒʌtə] *n* 1) montajchi, yig'uvchi, sozlovchi; 2) tartibga soladigan, yo'lga soladigan (*qurilma*); 3) *tex.* tortadigan moslama, tortuvchi bolt.

adjusting [ə'dʒʌstɪŋ] *n* 1) tartibga keltiradigan, yo'lga soladigan, sozlaydigan, joylashtiradigan, aniqlaydigan; 2) yig'adigan, teradigan, to'playdigan, g'aramlaydigan.

adjustment [ə'dʒʌstmənt] *n* 1) tartibga solish; kelishish, kelishib olish; **to make ~ to ...ga** moslashish; 2) kelishtirish, tartibga solish, bahs, kelishmovchilikni hal qilish; 3) o'rnatish, yig'ish, moslash, sozlash.

adjutancy [ˈædʒʊtənsi] *n* ad'yutant unvoni, vazifasi.

adjutant [ˈædʒʊtənt] *n* ad'yutant; safdagi xizmat bo'lim boshlig'i yoki shaxsiy tarkib bo'lim boshlig'i.

adjutant-bird [ˈædʒʊtənt bɜ:d] *n* jigitdonli hind laylagi.

adjutant I [ˈædʒʊvənt] *n* yordamchi, ko'makchi, dastyor, yordamchi xo'jalik.

adjutant II [ˈædʒʊvənt] *a* yordam beruvchi, foydali.

ad-lib [ˈædˈlɪb] *a* tayyorlamadan, tayyorgarlik ko'rmasdan, tayyorgarliksiz.

adman [ˈædˈmæn] *n* reklama mutaxassisi, reklama agenti, reklama

agentligi xodimi.

admeasure [ˈædˈmeɪʒə] *v* oʻlchamoq; chegaralamoq, chegarani aniqlamoq, chegarani koʻrsatib bermoq.

administer [ədˈmɪnɪstə] *v* 1) boshqarmoq, ishlarni yuritmoq; **to smb.'s affairs** kimningdir ishini yuritmoq; **to ~ the affairs of state** davlatni boshqarish; **to ~ upon (to) a will yur.** merosni boshqarmoq (*vasiyat ijrochisi sifatida*); 2) yordam bermoq, taʼminlamoq; **to ~ relief** yordam bermoq; **to ~ safeguards** kafolatlarni amalga oshirmoq; **to ~ to smb's needs** birovning ehtiyojini qondirmoq; 3) sud qilish, odillik bilan sud qilish; qoʻllamoq; amalga oshirmoq (*taʼsir choralarini*); **to ~ punishment** jazolamoq, jazoni qoʻllamoq; **to ~ a rebuke** tanbeh bermoq; 4) tayinlamoq, qoʻllamoq, bermoq (*dori-darmon*); 5) bajarmoq, amalga oshirmoq (*marosimlarni*).

administrate [ədˈmɪnɪstreɪt] *amer.* = **administer**.

administration [ədˈmɪnɪstreɪʃən] *n* 1) boshqarish, ishlar boshqarmasi; 2) maʼmuriyat; **military ~** harbiy boshqarish; 3) hukumat; 4) vazirlik; 5) yordam koʻrsatish, taʼminlash; 6) odil sudlovni amalga oshirish; qoʻllash (*jazoni*); 7) tayinlash *yoki* qoʻllash (*dori-darmonni*); 8) bajarish, amalga oshirish (*marosimlarni*); 9) merosni boshqarish va tasarruf qilish.

administrative [ədˈmɪnɪstrətɪv] *a* maʼmuriy; boshqarmaga oid; maʼmuriy-xoʻjalik; **~ duties** maʼmuriy vazifalar; **~ unit** maʼmuriy-xoʻjalik birligi; 2) ijro etuvchi (*hokimiyat toʻgʻrisida*); 3) *harb.* front orqasidagi, mamlakat ichkarisidagi; **~ troops** ichkaridagi qismlar va boʻlimlar.

administrator [ədˈmɪnɪstreɪtə] *n* boshqaruvchi, maʼmur; maʼmuriy

mansabdor shaxs.

administratrices [ədˈmɪnɪstreɪtrɪsɪz] *n* = **administratrix**.

administratrix [ədˈmɪnɪstreɪtrɪks] *n* 1) ayol maʼmur, ayol boshqaruvchi; 2) ayol meros ijrochisi.

admirable [ədˈmaɪərəbl] *a* juda yaxshi, ajoyib, aʼlo darajada.

admiral [ˈædmərəl] *n* admiral; **~ of the Fleet amer.** **~ of the Navy** flot admirali.

admiralty [ˈædmərəlti] *n* 1) harbiy-dengiz boshqarmasi; harbiy-dengiz vazirligi (*Angliyada*); 2) admirallik unvoni.

admiration [ˌædməˈreɪʃən] *n* 1) zavq-shavq, tahsin oʻqish, xursandlik; **sincere (childlike) ~ chin** (*bolalarcha*) shodlik; **note of ~** undov belgisi; **to excite general ~** umumiy zavq-shavq uygʻotmoq; 2) zavqlanish, suqlanish mavzusi; **She was the ~ off all the young man ~.** Barcha yosh yigitlar unga (*qizga*) suqlanib qarardi.

admire [ədˈmaɪə] *v* zavqlanmoq, koʻrib huzur qilmoq, shodlanmoq; **I ~ him for his courage.** Uning mardligiga qoyil qolaman.

admirer [ədˈmaɪərə] *n* ixlosmand, havaskor, ishqiboz; **~ of music** musiqa ixlosmandi.

admissible [ədˈmɪsəbl] *a* yoʻl qoʻyiladigan, qabul qilsa boʻladigan.

admission [ədˈmɪʃən] *n* 1) kirish; **~ free** kirish pulsiz (*erkin*); **price of ~** kirish haqi; **~ to the school is by examination.** Bu maktabga imtihondan soʻng qabul qilinadi. 2) qoʻyish; 3) biror narsani toʻgʻri, haqiqiy deb tan olish; **~ of guilt** aybni tan olmoq.

admit [ədˈmɪt] *v* 1) tan olmoq, yoʻl qoʻymoq; 2) kiritmoq (*ichkariga*); 3) (*of*) imkon bermoq; 4) sigʻmoq, sigʻdirmoq (*binu toʻgʻrisida*).

admittance [ədˈmɪtəns] *n* 1) kirish,

kira olish; kirish uchun ruxsat;
2) *ed. to'ln o'tkazuvchanlik.*

admittedly [əd'mitidli] *adv* ko'pchilikning roziligi bilan, ko'pchilikning tan olishicha.

admix [əd'miks] *v* aralash-tirmoq, qo'shmoq, qorish-tirmoq.

admixture [əd'mikstʃə] *n* 1) aralash-tirish, qorish-tirish; 2) aralashma, qorishma, qotishma.

admonish [əd'məniʃ] *v* 1) ogohlantirmoq, ogohlantirib qo'y-moq; 2) ishontirmoq; 3) (of) ma'lum qilmoq.

admonishment [əd'məniʃmənt] *n* ogohlantirish, nasihat berish.

admonition [əd'mou'niʃən] *n* 1) yo'l-yo'riq ko'rsatish, ogohlantirish, maslahat berish; 2) mulohaza bildirish, tanbeh berish.

admonitory [əd'mənitəri] *a* ogohlantiradigan, ogohlantiruvchi, oldini oluvchi.

barefoot II [ˈbeəfʊt] *adv* yalang oyoq holda.

bare-headed [ˈbeəˈhedid] bosh-yalang, bosh kiyimsiz.

barelegged [ˈbeəˈlegd] *a* yalang oyoq, oyoq kiyimsiz.

barely [ˈbeəli] *adv* zoʻrgʻa, bazoʻr, arang.

barenecked [ˈbeəˈnekt] *a* yalangʻoch (*ochiq*) boyin bilan.

bareness [ˈbeənɪs] *n* ochiqlik, yopilmaganlik, berkitilmaganlik.

baresark [ˈbeəsɑ:k] = **berserker**.

bar-fly [ˈbɑ:flai] *n* soʻzl. bar (*mayxon*)ning hoziru noziri.

bargain [ˈbɑ:ɡɪn] *n* 1) savdo bitimi, kelishuvi, shartnomasi; 2) (a-) arzon narxga sotib olingan narsa; **to buy at a** ~ arzon narxga sotib olmoq ~

basement univermagning arzonlashgan mollarni sotadigan boʻlimi.

bargainer [ˈbɑ:ɡɪnə] *n* savdogar, doʻkondor.

barge [ˈbɑ:dʒ] *n* deng. barja.

barge [ˈbɑ:dʒ] *v* barjada tashimoq.

bargee [bɑːˈdʒiː] *n* barkaga oid.

barge [ˈbɑ:dʒmən] barja (*bar-ka*) jamoasi aʼzosi.

baric [ˈbɛərɪk] *a* kim. bariyga oid, bariyli, bariy.

baric [bɛərɪk] *a* barometrik, atmosfera bosimiga oid.

barium [ˈbeəriəm] *n* kim. bariy.

bark I [bɑ:k] *n* daraxt poʻstlogʻi.

bark II [bɑ:k] *v* oshlamoq, teri oshlamoq.

bark III [bɑ:k] *n* vovullash, akil-lash, uvillash, hurish.

bark VI [bɑ:k] *v* vovullamoq, uvillamoq, uvlamoq, akillamoq.

bark V [bɑ:k] *n* kema.

barkeeper [ˈbɑ:ki:pə] *n* bufetchi, bar xizmatchisi.

barken [ˈbɑ:kən] *v* oshlamoq, oshlab qoʻymoq.

barker [ˈbɑ:kə] *n* baqiroq odam, qiruvchi, eʼlonchi, chopar.

barkery [ˈbɑ:kəri] *n* teri oshlash zavodi.

barking [ˈbɑ:kɪŋ] *v* tozalamoq, shilmoq.

bark-pit [ˈbɑ:kpit] *n* teri oshlaydi-gan togʻora.

barley [ˈbɑ:li] *n* bot. arpa.

barleycorn [ˈbɑ:likɔ:n] *n* arpa doni.

barley sugar [ˈbɑ:liʃʊgə] *n* obaki, obakidandon.

barley-water [ˈbɑ:li.wɔ:tə] *n* arpa qaynatmasi.

barling [ˈbɑ:liŋ] *n* xodacha, tayoq.

barm [ˈbɑ:m] *n* achitqi (*pivoniki*).

barman [ˈbɑ:mən] *n* barmen, bufetchi.

barn [bɑ:n] *n* 1) omborxonona, ombor, xirmon, saroy; 2) depo, garaj, **car** ~ **amer.** tramvay parki.

barnacle [ˈbɑ:nəkl] *n* tikan, tikanak; tishlamasligi (*baqirmasligi*) uchun ogʻizga tiqib qoʻyiladigan latta, yoʻgʻoch.

barn-door [ˈbɑ:nˈdɔ:] *n* omborxonona darvozasi.

barnstorm [ˈbɑ:nstɔ:m] *v* saroyda tomosha koʻrsatmoq (*sayyor aktyorlar toʻgʻrisida*).

barograph [ˈbærougra:f] *n* barograf (*atmosfera bosimini oʻzi yozib tura-digan asbob*).

barometer [bɔːrɒmɪtə] *n* barometr (*atmosfera bosimini oʻlchovchi asbob*).

barometricul [bɑ:ˈrɛuˈmetrɪkəl] *a* barometr-ga, atmosfera bosimiga oid.

baron [ˈbærən] *n* baron grafdan quyi unvoni va shu unvondagi kishi.

baronage [ˈbærənɪdʒ] *n* baronlik, baron unvoni.

baroness [ˈbærənɪs] *n* baronessa (*baronning qizi yoki xotini*).

baronet [ˈbærənɪt] *n* baronet.

baronetcy [ˈbærənɪtsi] baronet unvoni.

baronial [bɔːrɒnjəl] *a* baronga oid, baronlik, baron.

barony [ˈbærəni] *n* baron mulki.
baroque [bəˈrɒk] *n* barokko.
baroscope [bærəskəʊp] *n* baroskop.
barouche [bəˈru:tʃ] *n* lando; toʻrt kishilik soyabonli arava.

barque [ba:k] = **bark III**.

barrack I [ˈbærək] *n* barak (*yengil-yelpi qurilgan yogʻoch uy*); kazarma (*harbiy qismlarda*).

barrack II [ˈbærək] *v* kazarmalarga joylashtirmoq.

barracoota [ˌbærəˈku:tə] = **barracuda**

barracuda [ˌbærəˈku:tə] *n* *zool.* dengiz choʻrtan baligʻi.

barrage [ˈbæra:ʒ] *n* toʻsiq, gʻov, toʻsib qoʻyish (*dushman yoʻlini*)

barrator [ˈbærətə] *n* gʻiybatchi, igʻvogar.

barratry [ˈbærətri] *n* tuhmat, gʻiybat, igʻvogarlik, gʻalamislik.

barrel [ˈbærəl] *n* 1) bochka; 2) (*suyuq, sochiladigan va ayrim qattiq materiallar oʻlchov birligi*).

barrel [ˈbærəl] *n* 1) bochka; 2) *tex.* silindr, baraban; 3) *stvol (miltiqniki)*.

barrel [ˈbærəl] *v* bochkalarga quy-moq, omborda saqlamoq.

barrel-head [ˈbærəlhed] *n* bochka-ning tagi (*tubi, osti*).

barrel-roll [ˈbærəlˈrəʊl] *n* bochka (*oliy pilotaj figurasi*).

barren [ˈbærən] *a* hosilsiz, unumsiz.

barren [ˈbærən] *n* boʻsh yer, hosilsiz yer.

barret [ˈbærət] *n* barret, beret.

barricade [ˈbæriˈkeɪd] *n* barrikada.

barricade [ˈbæriˈkeɪd] *v* 1) barrikada qurmoq; 2) toʻsiq, gʻov.

barrier [ˈbæriə] *n* baryer, gʻov, toʻsiq, devor.

barring [ˈba:riŋ] *tex.* ishga tushirish (*mashinani*).

barrister [ˈbærɪstə] *n* advokat.

barrow [ˈbærəʊ] *n* zambilgʻaltak.

barrow-boy [ˈbærəʊ bɔɪ] *n* koʻcha savdogari.

bartender [ˈba:təndə] *n* bufetchi, barmen.

barter [ˈba:tə] *n* ayirboshlash, ayirboshlashga asoslangan savdo.

barter [ˈba:tə] *v* ayirboshlamoq.

bartizan [ˈba:tizæn] *n* soqchilar minorasi.

barton [ˈba:tən] *n* qoʻrgʻoncha, hovli-joy.

baryta [bəˈraɪtə] *n* *kim.* bariy oksidi.

barytone [ˈbærɪtəʊn] *n* bariton (*ovoz va musiqa asbobi*).

basal [ˈbeɪsəl] *a* zaminida yotgan, asosiy, muhim.

basalt [ˈbæsə:lt] *n* *min.* bazalt.

basaltic [bəˈsɔ:ltɪk] *a* bazaltga oid, bazalt.

bascule [ˈbæskju:l] *n* (*koʻprikning*) koʻtarma fermasi yoki koʻtariladigan tomoni.

bascule-bridge [ˈbæskju:lˈbrɪdʒ] *n* koʻtarma koʻprik.

bascule-door [ˈbæskju:lˈdɔ:ɪ] *n* koʻtarma darvoza.

base I [beɪs] *a* 1) pasttekislik; 2) pastkash, yaramas.

base II [beɪs] *n* 1) bazis, asos, manba; 2) baza, chiqish punkti.

base III [beɪs] *v* asos qurmoq, asoslanmoq; **to ~ oneself (on)** oʻrnamashmoq, joylashib olmoq

baseball [ˈbeɪsˈbɔ:l] *n* *sport.* beysbol.

baseboard [ˈbeɪsˈbɔ:d] *n* plintus.

basefrequency [ˈbeɪˈfri:kwənsi] *n* *fiz.* xususiy chastota.

baseless [ˈbeɪslɪs] *a* asossiz, dalilsiz, asoslanmagan.

basely [ˈbeɪsli] *adv* razilona, vijdon-sizlarcha.

basement [ˈbeɪsmənt] *n* 1) asos,

manba; 2) eng pastki, poydevorda qo'lib ketgan qavat; 3) yerto'la; 4) zamin, poydevor.

bash I [bæʃ] *n* 1) zarba, urush; 2) *harb.* hujum.

bash II [bæʃ] *v* urmoq, qattiq zarba bermoq.

bashaw [bəʃɔ:] *n* *turk.* podshoh.

basher [ˈbæʃə] *n* *amer.* qotil, bosqinchi.

bashful [ˈbæʃf(u)l] *a* uyatchan, tortinchoq, kamtarin.

bashfulness [ˈbæʃf(u)lnɪs] *n* uyatchanlik, kamtarinlik.

basic [ˈbeɪsɪk] *a* asosiy, tub, bosh, eng muhim; **~instruction** asosiy kurs (*o'qitish prosessida*); **literacy**~ savod chiqarish manbai (*asosi*)

basicity [beɪsɪsɪti] *n* *kim.* valentlik, asosiylik.

basil [ˈbæzl] *n* *bot.* rayhon.

basilica [bəˈzɪlɪkə] *n* bazilika (*ichki qismi qator ustunlar bilan bir nechta qismga bo'lingan bino*).

basilisk [ˈbæzɪlɪsk] *n* ajdaho.

basin [ˈbeɪsn] *n* 1) tos, jom, tog'oracha; 2) havza (*daryo, dengiz*).

basinet [ˈbæsnət] *n* po'latdan qilingan dubulg'a.

basis [ˈbeɪsɪs] *n* 1) asos, zamin; 2) asosiy (*tarkibiy*) qism.

bask [ba:sk] *v* 1) isinmoq; 2) issiqdan rohatlanmoq.

basket I [ˈba:skɪt] *n* savat, korzina.

basket II [ˈba:skɪt] *v* keraksiz narsalarni savatga irg'itmoq, tashlamoq.

basketball [ˈba:skɪtbɔ:l] *n* *sport.* basketbol.

basketful [ˈba:skɪtful] *n* 1) basketbol; 2) to'la savat (*nima bilandir*).

basketry [ba:skɪtri] *n* to'qish, o'rish, to'qilgan (*savat*) buyumlar.

Basque [bæsk] *n* 1) basklar; 2) bask tili.

bas-relief [ˈbæsri.li:f] *n* barelyef.

bass [bæs] *n* okun, olabug'a (*balig*).
basset [ˈbæsɪt] *n* qatlamlarning yer sathiga chiqishi (*ko'tarilishi*).

basso [ˈbæsəu] *n* *muz.* bas (*ovoz*).

bassoon [bəˈsu:n] *n* fagot (*yog'ochdan yasalgan surnaysimon musiqa asbobi*).

bass-viol [ˈbeɪs.vaiəl] *n* violonchel, kontrabass.

bass-wood [ˈbæswud] *n* jo'ka (*lipa*) daraxti.

bast [bæst] *n* lub, tola, po'stloq (*kanop, zig'ir va sh.k. o'simliklar poyasining tolas*).

bastard [ˈbæstəd] *n* 1) nikohsiz tug'ilgan bola, haromi; 2) qalbakilik.

bastard [ˈbæstəd] *v* nikohsiz; yasama.

bastardize [ˈbæstədaɪz] *v* bolaning nikohsiz tug'ilganligini isbotlamoq.

bastardy [ˈbæstədi] *n* bolaning nikohsiz tug'ilishi.

baste [beɪst] *v* qovurish paytida qozonga yog' quymoq.

bastille [bæsˈti:l] *n* *fr* qal'a, qamoqxona.

bastinado [ˌbæstiˈneɪdɔʊ] *n* tayoqlash, kaltaklash.

bastion [ˈbæstɪən] *n* *harb.* bastion, qal'a, qo'rg'on.

bat [bæt] *n* *zool.* 1) ko'rshapalak; 2) so'yil, to'qmoq; 3) *sport.* bita (*sport o'yinlarida ishlatiladigan yog'och to'qmoqcha*); 4) qadam, yurish, tezlash; **to go ful** ~ tez yurmoq.

bat [bæt] *v* **on** tayoq (*so'yil, to'qmoq*) bilan urmoq.

batata [bæˈta:tə] *n* bata (*janub o'simligining bir turi va uning kartoshka ta'mli shirin ildiz mevasi*).

bat-blind [ˈbætblaɪnd] *a* ko'r (*odam*).

batch [bætʃ] *n* bir yo'la pishiriladigan non miqdori.

batcher [bætʃə] *n* *tex.* bunker;

ta'minlagich.

bate [beit] *v* qahr, g'azab, jahl.

batfowl ['bætfaul] *v* qushlarni yorug'lik bilan ko'zini qamashtirib tunda ovlamoq.

bath [ba:θ] *n* 1) cho'milish (*hammomda, vannada*); 2) vanna, vannaxona; 3) hammom, cho'miladigan joy.

Bathchair ['ba:θ'tʃeɪ] *n* kasallar uchun g'ildirakli kreslo.

bathe [beið] *n* 1) cho'milmoq (*den-gizda, daryoda*); 2) vannaga; 3) cho'miltirmoq, yuvmoq; yuvib ketmoq (*jarlik haqida*).

bather [beiðə] *n* cho'miluvchi.

bath-house [ba:θhaus] *n* hammom.

bathing ['beidiŋ] *n* cho'milish.

bathing-dress ['beidiŋdres] *n* cho'milish kiyimi.

bathos ['beiθɔs] *n* chuqurlik, jar.

bathrobe ['ba:θrəub] *n* cho'milish xalati.

bath-room [ba:θrum] *n* vannaxona.

bath-tub ['ba:θtʌb] *n* vanna.

barthymetry [bə'θimitri] *n* bartimetriya, katta chuqurliklarni o'lchash.

bathyscaphe [bæθiskæf] *n* batiskaf.

bathysphere [bæθisfiə] *n* batisfera.

bating [beitiŋ] *prep.* ...dan boshqa ...dan tashqari.

batiste [bæ'ti:st] *n* batist (*gazlama*).

batman I ['bætmən] *n* *harb.* navkar, chopar.

batman II ['bætmən] *n* botmon (*og'irlik o'lchovi*).

baton ['bætn] *v* politsiya (*tayog'i*) bilan urmoq.

batsman ['bætsmən] *n* to'pni urib qaytaruvchi (*kriketda va beysbolda*).

battalion [bə'tæljən] *n* *harb.* batalon.

batten [bætn] *n* 1) pol taxta, polbop taxta; 2) boqmoq, boquvga olmoq; 3) boqilmoq, semirmoq.

batter I ['bætə] *n* xamirturushsiz,

suyuq xamir.

batter II ['bætə] *v* 1) urmoq, kaltaklamoq; 2) xamir qormoq.

battered ['bætəd] *n* ko'p urilgan, ko'p ishlatiladigan.

battery ['bætəri] *n* 1) batereya, akkumulyator (*asosan avtomashinada*); 2) guruh, to'plam, mashqlar kompleksi.

battery lokomotive ['bætəri'loukə-moutiv] *n* elektrovoz.

batting ['bætiŋ] *n* vatin (*astar bilan avra orasiga qo'yiladigan mato*).

battle ['bætl] *n* urush, jang, kurashish, olishish.

battle ['bætl] *v* jang olib bormoq, kurashmoq, olishmoq, jang qilmoq.

battle-array ['bætlə'rei] *n* jangovar tartib.

battle-axe ['bætlæks] *n* jangovar bolta, alabarda.

battlecraft ['bætlkra:ft] *n* harbiy mahorat.

battle-cruiser ['bætl,kru:zə] *n* safdagi kreyser.

battle-cry ['bætlkrai] *n* jangovar shior.

battledore ['bætlɔ:ə] *n* g'o'la, o'qlog', jova.

battle-dress ['bætlɔ:dres] *n* *harb.* poxod formasi.

battle-field ['bætlfi:ld] *n* urush (*jang*) maydoni.

battle-fleet ['bætlfli:t] *n* safdagi flot.

battle-ground ['bætl'graund] *n* harbiy harakallar maydoni.

battlement ['bætlmənt] *n* dandanali devor.

battle-order ['bætl'ɔ:də] *n* *harb.* jangovar tartib.

battle-piece ['bætlpi:s] *n* urush manzaralari tasvirlangan.

battle-plane ['bætlplein] *n* *aviats.* jangovar samolyot.

battle-seasoned ['bætl'si:znd] *a*

jangda (*urushda*) chiniqqan, urushni ko'rgan.

battleship [ˈbætlɪʃɪp] *n* safdagi kema, linkor.

battle-tryed [ˈbætltraɪd] *a* jang tajribasiga ega bo'lgan, tajribali, ko'pni ko'rgan.

battle-wagon [ˈbætl ˌwæɡən] *n* safdagi kema, linkor.

battue [bæˈtu:] *n* amer. deng. qurshash, o'rash, qurshov.

batty [ˈbæti] aqldan ozgan, jinni, telha.

bauble [ˈbɔːbl] *n* o'yinchoq, ermak, qo'ng'iroq.

baubling [bɔːbliŋ] *a* arzimasi, ahamiyatsiz, behuda.

bauxite [ˈbɔːksaɪt] *n* min. boksit, alyuminiy rudasi.

bawd [bɔːd] *n* og'z qo'shmachi ayol, dalla.

bawdry [ˈbɔːdri] *n* beodob gap, behayo ibora.

bawdy [ˈbɔːdi] *a* odobdan tashqari, beadab.

bawdy-house [ˈbɔːdihaus] *n* fohishaxona.

bawl [bɔːl] *n* qichqiriq, baqiriq, chaqiriq.

bay [beɪ] *a* qo'ltiq, ko'rfaz, o'ram.

bayonet [ˈbeɪənɪt] *n* miltiq nayzasi.

bayou [ˈbaɪuː] *n* daryo deltasi tarmoqlari.

bay-salt [ˈbeɪ ˈsɔːlt] *n* dengiz yoki ko'l cho'kindi tuzi.

bay window [ˈbeɪ ˈwɪndəʊ] *n* me'mor. fonar.

bazaar [bɔːˈzɑː] *n* bozor.

bazooka [bɔːˈzuːkə] *n* amer. harb. tankka qarshi qo'llanadigan "Bazuka" reaktiv granatamyoti.

be [biː] *v* (was, been) 1) bo'lmoq, bor bo'lmoq; 2) modal fe'l sifatida *infinitive bilan kelib biror ishni rejalashtirishni (bo'lishi zarurligini)*

ham ifoda etadi; he is to ~ there now u hozir u yerda bo'lishi kerak edi; ~ **about** nima bilandir band bo'lmoq; ~ **at** rejalashtirmoq; **what would you ~ at** siz nima qilmoqchisiz; ~ **away** ishtirok etmaslik; ~ **back** qaytmoq; ~ **for** (*kimningdir yoki nimaningdir*) tarafdori bo'lmoq; ~ **in** uyda bo'lmoq; ~ **off** ketmoq; ~ **out** uyda bo'lmaslik; ~ **up** tugamoq.

beach [biːtʃ] *n* dengiz bo'yi; plyaj.

beach-comber [ˈbiːtʃ.kəʊmə] *n* qirg'oqqa uriluvchi okean to'lqini.

beach-head [ˈbiːtʃhed] *n* harb. sohildagi platsdarm (*desant tushirishda*).

beach-master [biːtʃ.maːstə] *n* harb. dengiz desantini tushirish joyi komendanti.

beacon [ˈbiːkən] *n* mayoq, mayak; yo'lchi yulduz.

beaconage [ˈbiːkənɪdʒ] mash'al va bakenlarni o'rnatish uchun yig'ilish.

bead [biːd] *n* 1) marjon, munchoq; 2) tomchi; 3) tasbeh; **-s of sweat** marjondek oqqan ter.

beaded [ˈbiːdɪd] *a* marjon bilan bezatilgan.

beadledom [ˈbiːdlɪdəm] *n* rasmiyat-chilik.

bead-roll [biːdrɔːl] *n* ro'yxat; sanab chiqish, sanoq.

beady [ˈbiːdi] *a* munchoqqa o'xshash.

beagle [ˈbiːgl] *n* kalta oyoqli tozi.

beak [biːk] *n* tumshuq (*qushlarda va ba'zi hayvonlarda*).

beaked [biːkt] *a* tumshuqli.

beker [biːkə] *n* laboratoriya stakani, menzurka.

beam [biːm] *n* nur, shu'la, yog'du.

bean [ˈbiːn] *n* loviya.

bean-feast [ˈbiːnfiːst] *n* korxonaga egsi yilda bir marta o'z xizmatchilari uchun uyushtiradigan an'anaviy tushlik.

bean-pod [ˈbi:npɒd] *n* loviya qoʻzogʻi.

bear I [beə] *n* 1) ayiq; 2) qoʻpol, tarbiyasiz odam; 3) birja chayqovchisi; **the Great (Little) B.** *astr.* Katta (kichik) Ayiq yulduzi, Yetti ogʻayni.

bear II [beə] *v* (**bore, borne**) 1) olib bormoq, koʻtarmoq; 2) tugʻmoq (**p. II. born**) **to ~ a child** bola tugʻmoq; 3) chidamoq; **to ~ away** yutib chiqmoq; **to ~ down** yengmoq, yengib chiqmoq, bartaraf qilmoq, intilmoq; **~ off** chetlashmoq; **to ~ oneself** oʻzini tutmoq, oʻzini idora qilmoq; **to ~ in mind** esda tutmoq; **to ~ witness** kafil boʻlmoq.

bearable [ˈbeərəbl] *a* bir navi, uncha yomon emas.

bear-baiting [ˈbeə.beitiŋ] *n* tozi solib ayiq ovlash.

beard [biəd] *n* soqol.

bearded [ˈbiədɪd] *a* soqolli, sersoqol.

beardless [ˈbiədlɪs] *a* soqolsiz, koʻsa.

bearer [ˈbeərə] *n* yuklarni tashuvchi.

beargarden [ˈbeə.ga:dn] *n* ayiqxonana; ayiq ovlanadigan joy.

bearing [ˈbeəriŋ] *n* olib yurmoq

bearish [ˈbeəriʃ] *a* qoʻpol, tarbiya koʻrmagan.

bearskin [ˈbeəskin] *n* ayiq terisi.

beast [bi:st] *n* hayvon, mol; **~ of burden** yuk hayvoni (*ot, eshak, xachir*); **~ of prey** yirtqich hayvon.

beastliness [ˈbi:stlinɪs] *n* yaramas ish (*xatti-harakat*), razolat.

beastly [ˈbi:stli] *a* hayvonlarga xos boʻlgan, hayvoniy.

beat [bi:t] *v* (**beat, beaten**) 1) urmoq, qoqmoq, savalamoq, kaltaklamoq, zarba bermoq; 2) urib qaytarmoq, qarshi zarba bermoq; 3) koʻpirtirmoq (*xamirni, tuxumni*); 4) urib toblamoq, bogʻlamoq (*metallni*); 5) qoqib chiqarmoq, urib chiqarmoq (*gilam va b.lardan changni*); 6) yengmoq, zoʻr

(*kuchli*) chiqmoq; 7) oʻtib ketmoq, gʻolib (*zoʻr*) chiqmoq; 8) *amer.* muttahaqlik qilmoq, firib bermoq (*qonunga va b.larga*). **that ~ s me!** tushuna olmadim, anglay olmadim; **to ~ back (off)** qaytarmoq (*zarbani, hujumni*).

beaten [ˈbi:tn] *a* magʻlub, magʻlubiyatga uchragan.

beater [ˈbi:tə] *n* urayotgan kimsa, kaltaklayotgan kishi.

beatifical [ˌbi:əˈtɪfɪkəl] *a* gʻoyat baxtli, shod-xurram.

beatify [ˈbi:ətɪfai] *v* baxtli (*quvnoq, xursand*) qilmoq.

beating [ˈbi:tiŋ] *n* urmoq, tushirmoq, tepmoq, qoqmoq.

beatitude [bi:ˈætɪtju:d] *n* baxt-saodat, rohat-farogʻat.

beau [bou] *n fr.* olifta, poʻrim.

beauteous [ˈbju:tjəs] *a* goʻzal, juda chiroyli, juda yaxshi.

beautician [bju:ˈtɪʃən] *n* kosmetolog.

beautiful [ˈbju:təfʊl] *a* chiroyli, koʻrkli, zebo, barno.

beautify [ˈbju:tɪfai] *v* bezamoq, bezatmoq, yasatmoq.

beauty [ˈbju:ti] *n* goʻzallik, chiroylilik, barnolik.

beauty parlour [ˈbju:ti.pa:lə] *n* kosmetika kabinet.

beauty-sleep [bju:ˈtɪslɪ:p] *n* kunduzgi uyqu.

beaver [ˈbi:və] *n* suv qunduzi.

becalm [biˈka:m] *v* tinchitmoq, yupatmoq, ovutmoq, taskin bermoq.

because I [biˈkɔ:z] *conj.* chunki, negaki, shuning uchunki; shunday, shunaqa, shundoq.

because II [biˈkɔ:z] *n prep.* **~ of** tufayli, sababli, natijasida; **~ of him** u tufayli; **~ of the weather** obi havо sababli.

bechamel [ˌbeɪʃaːˈmel] *n* beshamel

(*luxum va sutga un qorib tayyorlandigan qayla*).

beck [bək] *n* 1) imo-ishora; 2) jilg'a.

beekon ['bəkən] *v* bosh irg'atmoq, imo-ishora qilmoq.

becloud [bi'klaud] *v* qorong'i qilmoq, qorong'lashmoq, qoraytirmoq, noaniq qilib qo'yimoq.

become [bi'kɑm] *v* (**became, become**) b'olmoq, b'olib qolmoq; **with time and patience the leaf of the mulber becomes satin**. Sabr qilsang, g'oradan halvo bitar (*maqol*). **it was ~ cold** sovuq b'olib qoldi.

becoming [bi'kɑmiŋ] *n* *filos.* shakllanish, tashkil topish, vujudga kelish.

becoming [bi'kɑmiŋ] *a* munosib (*lo-yiq*) b'olmoq, lozim (*tegishli*) b'olmoq.
bed [bed] *n* karavot; k'orpa-to'shak, k'orpa-yostiq, yotar joy, o'rin; **to go to ~** uxlagani yotmoq.

bed [bed] *v* joy solmoq, yotqizmoq
bedabble [bi'dæbl] *v* ho'llamoq, namlamoq, ivitmoq, suv purkamoq.

bedaub [bi'dɔ:b] *v* bulg'amog, bulg'ab qo'yimoq; ustidan bo'yamoq.

bedazzle [bi'dæzl] *v* yaltirab k'o'zni olmoq.

bed-bug ['bedbʌg] *n* taxtakana, qandala.

bed-clothes ['bedklaudz] *n* *pl* choyshab.

bedding [bediŋ] *n* k'orpa-yostiq (*yotoq buyumlari*).

bedeck [bi'dek] *v* bezamoq, bezatmoq, yasatmoq.

bedevil [bi'devl] *v* gangitmoq, adashtirmoq.

bedew [bi'dju:] *v* maydalab sepmoq (*shakarob qilib sepmoq*).

bedfast ['bedfa:st] *n* *amer.* o'rnidan qimirlamay qo'yish (*kasallik*).

bedfellow ['bed.felou] *n* er, xotin; bir o'rinda yotuvchi.

bedgown [bedgaun] *n* ayollar tungi ko'yagi

bedim [bidim] *v* qorong'i qilmoq, panalamoq, tuman qoplamoq, xiralashtirmoq.

bedizen [bi'daizn] *v* chiroyli qilib yasantirmoq, kiyintirmoq.

bedlam ['bedləm] *n* jinnixonona.

bedlamite I ['bedləmait] *n* jinnixononada saqlanayotgan kishi, jinni.

bedlamite II ['bedləmait] *a* jinni, aqlan ozgan.

bedouin ['beduin] *n* ko'chmanchi lo'li.

bedpan ['bedpæn] *n* tuvak (*og'ir kasallarga tutiladigan tuvak*).

bedpost ['bedpoust] *n* karavot ustunchasi.

bedraggle [bi'drægl] *v* kir qilmoq, bulg'amog.

bedridden ['bed.ridn] *a* kasallik o'rnidan qimirlatmay qo'ygan.

bedroom ['bedru:m] *n* yotoqxona, uxlash xonasi.

bed-side table ['bedsaid.teibl] *n* tumbochka.

bed-sitting -room ['bed'sitiŋrum] *n* yotoqxona mebeli majmui.

bedsore ['bedso:] *n* yotaverishdan jonsiz b'olib qolgan a'zo.

bed-spread ['bedspred] *n* choyshab, o'ringa yopiladigan.

bedstead ['bedsted] *n* karavot (*to'shaksiz*).

bedtime ['bedtaim] *n* yotish vaqti, uxlash vaqti.

bee [bi:] *n* 1) asalari; 2) mehnatsevar odam.

beech I [bi:tʃ] *n* qoraqayin, buk daraxti.

beech II [bi:tʃ] *a* bukka oid, qoraqayinga oid.

beef I [bi:f] *n* mol go'shti.

beef II [bi:f] *v* shikoyat qilmoq, hasrat qilmoq.

beefeater [ˈbif,i:tə] *n* leyb-gvardiyachi (*ingliz saroyida*).

beefsteak [ˈbifˈsteik] *n* bifshteks.

beef tea [ˈbifˈti:] *n* quyuq qaynatma shoʻrva.

beef-witted [ˈbifˈwitid] *n* anqov; miyasi yoʻq, esi past.

beefy [ˈbi:fi] *a* goʻshti koʻp, suyagi yoʻq, sergoʻsht.

beehive [ˈbi:haiv] *n* asalari yashigi, arixona.

bee-keeper [ˈbi:,ki:pə] *n* asalarichi.

bee-line [ˈbi:lain] *n* toʻgʻri (*havogaid*) chiziq.

beelzebub [bi:(ˈ)elzibʌb] *n* shayton, iblis.

beer [biə] *n* pivo.

beerhouse [ˈbiəhaus] *n* pivoxona.

beery [ˈbiəri] *a* pivoga oid, pivo bilan beriladigan.

beestings [ˈbi:stɪnz] *n* ogʻizsut, ogʻiz suti.

bees-wax [ˈbi:zwæks] *n* mum (*asalari mumi*).

beet [bi:t] *n* lavlagi.

beetle I [ˈbi:tl] *n* qoʻngʻiz; **black** ~ qora suvarak.

beetle II [ˈbi:tl] *v* zichlamoq, shibbalamoq.

beetle-head [ˈbi:tlhed] *n* toʻnka, tentak.

beetroot [bi:tru:t] *n* lavlagi, qizilcha.

befall [biˈfɔ:l] *v* roʻy bermoq, yuz bermoq, sodir boʻlmoq.

befallen [biˈfɔ:lən] *v* boʻlmoq (*voqea (sodir) boʻlmoq*).

befell [biˈfel] *past*. **befall** *dan*.

befit [biˈfit] *v* yaratmoq, munosib (*muvofiga*) boʻlmoq.

befog [biˈfɔ:g] *v* tuman bosmoq, xiralashmoq, xiralashtirmoq.

before [biˈfɔ:] *oldin*, *avval*, *ilgari*, *barvaqt*; ~ **long** koʻp oʻtmay, tezdan.

beforehand [biˈfɔ:hænd] *oldindan*, *avvaldan*, *ilgaridan*, *barvaqt*, *oldin*; **to**

be ~ *shoshilmoq*, *shoshqaloqlik qilmoq*.

befoul [biˈfaul] *v* harom qilmoq, murdor qilmoq, bulgʻamoq.

befuddle [biˈfʌdl] *v* gangitmoq, miyasini aynitmoq, ongini zaharlammoq.

beg [beg] *v* soʻramoq, iltimos qilmoq, yalinmoq; **to** ~ **fo money** pul soʻramoq; **to** ~ **for pardon** kechirim soʻramoq.

begad [biˈgæd] *int*. Xudo haqqi.

began [biˈgæn] **begin** *dan*.

begot [biˈget] *v* 1) tugʻdirmoq, tugʻilishiga sabab boʻlmoq; 2) ishlab chiqarmoq, hosil qilmoq.

begetter [biˈgetə] *n* ota, dada, padar; dunyoga kelishga sababchi.

beggar [ˈbegə] *n* gadoy, tilanchi; qashshoq, kambagʻal, faqir.

beggar [ˈbegə] *v* xonavayron qilmoq, xarob qilmoq.

beggarly [ˈbegəli] *a* qashshoq, nochor, bechorahol, faqir; faqirona.

beggarly [ˈbegəli] *adv* gadoylarga oid, gadoylarcha.

beggary [ˈbegəri] *n* qashshoqlik, kambagʻallik, faqirlik; ojizlik, kuchsizlik, notavonlik.

begging [ˈbegin] *n* gadoychilik, gadoylik.

begin [biˈgin] *v* (**began**, **begun**) boshlab bermoq, kirishmoq (*biror narsaga*); boshlanmoq; **to** ~ **with** avvaldan, oldindan, birinchidan.

beginner [biˈginə] *n* boshlovchi (*boshlab beruvchi*).

beginning [biˈginiŋ] *n* boshi, boshlanishi, boshlanish joyi.

begird [biˈgə:d] *v* oʻrab olmoq.

begone [biˈgɔn] *int*. yoʻqol! qorangni koʻrsatma!

begrime [biˈgraɪm] *v* bulgʻamoq, kir (*iflos*) qilmoq.

begrudge [biˈgrʌdʒ] *v* havas qilmoq

beguile [bi'gail] *v* aldamoq, chalg'itmoq.

begum ['beigəm] *n* beguma (*Hindiston zodagon ayoli*).

begun [bi'gan] *begin dan*.

behalf [bi'ha:f] *n* 1) *in ~ of* uchun, deb, foydasiga, himoyasiga; 2) *on ~ (of)* (*kimningdir*) nomidan; *on ~ of his people* o'z xalqi nomidan.

behave [bi'heiv] *v* 1) o'zini tutmoq; **yourself** ! o'zingizni yaxshi tuting; 2) ishlamoq (*mashina haqida*) **his new car ~ ed wall** uning yangi mashinasi yaxshi ishladi.

behaviour [bi'heivjə] *n* axloq, xulq, xatti-harakat.

behead [bi'hed] *v* boshini olmoq; qatl qilmoq.

behemoth [bi'hi:məθ] *n* *bibl.* begemot; afsonaviy maxluq.

behest [bi'hest] *n* buyruq, farmoyish.

behind [bi'haind] keyinda (*orqada*) qolgan, kechikkan, orqasidan; **to fall ~ orqada** qolmoq; **to leave ~** qoldirib, tashlab ketmoq;

behold [bi'hould] *v* ko'rmoq, bilmok, anglamoq.

beholden [bi'həuldən] *a* qarzdor bo'lmoq, qarzdor; **to be ~ to someone for his kindness** qilgan yaxshiligi uchun birovdan minnatdor bo'lmoq.

beholder [bi'həuldə] *n* guvoh, tomoshabin, kuzatuvchi.

behoof [bi'hu:f] *n* foyda, naf, manfaat.

behoove, behove [bi'hu:v, bi'houv] *v* lozim, kerak bo'lmoq.

beige [beiz] *n* sarg'ish, och jigarrang.

being [bi:in] *n* turmush, borliq, kun kechirish; **to come into~** paydo bo'lmoq; vujudga kelmoq; **go out of yo'qolmoq; to cal!** into ~ yaratmoq, dunyoga keltirmoq; **human** ~ odam, bashariyat.

belabour [bi'leibə] *n* hayot, mavjud

bo'lish.

belated [bi'leitid] *a* kechikkan, kech, kechki.

belaud [bi'lo:d] *v* juda maqtamoq, maqtab ko'klarga ko'tarmoq.

belay [bi'lei] *v* mustahkamlamoq (*arqonni*), qo'riqlamoq.

belch [beltʃ] *n* kekiriq, o'qchish.

belcher ['beltʃə] *n* quldor, ro'mol.

beldam(e) ['beldəm] *n* jodugar, yalmog'iz, alvasti.

beleaguer [bi'li:gə] *n* o'rab olmoq, qurshab olmoq.

belfry ['belfri] *n* qo'ng'iroqxona, minora.

Belgian ['beldʒən] *a* Belgiya, Belgiyaga oid.

Belial [bi:ljal] *n* iblis, shayton, jin.

belie [bi'lai] *n* yomon gapirib birovni qoralamoq.

belief [bi'li:f] *n* ishonch, bovar.

believable [bi'li:vəbl] *a* ehtimol, haqiqatga o'xshash.

believe [bi'li:v] *v* 1) ishonmoq; 2) faraz qilmoq; **to make ~ faraz** qilmoq, ... deb o'ylamoq; **seeing is ~ ing** ko'rmoq-ishonmoqdir (*maqol*).

believer [bi'li:və] *n* ishonuvchi, e'tiqod qiluvchi.

belike [bi'laik] *adv* ehtimol, balki, aftidan.

belittle [bi'litl] *v* yalinmoq, kamaytirmoq, kamsitmoq.

bell [bel] *n* qo'ng'iroq; **to ring the ~** qo'ng'iroq chalmoq, jaranglatmoq.

bell-bottomed ['bel.bətəmd] *v* yopishtirmoq.

bell-boy ['belboi] *n* xizmatkor (*mehmonxonada*).

belle [bel] *n* go'zal ayol, nozanin, sohijjamol.

belles-lettres ['bel'letr] badiiy adabiyot.

bell-flower ['bel.flauə] *n* qo'ng'iroqgul.

bell-glass [ˈbelɡla:s] *n* shishadan yasalgan qopqoq.

bellicose [ˈbelikəʊs] *a* jangovar, qahramon.

bellicosity [beliˈkɔsiti] *n* jangovar, urushqoq.

belligerency [biˈlidʒərənsi] *n* urush holati.

belligerent I [biˈlidʒərənt] *n* urushayotgan tomon.

belligerent II [biˈlidʒərənt] *a* urush holatida boʻlgan (*turgan*).

bellman [ˈbelmən] *n* jarchi, udaychi, xabarchi.

bellow I [ˈbelou] *n* maʼrash (*hayvonlar toʻgʻrisida*).

bellow II [ˈbelou] *v* maʼramoq, oʻkirmoq.

bellows [ˈbelouz] *n* temirchi bosqoni.

bell-push [ˈbelpʊʃ] *n* qoʻngʻiroq tugmasi.

bell-ringer [ˈbel.rɪŋə] *n* qoʻngʻiroqchi, qoʻngʻiroq chaluvchi.

bell-tent [ˈbɛltent] *n* dumaloq (*aylana*) chodir.

bell-wether [ˈbel.wɛðə] *n* yetakchi, yoʻl koʻrsatuvchi, serka.

belly [ˈbeli] *n* qorin (*hayvon va hasharotlarda*)

belly-ache [ˈbeli.eɪk] *n* qorindagi ogʻriq.

belly-band [ˈbelibænd] *n* 1) dugona; 2) bandaj.

belly-button [ˈbeli.bʌtn] *n* kindik.

bellyful [ˈbeliful] *n* toʻqlik.

belly-pinched [ˈbelipintʃt] *a* ochiq-qan, qorni ochgan.

belong [biˈlɔŋ] *v* birovga qarashli boʻlmoq, mulki boʻlmoq.

belonging [biˈlɔŋɪŋ] *n* aloqa, umumiylik.

beloved I [biˈlʌvd] *n* birovning dildan sevgan kishisi.

beloved II [biˈlʌvd] *a* dildan sevil-

gan, oshiq boʻlib qolgan.

below [biˈlou] *adv* quyida, pastda; **to go ~** pastga tushmoq; **~ the mark** past, sifati past.

belt I [bɛlt] *v* belbogʻ bilan bogʻ-lamoq.

belt II [bɛlt] *n* kamar, belbogʻ, bel; **securing ~** xavfsizlik kamari.

beltane [ˈbelteɪn] *n* gulxanlar bayrami.

belted [ˈbɛltɪd] *a* belbogʻ bilan bogʻlangan.

belting [ˈbɛltɪŋ] *n* *tex.* tasmali uzatuvchi.

belt-line [ˈbɛltlaɪn] *n* metroning aylanma yoʻli.

belvedere [ˈbɛlvidiə] *n* belveder (*balandlikdagi shiypa*).

bemoan [biˈmoun] *v* aza tutib yigʻlamoq.

bemuse [biˈmju:z] *v* hayratga solmoq.

bench [bentʃ] *n* skameyka, eshak.

bencher [ˈbentʃə] *n* huquqshunolar uyushmasi aʼzosi.

bench-mark [ˈbentʃmɑ:k] *n* balandlik belgisi.

bench-show [ˈbentʃʃou] *n* hayvonlar koʻrgazmasi (*mas. itlar*)

bench-vice [ˈbentʃvaɪs] *n* *tex.* dastgoh qirrası.

bench-warrant [ˈbentʃ.wɔ:rənt] *n* *yur.* sud (*farmoyishi*) hukmi.

bend [bend] (**bent; bent**) *v* egmoq, bukmoq.

bended [ˈbɛndɪd] *a* egilgan, bukilgan.

bender [ˌbɛndə] *n* qisqich.

beneath [biˈni:θ] *prep.* ostida, pastida.

benedick, benedict [ˈbenɪdɪk, -t] *n* yangi uylangan,

benediction [ˌbenɪˈdɪkʃən] *n* duo, oq fотиha.

benedictory [ˌbenɪˈdɪktəri] *n* oq

fohla beruvchi, rozilik beruvchi.

benefaction [ˌbeniˈfækʃən] *n* muruvvat, yaxshilik.

benefactor [ˈbenifæktə] *n* muruvvat koʻrsatuvchi.

benefactress [ˈbenifæktris] *n* muruvvat koʻrsatuvchi, yaxshilik qiluvchi (*ayol*).

benefication [ˌbenifiˈkeɪʃən] *n* rudani boyitish.

benefice [ˈbenifis] *n* ruhoni unvon; pxirod (*biror cherkovning qavmlari*).

beneficence [bɪˈnefɪsəns] *n* muhtojlarga yordam, ehsan

beneficent [biˈnefɪsənt] *a* muruvvatli, marhamatli.

beneficial [ˌbeniˈfiʃəl] *a* yaxshi taʼsir qiladigan, foydali, davo boʻladigan.

benefit I [ˈbenifit] *n* 1) foyda, naf; afzallik, imtiyoz, foydali, imtiyozli; 2) yordam, nafaqa; *sick* ~ kasallik nafaqasi.

benefit II [ˈbenifit] *v* foyda keltirmoq, naf yetqazmoq.

benefit-society [ˈbenifitsəˈsaɪəti] *n* oʻzaro yordam jamiyati.

Benelux Economic Union. Benelyuks iqtisodiy uyushmasi

benevolence [biˈnevələns] *n* xayrixohlik; moyillik.

benevolent [biˈnevələnt] *a* boshqalarga yaxshilik istovchi.

Bengal [beŋˈgɔːl] *a* Bengaliya.

bengali I [beŋˈgɔːli] *n* 1) bengal, bengallik ayol; 2) bengal tili.

bengali II [beŋˈgɔːli] *a* bengal va bengaliyaliklarga oid, bengal.

benighted [biˈnaitid] *a* kechga qolgan, kechikkan.

benign [biˈnain] *a* yaxshi, rahmdil.

benignity [biˈnigniti] *n* yaxshilik, ezgulik.

Benjamin [ˈbendʒəmin] *n* koʻchma. kenja oʻgʻil, suyukli bola.

bent [bent] *n* mayl, havas.

Benthamism [ˈbentəmizm] *n* Bentam taʼlimoti, utilitarizm.

benthos [ˈbentθɔs] *n* bentos (*dengiz osti jonivorlari va oʻsimliklari*).

benumb [biˈnʌm] *v* zaiflashtirmoq, sustlashtirmoq (*hissiyotni*).

benzene [ˈbenziːn] *n* benzol.

benzine I [ˈbenziːn] *n* benzin.

benzine II [ˈbenziːn] *v* benzin bilan tozalamoq.

benzyl [ˈbenzil] *n* kim. benzil.

bequeath [biˈkwið] *v* vasiyat qilib qoldirmoq.

berate [biˈreit] *v* soʻkmoq, qargʻamoq.

Berber I [ˈbɜːbɜː] *n* barbar, barbarlar

Berber II [ˈbɜːbɜː] *a* barbarlarga oid, barbarlar.

bereave [biˈriːv] *v* *yur.* judo qilmoq, tortib olmoq.

bereavement [biˈriːvmənt] *n* ogʻir yoʻqotish.

bereft [biˈreft] *p. p.* bereave *dan*.

beret [ˈbereɪ] *n* beret.

berg [bɜːg] *n* aysberg (*suzib yuruvchi muz togʻ*).

berhyme [biˈraim] *v* sheʼr yozmoq.

beriberi [ˈberiˈberi] *n* beri-beri (*B vitamini yetishmasligi natijasidagi kasallik, avitaminoz*).

berry I [ˈberi] *n* meva, rezavor.

berry II [ˈberi] *v* meva, rezavor termiq.

berserker [bɜːˈsɜːkɜː] *a* quturgan, achchigʻi tez.

berth I [ˈbɜːθ] *n* 1) toʻxtab turish joyi (*samolyot, kema*); 2) koyka (*kemada*); 3) kayuta (*kemada*); 4) bino, turarjoy; 5) oʻrin, lavozim.

berth II [ˈbɜːθ] *v* 1) langar tashlab turmoq; 2) koyka (*uxlash uchun joy*) bermiq; 3) oʻrin, lavozim bermiq.

berth III [ˈbɜːθ] *v* taxta yotqazmoq (*qoplamoq*).

bertha [ˈbɜː θə] *n* katta toʻr yoqa.

beryl [ˈberil] *n* *min.* berill.
beryllium [ˈberɪljəm] *n* *kim.* berilliy
beseech [biˈsi:tʃ] *v* soʻramoq, iltimos qilmoq.

beseeching [biˈsi:tʃɪŋ] *a* yolvorayotgan, yalinayotgan.

beseem [biˈsi:m] *v* munosib boʻlmoq, yarashmoq.

beset [biˈset] oʻrab olmoq, qurshab olmoq.

beside [biˈsaid] *prep.* yonida, oldida, yaqinida; **to be ~ oneself with delight** shodlikdan oʻzini yoʻqotib qoʻymoq, behush qilmoq.

besides I [biˈsaidz] *adv* undan tashqari, -dan boshqa, -dan.

besides II [biˈsaidz] *prep.* tashqari, -dan boʻlak.

besiege [biˈsi:dʒ] *v* qamal qilmoq.

beslaver [biˈslævə] *v* soʻlakayini oqizib iflos qilmoq.

besmear [biˈsmiə] *v* bulgʻamoq, kir qilmoq.

besmirch [biˈsmə:tʃ] *v* bulgʻamoq, iflos qilmoq.

besom [ˈbi:zəm] *n* supurgi.

besot [biˈsɒt] *v* mast qilmoq.

besotted [biˈsɒtɪd] gangangan.

besought [biˈsɔ:t] **beseech** *dan.*

bespangle [biˈspæŋɡl] *v* tangachalar bilan qoplamoq, bezamoq.

bespatter [biˈspætə] *v* loy sachratmoq.

bespeak [biˈspi:k] *v* oldindan buyurmoq.

bespectacled [biˈspektəklɪd] *a* koʻzoynakli, koʻzoynak taqadigan.

bespoke [biˈspəʊk] **bespeak** *dan.*

bespread [biˈspred] *v* yoyib qoʻymoq.

besprinkle [biˈsprɪŋkl] *v* purkamoq, sepmoq.

best [best] *a* 1) yaxshi, yaxshiroq; 2) katta; **the ~ part** katta (yaxshi) qismi; **to do one's ~** qoʻlidan kelganicha

harakat qilmoq.

bestead [biˈsted] *v* yordam bermoq; foydali boʻlmoq.

bestgirl [ˈbestˈgɜ:l] *n* maʼshuqa.

bestial [ˈbestjəl] *a* qoramol.

bestiality [ˌbestiˈæliiti] *n* hayvoniylik, uyatsizlik.

bestir [biˈstə:] *v* undamoq, harakatga undamoq.

best man [ˈbestˈmæn] *n* kuyovjoʻra

bestow [biˈstəʊ] *v* bermoq, topshirmoq, inʼom qilmoq.

bestowal [biˈstəʊəl] *n* tortiq, sovgʻa, hadya.

bestrew [biˈstru:] *v* hamma yoqqa sochib tashlamoq.

bestriden [biˈstrɪdn] **bestride** *dan.*

bestride [biˈstrɪd] *v* minmoq, minib oʻtirmoq; **to ~ a horse** otda savlat bilan oʻtirmoq;

bestrode [biˈstrəʊd] **bestride** *dan.*

bestseller [ˈbestˈselə] *n* tez sotiladigan kitob.

bet [bet] *n* garov, bahs, garov bogʻlash; **to lose a ~** garovda yutqazmoq.

betaken [biˈteɪkən] **betake** *dan.*

beta-particle [ˈbi:təˈpa:tɪkl] *n* beta zarralar.

beta rays [ˈbi:təˈreɪz] *n* *pl* fiz. beta nurlar.

betatron [ˈbi:tətrɒn] *n* fiz. betatron (*elektronlar tezlatgichi*).

bethel [ˈbeθəl] *n* sektantlar cherkovi (*Angliyada*).

bethink [biˈθɪŋk] *v* eslamoq, esga olmoq.

betide [biˈtaɪd] *v* sodir boʻlmoq.

betimes [biˈtaɪmz] *adv* ayni paytida, oʻz vaqtida.

betoken [biˈtəʊkən] *v* anglatmoq, belgisi xizmatini oʻtamoq.

betook [biˈtʊk] **betake** *dan.*

betray [biˈtreɪ] *v* xoinlik qilmoq, xiyonat qilmoq, sotqinlik qilmoq, sotmoq; **to ~ one's country** oʻz vataniga

xiyonat qilmoq.

betrayal [bi' treɪəl] *n* xoinlik, sotqinchilik.

betrayed [bi' treɪəd] *v* sotqin, xoin.

betroth [bi' trouð] *v* nikohlamoq, nikohdan o'tkazmoq.

betrothal [bi' trouðəl] *n* unashish.

betrothed [bi' trouðd] *a* unashtirilgan.

better I ['betə] *a* yaxshiroq; **now he is** ~ hozir u o'zini yaxshi his qilyapti; **the** ~ **part** ko'pchilik; **the** ~ **half** xotin, rafiq; ~ **sort** atoqli, taniqli kishilar.

better II ['betə] *adv* yaxshi, yaxshisi, ko'proq, kattaroq; **now he speaks English** ~ **than he did last year** u hozir ingliz tilida bulturgiga nisbatan yaxshiroq gapiradi.

better III ['betə] *n* ustun, baland, yuqori; **to get the** ~ **of somebody** birovdan ustun chiqmoq, yengmoq.

betterment ['betəmənt] *n* tuzalish, tuzatish.

betting ['betɪŋ] *n* garov o'ynash.

between [bi' twi:n] *adv* orasida, o'rtasida; ~ **two houses** ikki uy o'rtasida.

bevel ['bevəl] *n* *tex.* qiyalik, yonbag'ir.

bevel-gear ['bevəlgjə] *n* konus shaklidagi tishli g'ildirak.

bevel pinion ['bevə'pɪnjən] *n* konus shaklidagi tishli (*yetakchi*) g'ildirak.

bevy ['bevi] *n* gala, to'da.

bewail [bi' weil] *v* ko'z yoshni to'kib yig'lamoq.

beware [bi' weə] *v* ehtiyot bo'lmoq.

bewilder [bi' wildə] *v* xijolat qilmoq.

bewildermen [bi' wildəmənt] *n* xijolat bo'lish.

bewitch [bi' witʃ] *v* sehrlamoq.

bewitching [bi' witʃɪŋ] *a* dilbar, jozibali sehrgarlik, jodugarlik.

bewray [bi' rei] *v* g'ayriixtiyoriy oshkor qilmoq.

bey [bei] *n* *turk.* bey.

beyond [bi' jənd] *adv* uzoqda, yiroqda; **the** ~ o'lgandan keyingi hayot.

bi- [bai-] *pref.* ikkitali; ~ **cameral** ikki palatali, ikki palatadan iborat bo'lgan.

bias I ['baɪəs] *n* qiyalik, nishablik.

bias II ['baɪəs] *v* bukilmoq, engashmoq.

bias III ['baɪəs] *adv* qiyshiq.

bib I [bib] *v* aroqxo'riqlik qilmoq.

bib II [bib] *n* 1) bolalarning oshxo'ragi; 2) fartukning ustki qismi; **best** ~ **and tucker** eng yaxshi ko'ylak.

bibb [bib] *n* jomrak.

bibber ['bibə] *n* ichkilikbozlik, aroqxo'r.

bibcock, bib-cock ['bɪkɔk] *n* jomrak, chumak.

bibelot ['biblou] *n* *fr.* mayda-chuyda bezak.

Bible ['baɪbl] *n* bibliya, tavrot (*yahudiy va xristian dinining* "muqaddas kitoblar" yig'indisi).

biblical ['biblikəl] *a* bibliyaga oid.

bibliografher [.bibli'ɔgrəfə] *n* bibliograf.

bibliographic(al) ['bibliou'græfikəl] *a* bibliografik.

bibliography [.bibli'ɔgrəfi] *n* bibliografiya.

bibliolater [.bibli'ɔlətə] *n* kitob havaskori, kitobsevar.

bibliomania [.bibli'ɔmeinjə] *n* kitobsevarlik.

bibliomaniac [.bibliou'meinɪæk] *n* kitobsevar, kitob shaydosi.

bibliophile ['bibliu'faɪl] *n* kitobsevar, biblioman.

bibliopole ['biblioupoul] *n* bukinist.

bibulous ['bibjuləs] *a* namni singdiradigan.

bicameral ['bai'kæməərəl] *a* ikki palatali (*parlamentda*).

bicarbonate [bai'ka:bənɪt] *a* kim.

bikarbonat tuz.

bicentenary [ˌbaɪsənˈti:nəri] *n* ikki yuz yillik.

bicephalous [baɪˈsefələs] *a* ikki oshli.

biceps [ˈbaɪseps] *n anat.* muskul, mushak.

bicker [ˈbɪkə] *n* oʻzaro aytishib qolmoq.

biconcave [baɪˈkɒnkeɪv] *a opt.* ikki yoqlama botiq.

biconvex [baɪˈkɒnveks] *a opt.* ikki yoqlama qabariq.

bicycle I [ˈbaɪsɪkl] *n* velosiped.

bicycle II [ˈbaɪsɪkl] *v* velosipedda yurmoq.

bid [bɪd] *n* narxini qoʻyish.

bid [bɪd] *v* narx qoʻymoq.

bicyclist [ˈbaɪsɪklist] *n* velosipedchi.

biddable [ˈbɪdəbl] *a* itoat qiladigan, gapga quloq soladigan.

bidden [ˈbɪdn] **bid II** *dan.*

bidder [ˈbɪdə] *n* xaridor, sotib oluvchi.

bidding [ˈbɪdɪŋ] *n* narxni taklif qilmoq.

biennial I [baɪˈeniəl] *n* ikki yillik oʻsimlik.

biennial II [baɪˈeniəl] *a* ikki yillik.

bier [bɪə] *n* tobut; qabr.

biff I [bɪf] *v* urmoq, qattiq zarba bermoq.

biff II [bɪf] *n* zarba, urish.

biffin [ˈbɪfɪn] *n* pechda yoki suvda pishirishga moʻljallangan toʻq-qizil olma.

bifid [ˈbaɪfɪd] *a* yorilgan, tilingan, ikkiga boʻlingan.

bifurcate I [ˈbaɪfəːkɪt] *v* ikkilanmoq, ikkiga boʻlmoq.

bifurcate II [ˈbaɪfəːkɪt] *a* ayri, qoʻshoq, ikkiga boʻlingan.

bifurcation [ˌbaɪfəːˈkeɪʃən] *n* ikkilanish, ikkiga boʻlish.

big I [bɪg] *a* katta, yirik, yaxlit.

big II [bɪg] = **bigg.**

bigamist [ˈbɪgəməst] *n* ikki xotinli kishi, ikki erli xotin.

bigamy [ˈbɪgəmi] *n* ikki xotinlilik, ikki erlilik.

Big Ben [ˈbɪgˈben] *n* Big ben (*ingliz parlamenti binosidagi soat*).

bigg [bɪg] *n* toʻrt qatorli arfa.

biggin [ˈbɪɡɪn] *n* bolalar bosh kiyimi.

bight [baɪt] *n* qoʻltiq, oʻram.

bigness [ˈbɪgnɪs] *n* oʻlcham, miqdor.

bigot [ˈbɪɡət] *n* koʻr-koʻrona ergashuvchi, jaholatparast.

bigoted [ˈbɪɡətɪd] *a* mutaassibona.

bigotry [ˈbɪɡətəri] *n* koʻr-koʻrona sodiqlik, mutaassiblik.

big time [ˈbɪɡˈtaɪm] *n* yutuq, katta muvaffaqiyat.

bigwig [ˈbɪɡwɪɡ] *n* katta odam, doʻkay, mansabdor odam.

bijouterie [bɪˈʒuːtəriː] *n fr.* zargarlik buyumlari.

bike [baɪk] *n* velosiped.

bilabial [baɪˈleɪbjəl] *a* bilabial, lablab, lablangan.

bilateral [baɪˈlætərəl] *a* ikki tomonlama.

bilberry [ˈbɪlbəri] *n bot.* chernika (*butasi va mevasi*).

bile [baɪ] *n* oʻt, safro.

bile duct [ˈbaɪldʌkt] *n* zarda (oʻt), oqib keladigan tomir.

bilker [bɪlkə] *n* muttaham, qallob.

bill [bɪl] *n* 1) hisobraqam, toʻlovnomma; 2) roʻyxat, inventar; 3) bill, qonun loyihasi.

billboard [ˈbɪlbɔːd] *n* eʻlonlar taxtasi.

bill-broker [ˈbɪlˈbrɔʊkə] *n* birja dalloli.

bill-discounter [ˈbɪldɪsˌkaʊntə] *n* diskontyor.

billet [ˈbɪlɪt] *n* gʻoʻla, yorilgan gʻoʻla

billet-doux [ˈbileiˈduː] *n fr.* ishqiynoma.

billfold [ˈbilfoʊld] *n* karmon, hamyon.

billhead [ˈbilhed] *n* hisobraqamlar uchun blank.

billiard [ˈbiljəd] *a* billiardga oid.

billiard-ball [ˈbiljədbɔːl] *n* billiard shari.

billiard-marker [ˈbiljəd,ma:kə] markyor.

billiards [ˈbiljədz] *n pl* billiard; to play ~ billiard oʻynamoq.

billingsgate [ˈbilɪŋzɡit] *n soʻkish.*

billion [ˈbiljən] *n num. card.* billion (*Angliyada*), milliard (*Amerikada*).

billionaire [ˌbiljəˈneə] *n amer.* milliarder.

billion [ˈbilən] *n* billion, sifati past oltin yoki kumush.

billot [ˈbilət] *n* oltin yoki kumush yombi.

billow I [ˈbilou] *n* katta toʻlqin.

billow II [ˈbilou] *v* toʻlqinlanmoq.

billowy [ˈbilouɪ] *a* baland koʻtarilgan, toʻlqinlangan.

bill-poster [ˈbilpəʊstə] *n* afishalarni yopishtiruvchi kishi.

billy [ˈbili] *n* tayoq, gavron.

billyboy [ˈbilibɔɪ] *n deng.* kabotaj (*yelkanli kema*).

billycock [ˈbilikək] *n* kotelok (*bosh kiyim turi*).

billy-goat [ˈbiligəʊt] *n* taka, serka.

bi-mestrial [baɪˈmestriəl] *a* ikki oy davom etadigan.

bi-monthly I [baɪˈmʌnθli] *a* ikki oyda bir marta chiqadigan.

bi-monthly II [ˈbaɪmʌnθli] *adv* ikki oyda bir marta; bir oyda ikki marta.

bi-monthly III [ˈbaɪmʌnθli] *n* ikki oyda bir marta chiqadigan jurnal.

bin I [bin] *n* ombor, bunker, rezervuar.

bin II [bin] *v* omborda saqlamoq

binary [ˈbaɪnəri] *a* ikki hissa ortiq, ikkilangan.

bind [baɪnd] *v* (**bound; bound**) 1) biriktirmoq, bogʻlamoq, birga tugmoq; 2) ustiga yuklamoq, vazifa qilib qoʻymoq; **to ~ oneself to do something** biror narsani qilishni vazifa qilib olmoq; **to ~ up** bogʻlamoq (*yarani*).

binder [ˈbaɪndə] *n* 1) muqovalovchi; 2) arqon, chizimcha yopishtiruvchi moddalar (*yelim, sement va b.*)

bindery [ˈbaɪndəri] *n* muqovalash ustaxonasi.

binding I [ˈbaɪndɪŋ] *n* muqova.

binding II [ˈbaɪndɪŋ] *a* ulaydigan, toʻqiydigan.

bindweed [ˈbaɪndwiːd] *n bot.* pechak oʻt.

bingo [bɪŋəʊ] *n* bingo (*lotoga oʻxshagan oʻyin*).

binoculars [bɪˈnɒkjʊləz] *n pl* binokl, durbin.

binominal [ˈbaɪˈnɒmɪnəl] *a zool.* bot. ikki nomli.

biochemist [ˈbaɪəʊˈkemɪst] *n* biokimyoviy.

biochemistry [ˈbaɪəʊˈkemɪstri] *n* biokimyoviy.

biography [baɪˈɒgrəfi] *n* tarjimai hol.

biological [ˌbaɪəʊˈlɒdʒɪkəl] *a* biologik, biologiyaga oid.

biologist [baɪˈɒlədʒɪst] *n* biologiya mutaxassisi, biolog.

biology [baɪˈɒlədʒi] *n* biologiya.

bipartisan [baɪˈpaːtiˈzæn] *a* ikki partiyalik.

bipartite [baɪˈpaːtaɪt] *a* 1) ikki tomonlama (*shartnoma va b.*); 2) ikki qismdan iborat boʻlgan.

biped [ˈbaɪped] *n* ikki oyoqli hayvon.

bipedal [ˈbaɪ.pedl] *a* ikki oyoqli.

birch [bɜːtʃ] *n bot.* qayin.

birchen [bɜːrtʃən] *a* qayindan qilingan.

bird [bə:d] *n* qush, parranda.
bird-cage [ˈbɜːdkeɪdʒ] *n* qafas
(*qushlar uchun*)
bird-call [ˈbɜːdkɔːl] *n* qushlarning ovozi.
birth [bɜːθ] *n* tugʻilish, dunyoga kelish; **to give ~ (to)** tugʻmoq.
birthday [ˈbɜːθ daɪ] *n* tugʻilgan kun; **present** tugʻilgan kuniga atab beriladigan sovgʻa.
birth-mark [ˈbɜːθmɑːk] *n* hol.
birth-place [ˈbɜːθpleɪs] *n* tugʻilgan joy, oʻz vatani.
biscuit [ˈbɪskɪt] *n* suxari, quritilgan non.
bishop [ˈbɪʃɒp] *n* shaxm. fil.
bissextile [biˈseksɪtəl] *n* kabisa yili; **the ~ day** 29 fevral.
bit I [bɪt] *n* kichik boʻlak, burda; **a ~** ozgina.
bit II [bɪt] *n* 1) parma; 2) kalitning tili;
bit III [bɪt] *v* jilovlamoq.
bitch [bɪtʃ] *n* urgʻochi it; ~ **wolf** urgʻochi boʻri.
bite [baɪt] *n* tishlash, qopish; chaqish; **to ~ the dust (yhe ground, the sand)** yer tishlamoq, oʻlmoq.
biter [baɪtə] *n* tishlovchi; tishlaydigan hayvon.
biting [ˈbaɪtɪŋ] *a* oʻtkir, achituvchi.
bitten [bɪtn] **bite** *adv* *feʻlining p. II shakli.*
bitter [bɪtə] *a* achchiq; achchiqlangan, oʻtkir.
bitterly [ˈbɪtəli] *adv* achchiq, achitib, shiddatli.
bitterness [ˈbɪtənɪs] *n* achchqlik, taxirlik.
black I [blæk] *a* qora; ~ **and white** oq-qora.
black II [blæk] *n* qora rang.
black III [blæk] *v* qora boʻyoq bilan boʻyamoq.
blackamoor [ˈblækəmuə] *n* qora

tanli kishi, negr.
black and white [ˈblækəndˈwaɪt] *n* pero bilan chizilgan rasm; oq-qora film.
black ball [ˈblækboːl] *n* qora shar (*ovozga qoʻyishda*).
black-beetle [ˈblækˈbiːtl] *n* suvarak.
black berry [ˈblækberi] *n* maymunjon.
blackbird [ˈblækbəːd] *n* zool. qora shaqshaq.
black-board [ˈblækboːd] *n* sinf doskasi.
black-cap [ˈblækkæp] *n* 1) oʻlim jazosi hukmini oʻqiyotganda sudyalarning kiyadigan bosh kiyim; 2) qora malina (*mevasi va oʻsimligi*).
blackcap [ˈblækkæp] *n* qora boshli moyqut (*qush*).
black-chalk [ˈblæktʃɔːk] *n* grafit, qora mineral; qalam ichidagi, qattiq siyoh.
black-cock [ˈblækkɔːk] *n* qur, qarqur (*qush*).
black-currant [ˈblæk ˈkʌrənt] *n* qora qoragʻat (*smorodina*).
Black-Deearth [ˈblækˈdeθ] *n* "Qora Oʻlim" (*Yevropadagi oʻlat 1347-49 yillar*).
black draught [ˈblækˈdraːft] *n* suzgi.
black-earth [ˈblækˈəːθ] *n* qora tuproq.
black-face [ˈblækfeɪs] *n* amer. negrrolini oʻynaydigan aktyor.
black-friar [ˈblækˈfraɪə] *n* dominikan (*rohib*).
blackguard [ˈblæɡɑːd] *a* ablahona yurish-turish.
blackguardism [ˈblæɡɑːdɪzəm] *n* yomon axloq-odob.
blackguardly [ˈblækgɑːdli] *adv* ablahona, yaramas, yomon, iflos.
black-head [ˈblækhed] *n* husnbuzar, suzlogʻich.

black-hearted [ˈblækˈhɑ:tɪd] *a* yomon, yaramas, beadab, uyatsiz, badjahl.

blackening [ˈblækɪŋ] *n* vaksa, etikmoy.

blackening-out [ˈblækɪŋˈaʊt] *n* matnni chizib tashlash (*senzor tomonidan*).

blackish [ˈblækɪʃ] *a* qoraygan, qop-qora.

black jack [ˈblækˈdʒæk] *n* 1) pivo idishi; 2) qaroqchilar bayrogʻi; 3) gavron, tayoq.

black-jack [ˈblækdʒæk] *v amer.* gavron bilan urmoq, tayoqlamoq.

black-lead [ˈblækˈled] *n* grafit.

blackeg [ˈblækleg] shtreykbrexer (*ishchilar ish tashlagan vaqtda ularga qoʻshilmay ishchilar manfaatiga xiyonat qiladigan ishchi*).

black-letter [ˈblækˈletə] *n* qadimiy ingliz gotik shrifti.

black-list [ˈblæklist] *n* qora roʻyxat.

black-list [ˈblæklist] *v* qora roʻyxatga kiritmoq.

black-listing [ˈblækˌlistɪŋ] *n* qora roʻyxatga kiritilgan shaxs *yoki* buyum.

blackmail [ˈblækmeɪl] *n* shantaj, doʻq bilan tovlash.

blackmail [ˈblækmeɪl] *v* shantaj qilmoq, qoʻrqitib (*doʻq bilan*) tovlamachilik qilmoq.

blackmailer [ˈblækˌmeɪlə] *n* tovlamachi, shantajchi.

black market [ˈblækˈmɑ:kɪt] *n* qora bozor.

black marketeer [ˈblækˌmɑ:kɪˈtiə] *n* qora bozorda savdo qiluvchi, chay-qovchi.

blackness [ˈblæknis] *n* qoralik, qorongʻilik, qorongʻi, mudhish.

black-out I [ˈblækaut] *pl nteatr.* zaldagi va sahnadagi chiroqlarni oʻchirish.

black-out II [ˈblækaut] *a* qorongʻilashgan.

Black Power [ˈblækˈpaʊə] *n amer.*

“Qoralar hokimiyati” (*AQSHdagi qoratanlilarni mamlakatning siyosiy va madaniy hayotida koʻproq qatnashish huquqini talab qiluvchi qoratanlilar harakati*).

Black Sea Fisheries Commission (BSFC). Qora dengiz baliqchilik komissiyasi.

black-shirt [ˈblækʃə:t] *n* fashist; qora koʻylakli.

blacksmith [ˈblækmiθ] *n* taqachi, temirchi.

blackthorn [ˈblækθɔ:n] *n bot.* tikanli olxoʻri.

bladder [ˈblædə] *n anat.* pufak, koʻpik.

blade [bleɪd] *n* tigʻ, dam, qirra.

blague [bla:g] *n fr.* maqtanchoqlik, maqtanishlik.

blame I [bleɪm] *n* qoralash, ayblash, koyish, tanbeh, taʼna, oʻpkalash.

blame II [bleɪm] *v* qoralamoq, koyimoq, ayblamoq, yomonlamoq.

blameful [ˈbleɪmfʊl] *a* = **blame worthy**.

blameless [ˈbleɪmlɪs] *a* beayb, benuqson, kam-koʻstsiz.

blameworthy [ˈbleɪmˌwɜ:ði] *a* arziydigan.

blanch [bla:ntʃ] *v* oqlamoq, oqartirmoq.

bland [blænd] *a* odobli, xushmuomala, xushxulq, xushfeʼl.

blandish [ˈblændɪʃ] *v* yalinib koʻndirmoq, oʻtinib soʻrab rozi qilmoq, unatmoq.

blandly [ˈblændli] *adv* odobli, xushmuomala, xushxulq, xushfeʼl.

blank I [blæŋk] *a* boʻsh, toza, yozilmagan (*qogʻoz, toʻgʻrisida*).

blank II [blæŋk] *n* 1) boʻsh joy (*qogʻozda*); 2) blank.

blank III [blæŋk] *v* 1) yomon (*qoʻpol*) soʻz oʻrniga tire qoʻymoq; boʻsh joy; 2) quruq hisobda yutmoq.

blanket [blæŋkit] *n* jun adyol.
blanket [blæhkit] *a* umumiy, to'la, keng qamrovli, so'zsiz.

blanket [blæhkit] *v* yopmoq (*adyol bilan*).

blaze I [bleiz] *n* 1) ot, alanga; 2) yong'in; 3) nur *yoki* rang; 4) *pl do'zax*.

blaze II [bleiz] *v* 1) alangalanib yonmoq; 2) chaqnamoq, nur sochmoq; 3) oshkor qilmoq.

blaze III [bleiz] *n* 1) qashqa, dog' (*hayvonda*); 2) belgi (*daraxtda*).

blaze IV [bleiz] *v* belgilamoq (*daraxtda*); nimagadir belgi qo'ymoq.

blazer ['bleizə] *n* sport kurtkasi.

blazing ['bleiziŋ] *a* yorqin, yonadigan.

blazon ['bleizn] *n* gerb, emblema, belgi, alomat.

bleach I [bli:tʃ] *n* oqartiruvchi modda, xlorli ohak.

bleach II [bli:tʃ] *v* oqlamoq, oqartirmoq, rangsizlashtirmoq.

bleaching powder ['bli:tʃiŋ.paudə] *n* belil, oq bo'yoq (*yoki xlor ohagi*).

bleak [bli:k] *a* ochiq, shamoldan bekutilmagan.

bleakness ['bli:knis] *n* yalanglik, ochqlik (*joy*).

blear I [bli:ə] *a* noaniq, g'ira-shira, xira; qorong'i, tushunib bo'lmaydigan.

blear II [bli:ə] *v* qorong'ilashtirmoq.

blear-eyed ['bliəraid] *a* xira ko'z bilan.

bleary ['bliəri] *a* xiralashgan, g'ira-shira ko'radigan.

bleat I [bli:t] *n* ma'rash.

bleat II [bli:t] *v* ma'ramoq.

bleeding I ['bli:diŋ] *n* qon ketish, ko'p qon yoqotish.

bleeding II ['bli:diŋ] *a* ko'p qon yoqotgan.

bleep [bli:p] *n* yer yo'ldoshining signali.

blemish I [bləmiʃ] *n* yetishmaslik,

yetishmovchilik, tanqislik.

blemish II [bləmiʃ] *v* 1) buzmoq, xarob qilmoq; 2) sharmanda qilmoq.

blench I [blentʃ] *v* oqlamoq, oqartirmoq.

blench II [blentʃ] *v* nimanidir ko'rib ko'rmaslikka olmoq.

blend I [blend] *n* aralashma, qotishma.

blend II [blend] *v* aralashtirmoq, qorishtirmoq; xamir qormoq.

bless [bles] *v* fотиha bermoq; oq yo'l tilamoq, oq fотиha bermoq.

blessed ['blest] *a* baxtli, omadli, baxtiyor, iqboli (*tolei*) baland.

blessedness ['blesidnis] *n* baxt, saodat, baxt-saodat; iqbol, tole.

blessing ['blesiŋ] *n* duo, oq fотиha; rozilik, ijozat.

blether I ['bleðə] *n* bekorchi gap, safsata, bema'ni gap.

blether II ['bleðə] *v* behuda (*bema'ni*) gaplar gapirmoq; vaysamoq, valdiramoq.

bletherskate ['bleðəskeit] *n* sergap odam, ezma, safsataboz, ichida gap yotmaydigan, og'zi bo'sh odam.

blewits ['blu:its] *n* qo'ziqorin.

blight I [blait] *n* o'simlik kasalligi

blight II [blait] *v* zarar yetkazmoq (*o'simliklarga*).

blighter ['blaitə] *n* halok etuvchi, nobud (*barbod*) qiluvchi, vayron (*xarob*) etuvchi.

Blighty I [blaiti] *n* *harb. sl.* Angliya, vatan, yurt.

Blighty II [blaiti] *adv. sl.* Angliyaga, vatanga, yurtga.

blimp [blimp] *n* sozl. kichik dirijabl.

blind I [blaɪnd] *a* 1) ko'zi ko'r-maydigan, ko'zi ojiz, ko'r, so'qir; ~ **of an eye** bir ko'zi ko'r; 2) ko'r-ko'rona yozilgan; tushunib bo'lmaydigan; ~ **hand** yomon husnixat; ~ **letter** manzili to'liq ko'rsatilmagan xat; 3) ko'r-

ko'rona harakat qiladigan; **to go it-**
ko'r-ko'rona harakat qilmoq.

blind II [blaɪnd] *n* (*the-*)*pl* kozi
kormaydiganlar, ko'zi ojizlar, ko'rlar,
so'qirlar.

blind III [blaɪnd] *v* ko'zini o'yib
olmoq, ko'r qilmoq.

blindage [blaɪndɪʒ] *n* blindaj (*dala*
istehkomi).

blind-alley I ['blaɪnd'æli] *n* boshi
berk ko'cha, qiyin ahvol; ilojsizlik,
chorasizlik.

blind-alley II ['blaɪnd'æli] *a* chora-
siz, ilojsiz, qiyin, mushkul.

blind coal ['blaɪndkəʊl] *n* anratsit
(*ko'mir tuzi*).

blinders [blaɪndəz] *n pl* ot abzali,
egar-jabduq.

blindfold I ['blaɪndfəʊld] *a* ko'zi
bog'langan.

blindfold II ['blaɪndfəʊld] *adv*
bog'langan ko'z bilan; **to know one's**
way ~ yo'lni yaxshi bilmok.

blindfold III ['blaɪndfəʊld] *v* ko'zni
bog'lamoq.

blind gut ['blaɪndgʌt] *n anat.* ko'ri-
chak.

blindly ['blaɪndli] *adv* ko'r-ko'rona,
bemulohaza, telbalarcha.

blind-man's-buff ['blaɪnd-mænz-
'bʌf] *n* ko'z bog'lash (*o'yin*).

blind man's holiday ['blaɪndmænz-
'hɒlədi] *n* oqshom, kechqurungi g'ira-
shira vaqt.

blindness ['blaɪndnis] *n* ko'rlik,
ojizlik.

blink I [blɪŋk] *n* miltillash, g'ira-
shira ko'rinish.

blink II [blɪŋk] *v* ko'zni pirillatmoq.

bliss [blɪs] *n* kayfu safu, huzur-
halovat, baxt-saodat.

blissful ['blɪsful] *a* baxtli, saodatli.

blithe ['blaɪðə] *a* quvnoq, xush-
chaqchaq, baxt-saodatli.

blithering ['blɪðəriŋ] *a* ezma, ser-

gap, bijildoq, vaysaqi.

blitz [blɪts] *v harb.* shiddatli hujum
qilmoq

blizzard ['blɪzəd] *n* qor bo'roni,
bo'ron, izg'irin.

bloat I [blaʊt] *n* puflab dam berish.

dismay II [dis 'meɪ] *v* g'ulg'ula solmoq, dahshatga solmoq.

dismember [dis 'membə] *v* bo'lib yubormoq; bo'laklarga ajratmoq; ajratmoq.

dismemberment [dis 'membəmənt] *n* bo'lish, bo'lib yuborish, qismlarga ajratish.

dismiss [dis 'mis] *v* 1) qo'yib yubormoq, tarqatib yubormoq; **to ~ the assembly** to'planganlarni tarqatib yubormoq; 2) ishdan bo'shatmoq, vazifasidan ozod qilish; **to ~ servant** xizmatkorni bo'shatmoq; 3) rad qilmoq, chetga surib qo'yimoq; **to ~ the idea** fikr (*g'oya*)ni rad qilmoq; 4) tugatmoq (*muhoqamani*), yakun chiqarmoq; **to ~ the subject** masala muhoqamasini to'xtatmoq.

dismissal [dis 'misəl] *n* 1) tarqatish; **~ of a jury** sud maslahatchilarini tarqatib yuborish; 2) ishdan bo'shatish, vazifasidan ozod qilish; 3) fikr (*g'oya*)dan voz kechish.

dismission [dis 'mɪʃən] *n* bo'shatish, ozod qilish (*qamoqdan*).

dismount [dis 'maʊnt] *v* tushmoq, tushib olmoq, tushib ketmoq.

disobedience [ˌdisə 'bi:djəns] itoat qilmaslik, bo'ysunmaslik, o'zboshimchalik.

disobedient [ˌdisə 'bi:djənt] *a* bosh egmaydigan, bo'ysunmas.

disorder [dis 'ɔ:də] *n* 1) tartibsizlik, besaranjomlik, alg'ov-dalg'ov; 2) om-maviy tartibsizlik.

disorganization [dis.ɔ:gə'nai 'zeɪʃən] *n* tartib-intizomni buzish, ish buzuqlik.

disorganize [dis 'ɔ:gənaɪz] *v* tartib-intizomni buzmoq.

disorientate [dis'ɔ:rienteit] *v* chalg'itmoq, yo'ldan ozdirmoq.

disparagement [dis'pæridʒmənt] *n* yetarli baho bermaslik, mensimaslik, qadriga yetmaslik, kamsitish.

disparagingly [dis'pæridʒɪŋli] *a* mensimay, kamsitib; **to speak~ of smb.** birov haqida mensimay gapirmoq.

disparate [dis'pærit] *a* 1) tengi yo'q, tengsiz, bemisol; 2) tubdan farq qiladigan.

dispart [dis'pa:t] *v* bo'linmoq, taqsimlamoq.

dispassionate [dis'pæʃnit] *a* 1) ehtirossiz, sovuqqon, vazmin; 2) xolis; ~ **view** xolis qarash (*narsalarga*).

dispatch I [dis'pætʃ] *n* 1) yuborish, jo'natish; ~ **of a letter** xatni jonatish; 2) tezlik, chaqqonlik; **to do smth with** ~ tez bajarmoq; 3) rasmiy xabar; **diplomatic** ~ es diplomatik korrespondensiya.

dispatch II [dis'pætʃ] *v* 1) yubormoq, jo'natmoq; **to ~ troops** qo'shinlarni jo'natmoq; 2) tez bajarmoq; tez uddalamoq.

dispel [dis'pel] *v* tarqatib, haydab yubormoq.

dispensable [dis'pensəbl] *a* majburiy bo'lmagan, shart bo'lmagan, ixtiyoriy.

dispensation [dispen'seɪʃən] *n* 1) taqsimlash; bo'lib berish; ~ **of pensions** nafaqalarni taqsimlash; 2) boshqarish, amalga oshirish (*rahbarlik va b. larni*), ~ **of justice** adolat sudini amalga oshirish; 3) (**with**) xalos bo'lish, qutulish.

dispense [dis'pens] *v* 1) taqsimlamoq, tarqatmoq; **to ~ bountries** qimmatbaho sovg'alarini tarqatmoq; 2) amalga oshirmoq (*odil sudlarni*); 3) yozib bermoq, tayinlamoq (*dori-darmon*).

dispiteous [dis'pitiəs] *a* shaf-

qatsiz, rahmsiz.

displace [dis'pleis] *v* 1) aralash-tirmoq, joyini o'zgartirmoq, boshqa joyga qo'yimoq; 2) siqib chiqarmoq; **weeds ~d all other plants** begona o'tlar hamma boshqa ekinlarni siqib chiqardi (*o'stirmay qo'ydi*).

displacement [dis'pleismənt] *n* 1) joyini almashtirish, boshqa joyga qo'yish; 2) o'rnini bosish, almash-tirish; ~ **of human by machinery** qo'l mehnatini mashinalar bilan almash-tirish; 3) olish, tushirish (*lavozimdan*); 4) siqib chiqarish.

displant [dis'plɑ:nt] *v* 1) ko'chirib o'tkarmoq (*o'simlikni*); ildizi bilan sug'urmoq (*o'simlikni*); 2) ko'chirmoq, haydamoq (*aholini*).

display I [dis'plei] *n* 1) ko'rsatish, namoyish qilish; **military** ~ harbiy parad; **fashion** ~ modalar namoyishi; 2) namoyon qilish, namoyish qilish ~ **of power** kuchni namoyish qilish; 3) ko'z-ko'z qilish, maqtanchoqlik.

display II [dis'plei] *v* 1) ko'rsatmoq, namoyish qilmoq; **to ~ the national flag** milliy bayroqni osib qo'y-moq; 2) namoyon qilmoq, namoyish qilmoq; **to ~ one's intelligence** aqlini namoyon qilmoq; 3) maqtanmoq, kóz-ko'z qilmoq.

displease [dis'pli:z] *v* yoqimsiz bõl-moq, yomon ko'rmoq; didiga zid bo'l-moq; **the pointer's colouring ~ s me** musavvir bo'yoqlari meni g'ijintiryapti; **I'm ~d with myself** men o'zimga yoqmayapman.

displeasing [dis'pli:ziŋ] *a* noxush, g'ijintiradigan, g'ashga tegadigan, norozilik keltirib chiqaradigan.

displeasure [dis'pleʒə] *n* norozilik, qoniqmaslik; **to incur smb's** ~ birovning noroziligiga sabab bo'lmoq.

displume [dis'plu:m] *v* 1) patini yulmoq; 2) imtiyozlar, ehtirom, mol-

mulkdan mahrum qilmoq.

disport [dis'pɔ:t] *v* kó'ngil ochmoq, ovunmoq, vaqtini o'yin-kulgi bilan o'tkazmoq.

disposable [dis'pouzəbl] *a* erkin, qulay, foydalanish mumkin bo'lgan; ~ **for service** foydalansa bo'ladigan.

disposal [dis'pouz(ə)l] *n* 1) berish, topshirish; ~ **of property** mol-mulkni berish; 2) olib tashlash, qutulish, xalos bo'lish; ~ **of the dead** murdalarni kó'mish; ~ **of bombs** *harb.* bombalarni zararsizlantirish; 3) tasarruf qilish huquqi; **at (in) smb's** ~ kimningdir ixtiyorida; 4) joylashish, joylashtirish, qo'yib chiqish ~ **of furniture** mebelni joylashtirish.

dispose [dis'pouz] *v* 1) joylashtirmoq, joy-joyiga qo'yimoq; **to** ~ **troops** qoshinlarni joylashtirmoq; 2) egalik qilmoq, o'g'dirmoq; **to** ~ **smb to smth.** birovni biror narsaga undamoq.

disproof [dis'pru:f] *n* rad qilish, noto'g'riligini isbot qilish; raddiya.

disproportionate [disprə'pɔ:ʃnit] *a* nomutanosib, o'lchovi o'lchovga to'g'ri kelmaydigan.

disputable [dis'pju:təbl] *a* bahsli, janjalli, munozarali, isbotlanmagan, shubhali.

disputant [dis'pju:tənt] *n* tortishuv, bahs, munozara ishtirokchisi.

disputation [dispju:(i)'teif(ə)n] *n* bahs, munozara, muhokama, tortishuv.

dispute I [dis'pju:t] *n* 1) muzokara, muhokama, bahs; 2) tortishish, gap talashish, janjallashish; **border** ~ chegara mojarosi.

dispute II [dis'pju:t] *v* 1) muhokama qilmoq, tortishmoq; tortishuvda ishtirok etmoq; **to** ~ **a question** masalani muhokama qilmoq; 2) shubha, gumon ostiga olmoq; ikkilanmoq; **to** ~ **a fact** dalilga shubha bilan qaramoq; 3) qarshi chiqmoq, qurol bilan qarshi-

lik ko'rsatmoq; 4) qarshi kurashmoq, erishmoq; **to** ~ **a victory** g'alabaga erishmoq.

disputer [dis'pju:tə] *n* bahslashuvchi, munozara ishtirokchisi.

disquiet I [dis'kwaiət] *n* bezovtalik, notinchlik, tashvish.

disquiet II [dis'kwaiət] *a* notinch, xavotirli.

disquiet III [dis'kwaiət] *v* bezovta qilmoq, tashvishga solmoq, tinchligini yo'qotmoq.

disquieting [dis'kwaiətiŋ] *a* notinch, xavotirli.

disquisition [dis'kwiz'ʃi(ə)n] *n* 1) mufassal muhokama qilish; tadqiq qilish; 2) *yur.* sinchiklab tekshirish.

disrate [dis'reit] *v* *amer.* mahrum etmoq; unvonini pasaytirmoq.

disregard I [disri'ga:d] *n* beparvolik, befarqlik; mensimaslik.

disregard II [disri'ga:d] *v* beparvolik qilmoq, e'tiborsiz qaramoq.

disrelish I [dis'relif] *n* nafratlanish, nafrat; mayli (*ko'ngli*) yo'qlik.

disrelish II [dis'relif] *v* nafratlanmoq, jirkanmoq, ijirg'anib qaramoq.

disrepair [disri'pɛə] *n* eskilik, kóhnalik; vayronlik, xaroblik.

disreputable [dis'repjutəbl] *a* 1) uyatga qoldiradigan, sharmanda qiladigan; 2) shubhali nom chiqargan.

disrepute [disri'pju:t] *n* shubhali obro', badnom shuhrat.

disrespect I [disris'pekt] *n* hurmatsizlik, nazarga ilmay qarash.

disrespect II [disris'pekt] *v* hurmatsizlik bilan qaramoq.

disrespectful [disris'pektf(u)l] *a* qo'pol, to'ng, dag'al.

disrobe [dis'roub] *v* yechintirmoq; kiyimni yechmoq; fosh qilmoq, sirini (*oshkor etmoq*) ochmoq.

disroot [dis'ru:t] *v* ildizi bilan sug'urib olmoq; *ko'chma* tag-tomiri bilan

quritmoq.

disrupt [dis'ɾapt] *v* putur yetkazmoq, buzmoq, uzmoq (*aloqa va b. larni*).

disruption [di'sɾapʃ(ə)n] *n* 1) buzish, yemirish; ~ of an empire imperiyaning yemirilishi; 2) uzilish, ajralish, parchalanish; 3) vayronalar, xarobalar.

disruptive [dis'ɾaptiv] *a* buziladigan, yemiradigan; parchalaydigan.

dissatisfaction [di'sætis'fækʃ(ə)n] *n* norozilik, qoniqmaslik, qoniqmaganlik, domongirlik.

dissatisfactory [di'sætis'fækt(ə)ri] *a* qoniqarsiz, qanoat hosil qilmaydigan, qoniqtirmaydigan.

dissatisfied [di'sætis'faɪd] *a* qoniqmagan, qanoatlanmagan.

dissatisfy [di'sætis'faɪ] *v* norozi bôlmoq, domongirlikka sabab bo'lmoq.

disseal [dis'si:t] *v* ag'darmoq (*hukumatni*); chaqirib olmoq (*deputatni*); tushirmoq, olmoq (*lavozimdan*).

dissect [di'sekt] *v* 1) kesmoq, qirqmoq, bo'laklarga ajratmoq; 2) tahlil qilmoq, tanqidiy qarab chiqmoq.

disseisee [di'si:zi:] *n* *jur.* ko'chmas mulkka egalik qilishdan noqonuniy mahrum qilingan shaxs.

dissemblance [di'sembləns] *n* 1) o'xshamaslik, har xillik; 2) munofiqlik, ayyorlik.

dissemble [di'sembl] *v* 1) yashirmoq, sir tutmoq, niqoblamoq; 2) e'tiborsiz qoldirmoq; ko'z yummoq (*biror narsadan*).

disseminate [di'semineɪt] *v* sochib tashlamoq, sochmoq, tarqatmoq.

dissension [di'senʃ(ə)n] kelishmovchilik, noittifoqlik, ixtilof.

dissent [di'sent] *n* kelishmovchilik ixtilof, qarama-qarshilik, ziddiyat; qarash (*nuqtai nazar*)dagi farq.

dissepiment [di'sepimənt] *biol.* to'siq, g'ov; *bot.* uya.

disserve [dis'sə:v] *v* ishdan chiqarmoq, ziyon(*zarar*) yetkazmoq, shikast yetkazmoq.

disservice [dis'sə:vis] *n* zarar, ziyon, zahmat; farq; zarar (*ziyon*) keltirish, ziyon yetkazish.

disseverance [dis'sevərəns] *n* 1) bo'lim; 2) xona, bo'lma.

dissimilar [di'similə] *a* turli, har xil; o'xshamas.

dissimilarity [di'similəriti] *n* ayirma, tafovut.

dissimulation [di'simju'leɪʃ(ə)n] *n* ayyorlik, mug'ambirlik, firibgarlik.

dissimulator [di'simjuleitə] *n* mug'ambir, ayyor, firibgar.

dissipate [di'sipeɪt] *v* 1) tarqatmoq, tarqatib yubormoq, haydab yubormoq, tumtaraqay qilib quvmoq; *to* ~ clouds bulutlarni tarqatib yubordi; 2) buzish, aynitish, yemirilish.

dissipated [di'sipeɪtid] *a* parishon, parishonxotir.

dissociate [di'souʃieɪt] *v* ajratmoq, ayirmoq, bir-biridan judo qilmoq.

dissolution [di'si:ʃ(ə)n] *n* 1) bekor qilish, tarqatish; erish, eritish; ~ of ice muz erishi; 2) tamom, tugash; 3) o'lim.

dissolve [di'sɒlv] *v* 1) eritmoq; *to* ~ sugar in water qandni suvda eritmoq; 2) tarqatmoq, faoliyatni tugatmoq, barham bermoq; 3) vayron qilmoq; 4) bekor qilmoq *to* ~ a marriage nikohni bekor qilmoq.

dissonant [di'sənənt] *a* betartib, poyma-poy, intizomsiz.

dissuade [di'sweɪd] *v* qaytarmoq, aynitmoq.

distaff I [di'sta:f] *n* charx, ip yigiradigan charx.

distaff II [di'sta:f] *n* 1) ayollar yumushi, mashg'uloti; 2) ayol.

distal [di'st(ə)l] *a* *anat.* markazdan uzoqda; uzoq, olis, yiroq.

distance I [ˈdist(ə)ns] *n* masofa, oraliq, uzoqlik.

distance II [ˈdist(ə)ns] *v* uzoqlashtirmoq, yiroqlashtirmoq.

distant [ˈdist(ə)nt] *a* uzoq, yiroq, olis, yiroqdagi, olisdagi.

distaste [ˈdisˈteist] *n* nafratlanish, jirkanish, nafrat.

distasteful [disˈteistf(u)l] *a* jirkanchli, koʻngil aynitadigan, noxush; ~ **scent** sassiqlik hid.

distemper [disˈtempə] *n* 1) noxush, yomon kayfiyat; toʻliqlanish, hayajon, xovliqish; 2) *vet.* it vabosi.

distempered [disˈtempəd] *a* hayajonlangan.

distend [disˈtend] *v* 1) puflab yondirmoq; 2) puflab, dam berib shishirmoq.

distensible [disˈtensəbl] *a* elastik, egiluvchan.

distent [disˈtent] *a* puflab dam berib shishirilgan, hoʻppaytirilgan.

distich [ˈdistik] *n* bayt (*ikki misrali sheʼr*).

distichous [ˈdistikəs] *a bot.* ikki qatorli, ikki qator qilib joylashtirilgan.

distil(l) [diˈstil] *v* 1) tozalamoq, toza qilmoq; 2) boʻshatmoq, boʻshatib qoʻymoq.

distillate [ˈdistilit] *n* distillyat (*distillyasiya natijasida hosil boʻlgan suv, suyuqlik*).

distillation [ˌdistiˈleif(ə)n] *n* distillyasiya qiladigan, distillovchi.

distillatory [diˈstiltə(ə)ri] *a* tozalaydigan, tozalovchi, toza qiladigan.

distiller [disˈtilə] *n* aroq tortuvchi; spirt, aroq ishlab chiqaruvchi.

distillery [disˈtiləri] *n* aroq zavodi.

distinct [disˈtɪŋ(k)t] *a* aniq, yaqqol.

distinction [disˈtɪŋ(k)ʃ(ə)n] *n* ayirma, farq, tafovut.

distinctive [disˈtɪŋ(k)tɪv] *a* farq qiladigan, ayiradigan.

distinctly [disˈtɪŋ(k)tli] *adv* 1) aniq, ravshan, ochiq; 2) tushunarli, ayon, belgili, maʼlum.

distinctness [disˈtɪŋktnis] *n* soflik, tozalik, ochiqlik, ravshanlik.

distingue [disˈtæŋgei] *a* nafis, goʻzal, nozik, chiroyli.

distinguished [disˈtɪŋwiʃt] *a* mashhur, dong taratgan.

distort [disˈtɔ:t] *v* buzib koʻrsatmoq.

distortion [disˈtɔ:ʃ(ə)n] *n* buzish, notoʻgʻri tushuntirish, xato anglash.

distortionist [disˈtɔ:ʃənɪst] *n* dorboz, simdorch, chigʻiriqda oʻynovchi.

distract [disˈtrækt] *v* chetga tortmoq (*diqqatni*).

distracted [disˈtræktɪd] *a* uyalgan, uyalib qolgan, xijolatda qolgan, xijil.

distraction [disˈtrækʃ(ə)n] *n* eʼtibor, xayol qochganlik, esi ogʻanlik, fikri tarqoqlik.

distrain [disˈtreɪn] *v* oʻz taʼsiriga olmoq, oʻziga jalb qilmoq.

distrainee [ˌdistreɪˈni:] *n* yuz, bet, aft, qiyofa (*kishining, shaxsning*).

distrainment [disˈtreɪnmənt] *v yur.* majburiyatni bajarishda birovn mulkiga ega boʻlmoq.

distraught [disˈtrɔ:t] *a* xijolat tortgan, uyalgan.

distress [disˈtres] *n* qaygʻu, alam, hasrat, dogʻ, kulfat.

distressed [disˈtrest] *a* qiynalayotgan, azobda qolgan.

distressful [disˈtref(u)l] *a* qaygʻuli, gʻam-gʻussali.

distressing [disˈtresɪŋ] *a* kulfatli.

distributable [disˈtribjutəbl] *a* zabardast, kuchli.

distribute [disˈtribju:(t)] *v* taqsimlash, taqsimlamoq, boʻlmoq.

distributing [disˈtribju:(t)ɪŋ] *a* tarqatuvchi, taqsimlovchi.

distribution [ˌdistriˈbju:(t)ɪʃ(ə)n] *n*

taqsimlash.

distributive [dis'tribjutiv] taqsimlaydigan, bo'luvchi.

distributor [dis'tribju(:)tə] *n* avtomobil sotadigan agent.

district ['distrikt] *n* tuman, okrug.

distrust [dis'trast] *n* ishonchsizlik, shubha, fikr.

distrustful [dis'trastf(u)] *a* ishonmaydigan, shubhali.

distune [dis'tju:n] *v* buzmoq, izdan chiqarib yubormoq.

disturb [dis'tə:b] *v* harakatni buzmoq, muvozanatini yo'qotmoq.

disturbance [dis'tə:b(ə)ns] *n* 1) vahima, tashvish, xavotir; 2) trevoga, tinchlikni buzish.

disturber [dis'tə:bə] *n* *yur.* tinchligini yo'qotuvchi, huquqini yo'qotuvchi.

disunion ['dis'ju:njən] *n* bo'linish, ajratish, ajratilish, tarqoqlik, aloqa uzilganlik.

disunite ['disju:'nait] *v* bo'lmoq, taqsim qilmoq.

disunity ['dis'ju:niti] *n* 1) tartibsizlik, besaranjomlik; 2) janjal, buzg'unchilik, noittifoqlik.

disuse ['dis'ju:s] qo'llanmaslik.

disyllabic ['disi'læbik] *a* ikki bo'g'inli.

ditch I [ditʃ] *n* ariq, zovur.

ditch II [ditʃ] *v* o'ra, chuqur, xandaq.

ditcher ['ditʃə] *n* qazuvchi, yer kavlovchi.

ditching ['ditʃɪŋ] *v* yer kavlovchi.

ditch-water ['ditʃ,wɔ:tə] *n* 1) tik, tikka turadigan; 2) turg'un, ko'lmak, turgan suv, oqmas suv.

ditto ['ditou] shunday qilib, ana bu, ana o'sha.

ditty ['diti] *n* ashula, qo'shiq.

ditty-bag ['ditibæg] *n* nina, iplar uchun xaltacha.

ditty-box ['ditibɒks] *n* quticha (*nina, iplar uchun*).

diuresis [ˌdaijuə'ri:sis] *n* tib. diurez.

diuretic [ˌdaijuə'retik] *a* tib. siydik haydovchi.

diurnal [dai'ə:nl] *a* sutkalik, bir kecha kunduzlik.

diva ['di:və] *n* primadonna (*yetakchi rollarni bajaruvchi opera ashulachisi*).

divagate [ˌdai:vəgeit] *v* achimoq, bijg'imoq, oshmoq (*xamir haqida*).

divagation [ˌdai:vəgeif(ə)n] *n* mulohaza, fikr, muhokama, bir joydan ikkinchi joyga natijasiz yurish.

divalent ['dai.vəilənt] *a* kim. ikki valentli.

divan [di'væn] *n* divan.

divan-bed [di'vænbed] *n* kushetka (*yumshoq kursi*).

divaricate [dai'værikeit] *v* to'g'ri kelmaslik, farq.

divarication [dai.væri'keif(ə)n] *n* 1) tarmoqlanish; 2) shoxobcha, tarmoq.

dive I [daiv] *n* suvga sakrash.

dive II [daiv] *v* bir sho'ng'ib chiqmoq.

dive-bomb [daivbɒm] *v* *harb.* bomba tashlamoq (*pastga*).

dive-bomber [dai.v.bɒmə] *n* pastga qarab bomba otuvchi

diver ['dai:və] *n* vodolaz, g'ovvos (*suv tagiga tushuvchi*), sho'ng'uvchi.

diverge [dai'və:dʒ] *v* tarqalishmoq, tarqalmoq.

divergence, -cy [dai'və:dʒ(ə)ns,-si] *n* 1) tarmoqlanish, tarqalish, ayrilish, sochilish; 2) farq.

divergent [dai'və:dʒ(ə)nt] *a* tarqalish.

divers ['dai:və:(ə)z] *a* *ust.* har xil, turli, boshqa-boshqa.

diverse [dai'və:s] *a* ba'zi, boshqa.

diversified [dai'və:sifaɪd] *a* turli-

tuman, xilma-xil, rang-barang.

diversify [dai'və:sifai] *v* har xil bo'lmoq.

diversion [dai'və:(ə)n] *n* chetga burlish, og'ish.

diversity [dai'və:siti] *n* turli-tumanlik, xilma-xillik, rang-baranglik.

divert [dai'və:t] *v* eltib qo'ymoq, oborib qo'ymoq.

diverting [dai'və:tiŋ] *pres.p.* kongil ochadigan, ovunchoq, ermak.

divertissement [di'vertis'ma:ŋ] *n fr.* 1) ko'ngilli uchish, tomosha qilish;

2) divertisment (*spektaklga yoki konsertga qo'shimcha qilingan mayda o'yin va ashulalar*).

Dives ['daivi:z] *n* boy, badavlat odam.

divest [dai'vest] *v* yechintirmoq, yechintirib ketmoq.

divestiture [dai'vestitʃə] *n* tomosha qilish; 2) huquqdan mahrum qilish.

divestment [dai'vestmənt] = **divestiture**.

divide [dɪ'vaɪd] *v* 1) bo'lmoq, ajratmoq; 2) qismlarga bo'lmoq; 3) turkumlamoq, 4) kesmoq; 5) har xil fikrda bo'lmoq; 6) ovozga qo'ymoq.

divided I [dɪ'vaɪdɪd] *p.p.* **divide dan.**

divided II [dɪ'vaɪdɪd] *a* 1) ayrim, alohida; 2) dona-dona, ochiq-ravshan.

dividend ['divɪdɪnd] *n* dividend (*aksiyadan kelgan daromad*).

dividend-warrant ['divɪdɪnd,wɔ:r(ə)nt] *n* 1) sertifikat; 2) kupon foizi (*Angliyada*).

divider [di'vaɪdə] *n* 1) bo'luvchi; 2) *tex.* bo'luvchi asbob.

dividing I [dɪ'vaɪdɪŋ] *pres.p.* **divide II dan.**

dividing II [dɪ'vaɪdɪŋ] *n* 1) bo'luvchi; 2) *tex.* aylana bo'luvchi.

dividual [dɪ'vɪdʒuəl] *a* 1) ayrim, alohida; 2) ba'zi.

divination [.dɪvɪ'neɪj(ə)n] *n* muvaf-

faqiyatli, qulay, kelgusini aytib berish, to'g'ri aytib berish.

divine I [di'vain] *n* teologiya (*aqoid*) olimi.

divine II [dɪ'vain] *a* a'lo, afzal, juda yaxshi.

divine III [di'vain] *v* oldindan aytmoq, kelajakdan xabar bermoq.

diving ['daɪvɪŋ] *n* 1) sho'ng'ish; 2) yuqoridan suvga tashlash.

diving-bell [daɪvɪŋbel] *n* suv tagiga tushishga oid qo'ng'iroq.

diving board [daɪvɪŋbɔ:d] *n* trampolin (*suvga sakrash uchun*).

diving-dress ['daɪvɪŋdres] *n* skafandr (*suv o'tmaydigan kiyim*) kiyib suv tagiga tushish.

diving-rudder ['daɪvɪŋ,rʌdə] *n* balandlik *yoki* chuqurlik ruli.

divining-rod [di'vaɪnɪŋrɔd] *n* 1) ilohiy, ilohiy kaltakcha; 2) xivich, chiviq, novda.

divinity [dɪ'vɪnɪti] *n* xudo, teologiya, diniy fakultet (*maktab*).

divinize ['dɪvɪnaɪz] *n* = **divinity**.

divisibility [di'vɪzɪ'bɪlɪti] *n* bo'lish, ajratish, taqsimot, ajralish, tafovut.

divisible [dɪ'vɪzəbl] *a* bo'linish.

Division for Conference. Konferensiyalar va tashqi aloqalar bo'limi.

division [di'vɪz(ə)nɪ] *n* *harb.* diviziya.

divisional [dɪ'vɪzənɪ] *a* bo'linuvchi.

divisor [dɪ'vaɪzə] *n* bo'luvchi.

divorce I [dɪ'vɔ:s] *n* ajralish.

divorce II [dɪ'vɔ:s] *v* ajralmoq, tarqatmoq.

divorcee I [di'vɔ:'si:] *n* ajrashgan (*er, xotin*).

divorcee II [di'vɔ:'sei:] *n fr.* ajrashgan xotin.

divorcement [dɪ'vɔ:smənt] ajralish, qo'ydi-chiqdi (*er-xotin haqida*).

divot ['dɪvət] *n* chim, chimzor.

divulagation [.dɪvɪ'lə'geɪʃ(ə)n] *n*

oshkor qilish, hammaga bildirib qo'yish.

divulge [d(a)i'vʌldʒ] *v* oshkor qilmoq, hammaga ma'lum bo'lmoq.

divvy I ['divi] *n* pay, haq, hissa.

divvy II ['divi] *v* 1) bo'linmoq;

2) o'rtoqlashmoq, baham ko'rmoq.

dixie ['diksi] *n* 1) qozon; 2) poxod qozonchasi.

dixie, dixy ['diksi] *n* harf, so'z.

dizain [di'zein] *n* o'n qatorli she'r.

dizzily ['dizili] *adv* bosh aylanish, miya aynish

dizziness [dizinis] *n* bosh aylanish.

dizzy ['dizi] *a* bosh aylanishni sezish, bosh aylanishning boshlanishi, tebranish.

do [du:] *v* (**did, done**) bajarimoq, amalga oshirmoq, kerak bo'lmoq, yetarli bo'lmoq.

doable ['du:əbl] *a* bajarilgan.

do-all ['du:ɔ:l] *n* 1) har tomonlama mohir; 2) ishonchli kishi.

dobbin ['dɒbin] *n* kichkina krujka.

doc [dɒk] *n* doktor, vrach.

docile ['dousail] *a* gapga kiradigan, gapga quloq soladigan, itoatli.

docility [do(u)'siliti] *n* quloq soluvchi, qobiliyatli.

dock I [dɒk] *n* bot.shovul, qo'zi-quloq (*o't*).

dock II [dɒk] *n* dok (*kema va paroxodlarni ta'mirlaydigan ishxona*).

dock III [dɒk] *n* kesilgan dum.

dock IV [dɒk] *v* kemani dokga kirgizmoq.

dockage I ['dɒkidʒ] *n* port to'plami.

dockage II ['dɒkidʒ] *n* kemalarning turadigan joyi.

dock-dues ['dɒkdju:z] = **dockage**.

docker [dɒkə] *n* port ishchisi, doker (*dok va kemasozlik ishchisi*)

docket [dɒkit] *n* etiketka (*tovarning ustiga yopishtiriladigan yorliq qog'oz*).

docking ['dɒkiŋ] *press.p dock II dan*.

dock-master ['dɒk.ma:stə] *n* dok boshlig'i.

dockyard ['dɒkja:d] *n* kemasozlik zavodi.

doctor I ['dɒktə] *n* vrach, doktor, shifokor.

doctor II ['dɒktə] *v* davolamoq.

doctoral ['dɒkt(ə)rəl] *a* doktorlik dissertatsiyasi.

doctarate ['dɒkt(ə)rit] *n* doktorlik nomzodi.

Doctors' Commons ['dɒktəz'kɒmənʒ] *n* tarix. Londondagi grajdanlar huquqi haqidagi yuridik kollegiya.

doctrinaire [dɒktri'nɛə] *n* 1) doktrinyor (*o'zi o'rganib olgan va haqiqatga to'g'ri kelmaydigan qoidagagina amal qilib, turmush bilan hisoblashmaydigan o'zbiarmon kishi*); 2) o'jar, johil odam.

doctrinal [dɒk'trainl] *a* dokga tegishli.

doctrinarian [dɒktri'neəriən] = **doctrinaire ga qarang**.

doctrine ['dɒktrin] *n* ta'limot, nazariya.

document ['dɒkjumənt] *n* hujjat, guvohnoma.

documentary I [dɒkju'ment(ə)ri] *a* hujjatli, hujjatlarga asoslangan.

documentary II [dɒkju'ment(ə)ri] *n* hujjatli film.

documentation [dɒkjumeɪntʃ(ə)n] *n* hujjat, hujjatni berish.

dodder I ['dɒdə] *n* bot. pechak; sariq pechak.

dodder II ['dɒdə] *v* titramoq, qaltiramoq, zirillamoq, dirillamoq.

doddered ['dɒdəd] *a* bargi to'kilgan, shipshiydon bo'lgan.

doddery ['dɒdəri] *a* tentak, ahmoq.

dodecagon ['do(u)'dekəgən] *n* o'n ikki burchakli.

dodecahedron [ˈdoudikəˈhedrən] *n* oʻn ikki qirrali.

dodge [ˈdɒdʒ] *v* qochmoq, oʻzini chetga olmoq, bosh tortmoq.

dogger [ˈdɒdʒə] *n* hiylagar, ayyor, mugʻambir.

dogbery [ˈdɒdʒəri] *n* bahona, vaj, hiyla-nayrang.

doggy [ˈdɒdʒi] *n* ayyor, hiylakor, shayton.

dodo [ˈdoudou] *n* johil, qoloq, nodon.

doe [dou] *n* urgʻochi.

doer [ˈdu(:)ə] *n* oʻsimlik.

doeskin [ˈdouskin] *n* toʻqima, mato, gazmol, kiyik terisi.

dog I [dɒg] *n* 1) it, kuchuk; 2) koʻp-pak, erkak (*boʻri, tulki va b.lar*); 3) razil, ablah, muttaham.

dog II [dɒg] *v* 1) ketma-ket bormoq; (*birovning orqasidan*) kuzatmoq, izidan bormoq; 2) it bilan taʼqib qilmoq; itga oldirmoq.

dogate [ˈdougeit] *n* *tarix.* martaba, mansab, nom, unvon.

dogbane [ˈdɒgbein] *n* *bot.* kendir.

dog-bee [ˈdɒgbi:] *n* 1) erkak asalari; 2) dangasa, ishyoqmas.

Dogberry [ˈdɒgberi] *n* isteʼmol qilinmaydigan meva oʻsimligi, buta.

dogberry [ˈdɒgberi] *n* *bot.* qizil (*qizil mevali buta va shu butaning mevasi*).

dog-biscuit [ˈdɒgˌbiskit] *n* galeta, qattiq pechenye; qattiq patir non.

dog-box [ˈdɒgbɒks] *n* yuk vagonlarida itlar uchun maxsus boʻlinma.

dog-cart [ˈdɒgka:t] *n* it qoʻshilgan aravacha.

dog-cheap [ˈdɒgtʃi:p] *a* *amer. soʻzl.* arzon, juda arzon.

dog-collar [ˈdɒg.kɒlə] *n* boʻyinbogʻ, hoʻyinga taqiladigan tasma, qayish (*hayvonlar uchun*).

doge [doudʒ] *n* 1) yozning jazirama,

issiq kunlari; 2) qora kunlar, ogʻir (*vaqtlar*) damlar.

dogfase [ˈdɒgfeis] *n* *amer. soʻzl.* 1) piyoda askarlar; 2) rekrut (*chor Rossiyasida askarlikka olingan yangi askar*).

dog-fancier [ˈdɒgˌfænsiə] *n* 1) itboqar; 2) itboz.

dog-fight [ˈdɒgfait] *n* *harb.* 1) havojangi; 2) mushlashish.

dogfish [ˈdɒgfiʃ] *n* *zool.* nalim, yelim baliq.

dog-fox [ˈdɒgfoks] *n* nar (*erkak*) tulki.

dogged I [ˈdɒgid] *a* qattiq.

dogged II [ˈdɒgid] *adv* juda, juda ham, qaysar.

dogger I [ˈdɒgə] *n* *morf.* dogger.

dogger II [ˈdɒgə] *n* *geol.* dogger.

doggerel [ˈdɒg(ə)r(ə)] *n* yomon, yaramas, xunuk, nojoʻya; bemaza, rasvo.

doggery [ˈdɒgəri] *n* 1) tasma; 2) itlar galasi, bir gala itlar.

doggie [ˈdɒgi] = **doggy**.

doggish [ˈdɒgiʃ] *a* qoʻrs, qoʻpol, da-gʻal.

doggo [ˈdɒgou] *adv* panalash; to lie ~ yashirinish, panalash

doggone [ˈdɒgˈgɒn] *n* *amer. jarg.* qargʻish.

doggy I [ˈdɒgi] *n* kuchuk, itvachcha.

doggy II [ˈdɒgi] *a* itlarcha, itni yaxshi koʻrish.

dog-hole [ˈdɒghoul] *n* kichik hujra, tor hujra, kulba.

doghouse [ˈdɒghaus] *n* kuchuk, itning ini, uyi.

dog-in-a-blanket [ˈdɒɡɪnəˈblæŋkɪt] *n* muraboli puding.

dog-in-the-manger [ˈdɒɡɪnðəˈmeɪn(d)ʒə] *n* na oʻziga qiladi, na birovga.

dog-latin [ˈdɒgˈlætin] *n* aynigan lotin tili.

dog-lead ['dɔgli:d] *n* it yetaklash ipi, arqoni.

dog-licence ['dɔg 'laisəns] *n* itni ro'yxatdan o'tkazilganligi haqidagi guvohnoma.

dogma ['dɔgmə] *n* qotma, qotib qolgan.

dogmata ['dɔgmətə] = **dogma**.

dogmatic [dɔg 'mætik] *a* qat'iy.

dogmatically [dɔg 'mætikəli] *adv* qat'iy, uzil-kesil (*qat'iy qaror*).

dogmatics [dɔg 'mætiks] *n* dogmatika.

dogmatize [dɔgmətəiz] *v* qat'iy fikr aytmoq.

dog-nail ['dɔgneil] *n* 1) qo'ltiqta-yoq; 2) qoziq mix.

dog-poor ['dɔgpuə] *a* gadoy, tilanchi.

dog-rose ['dɔgrəuz] *n* na'matak.

dog-salmon ['dɔg ,sæmən] *n* zool. kega.

dog's-grass ['dɔgzgrɑ:s] yerga yoyilib o'sadigan g'allasimon o'simlik.

dog-sick ['dɔg 'sik] *a* noxush his qilish; **he was ~** u o'zini noxush (*yomon*) his qildi.

dog-skin ['dɔgskin] *n* terining turi, layka.

dog-sleep ['dɔgslɪ:p] *n* hushyor, sezgir uyqu.

dog's letter ['dɔgz ,letə] *n* "h" harfining eski nomi.

dog's-meat ['dɔgzmi:t] *n* o'limtik.

Dog's-Tail ['dɔgzteɪl] *n* Kichik Ayiq yulduz turkumi.

Dog-Star ['dɔgstɑ:] *n* Sirius (*yulduz*).

dog tag ['dɔgtæg] *n* qayd qilish nomeri (*itni*).

dog-tired ['dɔg'taɪəd] *a* tinkasi qurigan, itdek charchagan.

dog-tooth ['dɔgtu:θ] *n* qoziq tish, so'yloq tish.

dog-trot ['dɔgtrot] *n* yo'rtib

chopish, yelish.

dog-violet ['dɔg ,vaɪələɪt] *n* yovvoyi binafsha.

dog-weary [dɔg 'wiəri] = **dog-tired**.

dogwood [dɔgwud] *n* qizil (*buta va shu butaning mevasi*).

doily ['dɔili] *n* qo'l sochiq (*mato va qog'ozdan*).

doing I ['du(:)ɪŋ] *n* 1) biror narsa qilish; ish; **that takes some ~** bu mehnatni talab qiladi; 2) *pl* ishlar, xatti-harakat, harakat; **tell me about all your ~s** qilgan ishlarinigizni hammasini aytib bering.

doing II ['du(:)ɪŋ] *a* 1) amaldagi, faol ishtirok etayotgan; 2) qo'yilayotgan (*kino, teatrd*). **What's ~ tonight?** Kechqurun nima qo'yilyapti?

doit [dɔɪt] *n* mayda-chuyda; mayda pul.

doited ['dɔɪtɪd] *a* *shortl.* qartaygan; qarib aqldan ozgan.

doldrums ['dɔldrəmz] *n* yomon kayfiyat, depressiya.

dole [dɔul] *n* 1) qismat, taqdir; 2) ishsizlik nafaqasi.

doleful ['dɔulf(u)l] *a* qayg'uli, g'am, g'amgin, dilgir.

doll I [dɔl] *n* qo'g'irchoq.

doll II [dɔl] *v* yasantirmoq, kiyintirmoq.

dollar ['dɔlə] *n* dollar; **the ~** pullar, boylik.

dollish ['dɔlɪʃ] *a* qo'ng'iroqqa oid, qo'ng'iroqqa o'xshagan.

doll-like ['dɔllaɪk] *a* qo'ng'iroq - simon.

dollop ['dɔləp] *n* bo'lak, parcha, tishlam.

dolly I [dɔli] *n* kichkina qo'g'irchoq.

dolly II [dɔli] *a* qo'g'irchoqqa oid.

dolly-bag ['dɔlɪbæg] *n* ayollarning kichkina sumkachasi.

dolly-shop ['dɔlɪʃɔp] *n* matroslar do'koni.

dolly-tub [ˈdɒlɪtʌb] *n* tog'ora, jomashov, kir tog'ora.

dolman [ˈdɒlmən] *n* gusarlarning mentikli kiyimi.

dolomite [dɒləmaɪt] *n min.* dolomit.

dolorous [dɒləərəs] *a* qayg'uli, g'amingin.

dolose [do(u)ˈləʊs] *a yur.* badniyat, niyati buzuq; jinoyi maqsadda.

dolour [ˈdɒləʊ] *n* qayg'u, g'am, xafagarchilik.

dolphin [ˈdɒlfɪn] *n* delfin.

dolt [dɒʊlt] *n* ahmoq, dovdir.

doltish [ˈdɒʊltɪʃ] *a* tentaknamo, ahmoqona.

domain [dəˈmeɪn] *n* 1) mol-mulk, yer-suv; hudud; 2) soha, tarmoq.

dome [daʊm] *n* gumbaz, ravoq, qubba.

domed [daʊmd] *a* gumbazsimon, gumbaz bilan bezatilgan.

Domesday Book [ˈduːmzdeɪbʊk] *n* kadastr (*daftari*).

domestic [dəˈmestɪk] *a* uyga oid, oilaviy; oilaviy hayotni yoqtiradigan; ichki, mamlakat ichidagi; ~ **industry** hunarmandchilik sanoati.

domesticable [dəˈmestɪkəbl̩] *a* qo'lga o'rgatsa bo'ladigan; xonakilashtirish mumkin bo'lgan.

domesticate [dəˈmestɪkeɪt] *v* 1) oilaviy hayotga mehr qo'ydirmoq; 2) madaniylashtirmoq, o'stirmoq (*o'simlikni*).

domestication [dəˈmestɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* 1) uyga, oilaviy hayotga odatlanish; 2) o'rgatish (*hayvonni*).

domesticity [ˌdaʊmesɪˈtɪsɪti] *n* oilaviy turmush muhiti; saranjom-sarishtalikni yoqtirish.

domett [do(u)ˈmet] *n* yarimjun mato.

domic(al) [ˈdaʊmɪk(əl)] *a* gumbazsimon; gumbazli.

domicile [ˈdɒmɪsaɪl] *n* 1) doimiy turarjoy; 2) *yur.* shaxs yoki firmaning yuridik manzili.

domiciliary [ˌdɒmɪˈsɪljəri] *a* uy, turarjoy bo'yicha; ~ **visit** uyni tintuv qilish; uyni rasmiy organlar tomonidan ko'rib chiqilishi.

dominance [ˈdɒmɪnəns] *n* hukmronlik, egalik, ustuvorlik.

dominant [ˈdɒmɪnənt] *a* hukmron, ustuvor.

dominate [ˈdɒmɪneɪt] *v* 1) hukmronlik qilmoq, ustuvorlik qilmoq; 2) o'zini tiymoq, tiymoq; **to** ~ **one's emotions** o'z hissiyotlarini tiymoq.

domination [ˌdɒmɪˈneɪʃ(ə)n] *n* hukmronlik, ustuvorlik.

domineer [ˌdɒmɪˈniə] *a* mustabidlarcha ish tutmoq; o'zini takabburona tutmoq; hukmdorlik qilmoq.

domineering [ˌdɒmɪˈniəriŋ] *a* mustabidlarcha; so'zini o'tkazadigan; e'tirozga yo'l qo'ymaydigan.

dominical [dəˈmɪnɪk(əl)] *a* cherk. qaytadan vujudga keladigan.

Dominican [dəˈmɪnɪkən] *n* dominikan (*rohib*).

dominle [ˈdɒmɪni] *n* *shotl.* maktab o'qituvchisi.

dominion [dəˈmɪnjən] *n* hokimlik, hukmronlik, hokimiyat; **D. Day** Kanada 1-iyul bayrami.

domino [ˈdɒmɪnou] *n* 1) domino (*maskarad kiyimi*); maskarad ishtirokchisi; 2) domino (*o'yin*).

dominoed [ˈdɒmɪnoud] *a* domino (*maskarad*) kiyimi kiygan.

don I [dɒn] *n* 1) **(D)** don (*ispan unvoni*); 2) ispaniyalik; 3) o'qituvchi, kollej a'zosi (*Oksford va Kembrijda*).

don II [dɒn] *v* 1) kiyimoq, yasanmoq; 2) kiydirib qo'ymoq, taqib qo'ymoq.

dona(h) [ˈdaʊnə] *n* xotin kishi; mahbuba, ma'shuqa.

donate [do(u)ˈneɪt] *v* in'om qilmoq; sovg'a qilmoq.

donation [do(u)ˈneɪʃ(ə)n] *n* tortiq, hadya, sovg'a.

donative [ˈdounətɪv] *n* hadya qilingan, in'om qilingan; hadyanoma.

donatory [ˈdounət(ə)rɪ] *n* hadya, sovgani oluvchi kishi, shaxs.

done [dʌn] *a* 1) qilingan, bajarilgan; ~ **in English** ingliz tilida bajarilgan; 2) yaxshi tayyorlangan, pishirilgan; ~ **to a turn** ajoyib tayyorlangan.

donee [do(u)ni:] *n* sovgani oluvchi.

donga [ˈdɔŋgə] *n* dara; chuqur, qurigan o'zan.

donjon [ˈdɔndʒ(ə)n] *n* bosh minora (*qasrda*).

donkey [ˈdɔŋki] *n* 1) eshak; 2) *amer.* demokratik partiya laqabi.

donkey-engine [ˈdɔŋki.en(d)ʒɪn] *n* 1) yordamchi bug' mashinasi yoki kichik statsionar dvigatel; 2) chig'ir, charxpalak.

donnish [ˈdɔniʃ] *a* takabbur, gerdaygan, dimog'dor.

Donnybrook Fair [ˈdɔnɪbrʊk ˈfeə] *n tarix.* Dublin yaqinidagi har yilgi yarmarka nomi.

donor [ˈdounə] *n* 1) hadya qiluvchi, yordam beruvchi; 2) *tib.* donor.

do-nothing [ˈduːnʌθɪŋ] *n* bekorchi, ishyoqmas.

doodle [ˈduːdl] *n* zambil.

doom I [duːm] *n* 1) taqdir, qismat; 2) sud, hukm; **the day of ~** qiyomat qoim; 3) halok bo'lish, yo'q bo'lish.

doom II [duːm] *v* mahkum qilmoq, ayblamoq.

dooms [duːmz] *adv* juda, juda ham.

doomsday [ˈduːmzdeɪ] *n* *din.* 1) qiyomat, qiyomat kuni; 2) qiyomat, qiyomat qoim.

door [dɔː] *n* eshik, eshikcha; **front ~ old** (*katta*) eshik; **a ~ to success** muvaffaqiyat yo'li; **next ~** qo'shni uy.

doorbell [ˈdɔːbel] *n* eshik qo'ng'irog'i.

door-case [ˈdɔːkeɪs] *n* eshik kesakisi.

door-frame [dɔːfreɪm] = **door-case.**

door-keeper [dɔːkiːpə] *n* darvozabon, eshik oldida turuvchi qorovul.

doorman [dɔːmən] = **door-keeper.**

doormat [dɔːmæt] *n* 1) oyoq artiladigan latta; 2) *ko'chma.* irodasiz, bo'shashgan, "latta".

door-plate [dɔːpleɪt] *n* eshik taxtachasi (*familiya va b.lar yozilgan*).

doorstep [dɔːstɛp] *n* ostona, bo'sag'a.

door-stone [ˈdɔːstɔʊn] *n* toshtaxta, (*eshik oldida*).

doorway [ˈdɔːweɪ] *n* eshik o'rni, binoga kirish yo'li.

dope [dɔʊp] *n* quyuc moylovchi pasta.

dop(e)y [ˈdɔʊpi] *a* lanj, shalpaygan, gangigan.

dor [dɔː] *n* qo'ng'iz.

dor-beetle [ˈdɔːbiːtl] = **dor.**

dor-bug [ˈdɔːbʌg] *amer.* = **dor.**

Dorcas [ˈdɔːkəs] *n* kambag'allarni kiyim-kechak bilan ta'minlovchi ingliz ayollar jamiyatining nomi.

dorhawk [ˈdɔːhɔːk] = **goatsucker.**

Dorian I [ˈdɔːriən] *a* Dorida (*Yunonistonning Dorida viloyatiga*) oid.

Dorian II [ˈdɔːriən] *a* doridolik.

doric [ˈdɔːrɪk] *a* Dorida (*Yunonistonning Dorida viloyatiga*) oid.

Dorking [ˈdɔːkɪŋ] *n* dorking (*angliyalik go'shtdor tovuq zoti*).

dormancy [ˈdɔːmənʃi] *n* mudroq, harakatsizlik holati.

dormant [ˈdɔːmənt] *a* 1) mudroq, uyqudagi, harakatsiz; yashirin (*qobiliyat, kuch va b.lar to'g'risida*); **to lie ~** harakatsiz (*yashirin*) holatda bo'lmoq; uyquda bo'lgan (*hayvonlar to'g'risida*); 2) daromad keltirmaydigan (*sar-moya to'g'risida*).

dormer (window) [ˈdɔːmə(ˈwɪndou)] *n* cherdak boloxona; tuynugi, darchasi

dormice [ˈdɔːmaɪs] = dormouse.
dormitory [ˈdɔːmitri] *n* umumiy yotoqxon.

dormouse [ˈdɔːmaʊs] *n zool.* sonja (*kemiruvchi*).

dorp [dɔːp] *n* qishloq.

dorsal [ˈdɔːs(ə)l] *a* orqadagi, orqa.

dorse [dɔːs] *n zool.* yos treska (*baliq*).

dorter, dortour [ˈdɔːtə] *n* monastir yotoqxonasi.

dory I [ˈdɔːri] *n zool.* solnechnik (*baliq*).

dory II [ˈdɔːri] *n* baliqchilarning tagi yassi qayigʻi.

dosage [ˈdɔʊsɪdʒ] *n* meʼyor, meʼyorlash.

dose [dɔʊs] *n* oʻlchovli miqdor, doza.

dosimeter [dɔ(u)ˈsɪmɪtə] *n* dozimetr

doss I [dɔs] *n* karavot, soʻri.

doss II [dɔs] *v* tunamoq.

dossal [ˈdɔs(ə)l] *n cherk.* mehrob ortidagi parda.

doss-house [ˈdɔshaʊs] *n* tunash uyi.

dossier [ˈdɔsieɪ] *fr n* dosye (*hujjatlar toʻplami*); *yur.* ish.

dot I [dɔt] *n* 1) nuqta; 2) kichkina narsa; *a ~ of a child* jajji chaqaloq.

dot II [dɔt] *v* nuqta qoʻymoq; *to ~ the i i ga* nuqta qoʻymoq; *ikir-chikirlarigacha* aniqlamoq.

dot III [dɔt] *n* sep, sovgʻa.

dotage [ˈdɔʊtɪdʒ] *n* qarilik natijasi-dagi aqliy zaiflik.

dot-and go one [ˈdɔtənˈɡɔʊwʌn] *n* oqsoqlanib yurish, oyoqlarni sudrab bosish.

dotard [ˈdɔʊtəd] *n* aqldan ozgan qariya.

dote [ˈdɔʊt] *v* bolaligi tutmoq, yosh boladay boʻlib qolmoq; *~ upon* haddan ortiq sevmoq.

doting [ˈdɔʊtɪŋ] *a* haddan ortiq sevmoq, juda sodiq.

dotted line [ˈdɔtɪdlaɪn] *n* qator nuqta, nuqtalardan iborat chiziq.

dotterel [ˈdɔt(ə)l] *n* rjanka (*parranda*).

dottle [ˈdɔtl] chala chekilgan trubkada qolgan tamaki qoldigʻi.

dotty [ˈdɔti] *a* nuqtali, xol-xol.

double I [ˈdʌbl] *a* 1) ikkita, ikkilangan; *~ led* ikki kishilik karavot; 2) ikki xil; ikkiyuzlamachi.

double II [ˈdʌbl] *n* 1) ikki miqdor; 2) oʻxshash (*ikki oʻxshash odamning har biri*).

double-acting [ˈdʌbl.ækʃtɪŋ] *a* ikkilangan harakat.

double-barrelled [ˈdʌbl.bær(ə)ld] *a* 1) ikki maʼnoli; 2) ikki stvulli; *~ gun* qoʻshogʻiz miltiq.

double-bass [ˈdʌblˈbeɪs] *n* *mus.* kontrabass.

double-bedded [ˈdʌbl.bedɪd] *a* ikkita karavotga ega boʻlgan.

double-breasted [ˈdʌblˈbrestɪd] *a* ikki bortli (*kostyum*).

double-charge [ˈdʌblˈtʃɑːdʒ] *v* ikki hissa oʻqlamoq.

double-cross [ˈdʌblˈkrɒs] *v* aldam ketmoq, firib bermoq.

double-dealer [ˈdʌblˈdiːlə] *n* aldoqchi, aldamchi, firibgar, yolgʻonchi.

double-dealing [ˈdʌblˈdiːlɪŋ] *n* aldamchilik, firibgarlik.

double-decker [ˈdʌblˈdeɪkə] *n* 1) ikki qavatli avtobus; 2) ikki palubali kema.

double-eagle [ˈdʌblˈiːɡl] *n* 1) ikki boshli burgut; 2) *amer.* 20 dollarlik oltin tanga.

double-edged [ˈdʌblˈedʒd] *a* ikki tomoni oʻtkir.

double entendre [ˈduːblaːŋˈtaːndr] *n* ikki maʼnoli ibora.

double-entry [ˈdʌblˈentri] *n* *tij.* ikki yoqlama buxgalteriya (*ikkiyuzlamachilik*).

double-event [ˈdʌbliˈvent] ikki

kurash (*sportning ikki guruhi o'z ichiga olgan musobaqa*).

double-faced [ˈdʌblfeɪst] *a* ikkiyuzlama, munofiq.

double-first [ˈdʌblˈfɜːst] Angliya universitetini I darajali diplom bilan ikki mutaxassislik bo'yicha bitirgan.

double-hearted [ˈdʌblˈhɑːtɪd] 1) xiyonatkor, xiyonatkorona; 2) ayyor, makkor.

double-lock [dʌblˈlɒk] qulfni kalitini ikki marta burab qulflamoq, bekitmoq, yopmoq.

double-manned [ˈdʌblˈmænd] *a* ikki hissali tuzilma.

double-meaning [ˈdʌblˈmiːnɪŋ] aldaydigan, aldamchi.

double-minded [ˈdʌblˈmaɪndɪd] *a* qat'iyatsiz, ikkilanadigan.

double-quick [ˈdʌblˈkwɪk] *a* juda tez; tezkor.

double-stop [ˈdʌblˈstɒp] *v* to'rt simlarni baravar bosish (*skripka chalgandasi*).

doublet [ˈdʌblɪt] *n* dublikat; juft narsa; nuxsa.

double-time [ˈdʌbltaɪm] *n* 1) ish vaqtidan tashqari ishlaganlik uchun ikki hissa haq to'lash; 2) *amer.* jadal-lashtirilgan yurish.

double-tongued [ˈdʌblˈtʌŋd] *a* yolg'onchi, aldamchi.

doubling [ˈdʌblɪŋ] *n* ikkilanish; takrorlash (*biror narsani*).

doubloon [dʌblˈluːn] *n* tarix. dublon (*ispan oltin tangasi*).

doublure [duːˈblɜː] *n* fr. muqovaning ich qismiga yopishtiriladigan ipak (*teri va b. lar*).

doubly [ˈdʌbli] *adv* ikki baravar, ikki hissa.

doubt I [daʊt] *n* shubha, ikkilanish, qat'iyatsizlik, noaniqlik; **no** ~ shubhasiz.

doubt II [daʊt] *v* shubhalanmoq,

shubha qilmoq.

doubtful [ˈdaʊtful] *a* to'la gumon-sirash, nima qilishni bilmay garang bo'lish.

doubtless [ˈdaʊtlɪs] *adv* shubhasiz, shartsiz, albatta.

douce [dus] *a* *shotl.* tinch, xotirjam, osoyishta.

douceur [duːˈsɜː] *fr.n* pora; "choy puli".

douche [duːʃ] *n* dush; ustidan suv quyish; chayish.

dough [dou] *n* 1) xamir; **my cake is** ~ ishim chatoq; 2) *amer.sl.* pul, "non"; pora.

doughboy [ˈdoubɔɪ] *n* uzma, pilak, pilakcha.

doughtily [ˈdaʊtɪli] *adv* mardlarcha, jasurona.

doughtiness [ˈdaʊtɪnɪs] *n* jasorat, botirlik, qahramonlik.

doughty [ˈdaʊti] *a* jasur, botir, qo'rqmas, dovyurak.

doughy [ˈdoʊ(i)] *a* xamirsimon, xamirga o'xshagan.

dour [ˈduə] *a* *shotl.* qattiqqo'l, talabchan, qat'iyatli.

douse [daʊs] *v* suvga sho'ng'imoq, suvga kirmoq.

dove [dʌv] *n* kabutar.

dove-colour [dʌvˈkɒlə] *n* ko'k, ko'kimtir rang.

dove-cot(e) [ˈdʌvkɒt] *n* kaptarxona, kaptar uyasi.

dove-eyed [ˈdʌvˈaɪd] *a* begunoh ko'rinish.

dovelike [ˈdʌvleɪk] *a* kaptarga oid, kaptar; nozik, muloyim.

dovetail I [ˈdʌvteɪl] *n* qaldirg'ochning dumi; panja, changal (*hayvonlar va parrandalarda*).

dovetail II [ˈdʌvteɪl] *v* 1) panja (*changali*)ga olmoq; 2) zichlamoq, zich joylashtirmoq.

dowager [ˈdaʊədʒə] *n* beva, yesir,

tul (*xotin*).

dowdy [ˈdaudi] *a* tentaknamo, didsiz; palapartish kiyingan (*ayol*).

dowdyish [ˈdaudiɪʃ] *a* didsiz, farosatsiz.

dowel [ˈdaʊəl] *n* katta yogʻ och mix, mixchoʻp; betonga qoqiladigan mix (*dyubel*).

dower [ˈdaʊə] *n* bevaga tegishli qism (*merosda*); sep.

dower-chest [ˈdaʊətʃɛst] *n* sandiq.

dowlas [ˈdaʊləs] *n* kolenkorning pishiq turi.

down I [daun] *n* 1) qiya, qiyalik, nishablik; **ups and ~ s** balandlik va pastliklar; 2) gʻarazgoʻylik, xush koʻrmaslik, yoqtirmaslik; **to have a ~ an smb.** biror narsaga gʻaraz bilan qaramoq.

down II [daun] *a* 1) pastga yoʻnalgan, tushirilgan, tushayotgan; ~ **loop** pastga sakrash; **the ~ trend of business** tadbirkorlik faolligidagi tanazzul; 2) markazdan kelayotgan *yoki* markaz bilan transport aloqasiga bogʻliq; ~ **traffic** transportning markazdan shahar chetlariga qatnashi; 3) *amer.* naqd; ~ **money (payment)** naqd pullar (*naqd pul bilan hisob-kitob qilish*).

down III [daun] *adv* 1) past tomonga boʻlgan harakatni anglatadi; **to come ~** pastga tushmoq; **to bend ~** egilmoq; **Is this elevator going?** Bu liftda pastga tushsa boʻladimi? 2) pastda, quyida turganlikni anglatadi; **he is ~ u** pastda (*pastga tushgan*); **the shades (the blinds) are ~** pardalar tushirilgan; 3) miqdor, hajmning kamayishini, pasayishini, zaiflashishini, yomonlashishini anglatadi **to go ~** kamaymoq, pasaymoq, zaiflashmoq, aynimoq, yomonlashmoq; **to die ~** pasaymoq, tinchimoq (*shamol, boʻron toʻgʻ risi-da*); **to wear ~** eskirmoq; **to**

bring ~ the price narxni tushirmoq.

down IV [daun] *prep.* 1) past tomonga harakatni anglatadi; **to walk ~ the hill** tepalikdan tushmoq; **to fall ~ the stairs** zinadan yiqilib tushmoq; 2) orqali, osha; ~ **the ages (the years)** asrlar (*yillar*) osha (*orqali*).

down V [daun] *v* 1) tushirmoq, tashlamoq; **to ~ one's opponent** raqibning yelkasini yerga tekkizlamoq; 2) yutmoq; **to ~ medicine** dorini yutmoq; 3) yengmoq, boʻysundirmoq, tinchitmoq **to ~ opposition** qarshilikni yengmoq.

downcast I [ˈdaunka:st] *n* tushish, tushirish.

downcast II [ˈdaunka:st] *a* tushirilgan, tashlangan.

down-draught [ˈdaunˈdra:ft] *n* *tex.* havoning pasayib boruvchi oqimi.

downfall [ˈdaunfɔ:l] *n* 1) qulash, yemirilish, halokat; inqiroz; ~ **of a fortress** qasrning qulashi (*taslin boʻlishi*); 2) jala; qorboʻron.

down-grade [daungreid] *n* nishablik, qiyalik, nishab.

downhearted [ˈdaunˈha:tid] *a* mungli, maʼyus, xafa, qaygʻuli, xayoli parishon.

downhill I [ˈdaunhil] *n* nishab, yon bagʻir, qiyalama.

downhill II [ˈdaunhil] *adv* pastga, tagiga, ostiga.

Downing Street [ˈdauniŋˈstri:t] *n* Dauning strit (*Londonda bosh vazir qarorgohi joylashgan koʻcha*).

downpour [ˈdaunpɔ:] *n* jala, qattiq yomgʻir.

downright [ˈdaunrait] *a* toʻgʻri, oshkora, dangal; ~ **sort of a man** rostgoʻy odam; 2) aniq; ~ **lie** gʻirt yolgʻon.

downstage [ˈdaunˈsteɪdʒ] *a* doʻstona, doʻstlikka oid.

downstair [ˈdaunˈsteə] = **down stairs**.

downstairs I [ˈdaʊnˈsteəz] *a* pastda; pastki qavatda joylashgan.

downstairs II [ˈdaʊnˈsteəz] *adv* pastga, quyiga, tubga; **to go** ~ pastga tushmoq; **to wait** ~ pastda kutib turmoq.

downstream I [ˈdaʊnˈstri:m] *adv* oqim boʻylab pastga.

downstream II [ˈdaʊnˈstri:m] *a* oqim boʻylab pastda joylashgan.

downthrow [ˈdaʊnθrou] *n* *geol.* uzilma (*togʻ jinslarining uzilib tushishi*).

downtime [ˈdauntaim] *n* tashkiliy-texnik sabablar tufayli bekor turib qolish.

downtown [ˈdauntaun] *a* shaharning savdo-sotiq qismida joylashgan.

downtrodden [ˈdaʊnˌtrɒdn] *a* bosib tashlangan, toptalgan, oyoqosti qilingan.

downturn [ˈdauntɔ:n] *n* 1) bukish, egish; 2) tanazzul (*iqtisodiy*); tadbirkorlik faolligidagi pasayish.

downward I [ˈdaʊnwəd] *a* 1) tushuvchi, pasayuvchi, pastga yoʻnalgan, qiya; ~ **movement** past tomon harakat; ~ **tendency** *ig.* pasayishga moyillik; 2) pasayib borayotgan, tanazzulga yuz tutgan; ~ **career** martabada (*lavozimda*) pasayish; 3) ezilgan, gʻamgin, qaygʻuli; ~ **thoughts** noxush xayollar.

downward II [ˈdaʊnwəd] *adv* 1) pastga, qiyalik boʻylab; 2) borgan sari yomon, yomondan-yomon.

downy I [ˈdaʊni] *a* soʻzl. parli, momikli, tivitli.

downy II [ˈdaʊni] *a* soʻzl. ayyor, hiylagar, quv, shayton, mugʻambir, shum.

dowry [ˈdaʊ(ə)ri] *n* 1) sep; 2) qobiliyat, isteʼdod.

dowse [daʊz] *v* majnuntol novdasi, “sehrli novda” vositasida yerosti suvlari *yoki* minerallar borligini aniqlamoq.

dowsing-rod [ˈdaʊzɪŋrɒd] *n* majnuntol novdasi, “sehrli novda.”

doxy II [ˈdɒksi] *n* ishonch, eʼtiqod, maslak.

doxy II [ˈdɒksi] *n* fohisha, buzuq, gʻar.

doyen [ˈdɔɪən] *fr. n* oqsoqol, boshliq (*diplomatik korpusda, korporatsiyada*).

doze I [daʊz] *n* mudroq, pinak.

doze II [daʊz] *v* mudroq bosmoq, mudramoq.

dozen [ˈdɒzn] *n* dyujina, oʻn ikki dona.

dozy [ˈdɔʊzi] *a* mudroq bosgan, uyqu aralash, uyqu.

drab I [dræb] *n* sargʻish-jigarrang; xira jigarrang mato.

drab II [dræb] *n* 1) isqirt odam; 2) ogʻz. fohisha.

drab III [dræb] *v* fohishalik qilmoq.

drabbet [dræbit] *n* dagʻal, oqartirilmagan mato.

drabble [ˈdræbl] *v* kir qilmoq, ifloslamoq, sachratmoq.

drachma [ˈdrækmə] *pl* drachmae; draxma (*Gretsiya tangasi*).

Draco [ˈdreikou] *n* *astr* 1) Ajdar (*yulduzlar turkumidan biri*); 2) *zool.* drakon (*qanotli kaltakesak*).

Draconian, Draconic [dreɪˈkɔʊnjən, drəˈkɔʊnik] *a* juda qattiq, shafqatsiz, yovuz.

draff [dræf] *n* 1) chiqindi, chiqit, yuvindi; 2) ardob, barda; 3) yaramas, sarqit, palidlar.

draft I [dra:ft] *n* 1) reja, chizma; ~ **for a machine** mashina chizmasi; 2) loyiha, qoralama, eskiz; **first** ~ dastlabki (*qoralama*) loyiha; 3) *mol.* chek, trotta; 4) **this means a serious** ~ **on industry** buning uchun yuqori rivojlangan sanoat talab etiladi; 5) tanlash, ajratish; ~ **a cattle for branding** tamgʻalash uchun mollarni ajratish.

draft II [dra:ft] v 1) eskiz tayyorlamoq, qoralama qilmoq; reja, loyiha tuzmoq; to ~ **drawing** tasvirini chizmoq; 2) ajratmoq, tanlamoq; 3) belgilamoq, tamg'a bosmoq.

drafter [dra:ftə] n *harb.* harbiy xizmatga chaqiriluvchi.

drafter [dra:ftə] n aravaga qo'shiladigan ot.

drafting [dra:ftiŋ] n 1) tuzish (*hujjat, qonun loyihasini*); 2) tahrir qilish, ifodalash; 3) chizmachilik.

draftsman ['dra:ftsmən] n 1) chizmakash; chizmach; 2) tuzuvchi (*hujjatni*); muallif (*qonun loyihasini*).

draftsmanship ['dra:ftsmənʃip] n chizmachilik, chizmachilik san'ati.

drag I [dræg] n 1) sekin harakat; a **heavy ~ up hill** tepalikka og'ir ko'tarilish; 2) og'ir yuk, ortiqcha tashvish; to **be a ~ on smb** birov uchun ortiqcha yuk bo'lmoq; 3) *q.x.* og'ir borona.

drag II [dræg] v 1) tashimoq, sudramoq; to ~ **a net** to'rni tortmoq; 2) sudrab olib kelmoq; 3) azoblamoq, ezmoq.

dragee [dra: 'zei] n *fr.* draje, xamirturush (*mayda dumaloqlangan narsa, konfet, vitamin va b.lar*).

draggle [drægl] v sudramoq, loyga bulg'ab sudramoq, bulg'amoq.

draggle-tail ['dræglteɪl] n 1) kir etak (*bar*); 2) isqirt (*ko'pincha bolalar haqida*).

drag-net ['drægnɛt] n to'r (*baliq ovlaydigan*).

dragoman ['drægo(u)mən] n tilmoch, tarjimon (*sharq mamlakatlari*da *Yevropa elchixonalarida*).

dragon ['dræɡ(ə)n] n 1) ajdaho, ajdar; 2) iblis, shayton; 3) beshafqat kishi.

dragon-fly ['dræɡ(ə)nflai] n ninachi.

dragon's-blood ['dræɡənzblʌd] n

ajdar yoki ilon qoni (*drakon daraxtining qizil smolasi*).

dragon's teeth ['dræɡ(ə)nzi:θ] n *mif.* 1) ajdaho tishi; 2) *harb.* tankka qarshi to'siq.

dragoon [drə 'gu:n] n 1) dragun; *ko'chma.* tiyilmagan odam; 2) xonaki kaptar zoti.

drain [dreɪn] n 1) oqib chiqish, oqib tushish (*ketish*); 2) drenaj, quritish; 3) *so'zl.* qadah, qultum.

drain [dreɪn] v 1) chiqarib yubormoq (*suvni*); tugatmoq, so'rib olmoq; to ~ **water from a tank** idishdagi suvni chiqarib yubormoq; to ~ **a country of its wealth** mamlakat boyliklarini o'zlashtirib olmoq; 2) quritmoq, zaxni qochirmoq; to ~ **the land** yerning zaxini qochirmoq.

drainage ['dreɪnɪdʒ] n 1) drenaj, yerning zaxini qochirish, quritish; 2) kanalizatsiya.

drainage-tube [dreɪnɪdʒtju:b] n *tib.* drenaj naychasi.

drake I [dreɪk] n erkak o'rdak.

drake II [dreɪk] n pashsha (*baliq ovlashda xo'rak*).

drām [dræm] n 1) draxma (*og'irlik belgisi, savdoda = 1,77gr, dorixona ishida = 3,89gr*); 2) bir qultum spirtli ichimlik.

drama ['dra:mə] n drama, (*p'esa*); mojaro.

dramatic [drə'mætɪk] a 1) dramatik, teatrga oid, dramaturgiyaga oid; ~ **performance** teatr tomoshasi; ~ **reading** badiiy o'qish; 2) og'ir, mushkul, jiddiy; 3) kuchli taassurot qoldiradigan, dabdabali.

dramatics [drə'mætɪks] n 1) dramatik san'at; 2) tomosha, spektakl; **amateur** ~ havaskorlik spektakli.

dramatis personae ['dra:mætɪs-pə:sounai] n *pl lot.* ishtirok etuvchilar.

dramatist ['dræmætɪst] n drama-

turg, drama yozuvchi adib.

dramatization [ˌdræmət(a)ˈzeɪ-
f(ə)n] *n* dramalashtirish, insenirovka
qilish.

dramatize [ˈdræmətaɪz] *v* 1) drama-
lashtirmoq, drama shakliga keltirmoq;
2) kuchaytirib koʻrsatmoq, boʻrttirib
koʻrsatmoq.

dramaturge [ˈdræmətə:dʒ] =
dramatist.

dramaturgic [ˌdræməˈtə:dʒɪk] *a*
dramaturaga oid.

dramaturgist [ˈdræmətə:dʒɪst] =
dramatist.

dramaturgy [ˈdræmətə:dʒɪ] *n*
dramaturgiya (*dramatik asarlar yozish
nazariyasi va sanʼati*).

dram-drinker [ˈdræm.dɪŋkə] *n*
piyonista, aroqxoʻr.

dram-shop [ˈdræmʃɒp] *n* bar
(*kichkina restoran, mayxona*).

drank [dræŋk] *past drink dan*

drapery [ˈdreɪpəri] *n* drapirovka
(*parda, devorga qoqiladigan guldor
mato va b.lar*).

drastic [ˈdræstɪk] *a* qatʼiy, keskin,
radikal, tubdan; ~ **measures** qatʼiy
choralar.

dratted [ˈdræɪtɪd] *a* laʼnati, laʼnat-
langan, laʼnat oʻqilgan.

draught [dra:fɪ] *n* 1) tortish; **beasts
of ~** ot ulov; ish hayvonlari; 2) sizdirib
qoʻyish; **bear on ~** bochkadan pivoni
sizdirib quyish; 3) qultum; ~ **of water**
bir qultum suv; 4) yelvizak, qultum;
hóplam yutish, yutinish.

draughty [ˈdra:ftɪ] *a* yelvizakda
joylashgan.

draw I [drɔ:] *n* 1) tortish, tortib chi-
qarish; sugʻurib chiqarish; **to beat to
the ~** qurolni raqibdan oldin chiqarish;
2) *sʻzl.* yoqadigan, oʻziga jalb qiladi-
gan narsa; qiziqtiradigan narsa; **the
new play proved a great ~** yangi
pʼesaga xalq oqib keldi; yangi pʼesa

katta muvaffaqiyat qozondi.

draw II [ˈdrɔ:] *v* (**drew, drawn**)
1) tortmoq, sudramoq; **to ~ a train
(cart)** poyezdni (*aravani*) tortmoq; **to ~
a net** toʻrni tortmoq; 2) tortib (*surib*)
qoʻymoq, yaqinlashtirmoq; **to ~ a book
towards oneself** kitobni oʻzi tomon
tortib (*surib*) qoʻymoq; **we drew near
town** biz shaharga yaqinlashdik;
3) tortmoq; **to ~ a rope** arqonni tort-
moq; **to ~ a low** kamalak ipini tortmoq;
4) oʻziga tortmoq, jalb qilmoq; **to ~
audience** tinglovchilarni jalb qilmoq;
to ~ smb.'s attention birovning eʼtibo-
rini jalb qilmoq; 5) tortib olmoq, sugʻi-
rib olmoq; **to ~ a nail** mixni sugʻurib
olmoq; **to ~ a tooth** tishni sugʻurmoq;
6) biror narsa qilishga majbur qilmoq;
qonini qaynatmoq; **the last taught ~
him** soʻnggi istehzoli kinoya uning
qonini qaynatib yubordi.

draw III [drɔ:] *v* (**drew, drawn**)
rasm solmoq, rasm chizmoq; **to ~
cartoons** hajviy rasm (*karikatura*)
chizmoq.

drawback [ˈdrɔ:bæk] *n* 1) kamchi-
lik, nuqson; 2) toʻsiq, gʻov; **to succeed
in spite of ~s** toʻsiqlarga qaramay
muvaffaqiyatga erishmoq.

drawbridge [ˈdrɔ:brɪdʒ] *n* koʻtarma
(*ikki tomonga ajraladigan*) koʻprik.

drawer I [ˈdrɔ:] *n* 1) bufetchi,
ofitsiant; 2) chizmach, chizmakash;
3) hujjat tuzuvchi.

drawer II [ˈdrɔ:] *n* tortma (*stol,
javan va b.larda*).

drawers [drɔ:z] *n* ishton (*erkaklar
ishtoni*).

drawing [ˈdrɔ:ɪŋ] *n* 1) tortish,
sudrash, yaqinlashtirish; 2) lotoreya,
qurʼa tashlash (*sportda*); 3) *pl* tushum,
foйда; 4) chizmachilik; 5) chizma,
rasm, tasvir; ~ **of a tree** daraxtning

tasviri.

drawing-bench [ˈdrɔ:ɪnbentʃ] *n* *tex.* choʻzadigan dastgoh.

drawing-block [ˈdrɔ:ɪnblo:k] *n* rasm daftar.

drawing board [ˈdrɔ:ɪnbɔ:d] *n* chiz-machilik taxtasi.

drawing card [ˈdrɔ:ɪŋkɑ:d] *n* mashhur aktyor *yoki* spektakl; dasturning eng muhim joyi.

drawing-knife [ˈdrɔ:ɪŋnaɪf] *n* randa.

drawing-machine [ˈdrɔ:ɪnmə.ʃi:n] *n* *tex.* choʻzadigan (*kir yoyadigan*) dastgoh.

drawing-paper [ˈdrɔ:ɪŋ.ˈpeɪpə] *n* rasm chizish *yoki* chizmachilik qogʻozi.

drawing-pen [ˈdrɔ:ɪnpən] *n* reysfeder.

drawing-pin [ˈdrɔ:ɪnpɪn] *n* chizmachilik knopkasi (*knopka, bosma mix*)

drawing-room I [ˈdrɔ:ɪŋru:(:)m] *n* 1) mehmonxona; mehmonlar; 2) rasmiy qabul (*ayniqsa saroyda*).

drawing-room II [ˈdrɔ:ɪŋrum] *n* mehmonxona uchun maxsus mebellar toʻplami.

drawl [ˈdrɔ:l] *n* choʻzib talaffuz qilish.

eyepiece [ˈaɪpiːs] *n* okulyar (*optik asbobning tutib qaraladigan tomondagi shishasi*).

eye-service [ˈaɪ.səvɪs] *n* oʻzini yaxshi koʻrsatish uchun qilinadigan ish.

eyeshadow [aɪ.ʃædəʊ] *n* qoshqalam.

eyeshot [ˈaɪʃɒt] *n* koʻrish maydoni, doirasi.

eyesight [ˈaɪsaɪt] *n* koʻrish qobiliyati, koʻrish; **good** ~ yaxshi koʻrish, koʻzning oʻtkirliigi; **poor** ~ xira koʻrish; yomon koʻrish.

eye-socket [ˈaɪ.sɒkɪt] *n* koʻz chano-gʻi, koʻz kosasi.

eyesore [ˈaɪsɔː] *n* koʻz dogʻi, koʻzga tushgan oq.

eye-tooth [ˈaɪtuːθ] *n* anat. soʻyloq tishlar, yoriq tishlar.

eyewash [ˈaɪwɔːʃ] *n* koʻz malhami (*latta yoki paxtaga surtib ogʻriq joyga qoʻyish uchun tayyorlangan suyuq dori*).

eyewater [ˈaɪ.wɔːtə] *n* koʻz yosh.

eye-wink [ˈaɪwɪŋk] *n* koʻz ochib yumguncha oʻtadigan vaqt, lahza, on, fursat, dam, nafas.

eyewitness [ˈaɪˈwɪtnɪs] *n* guvoh, shohid.

eyrie [ˈaɪəri] = **aerie**.

F, f [ef] *n* 1) ingliz tili alifbosining oltinchi harfi; 2) *mus.* fa notasi.

fa [fa:] *n mus.* fa (*musiqqa gammasining to'rtinchi notasi*).

fab [fæb] *a* afsonaviy.

Fabian I ['feibjən] *a* ehtiyotli, ehtiyotkor, payt poylaydigan; ~ *policy* payt poylash siyosati.

Fabian II ['feibjən] *n* fabiani, fabianchilik jamiyati a'zosi.

fable I ['feibl] *n* masal, to'qima, zarbulmasal; **Aesop's ~s** Ezop masali.

fable II ['feibl] *v* masal aytmoq; ichidan to'qimoq (*hazil narsalarini*).

fabler ['feiblə] *n* 1) masalchi, masal yozuvchi, masalnavis; 2) ertakchi.

fabliau [fæ'bliou] *fr. n* (*pl -aux*) *adab.* fablo.

fabliaux ['fæ:bliouz] *pl* **fabliau** *dan.*

fabric ['fæbrik] *n* 1) gazlama, gazmol, mato; **silk and woolen** ~ ipak va jun gazlama; 2) tuzilish, tuzilma; **the ~ of society, the social** ~ ijtimoiy tizim; 3) bo'rtma, gul, bezak (*gazmolda*); **cloth of beautiful** ~ bezagi chiroyli gazlama; 4) buyum, fabrikat; 5) inshoot, bino.

fabricate ['fæbrikeit] *v* 1) o'ylab chiqarmoq; **the story was ~d from begining to end** hikoya boshidan oxirigacha to'qilgan edi; 2) qalbaki-lashtirmoq; **to ~ papers** qalbaki hujjatlar tayyorlamoq.

fabricated ['fæbrikeitid] *a* yig'ma, tayyor qismlardan yasalgan; ~ *house* standart uy, tayyor qismlardan qurilgan uy (*panelli uy*).

fabrication [ˌfæbri'keif(ə)n] *n* 1) uydirma, yolg'on, to'qima; **his story was an entire ~** uning hikoyasi boshidan oxirigacha uydirma edi; 2) soxta, qalbaki narsa; **the document was undoubtedly a ~** hujjat so'zsiz

qalbaki edi; 3) ishlab chiqarish, tayyorlash; 4) tayyor qismlardan yig'ish.

fabulist [ˈfæbjulɪst] *n* masalchi, masal yozuvchi, masalnavis.

fabulosity [ˌfæbjʊ'ləsɪti] *a* afsonaviy, misli ko'rilmagan, aqlga sig'maydigan.

fabulous ['fæbjuləs] *a* afsonaviy, misli ko'rilmagan; ~ **hero** afsonaviy qahramon.

facade [fə'sa:d] *n* fasad, binoning old tomoni (*oldi*), ko'rinish, tashqi ko'rinish.

face I [feis] *n* 1) yuz, aft, qiyofa; tumshuq (*hayvonlarda*); **black (blue, red) in the ~** qizarib ketgan (*g'azab va b.lardan*); 2) yuz ifodasi; chehrasida aks etgan belgi; **straight** ~ ehtirossiz (*hech narsani ifodalamaydigan*) yuz, "niqob"; **to make ~s** aftini burishtirmoq; 3) tashqi ko'rinish, tashqi qiyofa; **on (upon) the ~ of (it)** tashqi ko'rinishiga ko'ra, dastlabki qarashda; **an the ~ of it you are guilty** ko'rinishidan siz aybdorga o'xshaysiz; 4) *so'zl.* surbetlik, bezbetlik, uyatsizlik; **to show a ~** o'zini surbetlarcha tutmoq; 5) sath, tashqi tomon; ~ **of a door** eshik tomonlari (*ichki va tashqi tomon*); 6) usti, sathi (*yerning, suvning*); 7) o'ng, old tomon (*mato, medal va b.larning*); 8) siferblat.

face II [feis] *v* 1) ... ga qarab turmoq, o'tirmoq; **they sat so as to ~ each** ular qarama-qarshi (*betma-bet*) o'tirishardi; **the man now facing me** hozir oldimda turgan kishi; 2) mardona kutib olmoq (*biror narsani*); hech bir qo'rquvsiz qaramoq (*biror narsaga*); **to ~ the ordeal** sinovga matonatli bardosh bermoq; **to ~ danger** xavfni qo'rquvsiz kutib olmoq; 3) duch kelmoq, to'qnash kelmoq; **to be ~d with a difficulty** qiyinchilikka duch (*to'qnash*) kelmoq.

face-ache [ˈfeiseik] *n* tib. yuz nervlari, nevrologiyasi (*asab sistemasi-ning biror yeri kasallanishi yoki yal- ligʻlanishi natijasida paydo boʻladigan ogʻriq*).

face-card [ˈfeiska:d] *n* surat, suratli, qarta (*korol, valet, dama*).

face-guard [ˈfeisga:d] *n* himoya qiladigan (*saqlaydigan*) niqob.

face-lifting [ˈfeisliftiŋ] *n* yuzni plastik operatsiya qilish.

facer [ˈfeisə] *n* 1) betga urilgan zarba; 2) *amer. soʻzl.* kutilmagan toʻsiq.

facet I [ˈfæsət] *n* 1) qirra (*olmos va b.larda*); 2) jihat, tomon; **to study all the ~s of matter** masalaning barcha tomonlarini oʻrganib chiqmoq.

facet II [ˈfæsət] *v* qirralamoq, sayqal bermoq.

facetae [fəˈsiːʃii:] *n pl* lot. hazillar, qochirimlar, pichinglar.

facetious [fəˈsiːʃəs] *a* hazillashadigan, hazilkash, quvnoq.

face-value [ˈfeis.vælju:] *n* nominal baho, oʻz bahosi (*tanga, banknot, aksiyaning*).

facia [ˈfeijə] = *fascia dan.*

facial [ˈfeij(ə)l] *a* 1) yuzga oid, yuzdagi; ~ *nerve* yuz nervi; 2) yuzadagi, sirtqi, ustki; ~ *layer* ustki qatlam; 3) kosmetik; ~ *massage* kosmetik uqalash.

facile [ˈfæsail] *a* 1) yengil, oson, zoʻr berishni talab qilmaydigan; ~ **victory (success)** oson erishilgan gʻalaba (*muvaffaqiyat*); 2) moyil, taʼsirchan, zehqli; 3) yuzaki, shoshmashosharlik bilan qilingan; ~ **decision** shoshmashosharlik bilan qabul qilingan qaror; 4) koʻngilchan, koʻnikuvchan, yumshoq tabiat; ~ **parents** muruvvatli otanalari.

facilitate [fəˈsilitet] *v* yordam bermoq, koʻmaklashmoq, yengillatmoq.

facilitation [fəˈsiliˈteɪʃ(ə)n] *n*

yordam berish, koʻmak berish, yengillatish.

facility [fəˈsiliti] *n* 1) qulaylik, imtiyoz; **good transportation facilities** yaxshi uyushtirilgan transport; 2) yengil, qiyin emaslik; **the ~ of the task** yengil vazifa.

facing [ˈfeisiŋ] *n* qoplama.

facsimile [fækˈsimili] *n* faksimile (*qoʻlyozma, hujjat yoki imzoning ayni nusxasi*).

fact [fækt] *n* 1) dalil, chin, haqiqat, mohiyat; 2) haqiqat, reallik; 3) dalil, asos; **you must prove your ~s** siz keltirgan dalilni toʻgʻriligini isbotlashingiz kerak.

fact-finding [ˈfæktˌfaɪndiŋ] *n* tekshirish, dalillarni aniqlash.

faction [ˈfæksj(ə)n] *n* fraksiya.

fractional [ˈfæksjənəl] *a* fraksion.

fractionalism [ˈfæksjənəlɪzəm] *n* fraksiyachilik.

factitious [fækˈtɪʃəs] *a* sunʼiy, yasama.

factitive [ˈfæktitiv] *a gram.* sababiy aloqa (*bogʻlanish*).

factor [ˈfæktə] *n* omil, harakatga keltiruvchi kuch; 2) vositachi; 3) oʻrtada turuvchi.

factorial [fækˈtɔːriəl] *a* oʻrtada turuvchi, vositachilikka oid; ~ **dufies** oʻrtada turuvchining vazifasi.

factory [ˈfækt(ə)ri] *n* zavod, fabrika; ~ **law** fabrika qonunlari.

factory-buster [ˈfækt(ə)ri.bʌstə] *n* *harb.* ogʻir fugas bomba.

factotum [fækˈtɔʊtəm] *n* 1) ishonchli xizmatkor; 2) qoʻli gul usta.

factual [ˈfæktjuəl] *a* daliliy, dalilga asoslangan.

facultative [ˈfækt(ə)ltətiv] *a* 1) fakultativ, majburiy boʻlmagan; 2) tasodifiy, muntazam boʻlmagan.

faculty I [ˈfækt(ə)lti] *n* 1) qobiliyat, isteʼdod; ~ **of speech** soʻzlash qobiliyati,

notiqlik; **the mental faculties** aqliy qobiliyatlar; 2) hokimiyat, huquq (*cherkovga oid*).

faculty II [ˈfæk(ə)lti] *n* fakultet, boʻlim, boʻlinma; **the ~ of law** yuridik fakultet; 2) oʻqituvchi-professorlar tarkibi.

fad [fæd] *n* gʻalati qiliq, gʻalatilik; **this is a passing ~ oʻtkinchi** (*qisqa muddatli*) havas.

faddiness [ˈfædinis] *n* gʻalati, qiziq.

faddist [ˈfædist] *n* gʻalati (*tentak-simon*) odam, qiziq tabiatli kishi

faddy [ˈfædi] *a* (*tabiati*) qiziqroq, gʻalatiroq.

fade [feid] *v* soʻlmoq, qurimoq, sekin yoʻq boʻlmoq; **summer ~s into autumn** yoz sekin-asta kuzga aylanmoqda.

fadeaway [ˈfeidəwei] *n* asta-sekin, sekin-asta.

fade-in [ˈfeid in] *n* *kino. radio. telv.* tovush yoki tasvirning asta-sekin paydo boʻlishi.

fadeless [ˈfeidlis] *a* soʻlmaydigan, soʻlmas, oʻchmas.

fade-out [ˈfeidˈaut] *n* *kino. radio. telv.* tovush yoki tasvirning sekin-asta yoʻq boʻlib ketishi.

fading [ˈfeidin] *n* *radio.* soʻnish, oʻchish, pasayish, toʻxtash.

faeces [ˈfi:si:z] *n* choʻkindi, loyqa.

faerie, faery [ˈfe(i)əri] *n* 1) ertaklardagi podsholik; 2) pari.

fag I [fæg] *n* 1) ogʻir, toliqtiradigan va zerikarli ish; 2) kichik oʻquvchining kattalarga xizmat qilishi.

fag II [fæg] *v* 1) mehnat qilmoq, ishlamoq; 2) kichik oʻquvchilar xizmatidan foydalanish; 3) koptokni olib qoʻymoq.

fag-end [ˈfægˈend] *n* 1) keraksiz narsa; 2) oxiri; **the ~ of the day** kunning oxiri; **at the ~ of a book** kitobning oxirida.

faggot [ˈfægət] *n* bogʻ, bogʻlam.

fagot [ˈfægət] *amer.* = **faggot**.

Fahrenheit [ˈfa:r(ə)nhait] *n* Farangeyt termometri, Farangeyt termometrining shkalasi.

faience [faɪˈa:ns] *n fr.* fayans.

fail [feil] *v* 1) muvaffaqiyatsizlikka uchramoq; **to ~ in the life** omadsiz boʻlmoq; **to ~ in a suit** *yur.* sudda yutqazmoq; 2) pand bermoq, umidni puchga chiqarmoq; **as usual, he ~ed me at the last minute** odatdagidek, u soʻnggi daqiqada menga pand berdi; 3) kamlik qilmoq, yetishmay qolmoq; **time would ~ me** vaqtim boʻlmaydi, men ulgurmay qolaman; **I ~ wors to express my thanks** minnatdorchiliginmi bildirish uchun soʻz topolmayapman; **our water supply has ~ed** xayira suvimiz tugadi, bizga suv yetishmay qoldi; 4) pasaymoq, zaiflashmoq, kuchdan qolmoq; **the wind ~ed** shamol tindi; **daylight is ~ing** qorongʻi tushyapti; 5) ishlashdan toʻxtamoq, safdan chiqmoq; **the patient's heart ~ed** bemorning yuragi urishdan toʻxtadi; 6) yiqilmoq (*imtihonda*); **he ~ed in matematics** u matematikadan yiqildi; 7) sinmoq, bankrot boʻlmoq (*firma va b.lar toʻgʻrisida*); toʻlovlarni toʻxtatmoq (*bank toʻgʻrisida*).

failed [feild] *a* 1) muvaffaqiyatsiz, ishi oʻngidan kelmagan; 2) singan, bankrot boʻlgan; ~ **firm** singan firma.

failing I [ˈfeilin] *n* nuqson, illat, ayb, kamchilik; **We all have our ~s.** Hammamizni oʻz kamchiligimiz bor.

♣ **failing II** [ˈfeilin] *a* 1) yetishmaydigan; 2) zaiflashayotgan; ~ **sight** koʻrishning zaiflashishi.

failing II [ˈfeilin] *prep.* yoʻqligi tufayli, yoʻq boʻlgan taqdirda; ~ **his arrival we shall stay here** u kelmay qolgan taqdirda, biz shu yerda qolamiz.

faille [feil] *n fr.* fay (*shoyi yoki jun*)

gazlama).

failure [ˈfeɪljə] *n* 1) muvaffaqiyatsizlik, barbod boʻlish; **dead** ~ butkul barbod boʻlish; **to end in** ~ muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlanmoq; 2) yetishmaslik, yoʻq boʻlish (*biror narsaning*); ~ **of rain** qurgʻoqchilik, yomgʻirsizlik; **crop** ~ hosilsizlik; 3) omadsiz, ishi oʻngidan kelmaydigan odam; **he was a ~ in art** u sanʼatda omadsiz edi; 4) bajarmaslik, amalga oshmaslik; ~ **to keep a promise** vaʼdani buzish; 5) *tex.* buzilish, avariya, shikastlanish, ishlamay qolish; ~ **of a pomp** nasosning buzilishi.

fain [feɪn] *a* majbur boʻlgan, ilojsiz qolgan; **she was ~ to keep silence** u gapirmasligi kerak edi, u ogʻzini ochmaslikka majbur edi.

faineant [ˌfeɪneɪˈɑːŋ] *a* yalqov, dangasa, tanbal.

faint [feɪnt] *n* hushidan (*oʻzidan*) ketish, behush boʻlib yotish, koʻngil aynishi; ~ **sound** sal farq qiluvchi tovush.

faint-heart [ˈfeɪnha:t] *n* qoʻrqoq, yuraksiz, quyon yurak.

faint-hearted [ˈfeɪntˈha:tɪd] *a* qoʻrqoq, yuraksiz, qoʻrqoq kishi.

faint-heartedly [ˈfeɪntˈha:tɪdli] *adv* qoʻrqib, hadiksirab.

fainting-fit [ˈfeɪntɪŋfɪt] *n* hushidan (*oʻzidan ketish, behush boʻlib qolish*) ketish.

faintly [ˈfeɪntli] *adv* rangi oqarib, boʻzarib.

fair I [feə] *n* yarmarka, ehson bozor, koʻrgazma; **world** ~ jahon koʻr-gazmasi.

fair II [feə] *a* 1) vijdonli, adolatli, begʻaraz, qonuniy; **by ~ means** qonuniy yoʻl bilan; **by ~ means or foul** har qanday yoʻl bilan boʻlsa ham; ~ **price** adolatli (*haqiqiy*) narx; 2) durustgina, chidasa boʻladigan; **in ~ condition**

durust (*yaxshi*) holatda; **a ~ number** of yetarli miqdorda; 3) oq malla, sargʻish; ~ **hair** sargʻish sochli; 4) toza, dogʻ tushmagan; ~ **name** pok (*yaxshi*) nom; 5) ochiq va quyoshli kun; ~ **sky** musaffo osmon.

fair-dealing [ˈfeə,di:lɪŋ] *n* vijdonlilik, toʻgʻrilik

fairing I [ˈfeəriŋ] *n* sovgʻa (*koʻpincha meva-cheva*).

fairly [ˈfeəli] *adv* 1) vijdonan, adolatli, begʻaraz; **to act ~ by all man** barchaga adolatli munosabatda boʻlmoq; 2) yetarli darajada, yaxshigina; **she sings ~ well** u anchagina yaxshi kuylaydi; 3) qulay, muvofiq tarzda; ~ **situated** shahar yaxshi joylashgan; 4) aniq, tushunarli; **to write ~** ravshan yozmoq.

fairness [ˈfeənis] *n* ozodalik, pokizalik, tozalik; **in all** ~ hayoli.

fair-spoken [ˈfeəˈspəʊk(ə)n] *a* xushmuomala, muloyim, yumshoq.

fairway [ˈfeəweɪ] *n* farvatyer (*suvning kemalar yura oladigan chuqur joyi, kema yoʻli*).

fair-weather [ˈfeə,weðə] *a* faqat yaxshi ob-havoda kerak boʻladigan (*foydalanadigan*); ~ **task** faqat yaxshi ob-havoda qilinadigan vazifa.

fairly I [ˈfeəri] *n* sehrgar ayol.

fairly II [ˈfeəri] *a* 1) sehrli, sehrlab qoʻyadigan (*maftun qiladigan*) goʻzal ayol; 2) yupqa, yaltiroq; ~ **textures** yupqa mato.

Fairyland [ˈfeəriˌlənd] *n* afsonaviy mamlakat.

fairly-mushroom [ˈfeəri,mʌʃrʊm] *n* qurbaqasalla (*zaharli goʻziqorin*).

fairly-tale [ˈfeəriteɪl] *n* afsona, ertak.

fait accompli [ˌfɛtɑːkɒmˈpliː] *n* fr boʻlgan voqea.

faith [feɪθ] *n* 1) ishonch, ishonish; **to have ~ in smth.** biror narsaga

ishonish; to place one's in smth. biror narsaga ko 'r-ko 'rona ishonish; 2) e'tiqod, din; the **Muhammedan** ~ islom dini; 3) maslak, nuqtai nazar, qarash; **political** ~ siyosiy maslak; to **keep one's** ~ o'z nuqtai nazarida qat'iy turmoq; 4) sodiqlik, sadoqatlilik, tarafdorlik; **in good** ~ chin qalbdan, toza vijdon bilan; 5) va'da qilish, kafil bo'lish, so'z berish; to **keep (one's)** ~ so'zida turmoq.

faithful ['feiθf(u)l] *a* 1) chin, saodatli; ~ **friend** sadoqatli do'st, sodiq; 2) aniq ishongan, ishonch qozonish; 3) vijdonli.

faithfully ['feiθfuli] *adv* vijdonan, to'g'ri, halollik bilan; to **serve smb.** ~ kimgadir vijdonan xizmat qilmoq.

faithfulness ['feiθf(u)lnis] *n* sodiqlik, vafodorlik, sadoqat, vafo.

faithless ['feiθlis] *a* ahdini buzuvchi, o'z so'zida turmaydigan, bevafo; a **man of a ~ disposition** ishonchsiz odam.

fake I [feik] *n* 1) qalbaki, soxta, yasama; 2) yol'g'onchi.

fake II [feik] *v* 1) qalbaki narsa yasamoq; 2) aldamoq; 3) o'g'z. o'g'irlamoq.

faked I [feikt] *a* soxta, qalbaki, yasama.

faked II [feikt] *a* qalbakilashtirilgan, soxta; ~ **report** qalbaki hisobot.

faker ['feikə] *n* firibgar, qallob, muttaham.

fakir ['fa:kiə] *n* darvish, qalandar.

Falangist [fə'la:ndzist] *n* falangist, falangachi (*Ispaniyada: fashistik partiya a'zosi*).

falcate [fælkeit] *a* o'roqqa o'xshash, o'roqsimon.

falchion ['fɔ:l(ɪ)ʃən] *n* kalta enli egri qilich, shamshir.

falciform ['fælsifɔ:m] *a* egik, ilgaksimon, o'roqsimon.

falcon ['fɔ:lkn] *n* lochin.

falconer ['fɔ:lknə] *n* lochin bilan ov qiladigan ovchi.

falconet ['fɔ:lknit] *n* *zool.* qarunoq, olato'g'anoq.

falconry ['fɔ:lkn(ə)nri] *n* lochin ovi.

falderal ['fældə'ræl] *n* maydachuyda bezak, buyum.

faldstool ['fɔ:lɒstu:l] *n* qiya stol (*cherkovda*).

fall I [fɔ:l] *n* 1) pasayish, yig'ilishib tushish; a ~ **from one's horse** otdan yiqilish; the ~ **of an apple** olmani tushishi; 2) pastga tushishi; ~ **in temperature** haroratning pasayishi; 3) sharshara; the ~ **s of Niagara** Niagara sharsharasi; 4) pastlik, qiyalik, (*qoya*); 5) to'kilish (*soch*); 6) *amer.* kuz.

fall II [fɔ:l] *v* 1) tushmoq, tushib ketmoq; to ~ **down stairs** narvondan (*zinadan*) yiqilmoq; 2) tashlamoq; the **temperature** ~ harorat tashladi; 3) yiqilmoq, halok bo'lmoq; to ~ **in (a) battle** jangda halok bo'lmoq; 4) buzilmoq; ~ **away** tashlab ketmoq; **all his old friends fell away** hamma qadrdon do'stlari uni tashlab ketdi; ~ **off** tushmoq; **all the leaves have ~ en off** hamma barglar to'kilib bo'ldi; ~ **out** harishdan chiqmoq; ~ **out!** tarqaling!

fallacious [fə'leifəs] *a* xato, noto'g'ri; ~ **argument** noto'g'ri dalil (*isbot*).

fallacy ['fæləsi] *n* 1) xatolik, xato; 2) ishonchsizlik.

fal-lal ['fæl(l)'læl] *n* bezak, zebziynat, yarqiroq taqinchoqlar.

fallen I ['fɔ:l(ə)n] *a* yiqilgan.

fallen II ['fɔ:l(ə)n] *n* urushda halok bo'lganlar.

fall-guy ['fɔ:l'gai] *n* hamma baloga to'g'anoq odam; boshqalarning aybiga javobgar bo'lib qolgan odam.

fallibility [fælf'biliti] *n* xatolik, noto'g'rilik.

fallible [ˈfæləbl̩] *a* xato qilgan, xato qilishi mumkin boʻlgan.

falling [ˈfɔːlɪŋ] *n* yiqilish, yiqilib tushish.

falling-sickness [ˈfɔːlɪŋˈsɪknɪs] *n* tib. epilepsiya, tutqanoq (*kasallik*).

fall-out [ˈfɔːlɔʊt] *n* yogʻin, yogʻgan radiaktiv zarralar.

fallow I [ˈfælou] *n* ekilmagan, dam berib qoʻyilgan yer (*shudgor qilib, boʻsh qoldirilgan yer*).

fallow II [ˈfælou] *a* qizgʻish-sariq.

fallow-deer [ˈfæləʊdiə] *n* lan (*bu-gʻu turi*).

false [ˈfɔːls] *a* 1) soxta, qalbaki; ~ **pride** qalbaki magʻrurlik; 2) yasama; ~ **hair** yasama soch (*parik*).

false arch [ˈfɔːlsɑːtʃ] *n* manzarali ravoq.

false-hearted [ˈfɔːlsˈhɑːtɪd] *a* ahdni buzuvchi, oʻz soʻzida turmaydigan.

falsehood [ˈfɔːlʃud] *n* yolgʻon, yolgʻon (*notoʻgʻri*) gap; **He never told ~s**. U hech qachon yolgʻon gapirmagan.

falsely [ˈfɔːlsli] *adv* soxta, yolgʻon-dakam, yasama.

falseness [ˈfɔːlsnɪs] *n* soxtalik, mu-gʻambirlik, firibgarlik.

falsestto [ˈfɔːlˈsetou] *n* mus. falset.

falsework [ˈfɔːlswɜːk] *n* havoza.

falsification [ˈfɔːlsɪfɪˈkeɪʃ(ə)n] *n* soxtalashtirish, qalbakilashtirish.

falsify [ˈfɔːlsɪfaɪ] *v* soxtalashtirmoq, qalbakilashtirmoq.

falsity [ˈfɔːlsɪtɪ] *n* yolgʻonlik, soxtalik; **the ~ of the method** yolgʻon metod.

falter [ˈfɔːltə] *v* 1) kalovlantirmoq, gandarlamoq; 2) notoʻgʻri harakat qilmoq.

faltering [ˈfɔːlt(ə)rɪŋ] *a* ikkilanuvchi, jurʻatsiz; ishonchsiz; ~ **steps** ishonchsiz (*notoʻgʻri*) harakat.

fame I [feɪm] *n* shon-sharaf; **to make ~** sharafga erishmoq.

fame II [feɪm] *v* mashhur boʻlmoq.

famed [feɪmd] *a* mashhur, nomi chiqqan, tanilgan

familiar I [ˈfəːmɪljə] *a* yaqin, qalin, qarddon; ~ **friends** qarddon doʻstlar.

familiar II [ˈfəːmɪljə] *n* yaqin doʻst, qarddon oʻrtoq, sirdosh.

familiarity [ˈfəːmɪliˈæritɪ] *n* yaqinlik, yaqin tanishlik.

familiarization [ˈfəːmɪljə(r)aɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* oʻzlashtirish, bilib olish (*biror narsani*).

familiarize [ˈfəːmɪljəraɪz] *v* tanish-tirmoq, koʻrsatmoq; **to ~ smb. with a new job** yangi ish bilan tanishmoq.

familiarly [ˈfəːmɪljəli] *adv* 1) yaqindan, yaxshi bilish; 2) odatda, qoidaga koʻra.

family I [ˈfæmɪli] *n* oila, oila aʼzolari, urugʻ; ~ **likeness** familiya oʻxshashligi; ~ **hotel** oila uchun mehmonxona; ~ **friend** oila doʻsti.

family II [ˈfæmɪli] *n* 1) oila; **a man of ~** oilali kishi; **a man of good ~** yaxshi oiladan chiqqan kishi; 2) *max.* oila; **cat ~ zool.** mushuksimonlar oilasi; 3) hamdoʻstlik, birlashma, uyushma.

famine [ˈfæmɪn] *n* ochlik (*tabiiy ofat*); **to die of ~** ochlikdan oʻlish.

famish [ˈfæmɪʃ] *v* och qolmoq, ochiqmoq; **Iʼm ~ing.** ogʻz. Men ochlikdan oʻlyapman.

famous [ˈfeɪməs] *a* atoqli, shonli, mashhur; **he is an English ~ writer** u atoqli ingliz yozuvchisi; **he has a ~ appetite** Uni ishtahasi zoʻr, **thatʼs ~ zoʻr, aʼlo!**

famously [ˈfeɪməsli] *adv* juda, juda ham, rosa; **They dined ~ in a Chinese restaurant.** Ular Xitoy restoranida zoʻr tushlik qilishdi.

famuli [ˈfæmjulai] **famulus** *dan.*

famulus [ˈfæmjuləs] *n* professorning yordamchisi, asistent.

fan I [fæn] *n* 1) yelpigʻich (*buklama yelpigʻich*); 2) shamol parrak;

electric ~ elektr shamol parrak.

fan II [fæn] *v* 1) yelpimoq, yelpib (*shopirib*) tozalamoq (*donni*); 2) puflamoq.

fan III [fæn] *n* 1) jonboz, tashabbuskor; 2) ishqibozi, havasmand; **He is football ~.** U futbol ishqibozi.; **film** ~ film ishqibozi.

fanatic [fə'nætik] *n* fanatik, o'taketgan mutaassib.

fanatical [fə'nætik(ə)] = **fanatic**.

fanaticism [fə'nætisizm] *n* fanatizm, o'taketgan mutaassib.

fancier ['fænsiə] *n* 1) yaxshi biladigan, bilag'on; 2) xayolparast.

fanciful [fænsif(u)] *a* serxarxasha, injiq; ~ **child** injiq bola.

fancy I ['fænsi] *n* fantaziya, xayol.

fancy II ['fænsi] *a* *did.* 1) havasmandlik, ishqiboqlik; 2) zamonaviy; ~ **goods** zamonaviy mahsulotlar.

fancy III ['fænsi] *v* 1) tasavvur qilmoq; **I can't ~ him as soldier.** Men uni askar bo'lganini tasavvur qilolmayman; 2) yoqtirmoq; **I don't ~ this place at all.** Men bu joyni umuman yoqtirmayman.

fancy-ball [fænsi'bo:l] *n* maskarad, bal.

fancy-dress ['fænsi'dres] *a* teatr libosi kiygan, teatr libosidagi.

fancy-free ['fænsi'fri:] *a* oshiq bo'lmagan, sevmagan.

fancy-work [fænsiwə:k] *v* gul tikib bezamoq.

bandango [fæn'dæŋgou] *n* bandango (*ispancha raqs*).

band [fein] *n* ibodatxona, butxona.

band [fænfeə] *n* mus. fanfara.

bandonade [fænfaerə'na:d] *n* maqtanchoqlik, lofchilik.

band [fæŋ] *n* qoziq tish, sóyloq tish.

band-light [fæn'lait] *n* *me'mor.* yelpig'ich shaklidagi deraza (*eshik tepasida*).

bander ['fænə] *n* shamol mashina (*don sovuradigan mashina*).

bandy ['fæni] *n* quyruq qism, quyruq, dum.

band-tail [fænteil] *n* yelpig'ichsimon dum.

bandasia [fæn'teizjə] *n* mus. 1) fantaziya; 2) arabcha raqs.

bandastic(al) [fæn'tæstik(ə)] *a* 1) fantastik, ajoyib; ~ **idea** g'aroyib o'ylab topish; ~ **fears** yolg'ondakam qo'rquv; ~ **profit** juda katta foyda; 2) o'zini noaniq ko'rsatish.

bandasticity [fæn.tæsti'kælitɪ] *n* ajoyiblik, g'aroyiblik.

bandasy ['fæntəsi] *n* 1) xayol; 2) ko'z bo'yash; 3) injiqlik.

bandoccini [fæntə'tʃi:ni] *n* *it. pl* qo'g'irchoqlar teatri.

band-tracery ['fæn.treis(ə)ri] *n* *me'mor.* gumbaz (*qubba*) qirrası.

banduir ['feikiə] = **fakir**.

band [fa:] *adv* uzoq, yiroq; qaramaqarshi qirg'oq; ~ **back in the past** uzoq o'tmishda; ~ **and near** hamma yoqda; **he saw ~ and wide** dunyoqarashi keng inson.

band ['færəd] *n* *el.* farada (*elektr sig'imi birligi*), qaramaqarshi qirg'oq.

bandarization [fæ'rædi'zeiʃ(ə)n] *n* induksion (*induksiyalangan*) tok bilan davolash.

band-away [fa:rəwei] *a* uzoq, yiroq, olis

band-between [fa:bɪ'twi:n] *a* siyrak, kam; **his visits were few and ~.** u onda-sonda kelardi.

bande I [fa:s] *n* qo'pol hazil, maynabozchilik.

bande II [fa:s] *n* qiyma (*go'sht qiymasi*).

bandical ['fa:sik(ə)] *a* farsga oid, fars; hazil, tabiat, no'rin hazil.

bandy ['fa:si] *n* *vet.* (*hayvonlarda bo'ladigan*) yuqumli kasallik.

fardel [ˈfa:dɪ] *n* tugun, boʻxcha.

fare [fɛə] *n* 1) yoʻl haqi; yoʻl haqi qiymati; **What is the ~?** Yoʻl haqi (*chipta*) qancha turadi?; 2) yoʻlovchi; **to pick up ~** yoʻlovchi olmoq; 3) oziq-ovqat; **simple ~** oddiy ovqat; **spiritical ~** maʼnaviy oziq.

Far-Eastern [ˈfa:(r)ɪ:stən] *a* Uzoq-Sharq.

farewell [ˈfɛəwel] *a* xayrlashish, vidolashish; **to make one's ~s** xayrlashmoq.

far-famed [ˈfa:ˈfeɪmd] *a* keng tarqalgan, keng tanilgan.

far-fetched [ˈfa:ˈfetʃt] *a* sunʼiy, yasama, notabiiy.

far-flung [ˈfa:ˈflʌŋ] *a* keng, bepoyon.

far-gone [ˈfa:ˈgɒn] *a* uzoqqa choʻzish, chuqurlashish; **sitting in the ~** **night** yarim tungacha oʻtirish; 2) gʻirt mast; 3) qarzga botgan.

farina [ˈfɛːraɪnə] *n* 1) farina (*mayda tortilgan aʼlo nav oq un*); 2) bugʻdoy yormasi; 3) kraxmal, kartoshka uni.

farinaceous [ˌfæriˈneɪʃəs] *a* kraxmalli, unli.

farinose [ˌfæriˈnɔːs] *a* kraxmalli, unli, un sepilgandek

farm I [fa:m] *n* 1) ferma, xoʻjalik; **milk ~** sut fermasi, sut xoʻjaligi; 2) dehqon xoʻjaligi; **individual ~** yakka xoʻjalik; 3) niholxona, qoʻriqxona; 4) fermadagi turarjoy.

farm II [fa:m] *v* 1) qishloq xoʻjaligi bilan shugʻullanmoq; 2) ishlov bermoq (*yerga*); 3) ijaraga olmoq, ijaraga bermoq.

farmer [ˈfa:mə] *n* fermer; **cattle ~** chorvador; chorvachilik fermasining egasi; 2) ijarador.

farm-hand [ˈfa:mhænd] *n* qishloq xoʻjaligi ishchisi.

farm-house [fa:mhaus] *n* fermadagi turarjoy.

farming [fa:mɪŋ] *n* qishloq xoʻjaligi

bilan shugʻullanish, dehqonchilik.

farm-stead [ˈfa:msted] *n* qoʻrgʻoncha.

farm-yard [ˈfa:mˈja:d] *n* ferma hovlisi.

faro [ˈfɛərəu] *n* faraon (*qarta oʻyini*).

far-off [ˈfa:(r)ˈɔ:(:)] *a* uzoq, ilgari, allaqachon; **it happened in those ~** **days** bu ilgari boʻlib oʻtgan.

farouche [fəˈru:ʃ] *a fr.* odamovi; maʼyus.

far-out [ˈfa:(r)ˈaʊt] *a* hayotdan ajralib qolgan; atrofda boʻlayotganlardan bexabar.

farraginous [fəˈreɪdʒɪnəs] *a* aralash, qurama, terma.

farrago [fəˈra:gou] *n* aralashma, har xil narsalar, olamdagi bor narsalar, qorishma.

farrier [ˈfæriə] *a* temirchi, taqachi.

farriery [ˈfæriəri] *n* temirchilik.

farrow I [ˈfærou] *n* bolalash, tugʻish (*choʻchqa haqida*).

farrow II [ˈfærou] *a* qisir sigir.

far-seeing [ˈfa:ˈsi:ɪŋ] *a* uzoqni koʻruvchi, sinchkov, oldindan koʻra biluvchi.

far-sighted [ˈfa:ˈsɑɪtɪd] *a* uzoqni koʻra biladigan.

farther [ˈfa:ðə] *a* 1) ancha uzoq, olis; **at the ~ shore** narigi qirgʻoqda; 2) takroriy, qoʻshimcha; **Have you anything ~ to say?** Yana biror narsa qoʻsha olasizmi?

farthermost [ˈfa:ðəməʊst] *a* eng uzoq, juda yiroq; **the ~ point** eng oxirgi nuqta.

farthest [ˈfa:ðɪst] *a* eng katta, eng kechki, uzoq.

farthing [ˈfa:ðɪŋ] *n* forting ($\frac{1}{4}$ pens); **the utter most ~** oxirgi tanga; **it's not worth a ~** bir chaqaga qimmat; **not to care a brass ~** tupurmoq.

fascia [ˈfæʃiə] *n* chiziq, chiziqcha.

fasciae [ˈfæʃi:] *pl* fascia dan.

fascicle [ˈfæsɪkl] *n bot.* bir bogʻ, gʻujum.

fascicule [fəˈsɪkjʊ:l] = **fascicle**.

fascinate [ˈfæsineɪt] *v* hayratda qoldirmoq, asir qilmoq.

fascinating [ˈfæsineɪtɪŋ] *a* oʻziga tortuvchi, oʻziga qaratadigan, asir qiladigan.

fascination [ˌfæsɪˈneɪʃ(ə)n] *n* koʻrkamlilik, goʻzallik.

fascinator [ˈfæsineɪtə] *n* sehrgar, jodugar.

fascine [fæˈsi:n] *n* shox-shabba yoki qamish bogʻlami (*toʻgʻon uchun ishlatiladi*).

fascism [ˈfæʃɪzɪzəm] *n* fashizm.

fascist [ˈfæʃɪst] *n* fashist.

fash I [fæʃ] *n* tashvishlanish, bezovtalik, ranjish.

fash II [fæʃ] *v* bezovtalanmoq, tashvishlanmoq; **never ~ yourself with me** mendan xavotir olmang.

fashion [ˈfæʃ(ə)n] *n* 1) harakat (*muomala*) tarzi; **he behaved in a strange** ~ u oʻzini gʻalati tutdi, 2) fason, bichim, shakl; **the two caps are made after the same** ~ ikkala piyolaning shakli bir xil; 3) uslub, rusm, moda; **he was dressed in the Easten** ~ u sharqona rusmda kiyingandi; **to come (to bring, to grow) into** ~ rusm (*moda*) boʻlmoq.

fashionable [ˈfæʃnəbl] *a* zamonaviy; ~ **dressmaker** zamonaviy tikuvchi.

fashioner [ˈfæʃənə] *n* tikuvchi, modelyer.

fashion-monger [ˈfæʃ(ə)n.mʌŋgə] *n* zamonaviy, modaga berilgan kishi.

fashion-paper [ˈfæʃ(ə)n.peɪpə] *n* modular jurnali.

fashion-plate [ˈfæʃ(ə)npleɪt] *n* zamonaviy rasm (*tasvir*).

fast I [fa:st] *n* zanjir, zulfın, tamba.

fast II [fa:st] *a* 1) qattiq, pishiq, mustahkam; ~ **rocks** qattiq qoyalar;

hard and ~ rule qattiq qoida; 2) mustahkam, pishiq biriktirilgan; 3) sabotli, matonatli, sodiq; ~ **friend** sodiq doʻst.

fast III [fa:st] *a* 1) tezkor, chaqqon; ~ **horse** uchqur ot; ~ **tank** tezyurar tank; **he is a worker** u tez ishlaydi; 2) tez yurish *yoki* tez harakatlanishga moslangan; ~ **trank** poyezdning tez yurishiga moslangan yoʻl; 3) oldin ketish (*soat toʻgʻrisida*); **my watch is 5 minutes** ~ soatim 5 minut oldin; 4) yengiltak, mulohazasiz, oqibatini oʻylamaydigan; **to lead a ~ life** sayoq yashamoq; ~ **woman** suyuqyoq ayol.

fast IV [fa:st] *n* din. roʻza; **a day for a general** ~ roʻza kuni.

fasten [ˈfa:sn] *v* 1) bogʻlamoq, tugmoq; **to ~ shoe-laces** tuflı ipını bogʻlamoq; **to ~ a boat to a tree** qayıqni daraxtga bogʻlamoq; 2) mustahkamlamoq, biriktirmoq 3) yopmoq; ~ **the window** derazani yoping (*deraza sumbasini solish*); 4) qotmoq, yopishmoq; **the plaster ~ s slowly** suvoq sekin qotadi; 5) jamlamoq, toʻplamoq, qaratmoq (*dıqqatni, eʻtiborni*); **he ~ ed his eyes on the picture** u rasmdan koʻzını uzmasdı. 6) (**on, upon**) majburan qabul qildirmoq, boʻynıga ortmoq, oʻtkazmoq; **to ~ the blame upon smb.** aybni bırovga agʻdarmoq.

fastener [ˈfa:snə] *n* ıch qotısh, qabziyat.

fastening [ˈfa:snɪŋ] *n* bırıktırısh, bogʻlash, qıstırıb qoʻyısh.

faster-than-sound [ˈfa:stə-ðən-saund] *n* tovushdan tez uchadigan samolyot.

fasti [ˈfæsti:] *n* lot. solnoma, yılınoma.

fastidious [fæsˈtɪdiəs] *a* 1) farqıga boradıgan, tanlaydıgan, talabchan, ınjıq; **don't be so ~ bunchalik** ınjıq boʻlma; 2) nozik, nafıs; ~ **hands** bejirim

qo'llar.

fasting ['fa:stɪŋ] *n* ro'za.

fastness ['fa:stnis] *n* 1) pishiqlik, mustahkamlik; 2) chidamlilik; 3) qal'a, qo'rg'on, istehkom; 4) *biol.* organizmning ayrim zaharlarga qarshilik ko'rsatish qobiliyati, immunitet.

fat I [fæt] *n* 1) yog', moy; **vegetable** ~ o'simlik yog'i; 2) semizlik, to'lalik, yog'onlik; **to be inclined to** ~ semirishga moyil bo'lmoq; 3) eng yaxshi qismi (*biror narsaning*); **to live on the ~ of the land** dabdabali yashamoq, barcha qulayliklardan foydalanmoq.

fat II [fæt] *a* 1) yog'li, moyli; ~ **soup** yog'li sho'rva; 2) semiz, yog'on, to'la; **with years he was grown** ~ yillar o'tib u semirib ketdi; 3) bo'rdog'iga boqilgan, semirtirilgan; ~ **ox** semirtirilgan buqa; 4) hosildor, semiz (*yer*); 5) mo'l-kol, boy, serob; ~ **larder** to'la ombor; 6) *so'zl.* foydali, daromadli; ~ **job** daromadli ish.

fatal ['feitl] *a* 1) peshonaga yozilgan, taqdiridagi; mash'um; 2) halokatli, falokatli, mash'um; **He was a victim of a ~.** U baxtsiz hodisa qurboni bo'lgan.

fatalism ['feitəlizm] *n* fatalizm (*taqdirga ishonish*).

fatality [fə'tæliti] *n* 1) halokatlilik, falokatlilik; 2) baxtsizlik, halokat, o'lim (*urushda, baxtsiz hodisadan va shu kabilarda*); 3) halokatga mahkumlik, o'limi muqarrarlik; 4) taqdir, qismat; **to believe in** ~ taqdirga ishonish.

fat morgana ['fa:təmo:'ga:nə] *n* sarob.

fate [feit] *n* taqdir, qismat.

fated ['feitid] *a* oldindan belgilangan, peshonasiga yozilgan.

fateful ['feitf(u)] *a* muqarrar, peshonaga yozilgan.

fat-guts ['fætgʌts] *n* semiz (*odam*).

fat-head ['fæθed] *n* ahmoq, tentak,

anqov.

father ['fa:ðə] *n* 1) ota; **adoptive** ~ tutingan ota; **natural** ~ nikohsiz tug'ilgan bolaning otasi; 2) yaratuvchi, ijodkor; **the Fathers (of the Constitution)** *amer.* AQSH Konstitutsiyasi ijodkorlari; 3) katta a'zo (*oqsoqol*); **city** ~ shahar otalari; shahar boshqaruvi a'zolari; 4) (F) xudo; 5) ma'naviy ota, ruhoniy.

fatherhood ['fa:ðəhud] *n* otalik.

father-in-law ['fa:ð(ə)rɪnlɔ:] *n* qayinota.

fatherland ['fa:ðələnd] *n* vatan.

fatherless ['fa:ðəlis] *a* otasiz qolgan, otasiz.

fatherly ['fa:ðəli] *a* otalarcha, otaga xos; ~ **responsibility** otalik javobgarligi.

fathom I ['fæðəm] *n* 1) dengiz sarjini (= 6 fut; *suv chuqurligini o'lchashda*); 2) yog'och kuboturasi birligi (= 6x6 x6 fut); ~ **line** deng. lot (*chuqurlikni o'lchash asbobi*).

fathom II ['fæðəm] *v* 1) chuqurligini o'lchamoq (*suvi*); 2) erishmoq, o'zlashtirmoq; tushunmoq; **I can't ~ his intentions.** Uning maqsadini anglay ololmayapman.

fathometer ['fæθəmitə] *n* deng. exolot.

fathomless [fæðəmlis] *a* 1) o'lchab bo'lmaydigan; tubsiz; **the ~ depths of the sea** dengizdagi tubsiz; 2) erishib bo'lmaydigan, anglab bo'lmaydigan, aql yetmaydigan.

fatidical [fe'i'tidik(ə)] *a* payg'ambarga oid, payg'ambarona.

fatigue [fə'ti:g] *n* 1) toliqish, charchash; **lodyly (mental)** ~ jismoniy (*aqliy*) charchash; 2) charchaganlik, charchatadigan ish; 3) *q.x.* oriqlash (*yerning*).

fatigue-dress [fə'ti:g(ə)dres] *n* *harb.* askar korjomasi.

fatigue-duty [fə'ti:g'dju:ti] *n* *harb.* xo'jalik ishlari.

fatigue-party [fə'ti:g.pa:ti] *n* xo'jalik ishlarini bajarishga otlangan askarlar guruhi.

fatten ['fætn] *v* semirtirmoq, bo'r-doqiga boqmoq.

fatty ['fæti] *a* 1) yog'li, moyli; 2) to'la, yog'on, semiz.

fatuity [fə'tju(:)iti] *n* ahmoqlik, befarosatlilik, bema'nilik.

fatuous ['fætjuəs] *a* ahmoqona, tentakamo.

fat-witted ['fæt'witid] *a* ahmoq, esi past.

faubourg ['foubuəg] *n* *fr.* shahar atrofi.

fauces ['fɔ:si:z] *n* jig'ildon, kekirdak.

faugh [fɔ:] *int* tuf! tfu! (*nafratni ifodalaydi*).

fault [fɔ:lt] *n* 1) kamchilik, nuqson; **a ~ in cloth** gazlamadagi nuqson; 2) ayb, gunoh; **in (at) ~ aybdor**; **I am not in ~** men aybdor emasman; **whose ~ is it?** bunda kim aybdor? 3) xato; **there's your ~** mana xatoingiz nimada; 4) xato, nojo'ya ish, buzish (*qonun va b.larni*).

fault-finder ['fɔ:lt.faində] *n* aybsituvchi, tirnoq ostidan kir izlovchi.

fault-finding ['fɔ:lt.faindiŋ] *n* ayb topmoq (*behuda*).

faultless ['fɔ:ltlis] *a* xatosiz, benuqson.

faultily ['fɔ:lti] *a* 1) nuqsonli, xatoli, nomukammal; 2) noto'g'ri, xato; ~ **argument** noto'g'ri dalil; 3) buzilgan, shikastlangan, yaroqsiz.

faux pas ['fou'pa:] *n* xato ish, noto'g'ri qadam; xunuk qiliq.

favour I ['feivə] *n* 1) xayrixohlik, moyillik, mayl; **to find ~ in smb's eyes** birovning iltifotiga sazovor bo'lmoq; **to be in high ~ with smb** birovga juda

yoqmoq; 2) iltifot ko'rsatish, iltifot, marhamat; **do me (him) a ~** menga (*unga*) iltifot ko'rsatsangiz; **to heap ~s upon smb.** kimnidir marhamatlar bilan ko'mib tashlamoq; afzallik berish, homiylik qilish (*nufuzli kishi tomonidan*); **to use a position by ~ more than by merit** mansab (*mavqe*) ga xizmati tufayli emas, balki homiylik tufayli erishmoq; 4) qo'llab-quvvatlash; yordam, ko'mak; 5) ruxsat, ijozat; **by (with) your ~** ijozatingiz bilan; 6) xabar, xat; **your ~ of yesterday** sizning kechagi xatingiz.

favour II ['feivə] *v* 1) marhamat qilmoq, muruvvat ko'rsatmoq; **fortune ~s the brave** baxt botirlarga yo'ldosh bo'ladi; **please ~ me with answer** iltifot qilib savolimga javob bersangiz; 2) qulaylik tug'dirmoq, yordam bermoq; **the darkness ~ ed his escape** qorong'ilik uning qochishiga qol keldi; 3) qo'llab-quvvatlamoq, homiylik qilmoq; 4) biror narsani eslatmoq, o'xshash bo'lmoq; **the child ~s his mother** bola onasiga o'xshaydi.

favourable ['feiv(ə)rəbl] *a* 1) qulay, muvofiq keladigan: ~ **wind** muvofiq shamol; 2) xayrixoh, moyil, ko'ngli yaqin; **He was quite ~ to our project** U bizning loyihamizga xayrixohlik bilan qaradi; 3) ma'qullaydigan, ijobiy; ~ **answer** ijobiy javob.

favoured ['feivəd] *a* 1) imtiyozli, imtiyozlardan foydalanadigan; afzal ko'radigan; ~ **friend** sevimli do'st; 2) rohatbaxsh, orombaxsh (*iqlim va b.lar haqida*).

favourer ['feivərə] *n* homiy, tarafdor.

favourite ['feiv(ə)rit] *a* 1) hamma yaxshi ko'radigan odam; 2) yaxshi ko'riladigan narsa; **That look is a great ~ of mine.** Bu men eng yaxshi ko'rgan kitob.

fawn I [fə:n] *n* 1) bugʻu bolasi (*bir yoshgacha*); 2) sargʻish-jigarrang.

fawn II fə:n] *n* ogʻz. qullarcha xushomad qilish, qullarcha tiz choʻkish.

fawn III [fə:n] *v* 1) dumini likillatmoq, suykalmoq (*it haqida*); 2) xushomad qilmoq, tiz choʻkmoq.

fawner [ˈfə:nə] *a* xushomadgoʻy, laganbardor.

fay I [fei] *n* 1) ishonch, eʻtiqod; 2) pari, farishta; 3) chiroyli bola, maftun qiladigan qiz.

fay II [fei] *v* 1) ogʻz. *deng.* zich biriktirmoq, loyiq qilmoq; 2) toʻgʻri kelmoq; **His coat ~ s well.** Paltosi unga yopishib turibdi.

fay III [fei] *n* maftun qiladigan.

faze [feiz] *v* *amer.* bezovta qilmoq, ranjitmoq.

fealty [ˈfi:(ə)lti] *n* 1) *tarix.* vassalning feodalga sodiqligi; sodiqlik uchun qasamyod qilish; 2) ishonch, sadoqat, tarafdorlik.

fear I [fiə] *n* 1) qoʻrqish, choʻchish; **needless ~s** oʻrinsiz choʻchishlar; **to be in ~** qoʻrqmoq, **the ~ of death was upon him** oʻlim dahshati uni chulgʻab olgandi; 2) xavfsirash, choʻchish; **there is not the slightest ~ of rain today** bugun yomgʻir yogʻishidan darak beradigan hech qanday xavf-xatar yoʻq.

fear II [fiə] *v* 1) qoʻrqmoq; **never ~** qoʻrqmang; 2) xavfsiramoq, kutmoq (*biror noxushlikni*); **to the wost eng** yomonini kutmoq.

fearful [ˈfiəf(u)] *a* dahshatli, qoʻrqinchli; **~ to do smth.** qoʻrqib bir narsa qilish, ishonchsizlik, dahshatli; **itʻs a ~ love** dahshatli, zerikarli.

fearless [ˈfiəlis] *a* qoʻrqmas, dadil, mard.

fear-monger [ˈfiə.mʌŋgə] *n* vahimachi.

fearnought [ˈfiəno:t] *n* 1) patli qalin movut; 2) qoʻrqmas, mard (*odam*).

fearsome [ˈfiəsəm] *a* dahshatli, qoʻrqinchli, dahshatga soladigan.

feasible [ˈfi:zəbl] *a* bajarilishi (*amalga oshirilishi*) mumkin boʻlgan.

feast I [fi:st] *n* bazm, ziyofat.

feast II [fi:st] *v* 1) bayram qilmoq; **~ for the eyely** yoqimli tomosha; 2) taklif qilmoq, qatnashmoq.

feast-day [ˈfi:stdeɪ] *n* oilaviy tantana, oilaviy bayram.

feat [fi:t] *n* 1) jasorat; **~ of arms** harbiy jasorat; 2) mahorat, chaqqonlik, sanʻat; 3) ogʻz. ish, kasb; **(the) ~ of war** urush, urush olib borish, qahramonona ish; 4) ish, vazifa, harbiy vazifa.

feather [ˈfeðə] *n* 1) pat, par (*par-randaniki*); **as light as a ~** pardek yengil; 2) *ov.* parranda; 3) biror yengil narsa, arzimansa.

feather-bed [feðəbed] *n* par toʻshak.

feather-brain [ˈfeðəbreɪn] *n* yengiltak (*betayin, yengil tabiat*) odam.

feather-brained [ˈfeðəˈbreɪnd] *a* miyasi yoʻq, esi past.

feather-grass [ˈfeðəgrɑ:s] *n* *bot.* kovul, jalov.

feather-headed [ˈfeðəˈhedɪd] = **feather-brained**

feathering [ˈfeðəriŋ] *n* pat, qush patlari.

feather-pate [ˈfeðəpeɪt] = **feather-brain.**

father-pated [ˈfeðəˈpeɪtɪd] = **feather-brained.**

feather-stitch [feðəstɪtʃ] *n* boshoqqa oʻxatib gul tikish.

feather-weight [ˈfeðəweɪt] *n* juda yengil odam *yoki* narsa.

feathery [ˈfeðəri] = **feathered.**

feature I [ˈfi:tʃə] *n* 1) yuz tuzilishi; **she had arcental ~s** uning yuz tuzilishi sharqona edi; 2) xususiyat, oʻziga xos belgi; **the geographical ~ of a elistrict** joyning oʻziga xos xusu-

siyatları; 3) dastur, tomoshaning eng qiziqarli joyi; **the actress is the main ~ of the show** aktrisa tomoshaning tayanchi hisoblanadi; 4) maqola, ocherk (*gazetada, jurnalda*); 5) to'la metrajli film.

feature II [ˈfi:tʃə] *v* ó ziga xos, farqlovchi xususiyat bo'lmoq; **small holls which ~ the landscape** past tepaliklar bu joyning o'ziga xos xususiyatidir; 2) tasvirlamoq, chizmoq; rasm solmoq; 3) ko'rsatmoq, namoyish qilmoq (*ekranda*); 4) gazetada bermoq (*ko'ri-nadigan joyda*).

feature-length [ˈfi:tʃələŋθ] *a* to'la metrajli, to'la metrajli film.

featureless [ˈfi:tʃəlis] *a* hech narsa anglatmaydigan, ifodasiz.

febrifuge [ˈfebrifju:dʒ] *tib. n* 1) isitmani pasaytiradigan (*vosita*); 2) og'z. salqin ichimlik.

febrile [ˈfi:brail] *a* isitmali; ~ **chill** isitma aralash titroq; ~ **state** isitma holati.

February [ˈfebruəri] *n* fevral; ~ **days** fevral kunlari.

fecit [ˈfi:sit] *v lot.* bajarildi, ijro etildi; tayyorladi (*rassomnig imzosi*).

feck [ˈfek] *n* amaliylik, kuch g'ayrat; 2) miqdor, son; **the (most) ~** katta qismi.

feckless [ˈfeklis] *a* ojiz, noshud, qo'lidan hech nima kelmaydigan

feculence [ˈfekjuləns] *n* quyqum, loyqa.

feculent [ˈfekljulənt] *a* loyqa, loyqalangan.

fecund [ˈfi:kənd] *a* unumdor, hosildor.

fecundate [ˈfi:kəndeit] *v* 1) hosildor qilmoq; 2) *biol.* urug'lamoq, otalantirmoq.

fed [ˈfed] *past. va p.p. feed I, 2 dan.*

federal [ˈfedər(ə)l] *a* 1) federal, ittifoqchi; 2) *amer.* federal hukumat,

umumdavlat.

federate [ˈfedərit] *a* federatsiyaga oid, federativ.

federation [ˌfedəˈreiʃ(ə)n] *n* federatsiya (*davlatlarning*), ittifoq, birlashma.

federative [ˈfedərətiv] *a* federal, federativ.

fedora [fiˈdourə] *n amer.* yumshoq fetr shlyapa.

fed-up [ˈfedʌp] *a* biror narsadan juda to'yan, biror narsa joniga tekkan.

fee I [fi:] *n* 1) qalam haqi, maosh, haq; **lawyer's ~** advokat haqi; **officials ~** mansabdor maoshi; **tuition ~s** ó qish haqi; 2) choy puli; ~ **s are prohibited here** bu yerda choy puli berilmaydi (*yozuv*); 3) badal; **admission ~** kirish badali; **entrance** kirish haqi.

fee II [fi:] *v* 1) qalam haqi *yoki* maosh to'lamoq; 2) choy puli bermoq.

feeble [fi:bl] *a* 1) zaif, past, kuchsiz; bo'sh; ~ **pulse** zaif puls; **to give a ~ moan** zaif ingramoq; ~ **argument** ishonchsiz dalil; 2) zaif, kuchsiz, nimjon; ~ **old man** kuchsiz qariya.

feeble-minded [ˈfi:blˈmaɪnid] *a* aqli kam, aqli past (*zaif*).

feed I [fi:d] *n* 1) ovqatlantirish, boqish; **to ~ she horse** otni boqmoq; 2) ozuqa, yem-xashak; ~ **for sheep** qo'ylar uchun ozuqa; 3) yaylov, ótloq; **to be out at ~** yaylovda boqilmoq; 4) *tex.* ta'minot, ta'minlash, materialni uzatish.

feed II [fi:d] *v* 1) ovqatlantirmoq, boqmoq; **a baby at the breast** bolani ko'krak suti bilan boqmoq; 2) boqmoq, ta'minlamoq, qarab turmoq; **He has a family of 5 to ~** U besh kishilik oilani boqishi kerak; 3) yemoq, oziqlanmoq.

feeder [ˈfi:də] *n* 1) ovqatlanuvchi, xo'randa; 2) *tex.* ta'minlovchi, uzatuvchi mexanizm; 3) yordamchi osma avtobus *va b.lar* yo'li; 4) *q.x.*

ozuqa, ekin.

feed-pipe [ˈfi:dpaip] *n tex.* ta'minlovchi quvur.

feed-pump [ˈfi:dpʌmp] *n tex.* ta'minlovchi nasos (*suyuqlik, gaz kabilar bilan*).

feed-screw [ˈfi:dskrɜ:] *n tex.* harakatlantiruvchi parrak.

feed-stuff [ˈfi:dstʌf] *n* quyruq qism, quyruq.

feed-tank [ˈfi:dtæŋk] *n* ta'minlovchi rezervuar, bak, idish.

feed-trough [ˈfi:drɒf] = **feed-tank**.

fee-faw-fum [ˈfi:ˈfo:ˈfʌm] *n* fu-fofam! (*ingliz ertaklarida odamxó ming xitobi*).

feel I [fi:l] *n* 1) sezish, paypaslab (*ushlab ko'rib*) his etish; **let me have a ~** ushlab ko'rishimga ijozat bering; 2) sezish, his qilish; 3) sezgi, tuyg'u, his; 4) halokat, muhit; **The factory had a homely.** ~ Fabrikadagi muhit norasmiy edi.

feel II [fi:l] *v* 1) ushlab ko'rmoq; paypaslab ko'rmoq, his qilmoq; **to ~ for smth** biror narsani ushlab ko'rmoq, biror narsani paypaslab qidirmoq; 2) sezmoq, his qilmoq; **I ~ ten years yonger** O'zimni ón yoshga yoshargandek his qilyapman; 3) boshdan kechirmoq, his qilmoq; 4) idrok qilmoq, tushunmoq; 5) anglamoq; **He felt the truth of what was said.** U aytilganlarning haqiqatligini anglab turardi.

feeler [ˈfi:lə] *n zool.* qormovich, qisqich (*mo'ylov*).

feeling I [ˈfi:liŋ] *n* sezgi, hissiyot, nazar.

feeling II [ˈfi:liŋ] *a* sezgir, hushyor, ziyrak.

feelingly [ˈfi:liŋli] *adv* hissiyotli.

feet [fi:t] = **foot dan.**

feeze I [fi:z] *n* tez, jadal harakat, yugurish.

feeze II [fi:z] *v* bezovta qilmoq.

felgn [ˈfein] *v* 1) **mug'ambirlik qilmoq, cho'chitmoq, o'zini biror ko'ysa solmoq;** 2) **to'qimoq; to ~ a story** hikoya to'qimoq.

feigned [feind] *a* yasama, yolg'on-dakam, ayyorona; ~ **smile** yolg'on-dakam kulgi.

feigningly [ˈfeiniŋli] *adv* yolg'on-dakam, soxta, yasama.

feint [feint] *n* mug'ambirlik, ayyorlik, yasamalik; **to take a feint of doing smth.** o'zini nimadir qilayotgandek tutish.

feist [fait] *n amer.* kichkina.

feldspar [ˈfeldspa:] *n* dala shpati.

felicitate [fiˈlɪsɪteɪt] *v* tabriklamoq, qutlamoq, baxt tilamoq.

felicitation [fi.lɪsɪˈteɪʃ(ə)n] *n* tabrik, qutlov, tabriknoma.

felicitous [fiˈlɪsɪtəs] *a* muvaffaqiyatlik, o'ngidan kelgan; omadli.

felicity [fiˈlɪsɪti] *n* baxt, saodat, iqbol, omad.

feline I [ˈfi:lain] *n zool.* mushuksimonlar oilasiga mansub bo'lgan hayvon.

feline II [ˈfi:lain] *a zool.* 1) mushuksimonlarga oid; 2) ayyor, makkor.

fell I [fel] *n* teri (*hayvonniki*).

fell II [fel] *n* kesish, daraxt kesish.

fell III [fel] *v* kesmoq, chopmoq, yormoq, tilmoq, arralamoq.

fella [ˈfelə] **fellow** *ga qarang.*

fellah [ˈfelə] *n arab.* falloh.

fellabeen [ˈfeləˈhi:n] *pl* **fellah dan.**

feller [ˈfelə] **fellow** *ga qarang.*

felling [ˈfeliŋ] *n* o'rmon (*daraxt*) kesish.

felloe [ˈfelou] *n* g'ildirak, g'ildirakning to'g'ini.

fellow [ˈfelo(u)] *n* o'rtoq, oshna, og'ayni; **my dear ~** qadrdonim; **I shall never find his ~** men hech qachon unga teng keladiganini topolmayman.

fellow-countryman [ˈfelo(u)ˈkʌntri-

mən] *n* hamshahar, hamqishloq, vatandosh.

fellow-feeling [ˈfelo(u)ˈfi:liŋ] *n* achinish, hamdardlik, rahm, shafqat.

fellowship [ˈfelo(u)ʃip] *n* oʻrtoqlik, oʻrtoqchilik.

fellow-traveller [ˈfelo(u)ˈtrævlə] *n* yoʻldosh, hamroh.

felly [ˈfeli] = **felloe**.

felo-de-se [ˈfi:lo(u)diˈsi:] *n* oʻzini oʻzi oʻldirgan (oʻz joniga qasd qilgan) kishi.

felon I [ˈfelən] *a* jinoyiy, jinoyatkorona.

felon II [ˈfelən] *n* tib. milkak (*tirnoq ostining yalligʻlanib yiring boylashi*); *yur.* jinoyatchi..

felones de se [ˈfelouni:zdiˈsi:] *pl* **felo de se dan**.

felonious [fiˈlounjəs] *a yur.* jinoyiy, jinoyatkorona.

felonry [ˈfelənri] *n* jinoyatchilar.

felony [ˈfeləni] *n yur.* jinoyat, ogʻir jinoyat.

felos de se [ˈfi:louzdiˈsi:] *pl* **felo de se dan**.

felspar [ˈfelspa:] = **feldspar**.

felt I [ˈfelt] *n* kigiz, namat.

felt II [ˈfelt] *past va p. p.* **feel I dan**.

felucca [feˈlʌkə] *n deng.* felyuga.

female [ˈfi:meil] *n* ayollarning saylash huquqlari.

feminine [ˈfeminin] *a* xotin-qizlarga oid; xotin-qizlarcha.

femininity [ˌfemiˈninitɪ] *n* nazokat, zarofat, ayollik xislati.

feminism [ˈfeminizm] *n* feminizim.

feminist [ˈfeminist] *n* feminist (*feminizm tarafdori*).

femora [ˈfemərə] *pl* **femur dan**.

femoral [ˈfemər(ə)] *a* songa oid, son.

femur [ˈfi:mə] *n* anat. son.

fen I [fen] *n* botqoq, botqoqlik; ~ **grass** botqoq oʻti.

fen II [fen] = **fain II dan**.

fence I [fens] *n* 1) devor, toʻsiq; **green** ~ yashil toʻsiq; 2) saqlovchi toʻsiq; 3) qilichbozlik.

fence II [fens] *v* 1) toʻsmoq, oʻrab olmoq; 2) qilichbozlik qilmoq; 3) toʻgʻri javob berishdan qochmoq; 4) himoya qilmoq; **to ~ one's head from blows** boshini zarbalardan himoya qilmoq.

fenceless [ˈfenslis] *a* ochiq, yalang.

fence-month [ˈfensmənθ] *n* yilning ov qilish manʼ etilgan fasli.

fencer [ˈfensə] *n* qilichboz.

fence-season, fence-time [ˈfens:si:zn, ˈfensstaim] = **fence-month**.

fencing [ˈfensɪŋ] *n* 1) oʻrab olish, toʻsib olish; 2) toʻsiq, devor; 3) qilichbozlik qilish.

fencing-cully [ˈfensɪŋˌkʌli] *n* oʻgʻirlangan narsalarni yashirib saqlovchi *yoki* sotib oluvchi.

fencing-ken [ˈfensɪŋken] *n* oʻgʻirlangan narsalarni yashirib qoʻyiladigan *yoki* sotiladigan makon.

fend [fend] *v* 1) qaytarmoq, daf qilmoq; 2) qoʻriqlamoq.

fender [ˈfendə] *n* kamin panjarasi; 2) himoyalovchi panjara (*tramvay va b.larda*).

fen-fire [ˈfen.faiə] *n* goh u yerda, goh bu yerda koʻrinadigan shuʼlalar (*botqoqliklardagi metan gazining lip-lip yonib koʻrinadigan shuʼlalari*).

fennel [ˈfenl] *n* bot. arpabodiyon.

fenny [ˈfeni] *a* botqoqlik joylari koʻp boʻlgan, serbotqoq.

feoff [fef] *n* tarix. len, feod (*oʻrta asrlarda: feodal tomonidan oʻz vassaliga berilgan yer-suv, mulk va undan olinadigan soliq, oʻlpon*).

feoffee [feˈfi:] *n* tarix. len olgan vassal.

feræ naturæ [ˈfæri:nəˈtjʊəri:] *a* yovvoyi, vahshiy, qoʻlga oʻrgatilmagan.

feral I [ˈfiə(ə)l] *a* yovvoyi, vahshiy.
feral II [ˈfiəri(ə)l] *a* dafn etishga
(*ko' mishga*) oid; ko' mish; dafn, motam.
feretory [ˈferit(ə)ri] *n* cherk. raka.
ferial [ˈfiəriəl] *a* oddiy kun, ish kuni.
ferine [ˈfiərain] = **feral I**.
ferity [ˈferiti] *n* yovvoyilik, vahshiylik.

ferment [ˈfə:ment] *n* achitqi, xamirturish.

fermentable [fə(:)mentəbl] *a* to' polonchi, janjalkash.

fermentation [ˌfə:men'teiʃ(ə)n] *n* g'alayon, g'ulg'ula, shov-shuv, to' polon.

fern [fə:n] *n* bot. qirqquloq.

fernery [ˈfə:nəri] *n* qirqquloqlar o'stiriladigan joy.

fern-owl [ˈfə:naul] *n* zool. tentakush.

ferny [ˈfə:ni] *a* bot. qirqquloqdoshlar, qirqquloqsimonlar.

ferocity [fə'rositi] *n* yovvoyilik, vahshiylik.

ferret I [ˈferit] *n* sassiq ko'zan.

ferreting [ˈferitiŋ] = **ferret**.

ferriage [ˈferiɟ] *n* sol yoki kemada daryodan suzub o'tiladigan joy.

ferric [ˈferik] *kim.* ~ **acid** temir kislotasi.

ferriferous [fe'rifərəs] *a* tarkibida temir bo'lgan, temirli.

ferroconcrete [ˈfero(u)ˈkɔŋkri:t] *n* temir-beton.

ferromagnetic [ˌfero(u)mæɡˈnetik] *ferra* magnit.

ferrous [ˈferəs] *a* *kim.* tarkibida ikki valentli temir bo'lgan.

ferruginous [féru:ɟinəs] *a* temirli, temir.

ferrule [ˈferu:l] *n* gardish, chambarak.

ferry [ˈferi] *n* sol yoki kemada daryodan suzub o'tiladigan joy; **to cross the** ~ boshqa qirg'oqqa o'tkazmoq; boshqa joyga o'tkazmoq.

ferry-boat [ˈferibout] *n* parom.

ferry-bridge [ˈferibrɟ] *n* kemalar to'xtaydigan joy bilan parom o'rtasidagi taxta, zina (*parom solsimon yassi kema*).

ferryman [ˈferimən] *n* daryodan o'tkazib qo'yuvchi, kemachi.

fertile [ˈfə:tail] *a* unumdor, hosildor, serhosil; ~ **in resources** resurslarga boy.

fertility [fə:'tiliti] *n* 1) unumdorlik, hosildorlik; 2) boylik, seroblik, mo'l-ko'llik.

fertilization [ˌfə:til(a)i'zeiʃ(ə)n] *n* o'g'itlash, o'g'it solish.

fertilize [ˈfə:tilaiz] *v* o'g'itlamoq, o'g'it (*g'ong*) solmoq.

fertilizer [ˈfə:tilaizə] *n* o'g'itlash, o'g'it solish, o'g'itlanish.

ferula [ˈfer(j)u:lə] = **ferule**.

ferule [ˈfer(j)u:l] *n* chizg'ich, xivich (*o'quvchilarni jazolash uchun*).

fervency [ˈfə:v(ə)nsi] *n* qizg'inlik, qiziqqonlik, tezlik.

fervent [ˈfə:v(ə)nt] *a* issiq, qaynoq; ~ **desire** jo'shqin orzu.

fervid [ˈfə:vid] *a* issiq, qaynoq, qizg'in, jo'shqin, g'ayratli.

fervour [ˈfə:və] *n* issiq, harorat, jazirama issiq.

fescue [ˈfeskju:] *n* ko'rsatkich, tayoq.

festal [ˈfestl] *a* bayramga oid; bayram, xushchaqchaq.

fester [ˈfestə] *n* yiringlash, yiring (*fasod bog'lash*).

festival [ˈfestiv(ə)l] *a* festival, bayramona.

festive [ˈfestiv] *a* bayramga oid, bayram; ~**evening** bayram kechasi.

festivity [fes'tiviti] *n* tantanali bayram, xushchaqchaqlik.

festoon [fes'tu:n] *n* gul (*barg, novda va shu k.*) o'rini, tizmasi, marjoni.

festoon [fes'tu:n] *v* gullar bilan

bezamoq.

fetal [ˈfi:t(ə)] *a zool.* embriyonga oid, embrion holidayi, embrion.

fetch I [fetʃ] *n* 1) hiyla-nayrang, ayyorlik, makkorlik; **to cast a ~** tuzoq qoʻymoq; 2) zoʻr berish; **to take a ~** zoʻr bermoq, gʻayrat qilmoq.

fetch II [fetʃ] *v* 1) borib olib kelmoq; olib kelmoq; **to (go and) ~ a doctor** borib doktorni olib kelmoq; 2) qoʻz-gʻamoq, sabab boʻlmoq (*koʻz yoshi va b.lar*); **to ~ a laugh from the audience** tomoshabinlarni kuldirmoq; 3) chiqarmoq, chiqishga majbur qilmoq; 4) urmoq, zarba bermoq; 5) soʻzl. jalb qilmoq, maftun qilmoq.

fetch III [fetʃ] *n* xayoliy sharpa, koʻlanka, arvoh.

fetching [fetʃɪŋ] *a* yoqimli, jozibador, jozibali, dilbar, koʻrkam, istarasi issiq.

fete [feit] *fr* tantanali bayram.

fate-champetre [ˈfeitʃa: ɲ ˈpeətr] *n* bogʻ sayri, sayr qilib shahar tashqarisiga chiqish (*piknik*).

fetich(e) [ˈfi:tɪʃ] = **fetish**.

founder II ['faundə] *v* 1) oqsamoq; yiqilmoq; 2) judo bo'lmoq, o'lmoq.

framework ['freɪmwɜ:k] *n* 1) tuzilish, tuzum; 2) panjara; 3) rom, hoshiya.

franchise ['fan(t)ʃaɪz] *n* 1) saylash huquqi; 2) imtiyoz, yengillik.

frank I [fræŋk] *a* ochiq, ochiq ko'ngil; **a ~ look in the eyes** ochiq chehra; oshkora, samimiy.

frank II [fræŋk] *v* bepul o'tqazmoq, ozod qilmoq.

frankness ['fræŋknɪs] *n* ochiqlik, samimiylik.

fraternal [frə'tɜ:nl] *a* qardoshlikka oid, qardoshlik; ~ **order** jamiyat.

fraternity [frə'tɜ:nɪti] *n* 1) qardoshlik; 2) jamoa; **the ~ of all men** ham-

mani qardoshligi, do'stligi; **the ~ of students** talabalar tashkiloti.

fraught [frɔ:t] *a* to'la, to'lib-toshgan, keltirib chiqaradigan.

free I [fri:] *a* 1) ozod, mustaqil, erkin; ~ **country** ozod Vatan (*mamlakat*); ~ **people** ozod xalq; 2) ko'ngilli, ixtiyoriy; ~ **choice** ixtiyoriy saylov; 3) band bo'lmagan, bo'sh; **are you ~ in the afternoon** kunduzi siz bo'shmisiz?; 4) bo'sh, ochiq; **the way is ~?** yo'l ochiqmi (*bo'shmi*)? 5) bepul (*sovg'a sifatida*); ~ **board and lodging** bepul yashash va ta'minlash; ~ **education** bepul bilim; 6) neytral, xolis, betaraf, erkin; ~ **flight** erkin uchish; *tex.* ~ **position** neytral holat

free II [fri:] *v* ozod qilmoq, xalos qilmoq; **to ~ the land from oppression** jabr zulmdan mamlakatni ozod qilmoq.

freedom ['fri:dəm] *n* 1) ozodlik, mustaqillik; **the ~ of a country** mustaqil mamlakat; 2) imtiyoz, yengillik; ~ **of speech** so'z erkinligi; 3) erkin foydalanish.

Frequency Coordinating Body (FCB). Radio chastotalarini muvofiqlashtiruvchi qo'mita.

friction ['frikʃən] *n* *ko'ch. ma'no-da* 1) kelishmovchilik; 2) malhamning surtilishi; 3) ishqalanish.

friend I [frend] *n* 1) do'st, og'ayni; 2) tanish; **have you any ~s here** bu yerda tanishingiz bormi?

friend II [frend] *v* yordam bermoq.

friendly ['frendli] *a* 1) do'stona; 2) samimiy munosabatdagi; ~ **nation** do'st mamlakat.

friendship ['frendʃɪp] *n* 1) do'stlik; 2) xayrixohlik, samimiyat.

frighten ['fraitn] *v* qo'rqitmoq, cho'chitmoq; **to be ~ ed of smth.** nimadandir qo'rqib ketgan bo'lmoq.

fringe [frɪndʒ] *n* 1) qo'shimcha nafaq; 2) peshona gajak; 3) popuk, gajim

shokila; **the ~ of curtain** pardadagi popuk; 4) jiyak, mag'iz; hoshiya.

front I [frant] *harb.* front, oldingi tomon; **look to your ~** oldinga qara.

front II [frant] *a* oldingi; ~ **teeth** oldingi tishlar.

front III [frant] *v* oldinga chiqmoq; **og'z qarshi** chiqmoq.

frontier [ˈfrantiə] *n* 1) chegara; **Italye's French** ~ Fransiya bilan Italiyani chegarasi; 2) chegara qal'asi.

fruitful [ˈfru:tful] *a* 1) samarali, foydali; 2) hosildor, sermevali; ~ **tree** sermeva daraxt.

frustrate [frʌsˈtreit] *v* buzmoq, barbod qilmoq; **to ~ plans** rejalarni buzmoq; yiggan, g'alaba qilmoq; **to ~ one's opponents** dushmani yengmoq.

frustration [frʌsˈtreifən] *n* 1) barbod bo'lish, ostin-ustun bo'lish; **the ~ of smb's plans** kimnidir rejasini buzilishi; 2) halokat.

fulfil [fulˈfil] *v* 1) bajarmoq, rōyobga chiqarmoq; **to ~ a promiss** va'dani bajarmoq; 2) tugatmoq.

fulfilment [fulˈfilmənt] *n* 1) bajarish, rōyobga chiqarish; **the ~ of one's desires** xohishni bajarish; 2) tugatish.

full I [ful] *a* 1) to'la; ~ **glass** to'la stakan; ~ **audience** zal odamga to'la; 2) to'lin; ~ **moon** to'lin oy; 3) keng; ~ **skirt** keng yubka; 4) mo'l; 5) to'q; 6) boy.

full II [ful] *adv* aniq, xuddi o'zi, rosa; ~ **in the centre** qoq o'rtasida; ~ **well** juda yaxshi; ~ **soon** tez kunda.

full III [ful] *v* 1) kengaytirmoq, kattalashtirmoq; 2) **og'z.** bajarmoq, tugatmoq.

full IV [ful] *a* 1) to'la, butun; 2) sindirilgan; 3) mo'l, serob; 4) to'q; 5) boy; 6) farovon; 7) eng yuqori darajaga yetgan.

function I [ˈfʌŋkʃən] *n* vazifa,

tainlash, lavozim majburiyatlari.

function II [ˈfʌŋkʃən] *v* tainlamoq.

Fund for Special Operation (FSO). Maxsus operatsiyalar fondi.

fundamental [ˌfʌndəˈmentl] *n* asosiy, muhim, tub; **the fundamental rules** asosiy qoidalar.

Fund of the Inter-American Export Promotion Center (FOCIPE). Amerika mamlakatlari ichida eksportni rag'batlantirish markazi.

fund-raising [ˈfʌndˈreiziŋ] *n* mablag' yig'ish.

further I [ˈfə:ðə] *a* 1) qiyosiy; 2) to'liq; **to obtain ~ information** to'liq ma'lumot olmoq; 3) uzoqroq.

further II [ˈfə:ðə] *v* siljitmoq; ko'maklashmoq, imkon tug'dirmoq.

fusion [ˈfju:z(ə)n] *n* (*kuchlar, partiyalar*) qo'shilishi, ittifoqi, eritish.

futile [ˈfju:tail] *a* befoyda, yuzaki, jiddiy emas.

future [ˈfju:tʃə] *a* kelajak, bo'lg'usi; **future tense** (*gram.*) kelasi zamon.

futurism [ˈfju:tʃərizm] *n* futurizm (*20-asr boshida san'at va adabiyotda hukm surgan formalistik oqim*).

futurist [ˈfju:tʃərist] *n* futurist, futurizm tarafdori.

futurity [fju:(t)ʃjuəriti] *n* 1) kelajak, istiqbol; 2) narigi dunyodagi hayot.

fuze [fju:z] *n* 1) zapal, pilta; 2) pilik, dori (*eski vaqtdagi miltiliq yoki to'p-larda*).

fuzz [fʌz] *n* 1) par, pat, tivit, momiq; 2) tuk (odamda); 3) tuk, momiq (*o'simlikda*); 4) to'p, zambarak.

fuzzily [ˈfʌzili] *adv* 1) noaniq, xira, g'ira-shira; 2) tushunarli emas, tushunilmaydi, tushunmadi(*m*); 3) betinch, g'ash, alag'da.

fuzzy [ˈfʌzi] *a* 1) tushunib bo'lmaydigan; 2) qarovsiz; 3) parli, momikli.

fyfot [ˈfilfət] *n* svastika (*uchlari qayrilgan-fashizm simvoli*).

G, g [dʒi:] *n* 1) ingliz tili alifbosi-ning yettinchi harfi; 2) *mus.* sol.

gab I [gæb] *n* 1) sergaplik; 2) ezmalik.

gab II [gæb] *v* vaysamoq, valdiramoq.

gab III [gæb] *n* vilka, ilgak, ilmoq, zanjir.

gabardine [ˈgæbədi:n] *n* gabardin.

gabby [ˈgæbə] *n* sergap odam, ezma, safsataboz.

gabble I [ˈgæbl] *n* 1) toʻngʻillash, tushunib boʻlmaydigan tarzda soʻzlashish; 2) gʻozlarning gʻagʻalashi.

gabble II [ˈgæbl] *v* mingʻillamoq, gʻudurlamoq.

gabbler [ˈgæblə] *n* mingʻirlab gapiruvchi odam.

gabby [ˈgæbi] *n* sergap, ezma.

gaberdine [ˈgæbədi:n] *n* gabardine, dagʻal movutdan qilingan, etaklari uzun chakmon.

gabion [ˈgeibjən] *n* gabion.

gabionade [ˈgeibiəˈneid] *n* chiziq, qator, xat, saf.

gable [ˈgeibl] *n* fronton (*binofasadin*ing uchburchak shaklida boʻlgan tepa qismi, shuningdek, derazalar tepasidagi shu shaklda ishlangan bezak).

gabled [ˈgeibld] *a* uchi oʻtkir, uchli, nayzador.

gaby [ˈgeibi] *n* soddadil odam, goʻl odam.

gad I [gæd] *int.* qoʻysang-chi, qoʻy, bor-e, qani.

gad II [gæd] *v* tentiramoq, sangʻimoq.

gad III [gæd] *n* 1) oʻtkir uch, uch; 2) ogʻz oʻlchov (*uzunlikni*); **good** ~ ! eh Xudo!

gadabout [ˈgædəbaut] *n* daydi, darbadar, miskin.

gadder [ˈgædə] *n* darbadar, daydi, miskin.

gad-fly [ˈgædfli] *n* 1) soʻna; 2) gʻashga tegadigan.

gadget [ˈgædʒɪt] *n* 1) moslashish, koʻnikish; 2) moslama, asbob.

gadoid I [ˈgædəɔɪd] *n* treska oilasiga mansub baliq.

gadoid I [ˈgædəɔɪd] *a* treska oilasiga mansub.

gadolinium [ˌgædəˈlɪniəm] *n* kim. gadoliniy (*kimyoviy element, metall*).

Gael [geil] *n* shotlandiyalik (*lar*) va Shotlandiyaga oid.

Gaelic I [ˈgeilik] *a* gaelga oid.

Gaelic II [ˈgeilik] *n* gael tili (*asosan, shotland keltlari tili*).

gaff I [gæf] *n* baliq ovlaydigan chankak.

gaff II [gæf] *n* arzon teatr; **to give smb. the gabb** ~ qattiqqoʻl munosabatida boʻlish.

gaff III [gæf] *n* bemaʼni gap.

gaffe [gæf] *n* xato, xato qadam.

gaffer [ˈgæfə] *n* kekxa odam, chol.

gag I [gæg] *n* yogʻoch.

gag II [gæg] *v* 1) ovoz chiqarmaslikka majburlamoq; 2) aldamoq.

gaga [ˈgæ:ɡɑ:] *a* aqli zaif, miyasi yoʻq.

gage I [ˈgeɪdʒ] *n* 1) garovga qoʻyish; **to give under (upon)** ~ garovga bermoq; 2) chaqiruv (*jangga*); 3) hazilkash.

gage II [ˈgeɪdʒ] *v* garovga bermoq.

gage III [ˈgeɪdʒ] *amer.=gauge*.

gaggle I [ˈgæɡl] *n* gʻozlar galasi (*toʻdasi*), gʻozlarning gʻagʻalashi.

gaggle II [ˈgæɡl] *v* gʻaqillamoq, gʻaq-gʻaq qilmoq (*gʻoz*).

gag-man [ˈgæɡmən] *n* hazil-mutoyiba, askiya toʻqiydigan odam.

gaiety [ˈge(i)əti] *n* 1) vaqtichogʻlik, xursandchilik; 2) goʻzallik (*kiyim*).

gaily [ˈgeili] *adv* vaqtichogʻlik (*xursandchilik*) bilan, quvnab.

gain [geɪn] *v* 1) yutmoq, erishmoq; olmoq, erishmoq; 2) koʻpaytirmoq, orttirmoq, oʻstirmoq; 3) tekis daromad topmoq.

gainful [ˈgeɪnf(u)l] *a* daromadli, foydali; toʻlanadigan, daromadli ish ~ **undertaking**.

gainings [ˈgeɪnɪŋz] *n* ish haqi, ishlab topilgan pul.

gainsaid [geɪnˈseɪd] *past. va p. p. = gainsay dan.*

gainsay [geɪnˈseɪ] *v* rad qilmoq, qarshilik koʻrsatmoq.

gainst [geɪnst] *prep = against.*

gait [geɪt] *n* yurish, qadam tashlash, oyoq qoʻyish; **to know smb. by his** ~ kimnidir yurishidan bilmoq.

gaiter [geɪtə] *n* gamashi (**boldirdan tovongacha qoplab turadigan, oyoq kiyim ustidan tushirib kiyiladigan issiq paypoq**).

gal [gæl] *n* qiz, qizcha, qiz bola.

gala [ˈga:lə] *n* 1) tantanali bayram; 2) **to come in** ~ bayram kiyimini kiymoq.

galactic [gəˈlæktɪk] *a astr.* galaktika, galaktik.

gala day [ˈga:lədeɪ] *n* tantana, bayram.

gala dress [ˈga:lədres] *n* bayram libosi.

gala night [ˈga:lənait] *n* tantanali kecha.

galantine [ˈgælənti:n] *n* jarangli, jarangdor.

galanty show [gəˈlæntɪʃou] *n* xitoy koʻlkankalari.

galaxy [ˈgæləksi] *n* atoqli arboblarning guruhi.

gale I [geɪl] *n* dovul, toʻfon; **stiff (hard)** ~ kuchli boʻron.

gale II [geɪl] *n* renta pulini vaqti-vaqti bilan toʻlash.

galeeny [gəˈli:ni] *n* sesarka (*tovuq-simonlar turkumidagi parranda*).

galena [gəˈli:nə] *n* yaltiroq qoʻrgʻoshin tosh (*qoʻrgʻoshin rudasi*).

galenical [gəˈlenɪk(ə)] = **galenic**.

galimatias [gæliˈmætiəs] *fr. n* tutu-ruqsiz gap.

galipot [ˈgælipɒt] *n* ignabargli daraxtlarning smolali yelimi.

gall I [gɔ:l] *n* oʻt, safro.

gall II [gɔ:l] *n* shilingan (*timdalangan, sidirilgan, qirilgan*) joy, chaqa (*badanda*).

gall III [gɔ:l] *n bot.* gall.

gallant I [ˈgælənt] *a* 1) botir, mard, jasur; ~ **soldier** jasur soldat; 2) chiroyli.

gallant II [ˈgælənt] *v* kuzatmoq (*ayol*).

gallantry [ˈgæləntri] *n* mardlik, botirlik, jasurlik; **to display** ~ mardlik koʻrsatish.

gall-bladder [ˈgɔ:l,blædə] *n anat.* oʻt pufagi (*qopchasi*), oʻtaka.

galleass [ˈgæliəs] *n* uch machtali, koʻp eshkakli kema.

galleon [ˈgæliən] *n* galeon (*kema*).

gallery [ˈgæləri] *n* 1) yer osti yoʻli; 2) galereya; **picture** ~ rasmlar galereyasi; 3) teatr, ayvon (*balkon*); 4) xor.

galley [ˈgæli] *n* koʻp eshkakli kema.

galley-proof [ˈgælipru:f] *n* granka.

galley-slave [ˈgælisleiv] *n* eshkakchi, eshkak eshuvchi; ogʻir ish qiluvchi qul.

Gallic [ˈgælik] *a* 1) gal (*lar*) ga oid, gal; 2) *hazil.* fransuzcha.

gallicism [ˈgælisizm] *n* gallitsizm (*fransuz tilidan qabul qilingan yoxud unga taqlid qilib tuzilgan soʻz yoki ibora*).

galligaskins [ˌgæliˈgæskɪnz] *n pl* keng ishton, shim, lozim.

gallimaufry [ˌgæliˈmɔ:fri] *n* aralash-quralash narsa.

gallinaceous [ˌgæliˈneɪf(i)əs] *a* zool. tovuqqa oid, tovuq.

galliot [ˈgæliət] *n* galiot (*koʻp eshkakli yelkanli tezyurar kema*).

galipot [ˈgælipɒt] *n* dorixona (*ap-teka*) bankasi, sirli banka.

gallium [ˈgæliəm] *n kim.* galliy.

gallivant [ˌgæliˈvænt] *v* boqmoq, qaramoq.

gall-nut [ˈgɔ:lɪnɒt] = **gall**.

Gallomanlac [ˌgælo(u)ˈmeiniæk] *n* fransuzparast, galloman.

gallon [ˈgælən] *n* gallon.

galloon [gəˈlu:n] *n* uqa, gallun.

gallop [ˈgæləp] *n* 1) sakrab chopish; 2) *v* chopmoq, sakramoq; **to ~ a horse to death**; 3) otlarni haydamoq.

galloper [ˈgæləpə] *n* *harb.* 1) nav-hatchilik qilish; 2) tez yuradigan (*harakat*) qiladigan odam; 3) *harb.* yengil pushka.

gallophil [ˈgælo(u)fil] *n* gallofil.

gallophobe [ˈgælo(u)foub] *n* gallofob.

galloping [ˈgæləpiŋ] *a* gʻirillab (*tez*) olib keladigan.

galloway [ˈgæləwei] *n* *shotl.* boʻyi past, ammo kuchli ot.

gallows [ˈgælouz] *n* dor (*osishga hukm qilganlarni osadigan*); **to send smb. to the ~** kimnidir dorda osishga hukm qilmoq; *adv.* favqulodda.

gallows-bird [ˈgælo(u)zbə:d] *n* past (*razil, qabih*) odam.

gallows-tree [ˈgælo(u)ztri:] = **gallows**.

gall-stone [ˈgɔ:lstoun] *n* *tib.* oʻtdagi tosh.

Gallup poll [ˈgæləppoul] *n* turli masalalarda xalqning fikrini bilish (*masalan saylov toʻgʻrisida*).

galluses [ˈgæləsiz] *n* *pl amer.* soʻzl. tortib taranglash, qattiqroq burab qoʻyish; shimni koʻtarib (*tutib*) turish uchun ikki yelka osha tortib qoʻyiladigan tasma.

galoot [gəˈlu:t] *n* 1) noshud, epsiz; 2) yosh dengiz soldati.

galop [ˈgæləp] *n* sakrab chopish.

galore I [gəˈlɔ:] *adv* juda koʻp, moʻl, serob.

galore II [gəˈlɔ:] *n* moʻllik, moʻl-koʻllik, moʻlchilik, seroblik, serobgar-chilik, toʻkin-sochinlik.

galosh [gəˈlɔʃ] *n* 1) kalish; **to wear ~es** kalish kiymoq; 2) *amer.* rezina qayiq.

galumph [gəˈlʌmf] *v* sakramoq,

hakkalak otmoq.

galvanic [gælˈvænik] *a* **galvanik**.

galvanism [ˈgælvənizm] *n* 1) *fiz.* galvanizm; 2) *tib.* galvanizatsiya (*galvani toki bilan davolash*).

galvanization [ˌgælvən(a)ɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* galvanizatsiya.

galvanize [ˈgælvənaɪz] *v* galvanizatsiya qilmoq.

galvanometer [ˌgælvəˈnɒmitə] *n* galvanometr.

gambade [gæmˈbeɪd] = **gambado**.

gambado [gæmˈbeɪdou] *n* sakrash, irgʻish.

gambit [ˈgæmbɪt] *n* gambit.

gamble I [ˈgæmbl] *n* qimor oʻyini, qimor.

gamble II [ˈgæmbl] *v* 1) qimor oʻynamoq; **I never ~** men hech qachon pulga oʻynamayman; 2) tavakkal qilmoq; ~ **away** yutqazmoq.

gambler [ˈgæmblə] *n* 1) oʻyinchi, oʻyinda qatnashuvchi; 2) tajribali (*professional*) oʻyinchi; 3) yolgʻonchi, aldamchi.

gamboge [gæmˈbu:ʒ] *n* bir xil tropik oʻsimliklarning sutsimon shirasi.

gambol [gæmb(ə)] *n* irgʻish, sakrash.

game I [geɪm] *n* 1) oʻyin; **noisy ~** shovqinli oʻyin; **football ~** futbol oʻyini; 2) sport oʻyinlari; **the Olympic ~s** Olimpiada oʻyinlari; 3) oʻyinchoq; **this shop sells toys and ~s** bu magazinda oʻyinchoq va oʻyinlar sotiladi; 4) tavakkal oʻyin; **stock market ~** birja oʻyini; 5) fokus (*ayyorlik*); 6) hazil, kulgi; **to speak in ~** hazil qilmoq; 7) oʻyin-kulgi; 8) oʻlja; **blg ~** katta oʻlja; (*yovvoyi hayvonlar goʻshti*).

game II [geɪm] *a* jasur, baquvvat.

game III [geɪm] *v* tavakkal oʻyinlar (*qimor*) oʻynamoq; ~ **away** yutqazmoq.

game VI [geɪm] *n* 1) oʻyin, oʻynash; 2) ~ isobaqa; 3) oʻyin-kulgi, sayrtor ha; 4) hazil-mutoyiba; 5) reja,

niyat, mo'ljal.

game V [geim] *v* qimor o'ynamoq, **game away** yutqazmoq.

game VI [geim] *n* ovlanadigan yovvoyi qushlar.

game VII [geim] *a* mayib, majruh, mayib (*majruh*) bo'lib qolgan.

game-bag ['geimbæg] *n* ovchining sumkasi.

game-bird ['geimbə:d] *n* ovlanadigan (*qanotli*) yovvoyi qushlar; qanotli ilvasin.

game-chicken ['geim.tʃikin] = **gamecock**.

game-cock ['geimkɔk] *n* urushqoq xo'roz.

game-fish ['geimfiʃ] *n* laqqa (*ovlanadigan baliq*).

gamekeeper ['geim.ki:pə] *n* o'rmon qorovuli, o'rmon nazoratchisi.

game-laws ['geimlə:z] *n* ov qoidasi.

game-preserve ['geimpri'zə:v] *n* ovchilar qo'riqxonasi.

games-master ['geimz.ma:stə] *n* jismoniy tarbiya o'qituvchisi.

games-mistress ['geimz.mistris] *n* jismoniy tarbiyadan dars beradigan o'qituvchi ayol, bog'cha opa.

gamesome ['geimzəm] *a* sho'x, xushchaqchaq, quvnoq, xursand, shod.

gamester ['geimstə] *n* o'yinchi, o'yinda qatnashuvchi (*qarta*).

gamete ['gæmi:t] *n* qimorboz, qimor o'ynovchi.

gamin [ga:'mæn] *n* qarovsiz bola.

gaming-house ['geimɪŋhaus] *n* qimorxona.

gaming-table ['geimɪŋ.teibl] *n* qimor stoli.

gamma ['gæmə] *n* gamma (*yunon alifbosining uchinchi harfi*).

gamma rays ['gæmə'reiz] *n* fiz.

1) gammanurlar; 2) onaxon, onajon; 3) son go'shti.

gammer ['gæmə] *n* onajon, bu-

viginam; dudlangan *yoki* quritilgan narsa; dudlangan *yoki* tuzlangan yosh cho'chqa nimtasini tayyorlash.

gammon ['gæmən] *n* aldash, aldov.

gammy ['gæmi] *a* cho'loq, oqsoq.

gamp [gæmp] *n* soyabon, zontik.

gamut ['gæmət] *n* 1) gamma; 2) musiqa ovozi, gamma.

gamy I ['geimi] *a* qushlarni ko'paytiradigan.

gamy II ['geimi] *a* mard, jasur, botir.

gander ['gændə] *n* 1) erkak g'oz; 2) uylangan odam.

gang I [gæŋ] *n* 1) ishchilar partiyasi *yoki* brigadasi; to'da; 2) o'g'rilar to'dasi; 3) guruh; 4) nabor.

gang II [gæŋ] *v* *shottl.* 1) yurmoq, ketmoq, bormoq, harakat qilmoq; 2) bosqinchilar to'dasini tuzmoq; 3) tashlanmoq, guruh bo'lib; **they ~ed (up) on me** ular menga tashlandilar.

ganger I ['gæŋə] *n* ishboshi.

ganger II ['gæŋə] *n* yayov yurish, piyoda yurish.

gangling ['gæŋglɪŋ] *a* bo'yi uzun, novcha.

ganglion ['gæŋgliən] *n* anat. asab tuguni.

gang-plank ['gæŋplæŋk] *n* taxta zina (*kemadan tushish uchun*).

gangrene ['gæŋgri:n] *n* qorason, gangrena.

gangrenous ['gæŋgrɪnəs] *a* gangrenaga oid.

gang-saw ['gæŋsɔ:] *n* taxta tiladigan mashina (*arra*).

gangsman ['gæŋzmən] = **ganger I**.

gangster ['gæŋstə] *n* bosqinchi, yo'lto'sar.

gangway ['gæŋwei] *n* dengiz. taxta zina (*kema, havoza va h. . . dan tushish uchun*).

ganoid ['gænoid] *a* silliq va yaltiroq (*baliq terisidagi tangachalari to'g'risida*).

gantlet ['ga:nlit] = gauntlet.
gantry [gæntri] *n* supacha (*kran, kema va b.da; kuzatish, boshqarish o'ri*).
gantry-crane ['gæntri 'krein] portali kran.
gaol [dʒeɪl] *n* qamoqxona, turma.
gaol-bird ['dʒeɪlbɜ:d] *n* qamalgan, qamoqqa, hibsga olingan kishi, mahbus.
gaoler ['dʒeɪlə] *n* turma nazoratchisi.
gap [gæp] *n* uzilish, farq, tafovut, oraliq.
gape [geɪp] *n* esnoq, bir esnash.
gaper ['geɪpə] *n* anqov, merov; sanqi, bekorchi.
gape-seed ['geɪpsɪ:d] *n* maqsadsiz qarash, razm solish, tikilish.
gappy ['gæpi] *a* to'liq emas, to'l-magan, yarim.
garage ['gæra:ʒ] *n* garaj.
garb I [gɑ:b] *n* 1) kiyim, libos; in the ~ of a sailor matros kiyimida.
garb II [gɑ:b] *v* kiyinmoq.
garbage I ['gɑ:bidʒ] *n* 1) chiqit, tashlandiq; 2) maklatura.
garbage II ['gɑ:bidʒ] *v* og'z. chiqindi bilan oziqlanmoq.
garbage-collector ['gɑ:bidʒkəlek-tə] *n* farrosh, supurib-sidiradigan ishchi.
garble ['gɑ:bl] *v* o'ziqa moslab chiy-lamoq.
garcon [gɑ:r'so:n] *n* garson (*meh-monxonada; yugurdak bola*).
garden ['gɑ:dn] *n* 1) bolalar bog'-chasi, bog'cha; 2) bog'; poliz; 3) park; hotomcal -s botanik park.
garden-bed ['gɑ:dnbed] *n* pushta, j' yak.
garden city ['gɑ:dn.siti] *n* shahar bog' .
gardener ['gɑ:dnə] *n* bog'bon.
garden-frame [gɑ:dnfreim] *n* parnik romi.
garden hose ['gɑ:dnhouz] *n* bog'

shlangi.
garden-house ['gɑ:dnhaus] *n* shly-poncha.
gardening ['gɑ:dnɪŋ] *n* bog' dor-chilik.
garden-party ['gɑ:dn.pɑ:ti] *n* meh-monlarni bog' da kutish.
garden-plot ['gɑ:dnplɒt] *n* bog'-dagi yer maydoni.
garden pruner ['gɑ:dn.pru:nə] *n* tokqaychi; gulqaychi.
garden seat ['gɑ:dnsti:t] *n* bog' dagi joy (*skameyka, eshak*).
garden-stuff ['gɑ:dnstʌf] *n* sabzavot, sabzavotlar; mevalar, ho'l meva.
garden-tillage ['gɑ:dn.tɪlɪdʒ] *n* bog' dorchilik, bog' shunoslik.
garden truck ['gɑ:dn'trʌk] *n* meva va sabzavotlar.
garfish ['gɑ:fiʃ] *n* 1) baliqning bir turi; 2) dengiz cho'rtan baliq'i.
gargantuan [gɑ:'gæntʃuən] *a* juda katta, kattakon, ulkan.
garget ['gɑ:git] *n* halqumning yal-lig' lanishi.
gargle I [gɑ:gl] *n* (*tomoqni*) chayqash.
gargle II ['gɑ:gl] *v* chayqamoq (*tomoqni*).
garibaldi [gæri'bo:ldi] *n* ayollar-ning keng, xonaki ko'ylagi (*bluza*).
garish ['dæriʃ] *a* ko'zni oladigan, ko'zni qamashtiradigan.
garland I ['gɑ:lænd] *n* gul (*barg, nov-da va shu kabi*) o'rimi, tizmasi; marjon.
garland II ['gɑ:lænd] *v* gulchambar bilan bezamoq.
garlic ['gɑ:lik] *n* sarimsoq, sarim-soqpiyoz.
garlicky ['gɑ:liki] *a* sarimsoqqa oid, sarimsoq...
garment I ['gɑ:mənt] *n* pl kiyim, kiyim-bosh, libos; sarpo.
garment II ['gɑ:mənt] *v* kiyinmoq.
garner I ['gɑ:nə] *n* omborxonona, g'alla ombori, g'allaxona.

garner II [ˈga:nə] *v* omborga donni toʻkmoq.

garnet [ˈga:nit] 1) yoqut; 2) toʻq-qizil rang.

garnish [ˈga:nɪʃ] garnir.

garniture [ˈga:nitʃə] *n* bezash, bezatish.

garret [ˈgærət] *n* cherdak (*shipning oraligʻi*).

garreter [ˌgærəˈtiə] *n* qiya shiftli boloxonada yashovchi odam.

garrison [ˈgærɪsn] *n* *harb.* garnizon; ~ **commander** garnizon boshligʻi.

garrotte I [gəˈrɒt] *isp.* *n* bosqinchi-lik (*oʻgʻrilik*) qilish maqsadida boʻgʻ ish.

garrotte II [gəˈrɒt] *v* bosqinchi-lik (*oʻgʻrilik*) qilish maqsadida boʻgʻ ib oʻldirmoq.

garrulity [gæˈru:liti] *n* sergaplik.

garrulous [ˈgæruləs] *a* sergap, ezma.

garter [ˈgɑ:tə] *n* bogʻ, bogʻich (*paypoqni tutib turadigan rezina bogʻich*).

garth [gɑ:θ] *n* hovli, qoʻra.

gas I [gæs] *n* 1) gaz; 2) benzin (*ogʻz.*); 3) soʻzl. sergaplik.

gas II [gæs] *v* 1) gaz bilan zaharlamoq; 2) koʻp gapirmoq.

gas III [gæs] *n* 1) gaz; **natural**-tabiiy gaz; **to turn the ~ on** gazni yoqmoq; **to turn the ~ off** gazni oʻchirmoq; 2) *amer. ogʻz.* benzin (*yoqilgʻi*); 3) *ogʻz.* safsata; **that's all ~** bu hammasi safsata; ~ **chamber** gaz kamerasi; ~ **signal** *harb.* kimyoviy trevoga; ~ **warfare** *harb.* kimyoviy urush.

gas IV [gæs] *v* 1) *harb.* kimyoviy moddalar bilan zaharlamoq; 2) gaz bilan toʻldirmoq; 3) *amer. ogʻz.* yonilgʻi bilan avtomobilni taʼminlamoq; 4) vaysamoq, bemaza gaplar gapirmoq; **stop ~ sing!** vaysashni bas qil!

gas-alarm [ˈgæsəˈla:m] *n* kimyoviy trevoga (*xavfni bildiruvchi signal*).

gas-alert [ˈgæsəˈlə:t] *n* = **gas-alarm**.

gas-a-teria [ˌgæsəˈtəriə] *n. amer.*

oʻz-oʻziga xizmat qilish usulida ishlaydigan mashinalarga yogʻ (*benzin*) quyish tarmogʻi (*kolonkasi*).

gas attack [ˈgæsətæk] *n* kimyoviy hujum (*hamla, tajovuz*).

gas-bag [ˈgæsbæg] *n* 1) gaz balloni; 2) sergap.

gas-bomb [ˈgæsbɒm] *n* kimyoviy bomba.

gas-bracket [ˈgæsbɹækit] *n* gaz rojogi (*rojogichi shox shaklida kengayib boruvchi naychasimon asbob*).

gas-burner [ˈgæsbɜ:nə] = **gas-jet**.

gas chamber [ˈgæstʃeɪmbə] *n* gaz kamerasi; dushegubka (*fashistlarning odam oʻldiradigan avtomashinasi*).

Gascon [ˈgæskən] *n* maqtanchoq, manman.

gasconade [ˌgæskəˈneɪd] *n* katta gapirish, maqtanchoqlik.

gas defence [ˈgæsdɪˌfens] *n* kimyoviy hujumga qarshi himoya.

gaselier [ˈgæseliə] *n* gaz lyustrasi (*qandil, chilchirogʻi*).

gas-engine [ˈgæs.en(d)ʒɪn] *n* gaz dvigateli.

gaseous [ˈgeɪzjəs] *a* gaz holiday, gazsimon.

gas-field [ˈgæsfɪ:ld] *n* tabiiy gaz koni.

gas-fire [ˈgæsfaiə] *n* gaz plita.

gas-fitter [ˈgæsfɪtə] *n* gaz quvuri slesari (*gazoprovod slesari*).

gas-furnace [ˈgæsfɜ:nɪs] *n* 1) gaz pechi (*pechkasi*); 2) gaz oladigan pech.

gash [gæʃ] *n* kesik, kesilgan (*yorilgan*) joy.

gas-holder [ˈgæshəʊldə] *n* gaz-golder (*gaz toʻplanadigan idish*); gaz ombori; gazxona, gaz taqsimlanadigan joy, idish.

gasification [ˌgæsfɪfɪkeɪʃ(ə)n] *n* gazga aylantirish.

gasiform [ˈgæsfɔ:m] *a* gazsimon, gaz holiday.

gasify [ˈgæsfai] *v* gazga aylantir-

moq, gazifikatsiya qilmoq.

gas-jet [ˈgæsdʒət] *n* gaz rojogi.

gasket [ˈgæskɪt] *n* tex. temir yoʻl oʻtkazish (*qurish*).

gas-light [ˈgæslait] *n* gaz yorugʻligi, gaz lamp.

gas-main [ˈgæsmein] *n* gazquvur, gazoprovod.

gasman [ˈgæsmæn] *n* gaz pullari uchun javob beradigan sayyor kassir.

gas-mantle [ˈgæs.mæntl] *n* tex. qizdiradigan setka, (*metall*) qizdirish setkasi.

gas-mask [ˈgæsmɑːsk] *n* protivogaz, gazniqob.

gas-meter [ˈgæs.mi:tə] *n* gazomer, gaz oʻlchagich.

gasolene [ˈgæsəliːn] *n* neftdan olinadigan yoqilgʻi turi (*benzin*).

gasometer [ˈgæˌsɒmɪtə] *n* gazometr (*gaz yigʻish*).

gasp I [gɑːsp] *n* boʻgʻ ilish, qiynalib nafas olish.

gasp II [gɑːsp] *v* qiynalib nafas olmoq.

gasper [ˈgɑːspə] *n* arzon papiros.

gaspingly [ˈgɑːspɪŋli] *adv* siqilib, ezilib.

gas-plant [ˈgæsˈplɑːnt] *n* gaz koni (*zavodi*).

gas-producer [ˈgæsprə.djuːsə] *n* gazogenerator (*yonuvchi gaz ishlab chiqaradigan qurilma*).

gas-proof [ˈgæspruːf] *a* gaz oʻtkazmaydigan.

gas-ring [ˈgæsrɪŋ] *n* gaz gorelkasi.

gassed [gæst] *a* gazdan zaharlangan; ~ *area* zaharli hudud.

gas-shell [ˈgæʃel] *n* kimyoviy asbob.

gas-shelter [ˈgæs.ʃeltə] *n* gazpanogoh (*gazdan yashirinadigan joy*).

gassing [ˈgæsiŋ] *n* gazdan zaharlanish.

gas-station [ˈgæsteɪʃ(ə)n] *n* amer. benzokolonka (*avtomashinalarga benzin quyib beradigan kolonka, punkt*).

gas-stove [ˈgæsˈstouv] *n* gaz plita.

gas-tank [ˈgæstæŋk] *n* amer. gaz balloni; rezervuar (*gaz saqlanadigan katta idish*).

gassy [ˈgæsi] *a* gazsimon.

gast(e)ropoda [ˈgæstəˈrɒpədə] *n* zool. qorinoyoqlilar.

gas-tight [ˈgæstait] = **gas-proof**.

gastric [ˈgæstriːk] *a* oshqozonga oid.

gastritis [gæsˈtraɪdɪs] *n* tib. gastrit.

gastronome [gæstrəˈnɒm] *n* ovqat shinavandasi, gastronom.

gastronomer [gæsˈtrɒnəmə] = **gastronome**.

gastronomic [ˌgæstrəˈnɒmɪk] *a* gastronomiya.

gastronomist [gæsˈtrɒnəmɪst] = **gastronome**.

gastronomy [gæsˈtrɒnəmi] *n* oshpazlik.

gas-warfare [ˈgæs.wɔːfeə] *n* kimyoviy urush.

gas-works [ˈgæswɔːks] *n* gaz zavodi (*koni*).

gat [gæt] *n* amer. toʻpponcha.

gate I [geɪt] *n* 1) darvoza; 2) kirish-chiqish; 3) shahar darvozasi; **to wait at the** ~ darvoza oldida kutmoq; 4) tomoshabinlar soni; 5) *kino*. kadr oynasi; 6) ayol; 7) obraz, harakat.

gate II [geɪt] *v* talabalarni kollejga qoʻymaslik.

gate-bill [ˈgeɪtbɪl] *n* kech qolgan talabalar uchun yoziladigan jarima qoʻgʻozi, xatcha (*Oksford universiteti va kollejlarda*).

gate-crash [ˈgeɪtkræʃ] *v* 1) chaqirmasdan kelmoq, chaqirilmagan mehmon boʻlmoq; 2) chiptasiz kirmoq.

gate-crasher [ˈgeɪtkræʃə] *n* 1) chaqirilmagan mehmon; 2) chiptasiz tomoshabin.

gatehouse [ˈgeɪthaus] *n* (*eshik*) darvoza oldida turadigan qorovul.

gate-keeper [ˈgeɪt.kiːpə] *n* darvozabon.

gate-legged [ˈgeitlɛgd] *a* ~ **table**
koʻtarib qoʻyadigan (*qaytarma*) qop-
qoqli stol.

gate-money [ˈgeit.məni] toʻplangan
pul.

gate-post [ˈgeitpoust] *n* darvoza
ustuni.

gateway [ˈgeitwei] *n* kirish yoʻli.

gather [ˈgæθə] *v* 1) toʻplamoq; to ~
a crowd olomon toʻplamoq; 2) uzmoq
(*gul*), termoq (*meva*); **the bee** ~ **s honey**
asalari asal yigʻadi; 3) termoq (*yerdan*);
to ~ **the pieces of a broken dish** singan
tarelka parchalarni termoq; 4) qoshini
termoq; 5) xulosa qilmoq.

gathering [ˈgæθ(ə)riŋ] *n* 1) yigʻin;
2) majlis, uchrashuv; **political** ~ siyosiy
yigʻin; miting.

gauche [gouʃ] *a* kelishmagan; qoʻpol.

gaud [gɔ:d] *n* 1) zar ip; 2) oʻyinchoq.

gaudy I [ˈgɔ:di] *n* tantanali katta
bayram.

gaudy II [ˈgɔ:di] *a* yorugʻ.

gauffer [ˈgoufə] = **goffer**.

gauge I [geidʒ] *n* oʻlchov; to **take**
the ~ of smth. oʻlchov apparati.

gauge II [geidʒ] *v* oʻlchamoq, baho
bermoq (*odamning xarakteriga*).

gauge-glass [geidʒgla:s] *n* suv sat-
hini oʻlchaydigan (*koʻrsatuvchi*) shisha
naycha.

gauging-station [ˈgeidʒɪŋ.steɪʃ(ə)n]
n gidrometrik stansiya.

Gaul [gɔ:l] *n* gall, galliya.

gaulish [ˈgɔ:lɪʃ] *a* gallga oid.

gaunt [gɔ:nt] *a* 1) oriqli; 2) uzun;
3) oʻzidan itaruvchi.

gauntlet [ˈgɔ:ntli:t] *n* qoʻlqop.

gantry [ˈgɔ:ntri:] = **gantry**.

gauss [gaus] *n* gauss (*magnit*
industriyasi birligi).

gauze [gɔ:z] *n* doka.

gauzy [ˈgɔ:zi] *a* yupqa, ingichka.

gave [geɪv] *past*. **give** I *dan*.

gavel [ˈgævl] *n* (*majlis yoki sud*

raising) bolgʻachasi.

gawk [gɔ:k] *n* ahmoq.

gawky [ˈgɔ:ki] *a* kelishmagan, uyat-
chan.

gay [geɪ] *a* 1) shod, xursand; ~

fellow xushchaqchaq yigit; 2) ochiq
tus, yaltiroq.

gazabo [gəˈzeɪbə] = **gazebo**.

gaze I [geɪz] *n* tikilib (*diqqat bilan*)
qarash.

gaze II [geɪz] *v* tikilib (*diqqat bilan*)
qaramoq; (**at**, **on**, **upon**); **at** (**on**) **the**
first ~ birinchi koʻrishda.

gazebo [gəˈzi:bə] *n* balandlikdagi
shiypon, oynali boloxona ayvoni.

gazelle [gəˈzel] *n* gʻazal.

gazer [ˈgeɪzə] *n* diqqat bilan qaray-
digan kishi; **star-gazer** yulduzlarni
kuzatuvchi.

gazette I [gəˈzet] *n* davlat byulleteni.

gazette II [gəˈzet] *v* rasmiy gazetada
nashr qilmoq.

gazetteer [ˈgæzɪtiə] *n* 1) geografik
maʼlumotnoma; 2) oʻgʻz jurnalist, gaze-
tada ishlaydigan odam.

gazogene [ˈgæzɔʊdʒi:n] *n* gazoge-
nerator.

gear [giə] *n* 1) mexanizm; 2) mosla-
shish; 3) kiyim.

gear-box [ˈgiəbɒks] *n* *tex.* uzatmalar
korobkasi.

gear-case [ˈgiəkeɪs] = **gear-box**.

gearing [ˈgiəriŋ] *n* *tex.* uzatma.

gear-ratio [ˈgiəˌreɪʃiə] *n* *tex.* uzat-
ma miqdori; harakatni uzatish miqdori.

gear-wheel [ˈgiəwi:l] *n* tishli gildirak.

gee [dʒi:] ammo, lekin, biroq.

gee(-gee) [ˈdʒi:ˈdʒi:] *n* pastak ot.

geese [gi:s] *pl* **goose** 1 *dan*.

gee-up [ˈdʒi:ˈʌp] = **gee**.

gee whizz [ˈdʒi:wɪz] = **gee**.

Gehenna [gɪˈhenə] *n* doʻzax, jahan-
nam.

Geiger counter [ˈgiəgɪˈkauntə] *n*
fiz. geyger schyotchigi (*schyotchik-*

biror narsani hisoblaydigan asbob).
geisha [ˈgeiʃə] *n* geysha.
gel [dʒel] *n* kim. gel.
gelatin(e) [ˌdʒeləˈtiːn] *n* jelatin.
gelatinize [dʒiˈlætiːnaɪz] *v* muzga aylanmoq.
gelatinous [dʒiˈlætiːnəs] *a* jelatinga oid.
gelation [dʒiˈleiʃ(ə)n] *n* muzlash, muzlatish.
geld [ɡeld] *v* axtalamoq, soliq tʻolamoq.
gelding [ˈɡeldɪŋ] *pres. p.* **geld** *dan.*
gelid [dʒelid] *a* muzdan iborat, muzli.
gelignite [ˈdʒelɪɡnaɪt] *n* togʻ gelignit.
gelt [ɡelt] *past.* 1) **geld** *dan;* 2) pul.
gem I [dʒem] *n* naqsh tushiradigan qimmatbaho tosh; **real** ~ qimmatbaho tosh.
gem II [dʒem] *n* qimmatbaho toshlar bilan bezamoq.
geminate [ˈdʒemɪnɪt] *a* ikki qavat, bir juft.
gemination [ˌdʒemɪˈneɪʃ(ə)n] *n* ikki hissa oshirish, ikki marta koʻpaytirish.
Gemini [ˈdʒemɪniː] *n* *pl* egizaklar.
gemma [ˈdʒemə] *n* bot. kurtak.
gemmae [ˈdʒemiː] *pl* **gemma** *dan.*
gemmate I [ˈdʒemɪt] *a* kurtak chiqazgan.
gemmate II [ˈdʒemeɪt] *v* kurtak chiqazmoq.
gemmatation [dʒeˈmeɪʃ(ə)n] *n* kur-taklanish.
gemmiferous [dʒeˈmɪfərəs] *a* qimmatbaho toshli.
gen [dʒen] *n* 1) tirishish; 2) *harb.* shevada maʼlumot.
gendarme [ʒaːndaːm] *n* *fr.* jandarm.
gendarmerie [ʒaːnˈdaːməri] *fr.* *n* jandarmeriya.
gender [ˈdʒendə] *n* jins, rod; *gram.* sredniy rod.
gene [dʒiːn] *n* *gen* (*irsiyatning elementar birligi*).

genealogical [ˌdʒiːnjəˈlɒdʒɪk(ə)l] *a* kelib chiqishga oid.
genealogy [ˌdʒiːniˈælədʒi] *n* nasabshunoslik, irsiyatshunoslik.
genera [ˈdʒenərə] *pl* **genus** *dan.*
general I [ˈdʒen(ə)r(ə)l] *n* general; ~ **of the Army** armiya generali; 2) *oʻgʻz.* koʻpchilik.
general II [ˈdʒen(ə)r(ə)l] *a* 1) umumiy; ~ **meeting** umumiy yigʻilish; 2) keng tarqalgan, odatiy; ~ **release** katta (*keng*) prokat; 3) asosiy, bosh; ~ **committee** asosiy, bosh komitet; **in** ~ umuman; **in the** ~ asosan; ~ **past** birinchi, ertalabki pochta.
General Assembly [ˈdʒen(ə)lɪssembli] Bosh Assambleya.
General-in-Chief [ˈdʒenərəlɪnˈtʃiːf] *pl* Bosh qoʻmondon.
generalissimo [ˌdʒen(ə)rɪˈlɪsɪmou] *n* generalissimus (*harbiylarda eng katta unvon*).
generality [ˈdʒenərəlɪti] *n* 1) umumiylik; 2) umumiy joy.
generalization [ˌdʒen(ə)rəl(a)ɪˈzeɪʃən] *n* 1) umumiy xulosa; 2) umumiy qoida.
generalize I [ˈdʒen(ə)rəlaɪz] *v* 1) umumlashtirmoq; 2) keng tarqatmoq.
generalize II [ˈdʒen(ə)rəlaɪz] *n* 1) umumlashtirish; 2) umumiy qoida.
generalized [ˈdʒen(ə)rəlaɪzd] *a* umumiy.
generally [ˈdʒen(ə)rəli] *adv* umuman, odatda, keng koʻlamda; **what time do you ~ get up?** Odatda sen qachon oʻrindan turasan.
generalship [ˈdʒen(ə)rəlʃɪp] *n* generallik unvoni.
Generals-in-Chief [ˈdʒenərəl-zɪnˈtʃiːf] Bosh qoʻmondonlar.
generate [ˈdʒenəreɪt] *v* 1) sabab boʻlmoq; 2) hosil qilmoq.
generation [ˌdʒenərəɪʃ(ə)n] *n* avlod, boʻgʻin; **the rising** ~ oʻsib kelayot-

gan avlod.

generative [ˈdʒenərətɪv] *a* 1) unumli, natija beradigan, foydali; 2) jins hujayralari.

generator [ˈdʒenəreɪtə] *n* 1) ishlab chiqaruvchi; 2) *tex.* generator.

generatrices [ˈdʒenəreɪtrɪsiːz] *pl*
generatrix *dan.*

generatrix [ˈdʒenəreɪtrɪks] *n* esini kirgizmoq.

generic [dʒɪˈnerɪk] *a* 1) rodga oid; 2) umumiy; ~ **tern** umumiy maʼno; ~ **chavacter** umumiy xarakter.

generosity [ˌdʒenəˈrɒsɪti] *n* 1) muruvvat; 2) saxiy, qoʻli ochiqlik.

generous [ˈdʒen(ə)rəs] *a* 1) muruvvatli; 2) saxiylik; ~ **nature** ochiq tabiatli.

genesis [ˈdʒenɪsɪs] *n* kelib chiqish.

genetic [dʒɪˈnetɪk] *a* genetik.

genetics [dʒɪˈnetɪks] *n* genetika (*biologiyaning irsiyat hodisalarini va irsiyatning oʻzgarib turishini oʻrganadigan sohasi*).

geneva [dʒɪˈni:və] *n* archa urugʻi solingan araq.

Genevan [dʒɪˈni:vən] *a* Jeneva shartnomasi.

Geneva stop [dʒɪˈni:vəstɒp] yaxshi.

genial I [ˈdʒiːnjəl] *a* 1) yaxshi, yaxshilikni ayamaydigan; xushchaqchaq ~ **old man** saxiy, yaxshi qariya; ~ **company** xushchaqchaq ulfat; 2) yengil, yaxshi (*kun, iqlim*); 3) bayramona.

genial II [ˈdʒiːnaiəl] *a* iyakka oid.

geniality [ˌdʒiːniˈæli] *n* yaxshilik, ezgulik.

genially [ˈdʒiːnjəli] *adv* chin koʻngildan (*qalbdan*), samimiyat bilan, samimiy.

genie [ˈdʒiːni] *n* (*arab ertaklarida*) jin, ajina.

genii I [ˈdʒiːniəi] *pl* **genius** *dan.*

genii II [ˈdʒiːniəi] *pl* **genie** *dan.*

genista [dʒɪˈnɪstə] *n* *bot.* sariq gulli, dukkakli choʻl oʻsimligi.

genital [ˈdʒenɪtl] *a* jinsiy.

genital [ˈdʒenɪtl] *n pl* jinsiy aʼzolar.

genitive [ˈdʒenɪtɪv] *gram.* qaratqich kelishigi.

genius [ˈdʒiːnjəs] *n* 1) geniy, daho; **a man of ~** isteʼdodli odam; 2) ulugʻ; geniy; 3) his, kayfiyat.

genocide [ˈdʒeno(u)səɪd] *n* genosid.

Genoese I [ˌdʒeno(u)ˈiːz] *a* genueziyga oid.

Genoese II [ˌdʒəno(u)ˈiːz] *n* genueziyalik.

genotype [ˈdʒeno(u)taɪp] *n* genopit.

genre [ʒɑːnr] *n* janr.

gent [dʒent] **getleman.**

genteel [dʒenˈtiːl] *a* oli janob.

gentian [ˈdʒɛnjən] *n* gazak oʻt.

gentile [ˈdʒɛntaɪl] *n* butparast; ushbu qabilaga tegishli.

gentility [dʒɛnˈtɪli] *n* nasli tozalik, asl zotlik.

gentle [ˈdʒɛntl] *a* 1) muloyim, yumshoq; 2) nozik, yoqimli; ~ **look** nozik qarash; 3) yengil, kuchsiz; ~ **push** yengil turtki; 4) taniqli.

gentlefolks [ˈdʒɛntlfouks] *n pl* oqsu-yaklar, zodagonlar, aslzodalar.

gentlehood [ˈdʒɛntlhud] *n* 1) aslzodalik, najiblik; 2) mashhurlik, dongdorlik.

gentleman [ˈdʒɛntlmən] *n* 1) nozik muomalali, nazokatli odam; **true** ~ haqiqiy, nazokatli odam; 2) janob; **young** ~ yosh janob.

gentlemanlike [ˈdʒɛntlmənlaɪk] *a* yaxshi tarbiya koʻrgan, tarbiyalı.

gentlemanly [ˈdʒɛntlmənli] = **gentlemanlike.**

gentleness [ˈdʒɛntlnɪs] *n* yumshoqlik.

gentlewoman [ˈdʒɛntlˌwʊmən] *n* xonim (*burjua-dvoryan jamiyatida*).

gently [ˈdʒɛntli] *adv* 1) yumshoq; **to speak** ~ yumshoq gapirmoq; 2) ehtiyohtorlik; 3) tugʻma.

gents [dʒɛnts] *n* erkaklar xoʻjatxonasi.

genual [ˈdʒiːnjuəl] *a* tizzaga oid.

genuflect [ˈdʒɛnju(:)flekt] *v* tizzani bukmoq.

genuflection [ˌdʒɛnju(:)ˈflekt(ə)n] *n* sajda qilish.

genuine [ˈdʒɛnjuɪn] *a* asl, chin.

genuinely [ˈdʒɛnjuɪnli] *adv* samimiyat (*sadoqat*) bilan, chin yurakdan.

genus [ˈdʒi:nəs] *n* tur, xil, zot.

geocentric [ˌdʒi(:)o(u)ˈsentrik] *a* geosentrik.

geochemistry [ˈdʒi(:)o(u)ˈkemistri] geoximiya.

geodesy [dʒi(:)ˈɔdisi] *n* geodeziya.

geodetic [ˌdʒi(:)o(u)ˈdetik] *a* geodeziyaga oid.

geognosy [dʒɪˈɔgnəsi] *n* geognoziya.

geographer [dʒɪˈɔgrəfə] *n* geograf.

geographic [dʒiəˈgræfik] = **geographical**.

geographical [dʒiəˈgræfik(ə)] *a* geografik.

geography [dʒɪˈɔgrəfi] *n* geografiya.

geologic(al) [dʒiəˈlɔdʒik(əl)] *a* geologiyaga oid, geologik.

geologist [dʒɪˈɔlədʒist] *n* geolog.

geologize [dʒɪˈɔlədʒaɪz] *v* geologiyani oʻrganmoq (*geologiya—yer haqidagi fan*).

geology [dʒɪˈɔlədʒi] *n* yer haqidagi fan.

geomagnetic(al) [ˌdʒi(:)o(u)mæɡˈnetik(əl)] *a* geomagnit.

geometer [dʒɪˈɔmitə] *n* geometriya olimi.

geometrical [dʒiəˈmetrik(ə)] *a* geometrik; ~ **figures** geometrik figura.

geometrically [dʒiəˈmetrikəli] *adv* geometriyaga oid.

geometrician [ˌdʒiɔ(u)mɛˈtri(ə)n] = **geometer**.

geometry [dʒɪˈɔmitri] *n* geometriya; ~ **book** geometriya kitobi.

geophysical [ˌdʒi(:)o(u)ˈfizik(ə)] *a* geofizikaga oid.

George [dʒɔ:dʒ] *n* uchuvchi.

georgian [ˈdʒɔ:dʒjən] *n* gruzin, gruziyalik kishi; **the ~s** gruzinlar; gruzin tili.

geranium [dʒɪˈreɪnjəm] *n bot.* atirshox.

germ [dʒə:m] *n* embrion, pusht. homila.

Germen [ˈdʒə:mən] *n* nemis; **the ~s** nemislar.

germane [dʒəˈmeɪn] *a* oʻrinli, oʻz vaqtida.

Germanic [dʒəˈmænik] *a* germanlarga oid.

germanium [dʒəˈmeɪniəm] *n* germaniy (*kimyoviy element*).

Germanize [ˈdʒə:mənaɪz] *v* nemislashtirmoq.

germicide [ˈdʒə:misaɪd] *n* modda.

germination [ˌdʒə:miˈneɪf(ə)n] *n* unib chiqish, koʻkarish.

Gerry [ˈdʒeri] = **Jerry**.

gerund [ˈdʒer(ə)nd] *n gram.* gerundi (*ravishdosh*).

gestation I [dʒesˈteɪf(ə)n] *n* homiladorlik.

gestation II [dʒesˈteɪf(ə)n] *n* homiladorlik.

gesticulate [dʒesˈtikjuleɪt] *v* (*qoʻl bilan*) imo-ishoralar qilmoq.

gesticulation [dʒes.tikjuˈleɪf(ə)n] *n* imo-ishora.

gesture [ˈdʒestʃə] *n* 1) imo-ishora; 2) harakat.

get I [get] *n* 1) ishlab topilgan pul; 2) foyda, daromad; 3) nasl, bolalash (*hayvonlar toʻgʻrisida*).

get II [get] *v* 1) olmoq, qoʻlga kiritmoq; **to ~ tickets** chipta olmoq; **to ~ permission** ruxsat olmoq; 2) ushlab olmoq; **to ~ the thief** oʻgʻrini ushlamoq; 3) tushunmoq; **to ~ smth. wrong** kimnidir notoʻgʻri tushunmoq; 4) oʻylantirmoq; **this problem ~ s me** bu muammo meni oʻylantirib qoʻydi; 5) aloqa qilmoq; **did you ~ Paris?** Sen Parij bilan bogʻlandingmi? 6) yod olmoq; **to ~ smth. (off) by heart** nimanidir yod

olmoq; 7) yetib bormoq; **to ~ home** uyga yetib bormoq; **to ~ to Tashkent** Toshkentga kelmoq; 8) xalos bo' lmoq; **to ~ out of the job** bu ishdan xalos bo' lmoq; 9) boshlamoq; **~ to know** bilmog; **how did you ~ to know him?** Sen u bilan qanday tanishding? 10) to'g'rilamoq; o'tmoq; **to ~ over a fence** devordan (*panjaradan*) o'tmoq; 11) aldamoq; 12) yengmoq; 13) yaqindan tanishmoq; **~ about** tarqalmoq; **~ a head** ulgurmoq; sharafga erishmoq; **~ along** zo'rg'a yashamoq; **~ away** qochib ketmoq; **~ back** qaytmoq; **~ by** o'tqazib yubormoq; **~ down** tushmoq; **~ in** chiqmoq; **~ off** tushmoq; **~ together** to'planmoq; **~ up** ko'tarilmoq.

get-at-able [get'ætəbl] *a* kirish mumkin bo'lgan.

get-away [get'wei] *n* qochish, qochib ketish.

getter ['getə] *n* mol-dunyo o'rtirishga intiluvchi odam.

get-together ['gettə,geðə] *n* uchra-shuv, majlis.

get-tough ['gettʌf] *a* qattiq, dag'al.

get-up ['getʌp] *n* 1) qurilish, tuzilish; 2) kiyim, kostyum.

gewgaw ['gju:ɡə:] *n* mayda-chuyda bezak.

geyser ['gaizə] *n* geyzer (*o'qin-o'qin otilib turadigan issiq buloq*).

ghastly ['gɑ:stli] *a* 1) qo'rqinchli, vahimali; **~ dreams** qo'rqinchli tush; 2) qorong'i, mudhish.

gherkin ['gə:kin] *n* kornish (*sirkalash uchun uzilgan mayda bodring*).

ghost [ɡəʊst] *n* 1) boshqa shaxs uchun xufiya ishlovchi asl muallif; 2) sharpa; 3) ruh; 4) soya, iz.

ghost-writer ['ɡəʊst,raɪtə] = **ghost**.

ghoul [ɡu:l] *n* katta ko'rshapalak.

ghoulish ['gu:lɪʃ] *a* shaytonga xos bo'lgan.

giant ['dʒaɪənt] *n* pahlavon, ulkan.

giantess ['dʒaɪəntɪs] *a* juda ulkan, bahodir.

giantism ['dʒaɪəntɪzəm] *n* gigantizm (*organizm yoki ayrim a'zoning nonormal kattaligi, o'sishi*).

giantlike ['dʒaɪəntlaɪk] *a* gigant, juda katta, ulkan.

giant('s)-stride ['dʒaɪənt(s)'straɪd] *n* juda ulkan, devqomat odam.

giaour ['dʒaʊə] *n* kofir, g'ayridin.

gib I [ɡɪb] *n* mushuk.

gib II [dʒɪb] *n* pona, qiyiq.

gibber ['dʒɪbə] *a* noaniq, tushunib bo'lmaydigan.

gibberish ['dʒɪbəriʃ] *a* tushunib bo'lmaydigan, noaniq; **foreign** ~ tushunmaydigan chet tili.

gibbon ['ɡɪbən] *n* gibbon (*odamsimon maymun turi*).

gibbous ['ɡɪbəs] *a* bukur, bukchaygan.

gibe [dʒaɪb] *n* masxara qilish.

giber ['dʒaɪbə] *n* masxarachi.

gibus ['dʒaɪbəs] *n* shapoklyak (*purjinali, taxlanadigan shlyapa-silindir*).

giddiness ['ɡɪdɪnɪs] *n* 1) bosh aylanish, gangish; **I am given (subject) to ~** Meni tez-tez boshim aylanib turadi; 2) yengil o'ylash.

gift I [ɡɪft] *n* 1) sovg'a; **birthday (christmas)** ~ Rojdestvo sovg'asi; 2) hadya; 3) iste'dod, qobiliyat; **~ of tongue** til bilish qobiliyati.

gift II [ɡɪft] *v* 1) in'om etilgan, qobiliyat ato etgan; **to be ~ by nature with great talent** tabiatda berilgan qobiliyat; 2) hadya etmoq.

gifted ['ɡɪftɪd] *a* iste'dodli, talantli; **~ poet** qobiliyatli shoir.

gig I [ɡɪɡ] *n* ochilib yopiladigan kuzov va shunday kuzovli yengil avtomobil.

gig II [ɡɪɡ] *v* 1) kabrioletda yurmoq; 2) *amer.* oldinga, orqaga yurmoq.

gig III [ɡɪɡ] *n* baliq ovlaydigan

changak, sanchqi.

giggle I [ˈgɪgl] *n* qiqirlab (*hingil-lab*) kulish, qiqir-qiqir (*hingir-hingir*) kulish, qiqirlash.

giggle II [ˈgɪgl] *v* qiqirlab (*hingil-lab*) kulmoq, qiqir-qiqir kulmoq.

gigolo [ˈ(d)ʒɪgələu] *n* dayus, sutenyor (*kapitalistik mamlakatlarda: fohisha oʻynashi, maʼshuqasi hisobiga yashovchi erkak kishi*).

GIJ [ˈdʒiːˈaɪˈdʒeɪn] *n amer.* soldat (*askar*) ayol.

gilbert [ˈgɪlbət] *n el.* gilbert.

gild I [gɪld] *v* oltinlamoq, oltin yugurtirmoq.

gild II [gɪld] = **guild**.

gilded [ˈgɪldɪd] *a* zarhallangan, tilla suvi yugurtirilgan; oltin bilan qoplangan.

gilder [ˈgɪldə] *n* zaharlovchi, zahar beruvchi.

gilding [ˈgɪldɪŋ] *n* zarhal (*narsa sirtiga yugurtirilgan yoki qoplangan oltin qatlam*).

gill I [gɪl] *a* dildan sevilgan, yurakdan urgan.

gill II [gɪl] *n* oyquloq.

gill III [gɪl] *a* serdaraxt, chuqur jarlik.

gill IV [dʒɪl] *n* 0,25 pinta (*pinta-ingliz oʻlchovlarini qoʻllovchi mamlakatlarda: suyuqlik yoki sochiluvchi narsalarning oʻlchov birligi*).

gillie [ˈgɪli] *n shotl.* 1) boshliqning xizmatkori; 2) baliqchi; ovchining yordamchisi.

gillyflower [ˈdʒɪliːflaʊə] *n* shabboy (*krestgullilarga mansub xushbóʻy gulli dekorativ oʻsimlik*).

gilt [gɪlt] *n* zarhal.

gilt-edged [ˈgɪltɛdʒd] *a* 1) cheti zarhalli; 2) aʼlo sifatli, birinchi navli.

gimbals [ˈdʒɪmb(ə)lɪz] *n pl tex.* kardan ilgagi (*kardan-avtomobilda va umuman mashinalarda oshiq-moshiq-*

simon mexanizm).

gimlet I [ˈgɪmlɪt] *n* parma, dastparma.

gimlet II [ˈgɪmlɪt] *v* parmalamoq.

gimmick [ˈgɪmɪk] *n soʻzl.* hiyla, nayrang, makr (*qilish, ishlatish*); **to pull a ~** nayrang qilmoq.

gimp [gɪmp] *n* zar ip.

gin I [dʒɪn] *n* qopqon, tuzoq.

gin II [dʒɪn] *n jin (araq turi)*.

gin III [dʒɪn] *v* lebyodka (*ogʻir narsalarni koʻtaradigan chigʻir*).

gin IV [gɪn] *v* boshlamoq.

ginger [ˈdʒɪn(d)ʒə] *n* 1) zanjabil (*oʻsimlik*); 2) malla (*sariq sochli odam*).

ginger-beer [ˈdʒɪn(d)ʒəˈbiə] *n* zanjabil pivo (*zanjabil oʻsimligi*).

gingerbread [ˈdʒɪn(d)ʒəˈbred] *n* 1) zanjabilidan qilingan (*tayyorlangan*) shirin kulcha; 2) ogʻz. pul.

gingerly [ˈdʒɪn(d)ʒəli] *n* ehtiyotli, ehtiyotkor.

ginger-snap [ˈdʒɪn(d)ʒəˈsnæp] *n* zanjabilidan qilingan (*tayyorlangan*) pishiriqlar (*pechenye*).

gingery [ˈdʒɪn(d)ʒəri] *a* zanjabilga oid.

gingham [ˈgɪŋəm] *n soʻzl.* (*katta*) zontik, soyabon.

gingivitis [ˌdʒɪndʒɪˈvaɪtɪs] *n tib.* milkning yalligʻlanishi.

gink [gɪŋk] *n gʻ* alati odam.

gin-mill [ˈdʒɪnmɪl] = **gin-shop**.

gininery [ˈdʒɪnəri] *n* paxta tozalash fabrikasi (*zavodi*).

ginseng [ˈdʒɪnsɛŋ] *n* odamgiyoh.

gin-shop [ˈdʒɪnʃɒp] *a* pivoga oid.

Gipsy I [ˈdʒɪpsɪ] *n* loʻli; loʻli ayol, loʻli qiz; loʻlilar tili.

Gipsy II [ˈdʒɪpsɪ] *a* loʻlilarga oid, loʻlicha, loʻli(*lar*).

Gipsy-moth [ˈdʒɪpsɪmɒθ] *n zool.* ipak qurti.

Gipsy-table [ˈdʒɪpsɪˌteɪbl] *n (uch oyoqli)* yumaloq (*toʻgarak*) stol.

giraffe [dʒɪˈraːf] *n* jiraf.

girandole [ˈdʒir(ə)ndoul] *n* qandil, katta shamdon, chilchiroq

gird I [gə:d] *v* belbogʻ bogʻlamoq, kamar bogʻlamoq.

gird II [gə:d] *n* birovning ustidan kulish, birovni masxara qilish.

girder [ˈgə:də] *n* balka, toʻsin.

girdle [ˈgə:dl] *n* kamar, belbogʻ.

girl [gə:l] *n* 1) qiz, qizcha; 2) xizmatkor ayol; 3) sotuvchi ayol; 4) kelin.

girl-friend [ˈgə:lfrɛnd] *n* dugona.

girlhood [ˈgə:hu:d] *n* qizlik davri.

girlie [ˈgə:li] *n* voyaga yetmagan qiz; ~ **magazine** ayollar jurnali.

girlish [ˈgə:lɪʃ] *a* qizlik davridagi.

Girondist [dʒɪˈrɒndɪst] *n* fr. jirondist.

girt [gə:t] *n* past. va p.p. **gird I** dan.

girth [gə:θ] *n* qorinbogʻ, ayil.

gist [dʒɪst] *n* mohiyat, asl maʼno; **the ~ of the matter** ish mohiyati.

give [gɪv] *v* 1) bermoq, topshirmoq; **to ~ smb. a pencil** kimgadir qalam bermoq; 2) sovgʻa qilmoq; **to ~ smb. a present** kimgadir sovgʻa qilmoq; 3) uzatmoq; **to ~ lam** oq; 4) atamoq, bagʻishlamoq; 5) berilib ketmoq, kirishib ketmoq; **to give one's mind to study** oʻqishga butunlay kirishib ketmoq; 6) zarar yetkazmoq; **The pupil gives the teacher much trouble.** Bu oʻquvchi oʻqituvchiga koʻp tashvish keltiradi; 7) koʻrsatmoq; 8) hukm qilmoq; 9) inʼom qilmoq, biror narsaning bahridan oʻtmoq; 10) xabar bermoq; **to ~ information** xabar, maʼlumot bermoq; 11) bogʻlamoq; 12) tarqatmoq (*yuqumli kasallik*) **one child can ~ measles to a whole class** bir bola hammaga kasallikni yuqtirishi mumkin; 13) turmushga bermoq, uzatmoq; ~ **in marriage** turmushga chiqmoq; ~ **about** tarqatmoq.

give-and-take [ˈgɪvən ˈteɪk] *v* bir-biriga yon berish.

give-away I [ˈgɪvə weɪ] *n* sirni fosh qilish *yoki* sotqinlik qilish.

give-away II [ˈgɪvə weɪ] *a* past (*narz toʻgʻ risida*); **at a ~ price** juda past bahoda.

given [ˈgɪvən] *a* 1) bu, shu, mana shu, ushbu; 2) belgilangan **in a ~ time** belgilangan vaqtdan soʻng.

giver [ˈgɪvə] *n* anavi, oʻsha.

gizzard [ˈgɪzəd] *n* 1) ikkinchi oshqozon (*meʼda, qushlarda*); 2) tomoq, qorin.

glabrous [ˈgleɪbrəs] *a* tekis, tep-tekis, silliq.

glace [glæˈseɪ] *a* silliq; ~ **silk** silliq mato.

glacial [ˈgleɪsɪəl] *a* muzlikka oid, muzlikdan iborat; sovuq, ~ **smile** sovuq kulgu.

glaciate [ˈgleɪsɪeɪt] *v* muzlatuvchi namakob.

glacier [ˈglæsjə] *n* muzlik, muz qatlami.

glacis [ˈglæɪsɪs] *n* *harb.* okop oldidagi yasama doʻnglikning old tomondagi qiyaligi (*nishab joyi*).

glad [glæd] *a* 1) mamnun; 2) xursand; ~ **to hear it** eshitganimdan xursandman; 3) baxtli.

gladden [ˈglædn] *v* xursand qilmoq.

glade [gleɪd] *n* oʻrmon ichidagi ochiq joy.

gladiator [ˈglædɪeɪtə] *n* gladiator (*qadimgi Rimda: sirk maydonida kurash tushirilgan qul yoki harbiy asir*).

gladiatorial [ˌglædɪəˈtɔ:riəl] *a* gladiatorlarga oid.

gladioli [ˌglædɪˈoʊləɪ] *pl* **gladiolus** dan.

gladiolus [ˌglædɪˈoʊləs] *n* 1) gladiolus (*tugunak piyozli koʻp yillik gul*); 2) badan, koʻkrak.

gladly [ˈglædli] *adv* suyunib, shodiyona.

gladsome [ˈglædsəm] *a* quvnoq, xursand; ~ **morning** quvnoq tong.

Gladstone [ˈglædstən] *n* charm sakvoyaj.

glair I [glæə] *n* tuxumning oqi

glair II [glɛə] *v* tuxumning oqini surmoq.

glairy [ˈglɛəri] *a* oqsil moddasiga oid.

glave [gleiv] *n* qilich, shamshir.

glamor [ˈglæmə] = **glamour**.

glamorize [glæməraiz] *v* juda maqtanchoq.

glamorous [ˈglæməərəs] *amer.* = **glamorous**.

glamour [ˈglæmə] *n* 1) afsun, sehr, jodu; **a scene full of ~** afsum peyzaji; 2) sehrgarlik.

glamorous [ˈglæməərəs] *a* dilrabo.

glance I [glɑ:ns] *n* kó z tashlash; **at a ~** bir kó rishda.

glance II [glɑ:ns] *v* nazar solmoq; **to ~ one's eye (look) at (upon) smb.** kimgadir kó z tashlamoq.

glance III [glɑ:ns] *v* 1) salnik (*tir-qishlarni berkitib turuvchi detal qoplama*); 2) bir kó z tashlamoq; kó z yugur-tirib chiqmoq.

gland [glænd] *n* anat. bez.

glanderous [ˈglændərəs] *n* vet. manqa kasalligiga oid.

glanders [ˈglændəz] *a* manqa (*otlarda bó ladigan yuqumli kasallik*).

glandiferous [glænˈdifərəs] *a* chó chqa yongʻ oqli (*chó chqayongʻ oq-dub daraxtining mevasi*).

glandiform [ˈglændifɔ:m] *a* tarkibida metall bóʻlgan, temirli.

glandular [glændjələ] *a* 1) tarkibida metall bóʻlgan; 2) temir shaklida.

glandule [ˈglændju:l] *n* bezcha, kichik bez.

glare I [glɛə] *n* 1) kó zni qamash-tiradigan (*oladigan*) nur; **the sun ~ of the sun on the water** suvdagi kó zni qamash-tiradigan nur; yaltirash, yarqirash, chaqnash; 2) nafratli nigoh, qarash.

glare II [glɛə] *v* yaltiramoq, kó zni qamash-tirmoq.

glaring [ˈglɛəriŋ] *a* chidab bóʻlmas darajada hokimiyatni suisteʻmol qilish, oshkoralik.

glaringly [ˈglɛəriŋli] *adv* ravshan, yorugʻ; yorqin, kó z qamash-tiradigan nur.

glasnost [glæsnoust] *n* oshkoralik.

glass I [glɑ:s] *a* shishali, oynali; ~ **roof** shishali tom.

glass II [glɑ:s] *n* 1) shisha, oynak; 2) shisha idish; 3) stakan, qadah (*ryumka*); **to empty a ~** ryumkani quritmoq; 4) qum soat; 5) barometr; 6) kó zoynak; 7) durbin, mikroskop; 8) oyna; **to look in the ~** oynaga qaramoq..

glass III [glɑ:s] *v* 1) oyna (*dereza*) qoʻymoq; 2) issiqxonaga joylamoq; 3) aksini kó rmoq (*oynada*); 4) shisha idishga germetik (*bekitmoq*) joylash-tirmoq.

glass-blower [ˈglɑ:s ,blo(u)ə] *n* shisha puflowchi.

glass-blowing [ˈglɑ:s ,blo(u)ɪŋ] *n* shishadamgarlik ishi, puflab shisha buyumlar tayyorlaydigan ish.

glass-case [ˈglɑ:skeis] *n* vitrina.

glass-culture [ˈglɑ:s.kʌltʃə] *n* tep-litsa (*issiqxona*)ga oid; teplitsa.

glass-cutter [ˈglɑ:s.kʌtə] *n* oynachi, oyna soluvchi; oyna kesuvchi.

glass-dust I [ˈglɑ:sdʌst] *n* najdak, jilvir, qumqayroq.

glass-dust II [ˈglɑ:sdʌst] *v* yaltira-moq, kó zni qamash-tirmoq.

glassful [ˈglɑ:sfʊl] *n* stakan (*ó lchov birligi*); **a ~ of milk** bir stakan sut.

glass-furnace [ˈglɑ:s.fə:nɪs] *n* shisha eritadigan pech.

glass-house [ˈglɑ:shaʊs] *n* 1) issiq-xona; 2) harbiy qamoqxona; 3) shisha zavodi; 4) fotoatelye (*shisha tomli*).

glass-paper [ˈglɑ:s.peipə] *n* jilvirli qogʻoz.

glass-ware [ˈglɑ:swɛə] *n* shisha idish.

glass-wool [ˈglɑ:s wʊl] *n* tex. shisha

momiq.

glass-work [ˈglɑːswə:k] *n* 1) shisha zavodi; 2) shisha (*mahsulot*); 3) oyna qoʻyish.

glassy [ˈglɑːsi] *a* koʻzguga oid, silliq.

Glaswegian [ˈglæsˈwiːdʒən] *n* 1) glazgo vga oid; 2) Glasgo v fuqarosi.

Glauber's salt(s) [ˈgləʊbɜːz sɔːlt(s)] *n* kim. glauber tuzi.

glaucoma [ˈglɔːˈkɔʊmə] *n* tib. glaukoma, koʻksuv.

glaucous [ˈglɔːkəs] *a* rangsiz, tussiz, xira, rangi ketgan, nursiz.

glaze [ˈgleiz] *n* barra oʻt, maysa, oʻlan.

glazed [ˈgleizd] *a* 1) oyna solingan; 2) sirlangan, jilo berilgan.

glazier [ˈgleizjə] *n* oynachi, oyna soluvchi.

glazy [ˈgleizi] *a* 1) jiloli, yaltiroq; 2) xira, nursiz (*qarash*).

gleam [gli:m] *n* kuchsiz yorugʻlik, nur.

glean [gli:n] *v* 1) maydalab yigʻmoq (*asos va maʼlumotlarni*); **to ~ information** maʼlumot yigʻmoq; 2) boshqoq termoq, xazanaki (*uzum*).

gleaner [ˈgli:nə] *n* q.x. stripper.

gleanings [ˈgliːnɪŋz] *n* 1) yigʻilgan dalillar (*faktlar*); 2) misqollab yigʻilgan bilim.

glebe [gli:b] *n* cherkov. yer.

glee [gli:] *n* quvnoq kayfiyat.

gleeful [ˈgliːf(u)l] *n* shod, xursand; ~ **news** xursand qiladigan yangilik.

gleet [gli:t] *n* tib. surunkali uretrit (*uretrit-siydik yoʻli kasalligi*).

glen [glen] *n* togʻli tor vodi.

glengarry [glenˈgæri] *n* shotland shapkasi (*bosh kiyimi*).

glib [glib] *n* joʻshqin nutq; burro gap.

glide I [glaid] *a* 1) sirpanish, sirgʻanish, silliq harakatlanish; 2) *fiz.* oraliq tovush.

visitation [vɪzɪˈteɪʃ(ə)n] *n* 1) rasmiy tashrif; 2) aylanib o'tish, chetlab o'tish.

visitatorial [vɪzɪtəˈto:riəl] *a* inspektor (*nazoratchiga*) oid; inspektor; inspektorlik.

visiting [ˈvɪzɪtɪŋ] *a* qatnovchi.

visiting-card [ˈvɪzɪtɪŋˈkɑ:d] *n* vizit kartochkasi.

visiting-day [ˈvɪzɪtɪŋˈdeɪ] *a* qabul kuni; mehmonlarni qabul qilish kuni.

visiting professor [ˈvɪzɪtɪŋprəˈfɛsə] *n* dorilfununda leksiya o'qish uchun ma'lum fanlardan chaqirilgan mutaxassis.

visiting-round [ˈvɪzɪtɪŋˈraʊnd] *n* (*qorovullarni; kasallarni*) aylanib chiqish, ko'rib chiqish.

visiting teacher [ˈvɪzɪtɪŋˈti:tʃə] *n* *amer.* kasal yoki nogiron o'quvchilarning o'qitilishini nazorat qilish zimmasiga yuklatilgan maktab o'qituvchisi.

visitor [ˈvɪzɪtə] *n* tashrif etuvchi, mehmon, tashrif buyurgan kishi.

visor [ˈvaɪzə] *n* soyabon (*bosh kiyimida*).

vista [ˈvɪstə] *n* manzara, uzoqdan ko'rinish; xiyobon.

visual [ˈvɪzjuəl] *a* ko'rishga oid, ko'rish; ~ **nerve** ko'rish nervi (*asabi*); ~ **memory** ko'z xotirasi (*ko'rganni eslab qolish qobiliyati*).

visualization [ˌvɪzjuəlaɪˈzeɪʃ(ə)n] *n* aniq (*yaqqol*) ko'rish obrazi.

visualize [ˈvɪzjuəlaɪz] *v* xayolida

ko'rmog, xayolan tasavvur qilmoq.

vita [ˈvaitə] *n* qisqacha tarjimai hol.

vita glass [ˈvaitə ˈgla:s] *n* ultrabinafsha nurlanish o'tqazadigan oyna.

vital [ˈvaitl] *a* juda milliy, hayotiy.

vitalism [ˈvaitəlizm] *n* *biol.* vitalizm (*hayotiy jarayonlar moddiy sabab-larga emas, balki ilohiy kuchlarga bog'liq deb da'vo qiluvchi idealist oqim*).

vitality [vaiˈtælitɪ] *n* yashash qobiliyati, yashamoqlik, jonini saqlab qolmoq.

vitals [ˈvaitlz] *n* 1) hayot uchun kerak bo'lgan a'zolar (*organlar*); 2) eng muhim (*kerakli*) qismlar.

vitamin [ˈv(a)itəmin] *n* vitamin.

vitiate [ˈvɪfi'eɪt] *v* buzmoq, buzib qo'ymoq, ishdan chiqarmoq.

vitiation [ˌvɪʃi'eɪʃ(ə)n] *n* buzilish, aynish, ishdan chiqish.

viticulture [ˈv(a)itɪkʌltʃə] *n* tokchilik, uzumchilik, sohibkorlik.

vitreous [ˈvɪtriəs] *a* shisha ko'rinishidagi, shishaga o'xshash.

vitriification [ˌvɪtrifiˈkeɪʃ(ə)n] *n* oyna *yoki* oynasimon moddaga aylanish.

vitriify [ˈvɪtrɪfai] *v* oyna moddasiga aylanmoq.

vitriol [ˈvɪtriəl] *n* kuporos (*sulfat kislota tuzlarining texnik nomi*).

vitriolic [ˌvɪtrɪˈɒlɪk] *a* qattiq, kuchli, shiddatli, zo'r.

vituperate [viˈtju:pəreɪt] *v* so'kmoq, urishmoq, koyimoq.

vituperation [viˈtju:pə'reɪʃ(ə)n] *n* 1) uyatli so'z, so'kish so'zlari; 2) urush, jang.

vituperative [viˈtju:p(ə)rətɪv] *a* haqoratli, uyatli, haqorat.

viva I [ˈvi:və] *int.* yashasin!

viva II [ˈvaivə] *n* tabrik, tabriklash.

viva [ˈvaivə] = **viva voce**.

vivacious [v(a)ɪˈveɪʃəs] *a* tirik, jonli.

vivacity [v(a)ɪˈvæsɪtɪ] *n* jonlilik, tezlik, ildamlilik, chaqqonlik.

vivaria [v(a)ɪˈvɛəriə] *pl* **vivarium** *dan*.

vivarium [v(a)ɪˈvɛəriəm] *n* 1) xona, katalak; 2) qopqon, dam.

viva voce I [ˈvaivəˈvɔʊsi] *n* *lot.* og'zaki imtihon.

viva voce II [ˈvaivəˈvɔʊsi] *a* og'zaki.

vivid [ˈvɪvɪd] *a* yorug', yorqin, charaqlagan.

vivify [ˈvɪvɪfai] *v* tiriltirmoq, jon kiritmoq, jonini saqlab qolmoq.

viviparous [viˈvɪpərəs] *a* *zool.* bola tug'adigan (*tuxum ochmay bolalaydigan*).

vivlect [ˈvɪvɪˈsekt] *v* tirik hayvonni *yoki* tirik hayvon organizmini yorib tekshirmoq

vivisection [ˌvɪvɪˈsekʃ(ə)n] *n* qonxo'rlik.

vixen [ˈvɪksn] *n* zahar (*badjahl*) ayol, qumron.

vixenish [ˈvɪks(ə)nɪʃ] *a* jahli yomon, battol, badjahl.

viz [vɪz] *adv* xuddi, naq, ayni, aniq.

vizard [ˈvɪzɑ:d] = **visor**

vizi(e)r [viˈziə] *n* vazir.

visor [ˈvaɪzə] = **visor**.

V-J Day [ˈviːˈdʒeɪdeɪ] *n* (*ikkinchi Jahon urushida*) Yaponiya ustidan qilingan g'alaba kuni.

V-mail [ˈviːmeɪl] *n* ovoz yozib olinadigan lentalar orqali bir-biriga xat-xabar yozib turish (*harbiy xizmatdakilarga yuborish*).

V-neck [ˈviːnek] *n* (*kiyimda*) burmadan kesib olinadigan qirqim.

vocable I [ˈvɔʊkəbl] *n* chet so'z, chet so'zlar lug'ati.

vocable II [ˈvɔʊkəbl] *a* talaffuz qilindigan.

vocabulary [vɔʊˈkæbjʊləri] *n*

1) lug'at; 2) so'z boyligi.

vocal ['vouk(ə)] *a* tovush, ovoz.

vocalic I [vou'kælik] *a* unli.

vocalic II [vou'kælik] *n* unli tovush.

vocalist ['voukəlist] *a* ashulachi, qo'shiqchi, hofiz.

vocalization [.voukəlai'zeif(ə)n] *n* ifodalash, aytish, ifoda etish, izhor qilish.

vocalize ['voukəlaiz] *v* ifodalamoq, ifoda qilmoq, aytmoq, bildirmoq, izhor qilmoq.

vocation [vo(u)'keif(ə)n] *n* qiziqish, mayl qo'ymoq; kasb; ~ *for science* ilmiy faoliyatga qiziqish.

vocational [vo(u)'keifənl] *a* kasbga oid, kasb bilan bog'liq, kasbiy.

vocative ['vəkətiv] *a* undash (*atov*) kelishigi (*murojaatni ifodalovchi ot formasi*).

voces ['vouzi:z] *pl vox dan.*

vociferate [vo(u)'sifəreit] *v* baqirmoq, qichqirmoq, qiyqirmoq.

vociferation [vo(u)'sifə'reif(ə)n] *n* baqirmoq, qichqirmoq.

vociferous [vo(u)'sif(ə)rəs] *a* ovozi baland; (*o'tkir*) baqirmoq, shallaqi, shang'i.

voder ['voudə] *n* elektroapparat.

vodka ['vɔdkə] *n* aroq.

vogue [vouɡ] *n* moda, rasm, odat.

voice I [vois] *n* fikr, ovoz, tovush; ~ *of conscience* vijdon amri.

voice II [vois] *v* (*so'z bilan*) ifodalamoq; *to* ~ *one's protest* norozilik bildirmoq.

voicecast ['voiska:st] *n* ovoz yozib olingan magnit lentasi.

voiced [voist] *a* jaranglagan, jaranglaydigan, jaranglovchi.

voiceless ['voislis] *a* tili yo'q, tilsiz, ovozini yo'qotgan, ovozga ega bo'lma-gan, soqov, gung.

voice vote ['voisvout] *n* saylovda qatnashganlardan ma'lumot to'plab

qaror qabul qilish.

void I [vɔid] *n* bo'shlik, xolilik.

void II [vɔid] *a* ichi bo'sh, hech nar-sasi yo'q, bo'sh.

volant ['voulənt] *a* uchadigan, uchar.

volatile ['vɔlətail] *a* uchadigan, havoda uchib yuradigan.

volatilization [vɔ.lætil(a)'zeif(ə)n] *n* uchib ketish, bog'lanib ketish.

volatility [vɔ.lə'tiliti] *n* uchuv-chanlik.

volatilize [vɔ'lætilaiz] *v* uchib ketmoq, bug'lanib ketmoq.

volcanic [vɔ'lkænik] *a* vulqonga va vulqonizmga oid, vulqonizm hodi-salari bilan bog'langan.

volcano [vɔ'l'keinou] *n* vulkan, vulqon—yonar tog'.

volition [vo(u)'lif(ə)n] *n* istak, xo-hish, ixtiyor, niyat, tilak, orzu, xohlash, intilish.

volitional [vo(u)'lifənl] *a* 1) irodaga oid; iroda; 2) irodali, irodasi kuchli.

volley I ['vɔli] *n* zalp, baravariga o'q otish (*uzish*).

volley II ['vɔli] *v* baravariga o'q uzmoq.

volley-ball ['vɔlibɔ:l] *n* voleybol.

volplane I ['vɔlplein] *n* (*qo'nish maqsadida*) sekin-asta pastlab uchish.

volplane II ['vɔlplein] *v* (*qo'nish maqsadida*) sekin-sekin pastlab uchmoq.

volt [vɔult] *n* volt (*elektr kuchlanishi o'lchov birligi*).

voltage ['vɔultidʒ] *n* voltaj (*elektr tarmog'ida voltlar bilan ifodalana-digan kuchlanish*).

voltaic [vɔl'teik] *a* galvanik, galvani.

voltairian I [vɔl'teəriən] *a* suyan-chig'i baland chuqur kreslo.

voltairian II [vɔl'teəriən] *n* volter-

chi, Volter maslakdoshi (18–19-asrlarda hurfikrli odamlarga beriladigan nom).

voltairism [vɔl 'tɛərɪzm] = **voltairianism**.

voltmeter [vɔl 'tɛmɪtə] *n* **elektr. voltometr** (*elektr toki kuchlanishini o' lchaydigan asbob*).

volte ['vɔlti] *n* **sport. volt** (*otning manej mashqida tez aylanib chiqishi; qilichbozlikda—raqibning hujumidan o' zini chetga tortish*).

volte-face ['vɔlt 'fa:s] *n* **fr. orqaga** **burilish**.

voltmeter ['vɔlt.mi:tə] *n* **voltmetr** (*elektr toki kuchlanishini o' lchaydigan asbob*).

volubility [.vɔlju 'biliti] *n* **sergaplik, ezmalik, ko' p gapirishlik, hech kimga gap bermaslik**.

voluble ['vɔljubl] *a* **sergap, ko' p gapiradigan, ezma**.

volume [vɔlju(:)m] *n* **hajmi, ko' lam, miqdor, tom, jild; ~of knowledge bilimlar ko' lami; the~of trade savdo ko' lami**.

volumenometer [və.l(j)umi 'nɔ-mitə] *n* **volyuminometr** (*qattiq jismlarning hajmini o' lchaydigan asbob*).

volumeter [vɔ'l(j)u:mitə] *n* **volyu-metr** (*suyuqlik hajmini o' lchaydigan asbob*).

volumetric [vɔlju' metrik] *a* **hajmga oid, hajmiy, hajm; ~ capacity sig' im, hajm, kattalik, eltish**.

voluminous [vɔ'l(j)u:minəs] *a* **ko' p tomli** (*nashr to' g' risida*).

voluntarism ['vɔləntərɪzm] *n* **volyuntarizm**.

voluntary ['vɔlənt(ə)ri] *a* **ixtiyoriy, ko' ngilli, ko' ngil xoxishi**.

voluntaryism ['vɔlənt(ə)riizm] *n* **prinsip** (*asosiy qonun-qoida*).

volunteer [.vɔlən' tiə] *n* **ko' ngilli**

askar, qonun, talabgor.

voluptuary [vɔ 'lɔptjʊəri] *n* **shahvoniy hisga berilgan odam, shahvat-parast**.

voluptuous [vɔ 'lɔptjʊəs] *a* **sezgiga oid; seziladigan, bilinadigan, sezib (bilib) bo' ladigan..**

volute [vɔ 'l(j)u:t] *n* **volyuta** (*kolonna, ustun va sh.k. da spiral shaklidagi bezak*).

volution [vɔ 'l(j)u:f(ə)n] *n* **jingala, jingalak, gajak**.

volvulus ['vɔlvjuləs] *n* **ichaklarning buralishi** (*buralik qolishi*).

vomit I ['vɔmit] *n* **qusish, qayd qilish**.

vomit II ['vɔmit] *v* **qusish** (*qayd qilishdan*) **azob chekmoq; He was ~ing blood. U qon qusdi**.

vomitive ['vɔmitiv] = **vomitory**.

vomitory I ['vɔmitəri] *n* **qayd qildiradigan dori**.

vomitory II ['vɔmitəri] *a* **qusish, qayd qilish**.

voodoo I ['vu:du:] *n* **tabib, emchi, duoxon**.

voodoo II ['vu:du:] *v* **sehrlab qo' ymoq, jodu qilmoq**.

voracious [vɔ'reiʃəs] *a* **yeb to' ymas, badnafs, xira**.

voracity [vɔ' ræsiti] *n* **yeb to' ymaslik, badnafslik, mechkaylik**.

vortex ['vɔ:teks] *n* **uyurma, quyun, girdob, girvat**.

vortical ['vɔ:tikəl] *a* **dovulli, girdobli; uyurmalingan, uyurma**.

vortices ['vɔ:tisi:z] *pl* **vortex dan**.

vorticose ['vɔ:tikous] = **vortical**.

votaress ['voutəris] *n* **monax ayol, monashka, rohiba**.

votary ['voutəri] *n* **monax, rohib**.

vote I [vout] *n* **ovoz berish, ovoz; secret open ~ yashirin, ochiq ovoz berish; to take a ~ ovozga qo' ymoq; to**

proceed to a ~ ovoz berishga kirishmoq; to put to the ~ ovozga qo'ymoq; to take a ~ on question masalani ovozga qo'ymoq.

vote II [vout] *v* ovoz bermoq; to ~ for (against) yo'qlab (*qarshi*) ovoz bermoq.

voter ['voutə] *n* saylovchi, ovoz beruvchi.

voting ['voutɪŋ] *n* ovoz berish; **a results** ~ saylov natijalari.

voting machine ['voutɪŋmə.ʃi:n] *n* saylovda beriladigan ovozlarni hisoblaydigan mashina.

voting paper ['voutɪŋ.peipə] *n* saylov byulleteni.

votive ['voutiv] *a* ont ichib qilingan; va'da qilingan.

voucher [vaultʃə] *n* kafil, kafil bo'lgan kishi.

vouchsafe [vaultʃ'seif] *v* sazovor qilmoq, loyiq topmoq, munosib ko'rmoq.

vow [vau] *n* qasam, ont, va'da, so'z.

vowel ['vau(ə)] *n* unli tovushlar.

vox [vɔks] *lot. n* tovush, ovoz, sado, sas.

voyage ['vɔiidʒ] sayohat, safar, dengiz sayohati.

voyager ['vɔiədʒə] *n* dengiz sayohati, dengizda sayohat.

voyeur [vwaɪ 'jɔ:] *n* inson, odam, kishi.

vug [vʌg] *n* cho'nqir yer, ichiga botgan (*kirgan*) joy.

Vulcan [vʌlkən] *n* *mif* vulkan, vulqon, yonartog'.

vulcanic [vʌl'kænik] *a* vulqonga va vulqonizmga oid, vulqonizm hodisalari bilan bog'langan.

vulcanite ['vʌlkənait] *n* ebonit (*izolyatsion material*).

vulcanization [vʌlkən(a)ɪzeɪʃ(ə)n] *n* vulkanizatsiya (*kauchukni rezinkaga aylantirish jarayoni rezinka buyum-*

larini xom rezinkadan yamoq so-lib ta'mirlash).

vulcanize ['vʌlkənaɪz] *v* vulkanizatsiya qilmoq (*rezinkalarni*).

vulgar I ['vʌlgə] *a* dag'al, qo'pol, to'ng, to'rs, xunuk.

vulgar II ['vʌlgə] *n* (the~) og'z. avom, oddiy xalq.

vulgarian [vʌl'gɛəriən] *n* odobdan tashqari, beadab, dag'al.

vulgarism ['vʌlgərizm] *n* ling. vulgarizm (*adabiy tilda uchraydigan beadab so'z yoki ibora*).

vulgarity [vʌl'gæriti] *n* mohiyatini buzib ko'rsatishlik, ma'nosini buzib talaffuz qilish, soxtalashtirish, qo'polashtirish.

vulgarization [vʌlgər(a)ɪzeɪʃ(ə)n] *n* buzish, rasvolashtirish, rasvo qilish, qo'pollashtirish, soxtalashtirish, ma'nosini buzib talaffuz qilish, mohiyatini buzib ko'rsatish.

vulgarize ['vʌlgəraɪz] *v* buzmoq, rasvolashtirmoq, rasvo qilmoq.

vulnerability [vʌln(ə)rə'biliti] *n* adolatsizlikka chiday olmaslik, gap ko'tarolmaslik. noziklik.

vulnerable ['vʌln(ə)rəbl] *a* gap ko'tara olmaydigan, ko'ngli nozik.

vulnerary [vʌlnərəri] *a* shifobaxsh, shifoli da'vo bo'ladigan dorivor.

vulpicide ['vʌlpisaid] *n* tulkilarni tozi itsiz ov qilish.

vulpine ['vʌlpain] *a* tulkiga oid, tulki.

vulture ['vʌltʃə] *n* kalxat, qoraqush, qonxo'r.

vulturous ['vʌltʃərəs] *a* yirtqich hayvonlarga oid, yirtqich.

valva ['vʌlvə] *n* ayollarni tashqi jinsiy a'zolari (*organlari*).

vying ['vaiɪŋ] *v* raqib bo'lmoq, raqobat qilmoq, bahslashmoq; to ~ with smb. for smth. kim bilandir, nimadandir bahslashmoq.

W, w [ˈdʌblju:] *n* ingliz tili alifbosining yigirma uchinchi harfi.

wabble [ˈwɒbl] = **wobble**.

wabbly [ˈwɒbli] = **wobbly**.

wacky [ˈwæki] *a ogʻz*. miyasi bir oz aynigan

wad I [wɒd] *n* paxta yoki jun boʻlagi, qogʻoz pullar bogʻlami (*pachkasi*).

wad II [wɒd] *v* (*momiq paxtani*) tagidan qadamoq yoki tikmoq.

wadding [ˈwɒdɪŋ] *n* 1) momiq, paxta, jun, yung; 2) qadash, tikish; 3) astar.

waddle [ˈwɒdl] *n* lapanglab yurish.

wade [weɪd] *n* sayoz joydan kechib oʻtish.

wader [ˈweɪdə] *n* botqoq qushi.

wading bird [ˈweɪdɪŋbɜːd] *n* botqoq qushi.

wafer [ˈweɪfə] *n* kapsula, gʻilof.

waff [wɒf] *n* 1) yengil harakat;

2) bir onlik xayolot (*xayolda koʻringan narsa*).

waffle [ˈwɒfl] *n* vafli.

waffle-iron [ˈwɒfl.aɪən] *n* vafli tayyorlaydigan qolip.

waft [waːft] *n* 1) (*qanot*) qoqish; 2) (*shamol*) esish.

wag I [wæg] *n* bosh qimirlatish, bosh silkitib qilingan ishora.

wag II [wæg] *n* qiziqchi, masxaraboz.

wage I [weɪdʒ] *n* ish haqi, maosh, oylik.

wage II [weɪdʒ] *v* urush qilmoq.

wage-cut [weɪdʒkʌt] *n* ish haqini kamaytirish.

wage-earner [ˈweɪdʒ.əːnə] *n* yollanib ishlaydigan ishchi; boquvchi, qarovchi, tarbiyachi.

wage-freeze [ˈweɪdʒfriːz] *n* maoshni oʻz vaqtida bermaslik, toʻxtatib qoʻyish

wager [ˈweɪdʒə] *n* garov, bahs.

wage-rate [ˈweɪdʒreɪt] *n* 1) maosh, ish haqi; 2) tarif (*biror narsaga toʻlanadigan qatʻiy baholar majmui*).

wages-fund [ˈweɪdʒɪzʌnd] *n* ish haqi fondi.

wage-work [ˈweɪdʒwɜːk] *n* yollanma mehnat.

wage-worker [ˈweɪdʒ.wɜːkə] *n* yollanma ishchi.

waggary [ˈwægəri] *n* shoʻxlik, hazilkashlik.

waggish [ˈwæɡɪʃ] *a* shóʻx, toʻpolonchi.

waggle [ˈwæɡl] *n* silkitish, tebratish.

waggly [ˈwægli] *a* oʻzgaruvchan, oʻzgarib turadigan.

wag(g)on [ˈwægən] *n* toʻrt gʻildirakli arava.

wag(g)oner [ˈwægəˈnə] *n* aravakash, yuk tashuvchi.

wag(g)onette [ˌwægəˈnet] *n* ikki oʻrindiqli, boʻyiga uzaytirilgan yengil arava.

wagon-train [ˈwægənˈtreɪn] *n* karvon.

wagtail [ˈwægteɪl] *n* zool. jibljibon.

waif [weɪf] *n* hech kimga tegishli boʻlmagan.

wail I [weɪl] *n* baqiriq, qichqiriq.

wail II [weɪl] *v* baqirmoq, qichqirmoq.

wailful [ˈweɪlful] *a* gʻamga botgan, qaygʻuli.

wain [weɪn] *n* toʻrt gʻildirakli arava.

wainscot [ˈweɪnskɒf] *v* biror narsani yogʻoch taxta bilan qoplamoq.

waist [weɪst] *n* bel.

waistband [weɪstbænd] *n* kamar, belbogʻ.

waist-belt [ˈweɪstbelf] *n* belga taqiladigan kamar.

waistcoat [ˈweiskout] *n* nimcha.
waist-deep [ˈweɪstˈdi:p] *a* belgacha boradigan.

waistline [ˈweɪstlɪn] *n* bel, kóylakning beli.

wait I [weɪt] *n* kutish, koʻz tutish, intizor boʻlish.

wait II [weɪt] *v* kutmoq, muntazir boʻlmoq.

wait-a-bit [ˈweɪtəbɪt] *n* soʻzl. tikandek sanchiladigan buta, oʻsimlik.

wait-and-see [ˈweɪtənˈsi:] *a* fursat kutadigan.

waiter [ˈweɪtə] *n* qabulni kutuvchi.

waiting [ˈweɪtɪŋ] *n* kutish, koʻz tutish, intizor boʻlish.

waiting-room [ˈweɪtɪŋrʊm] *n* 1) qabulga (*qabul qilishga oid, qabul qilish*); 2) kutish xonasi.

waitress [ˈweɪtrɪs] *n* ofitsiantka, (*oshxonalarda xoʻrandalarga xizmat qiluvchi*).

waive [weɪv] *v* inkor etmoq, voz kechmoq, rad etmoq, tonmoq, tan olmaslik, boʻyniga olmaslik.

waiver [ˈweɪvə] *n* *yur.* oʻz huquqidan voz kechish.

wake [weɪk] *v* uygʻonmoq, uygʻotmoq.

wakeful [ˈweɪkful] *a* 1) uygʻotadigan; 2) uxlamaydigan, uyqusiz; 3) hushyor, sezgir.

wakeless [ˈweɪklɪs] *a* mahkam, qattiq, mustahkam.

waken [ˈweɪkən] *v* 1) uygʻonmoq; 2) uygʻotib oʻrnidan turgʻizmoq.

wakening [ˈweɪknɪŋ] *n* uygʻonish, uyqudan turish.

wakey [ˈweɪki] oʻrningdan tur!

waking [ˈweɪkɪŋ] *n* uxlamayotgan, tetik.

wale I [weɪl] *n* uzun narsa.

wale II [weɪl] *v* oʻrma qamchin bilan urmoq.

walk [wɔ:k] *v* yurmoq, sayr qilmoq,

yura boshlamoq, qadam tashlamoq.

walkaway [ˈwɔ:kəweɪ] *v* osonlik bilan gʻalabaga erishmoq.

Walker [ˈwɔ:kə] *a* yolgʻon, boʻlishi mumkin emas.

walker [ˈwɔ:kə] *n* piyoda yuradigan odam, piyoda yuruvchi, piyoda.

walkie-lookie [ˈwɔ:kiˈlʊki] *n* koʻtarib yuriladigan televizor apparati.

walkie-talkie [ˈwɔ:kiˈtɔ:ki] *n* koʻchiriladigan, koʻchma radiostansiya.

walking [ˈwɔ:kiŋ] *n* piyoda yurish.

walking-papers [ˈwɔ:kiŋˈpeɪpez] *n* ishdan haydalmoq, ishdan boʻshatmoq.

walking-race [ˈwɔ:kiŋreɪs] *n* sportcha yurish boʻyicha saralash, musobaqa.

walking-stick [ˈwɔ:kiŋˈstɪk] *n* hasa, tayoq.

walking-ticket [ˈwɔ:kiŋˈtɪkɪt] = **welking-papers.**

walking-tour [ˈwɔ:kiŋtʊə] *n* piyoda sayr.

walk-on [ˈwɔ:kˈɒn] *n* *teatr.* artist, chiqishda soʻzsiz rollarni ijro etuvchi artist.

walk-over [ˈwɔ:kˈoʊvə] *n* yengil gʻalaba.

walk-up [ˈwɔ:kˈʌp] *n* *amer.* liftsiz uydagi kvartira.

walkway [ˈwɔ:kweɪ] *n* *amer.* yoʻl, yoʻlka, xiyobon.

wall [wɔ:l] *n* devor, tayanch, himoya.

wallaby [ˈwɔləbi] *n* kenguru (*kichik*).

walla(h) [ˈwɔlə] 1) yigit; 2) xizmat qiluvchi, xizmatkor.

wallaroo [ˌwɔləˈru:] *n* kenguru.

wallet [ˈwɔlɪt] *n* karmon, hamyon.

wall-eye [ˈwɔ:lai] *n* koʻz dogʻi, koʻzga tushgan oq.

wall-eyed [ˈwɔ:laid] *a* 1) oq tushgan koʻz; 2) qiya, qiyalama.

Walloon [wɔˈlu:n] *n* 1) vallon, val-lonka; 2) vallon tili.

wallop [ˈwɒləp] *n* kuchli zarba.

walloper [ˈwɒləpə] *n* gʻoyat katta narsa, ulkan narsa.

walloping [ˈwɒləpiŋ] *n* biror kishini adabini berish.

wallow [ˈwɒləʊ] *n* sertuproq bu-tazor.

wall-painting [ˈwɒlˌpeɪntɪŋ] *n* devo-riy rasm.

wallpaper [ˈwɔ:lˌpeɪpə] *n* oboy, gulqogʻoz.

wall pier [ˈwɔ:lˌpiə] *n* pilyastra.

Wall Street [ˈwɔ:lˌstri:t] *n* Uollstrit (*Nyu-Yorkdagi birja joylashgan koʻcha*).

walnut [ˈwɔ:lnʌt] *n* grek yongʻogʻi, yongʻoq daraxti.

walnut-tree [ˈwɔ:lnʌttri:] = **walnut**.

Walpurgis-night [wæɪˈpuəɡis-ˌnait] *n* valpurgi kechagi.

walrus [ˈwɔ:lɹəs] *n* morj.

waltz [wɔ:ls] *n* vals.

wamble [ˈwɒmbəl] *v* gandiraklab yurmoq, qimirlamoq, yiqilmoq.

wampum [ˈwɒmpəm] *n* chigʻanoq-dan boʻlgan marjon.

wampus [ˈwɒmpəs] *n* yoqimsiz, gapga koʻnmaydigan *yoki* gumroh odam.

wan [wɒn] *a* rangi oqarib ketgan, holdan toygan.

wand [wɒnd] *n* chiviq, xivich.

wander [ˈwɒndə] *v* sayohat qilmoq, aylanib yurmoq, olamni kezmok.

wanderer [ˈwɒndərə] *n* darbadar, musofir, darvesh, daydi.

wandering [ˈwɒndəriŋ] *pres. p.*

wonder.

wanderlust [ˈwɒndələst] *n* sayohat-ga ishtiyoq.

wane [weɪn] *n* kamaygan, kama-yish.

wangle [ˈwæŋɡl] *n* makkorlik,

ayyorlik, hiylagarlik.

want [wɒnt] *n* xohlamok, istamok, orzu qilmoq.

want-ad [ˈwɒntˌæd] *n* (*qisqa*) eʻlon (*gazeta*) boʻlimi.

wantage [ˈwɒntɪdʒ] *n* yetishmaslik, kamlik, yoʻqlik.

wanting [ˈwɒntɪŋ] *a* muhtojlik, kambagʻallik.

wanton [ˈwɒntən] *a* oʻynoqi, shoʻx, tinchimaydigan.

war [wɔ:] *n* urush, grajdanlar urushi.

warble [ˈwɔ:bl] *n* ovoznining ja-ranglab chiqishi, qushning sayrashi, ashula.

warbler [ˈwɔ:lə] *n* kuylaydigan qush.

war-cloud [wɔ:klaʊd] *n* urushdan oldingi vaziyat.

war-cry [ˈwɔ:kraɪ] *n* harbiy chaqi-riq.

ward [wɔ:d] *n* 1) vasiylik; 2) vasiy-likdagi, vasiylik ostidagi.

warden [ˈwɔ:dn] *n* 1) boshliq, sardor, direktor; 2) qamoqxonaning boshligʻi.

warder [ˈwɔ:də] *n* 1) qamoqxona nazoratchisi; 2) qorovul, soqchi.

war-devastated [ˈwɔ:ˈdevəsteɪtɪd] *a* urushdan xaroba boʻlgan.

war-dog [ˈwɔ:dɒɡ] *n* 1) xizmat uchun belgilangan it; 2) oʻtmishdagi soldat.

Wardour Street English [ˈwɔ:dəst-ri:tˌɪŋlɪʃ] *n* inglizcha gapirish, eskirgan soʻzlar bilan bezab tashlamok.

wardress [ˈwɔ:dɪs] *n* qamoqxo-naning ayol nazoratchisi.

wardrobe [ˈwɔ:dɹɔʊb] *n* kiyim shkafi, garderob.

wardroom [ˈwɔ:dɹu:m] *n* ofitser-larga moʻljallangan kayut-kompaniya.

wardship [ˈwɔ:dʃɪp] *n* 1) vasiylik; 2) panoh.

ware I [wəə] *n* 1) ishlangan narsa, buyum, mol; 2) sotiladigan narsalar, tovarlar.

ware II [wəə] *a* hushyor, ogoh, sezgir.

-ware [-wəə] *n* (*murakkab soʻzlar-da*) buyum, ishlov, ishlangan narsa, sopol buyumlar, kulolchilik buyumlari.

warehouseman [ˈwɛəhausmən] *n* ombor xoʻjayini.

warfare [ˈwɔːfeə] *n* urush, jangovar harakatlar.

war-game [ˈwɔːgeɪm] *n* harbiy oʻyin.

war-head [ˈwɔːhed] *n* bomba yoki snaryadning jangovar qismi..

war-horse [ˈwɔːhɔːs] *n* jangovar ot.

warily [ˈwɛərɪli] *adv* ehtiyotkorlik.

warinees [ˈwɛərɪnɪs] *n* ehtiyotlik bilan.

warlike [ˈwɔːlaɪk] *a* jangovar, qahramon.

warlock [ˈwɔːlɒk] *n* sehrgar.

war-lord [ˈwɔːlɔːd] *n* armiyaning oliy qoʻmondoni.

warm [wɔːm] *a* issiq, iliq, isigan.

warm-blooded [ˈwɔːmˈblʌdɪd] *a* zool. issiqqonli.

warm-house [ˈwɔːmhaʊs] *n* tep-litsa, issiqxona.

warming [ˈwɔːmɪŋ] *n* isish, ilish.

warming-pan [ˈwɔːmɪŋpæn] *n* grelka.

warmish [ˈwɔːmɪʃ] *a* issiq, iliq.

warmonger [ˈwɔːmɒŋgə] *n* urush olovini yoquvchi.

warmth [wɔːmθ] *n* issiqlik.

warm-up [ˈwɔːmʌp] *n* amer. mashq qilish.

warn [wɔːn] *v* ogohlantirmoq.

warning [ˈwɔːnɪŋ] *v* ogohlantirish.

warp [wɔːp] *v* qayishmoq, qiyshaymoq.

warped [wɔːpt] *a* qayishgan, qiyshaygan.

warper [ˈwɔːpə] *n* tanda qoʻyadigan kishi, hamma narsaga aralashadigan odam.

war-plane [ˈwɔːpleɪn] *n* harbiy samolyot.

warrant [ˈwɔərənt] *n* order, asos.

warrantable [ˈwɔərəntəbl̩] *a* qonuniy, qonunga muvofiq.

warrantor [ˈwɔərəntɔː] *n* kafil, kafil boʻlgan kishi.

warranty [ˈwɔərənti] *a* kafolat, garov, ishonch.

warring [ˈwɔːrɪŋ] *a* qarama-qarshi, teskari.

warrior [ˈwɔriə] *n* jangchi, askar.

warship [ˈwɔːʃɪp] *n* harbiy kema.

wart [wɔːt] *n* soʻgal, chiqiq.

war-time [ˈwɔːtaɪm] *n* urush damlari.

warty [ˈwɔːti] *a* soʻgalli, serbuqoq.

war-whoop [ˈwɔːhuːp] *n* jangovar chaqiriq.

war-worn [ˈwɔːwɔːn] *a* urush natijasida xarobaga aylangan.

wary [ˈwɛəri] *a* ehtiyotli, ehtiyotkor.

was-bird [ˈwɔzbɜːd] *n* bor-budini yoʻqotgan odam.

wash [wɒʃ] *v* yuvmoq.

washable [ˈwɒʃəbl̩] *a* yuvsa boʻladigan.

wash-and-wear [ˈwɒʃənˈwɛə] *n* yuvilgandan soʻng dazmol talab qilinmaydigan mato.

wash-basin [ˈwɒʃˌbeɪsɪn] *n* yuvinish tosi.

wash-board [ˈwɒʃbɔːd] *n* chaspak, kir yuvishga moʻljallangan moslama.

wash-boiler [ˈwɒʃˌbɔɪlə] *n* ichki kiyimlarni solib qaynatish uchun ishlatiladigan bak.

wash-bowl [ˈwɒʃbɔʊl] *n* togʻora.

washcloth [ˈwɔʃkloθ] *n* idishlarni yuvish uchun ishlatiladigan latta.

wash-day [ˈwɔʃdeɪ] *n* tozalik kuni.

wash-drawing [ˈwɔʃˌdrouɪŋ] *n* akvarel.

washed-out [ˈwɔʃtˈaʊt] *a soʻzl.* charchagan.

washed-up [ˈwɔʃtˈʌp] *a* ishdan chiqqan, tamom boʻlgan.

washer [ˈwɔʃə] *n* yuvish mashinasida ishlovchi.

washerwoman [ˈwɔːʃəˌwʊmən] *n* kir yuvuvchi ayol.

wash-hand [wɔʃhænd] *a* yuvinishga oid.

wash-hous [ˈwɔʃhaus] *n* kirxona.

washinees [ˈwɔʃinis] *n* 1) rangi oʻchganlik; 2) kuchsizlik, zaiflik, nimjonlik.

washing [ˈwɔʃɪŋ] *n* yuvinish, kir yuvish.

washing-day [ˈwɔʃɪŋdeɪ] = **wash-day**.

washing-house [ˈwɔʃɪŋhaus] = **wash-house**.

washing-machine [ˈwɔʃɪŋməˌʃiːn] *n* kir yuvish mashinasi.

washing-soda [ˈwɔʃɪŋˌsoudə] *n* kir yuvadigan soda.

washing-stand [ˈwɔʃɪŋstænd] = **washstand**.

washing-up [ˈwɔʃɪŋˈʌp] *n* 1) idishlarni yuvish; 2) yuvish uchun taxlab qoʻyilgan idishlar.

wash-leather [ˈwɔʃˌleðə] *v* zamsh.

wash-out [ˈwɔʃaʊt] *n* 1) suv yuvib ketgan joy; 2) *soʻzl.* omadsizlik; 3) tolei past odam.

wash-room [ˈwɔʃrum] *n* 1) yuvindigan, bet-qol yuvadigan joy; 2) *amer.* hojatxona.

wash-stand [ˈwɔʃstænd] *n* umivalnik.

wash-tub [ˈwɔʃtʌb] *n* kir togʻora, jomashov.

wash-up [ˈwɔʃˈʌp] *n* toʻlqin qirgʻoqqa chiqarib tashlagan narsa.

washwoman [ˈwɔʃˌwʊmən] = **washerwoman**.

washy [ˈwɔʃi] *a* 1) suyuq, sersuv; 2) rangi oʻchgan, rangsiz.

wasp [wɔsp] *n* ari.

waspish [ˈwɔspɪʃ] *a* alam qildiradigan, zaharli.

wassail [ˈwɔseɪl] *n* ogʻz. kichik ziyofat.

wassailing [ˈwɔsəɪlɪŋ] *n* ramazon aytib uyma-uy yurmoq

wastage [ˈweɪstɪdʒ] *n* charchash, ishdan chiqish.

waste [weɪst] *n* zarar, ziyon.

waste-basket [ˈweɪstˌbɑːskɪt] = **waste-paper-basket**.

wasteful [ˈweɪstfʊl] *a* isrofgar, nobudgar.

waste-paper-basket [weɪstˈpeɪpəˌbɑːskɪt] *n* kerak boʻlmagan qogʻozlarni tashlaydigan savat.

waste-pipe [ˈweɪstpaɪp] *n* suv oqadigan quvur.

waster [ˈweɪstə] *n* isrof qiluvchi, behuda sarflovchi.

wasting [ˈweɪstɪŋ] *a* vayron qiluvchi, xarob qiladigan.

wastrel [ˈweɪstrəl] = **waster**.

watch [wɔtʃ] *n* soat, diqqat, eʻtibor.

watch-box [ˈwɔtʃbɒks] *n* qorovulxonona.

watch-case [ˈwɔtʃkeɪs] *n* soat qobigʻi.

watch-chain [ˈwɔtʃtʃeɪn] *n* soat zanjiri.

watch-crystal [ˈwɔtʃˌkrɪstl] = **watchglass**.

watchdog [ˈwɔtʃdɒg] *n* soqchi it.

watcher [ˈwɔtʃə] *n* qorovul.

watch-fire [ˈwɔtʃˌfaɪə] *n* lashkargoh gulxani.

watchful [ˈwɔtʃfʊl] *n* eʻtiborli, kuzatuvchan.

watchword [ˈwɒtʃwɔːd] *n* shior, da'vat, shartli kelishuv, parol.

water [ˈwɔːtə] *n* suv.

water aerodrome [ˈwɔːtəˈeərəd-rəm] *n* gidroaerodrom.

waterage [ˈwɔːtəriʒ] *n* yuklarni suv orqali bir yerdan ikkinchi yerga olib borish.

water-anchor [ˈwɔːtə , æŋkə] *n* suzib yuruvchi langar.

water-bailiff [ˈwɔːtəˈbeilif] *n* baliqlarni muhofaza qiluvchi, nazoratchi.

water-bearer [ˈwɔːtə , beərə] *n* meshkop, suv tashuvchi.

water-bearing [ˈwɔːtə , beəriŋ] *a* namli, suvli, nam saqlaydigan.

water-bottle [ˈwɔːtə , bɒtl] *n* suvdon.

water-can [ˈwɔːtəkæn] *n* bidon.

water-carrier [ˈwɔːtə , kæriə] *n* suv tashuvchi.

water-closet [ˈwɔːtə , klɒzɪt] *n* kiyinish, grimxona.

watercourse [ˈwɔːtəkɔːs] *n* oqim, ariq.

water-craft [ˈwɔːtəkra:ft] *n* kema.

water-cure [ˈwɔːtəkjuə] *n* suv bilan davolash.

water-drinker [ˈwɔːtə , driŋkə] *n* ichmaydigan odam.

water-drop [ˈwɔːtədɒp] *n* yosh, ko'z yoshi.

watered [ˈwɔːtəd] *a* muardan qilingan, tovlanadigan.

waterfall [ˈwɔːtəfɔːl] *n* sharshara, shalola.

water-front [ˈwɔːtəfrʌnt] *n* port.

water-gange [ˈwɔːtəgeɪdʒ] *n* suv o'ldhagich asbobi.

water-glass [ˈwɔːtəglɑːs] *n* suv sathini o'ldhaydigan (*ko'rsatuvchi*) shisha naycha.

water-ice [ˈwɔːtəraɪs] *n* muz, mevali muzqaymoq.

watering [ˈwɔːtəriŋ] *n* sug'orish, suv berish, suv qo'yish (*ekinga*).

watering-can [ˈwɔːtəriŋkæn] = **water-can**.

watering-cart [ˈwɔːtəriŋkɑːt] = **water-cart**.

waterless [ˈwɔːtəlis] *a* suvsiz, suvga tashna.

water-lily [ˈwɔːtə , lɪli] *n* oq nimfiya.

water-line [ˈwɔːtəlaɪn] *n* vaterliniya (*kemaning suvga botish chizig i*).

waterlog [ˈwɔːtəlog] *v* suv bermoq, suv bostirmoq.

waterman [ˈwɔːtəmən] *n* qayiqchi, qayiq haydovchi.

water-melon [ˈwɔːtə , melən] *n* tarvuz.

water-meter [ˈwɔːtə , mi:tə] *n* vodomer, suv o'ldhagich (*suvning sarfini o'ldhaydigan asbob*).

water-mill [ˈwɔːtəmil] *n* suv tegirmon.

water-nymph [ˈwɔːtəˈnimf] *n* suv parisi (*afsonalarda*).

water-parting [ˈwɔːtə , pa:tiŋ] *n* suv ayirg'ich.

water-pipe [ˈwɔːtəpaɪp] *n* vodoprovod quvuri.

water-plant [ˈwɔːtəplɑːnt] *n* suv o'tlari (*o'simliklari*).

water-point [ˈwɔːtəpɔɪnt] *n* suv bilan ta'minlash joyi (*punkti*), suv ta'minoti punkti.

water polo [ˈwɔːtəˈpɒlə] *n* sport. suv polosi (*suvda o'ynaladigan to'p o'yini*).

water-power I [ˈwɔːtə , paʊə] *n* gidravlik energiya (*quvvat*).

water-power II [ˈwɔːtə , paʊə] *attr.* ~ **plant** suv elektr stansiyasi, gidroelektrostansiya.

waterproof I [ˈwɔːtəpru:f] *a* suv o'tmaydigan (*o'tkazmaydigan*), nam tortmaydigan.

waterproof II [ˈwɔːtəpru:f] *n* suv o'tmaydigan (*o'tkazmaydigan*) plash.

waterproof III [ˈwɔ:təpru:f] *v* suv oʻtmaydigan (*oʻtkazmaydigan*) qilmoq.
water pump [ˈwɔ:təpʌmp] *n* suv nasosi.

water-ram [ˈwɔ:tərəm] *n* gidravlik taran (*suvni yuqoriga koʻtarib beradigan qurilma*).

water-rat [ˈwɔ:tərət] *n* suv kalamushi.

water-rate [ˈwɔ:təreit] *n* suv uchun toʻlanadigan toʻlov.

water-repellent [ˈwɔ:təriˈpelənt] = **waterproof**.

waterscape [ˈwɔ:təskeip] *n* dengiz manzarasi.

water-seal [ˈwɔ:təsi:l] *n* *tex.* gidravlik qurilma.

water-serve [ˈwɔ:tə,sə:vis] *n* suv bilan taʼminlash, suv taʼminoti.

watershed [ˈwɔ:təʃed] *n* suv ayirgʻich, chegara.

waterside [ˈwɔ:təsaid] *n* qirgʻoq, sohil.

water-tap [ˈwɔ:tətæp] *n* kran, joʻmrak.

water-wave [ˈwɔ:təweiv] *n* val, katta toʻlqin.

watery [ˈwɔ:təri] *a* suvga oid, suvli, suv.

watt [wɒt] *n* vatt (*elektr quvvati oʻlchov birligi*).

wattle I [ˈwɒtl] *n* qushlarning ziragi, soqolchasi.

wattle II [ˈwɒtl] *v* oʻrmoq.

wattled [ˈwɒtld] *v* toʻqimoq, oʻrmoq.

wattless [ˈwɒtlis] *a* reaktiv (*kimyoviy reaksiyani amalga oshiradigan, reaktiv sifatida ishlatiladigan*).

wattmeter [ˈwɒtmi:tə] *n* *el.* vattmetr.

waul [wɔ:l] *v* baqirmoq, qichqirmoq, qiyqirmoq.

wave I [weiv] *n* toʻlqin, yuksalish.

wave II [weiv] *v* hilpiramoq, hilpilamoq.

waver [weivə] *v* tebranmoq, pirpi-

ramoq, hilpiramoq.

wavering [ˈweivəriŋ] *pres. p.* wawerdan.

wavering I [ˈweivəriŋ] *n* tebranish, oʻzgarish.

wavering II [ˈweivəriŋ] *a* tebranuvchi, tebranib, hilpirab turadigan.

wax [wæks] *n* mum.

waxcloth [ˈwæksklɒθ] *n* linoleum.

waxen [ˈwæksən] *a* mumga oid, mumdan qilingan, mum.

wax-end [ˈwæksend] *n* mumlangan, pishiq.

waxy [ˈwæksi] *a* mumga oid, mumdan qilingan, mumli, mum.

way I [ˈweɪ] *n* yoʻl, vosita, usul.

way II [ˈweɪ] *adv* uzoq, yiroq.

wayfarer [ˈwei.feərə] *n* yoʻlovchi, sayohatchi, sayyoh.

wayfaring I [ˈwei.feəriŋ] *n* sayohat, safar.

wayfaring II [ˈwei.feəriŋ] *a* kezib yuradigan, sayyor.

waygoing [ˈwei.gouɪŋ] *n* xayrlashuvga oid, xayrlashuv, ketayotgan.

waylay [weiˈlei] *v* xufiyona koʻrib qolmoq, koʻzi tushmoq; tuzoq qoʻymoq, pistirma qoʻymoq.

wayside I [ˈweisaid] *n* chet, qirgʻoq, chekka, yoqa, yoʻl yoqasi.

wayside II [ˈweisaid] *a* yoʻl boʻyidagi, yoʻl ustidagi.

wayward [weiwəd] *a* injiq, serxarxasha, tantiq, oʻziga xos.

way-worn [weiwɔ:n] *a* charchagan, toliqqan, horgʻin.

we [wi:] *pron.* biz.

weak [wi:k] *a* kuchsiz, oriq.

weaken [ˈwi:kən] *v* kuch-quvvatdan qoldirmoq, zaiflashtirmoq, darmonsizlantirmoq.

weak-headed [ˈwi:kˈhedid] *a* esi past.

weak-kneed [ˈwi:kni:d] *a* irodasi

bo'sh (*sust*), irodasiz.

weakly I ['wi:kli] *a* kuchsiz, darmonsiz, bemajol, holsizlik.

weakly II ['wi:kli] *adv* zaif, kuchi yetmaydigan, bemador.

weak-minded ['wi:k'maindid] = **weak-headed**.

weakness ['wi:knis] *n* kuchsizlik, zaiflik, nimjonlik.

weak-spirited ['wi:k'spiritid] *a* qo'rqoq, yuragi yo'q, yuraksiz.

weal I [wi:l] *n* yaxshilik, ezgulik, eson-omonlik.

weal II [wi:l] = **wale**.

weald [wi:ld] *n* bo'sh yer, bekor yotgan yer.

wealth [welθ] *n* davlat, boylik, sog'lom, bardam.

wealthy ['welθi] *a* boy, badavlat, davlatmand.

wean I [wi:n] *v* (*yosh bolani*) sutdan ajratmoq.

wean [wi:n] *n* yosh boladay, tajribasiz, g'o'r.

weanling ['wi:nliŋ] *n* go'dak, bola, farzand.

weapon ['wepən] *n* qurol-aslaha, vosita.

weaponless ['wepənlis] *a* qurolsiz, yaroq-aslahasiz, qurollanmagan.

weaponry ['wepənri] *n* qurol-yaroq, yaroq-aslaha

wear I [weə] *v* kiymoq, kiyib yurmoq.

wear II [wiə] = **weir**.

weariless ['wiəri:lis] *a* charchamas, hormas, tolmas, tinmaydigan.

weariness ['wiəri:nis] *n* charchaganlik, horiganlik, toliqqanlik.

wearisome ['wiəri:səm] *a* juda og'ir, mashaqqatli, charchatadigan.

weary ['wiəri] *a* charchagan, horigan.

weather ['weðə] *n* ob-havo, havo.

weather-beaten ['weðə.bi:tən] *a*

shamol yalagan, shamolda yemirilgan.

weather-chart ['weðə'tʃa:t] *n* sinoptik xarita.

weather-cloth [weðəkləθ] *n* parda, to'siq, to'sqich.

weathercock ['weðəkək] *n* flyuger (*shamolning yo'nalishi va tezligini ko'rsatadigan, aniqlaydigan asbob*).

weather-glass ['weðəglɑ:s] *n* barometr, mezon, ko'rsatkich.

weatherman [weðəmæn] *n* meteorolog, meteorologiya olimi, mutaxassisi.

weather-map ['weðəmæp] = **weather-chart**.

weave I [wi:v] *n* naqsh, bezak, gul.

weave II [wi:v] *v* to'qimoq.

weaver ['wi:və] *n* to'quvchi, to'qimachi, bofanda.

weazen(ed) ['wi:zn(d)] *a* qurigan (*o'simlik to'g'risida*).

web [web] *n* o'rgimchak ini (*uyasi*).

webbed [webd] *a* pardasi bor, pardali.

webbing ['webiŋ] *n* to'qilgan tasma, uqa, jiyak.

wed [wed] *v* turmushga uzatmoq, uylantirmoq.

we'd [wi:d] *so'zl.* = **we had; we would; we should**.

wedded [wedid] *a* er-xotinga va er-xotinlikka oid; ~ **pair** er-xotin.

wedding ['wediŋ] *n* to'y, nikoh to'yi.

wedding-cake ['wediŋkeik] *n* to'y pirogi, shirinligi.

wedding-breakfast ['wediŋ.brekfəst] *n* to'ydan keyin mehmonlarni chaqirish (*chaqiriq*).

wedding-day ['wediŋdei] *n* to'y kuni.

wedding-dress ['wediŋdres] *n* nikoh libosi.

wedding-party ['wediŋ.pa:ti] *n* to'y kechasi.

wedding-ring [ˈwɛdɪŋrɪŋ] *n* nikoh uzugi.

wedge I [wɛdʒ] *n* pona.

wedge II [wɛdʒ] *v* pona qoqmoq

Wednesday [ˈwɛnzdi] *n* chor-shanba.

wee I [wi:] *n* siydik, peshob.

wee II [wi:] *v* siymoq, yozilmoq.

wee III [wi:] *a* juda kichkina, kichkinagina, uvoqqina, mushtday, jajji, bir ozgina, oz miqdorda.

week [wi:k] *n* hafta.

week-days [ˈwi:kdeɪ] *n* hafta kunlari.

week-end [wi:kˈɛnd] *n* hafta oxiri.

weekly I [ˈwi:kli] *n* haftalik, haftada bir chiqadigan jurnal.

weekly II [ˈwi:kli] *a* haftada bir boʻladigan.

weekly III [ˈwi:kli] *adv* har hafta, haftada bir marta.

ween [wi:n] *v* oʻylamoq, fikr qilmoq, mulohaza qilmoq, fikr yuritmoq.

weep [wi:p] *v* yigʻlamoq, koʻz yoshi qilmoq.

weevil [ˈwi:vɪl] *n* zool. uzun tumshuq (*zararkunanda qoʻngʻiz*).

weft [weft] *n* arqoq (*matoning oʻrishi bilan koʻndalangiga kesishuvchi iplari*).

weigh [wei] *v* mulohaza qilmoq; tortmoq (*tarozida*).

weight [weɪt] *n* 1) ogʻrlik, vazminlik; 2) oʻlchov; 3) obroʻ, hurmat.

weird [wiəd] *n* taqdir, qismat, yozmish, peshona, tole.

welcome [ˈwelkəm] *n* tabrik, qutlov, xush kelibsiz.

weld [weld] *v* svarka qilmoq, ulamoq.

welfare [ˈwɛlfɛə] *n* farovonlik, tinchlik.

welkin [ˈwelkin] *n* shoir. osmon, koʻk, samo, falak; osmon gumbazi.

well I [wel] *n* buloq; quduq.

well II [wel] *adv* yaxshi, tuzuk.

well-being [ˈwelˈbi:ɪŋ] *n* tinchlik, farovonlik, eson-omonlik.

well-equipped [welˈɪkwɪpt] *a* yaxshi jihozlangan.

well-informed [ˈwelɪnˈfɔ:mɪd] *a* biladigan, yaxshi xabardor.

well-known [ˈwelˈnəʊn] *a* mashhur, maʼlum, atoqli.

well-to-do [ˈwɛltəˈdu:] *a* boy, badavlat, oʻziga toʻq.

well-tryed [ˈwelˈtraɪd] *a* sinalgan.

were [wə:] (*to be*) feʼlining oʻtgan zamon koʻplik shakli.

west [west] *n* gʻarb.

western [ˈwɛstən] *a* gʻarbiy.

what [wɒt] *pron.* nima; ~a pity! atang! afsus! ~time is it? Soat necha boʻldi? ~is the weather like today? Bugun ob-havo qanday?

whatever [wɒtˈevə] *a* nima boʻlsa ham.

wheat [wi:t] *n* bugʻdoy.

wheel [wi:l] *n* gʻildirak.

when [wen] *adv* qachon; ~ were you born? Qachon tugʻilgansiz?

where [weə] *adv* qayerga, qayerda.

whereas [ˈweəˈæz] *conj.* holbuki.

which [wɪtʃ] *pron.* qaysi.

while [wɑɪl] *n* jarayonida, mobaynida.

whistle [ˈwɪsl] *v* hushtak chalmoq.

white [waɪt] *a* oq.

who [hu:] *pron.* kim.

whoever [hu:(ː)ˈevə] *a* kim boʻlmasin.

whole [həʊl] *a* barcha, butun, hamma; **on the** ~ umuman.

wholesale [ˈhəʊlseɪl] *n* ulgurji savdo.

wide [waɪd] *a* keng.

widely [ˈwaɪdli] *adv* keng.

width [wɪdθ] *n* kenglik, kengligi.

wife [waɪf] *n* rafiq, xotin.

wild [waɪld] *a* yovvoyi.

willing [ˈwiliŋ] *a* hozir, tayyor.
win [win] *v* yutmoq, gʻolib chiqmoq, gʻalaba qozonmoq.
wind I [wind] *n* shamol.
wind II [waɪnd] *v* buramoq.
winding [waɪndɪŋ] *n* burash, oʻrash.
window [ˈwɪndəʊ] *n* deraza.
window-sill [ˈwɪndəʊsɪl] *n* deraza tokchasi.
winter [ˈwɪntə] *n* qish; *in~* qishda.
wireless [ˈwaɪələs] *n* simsiz.
wise [waɪz] *a* dono siyosat; aqlli, dono.
wish I [wɪʃ] *n* istak, xohish.
wish II [wɪʃ] *v* istamoq; ~ **luck** baxt tilamoq.
withdraw [wɪðdrɔː] *v* qaytarib olib ketmoq, olib chiqmoq.
withdrawal [wɪðˈdrɔːəl] *n* qaytarib olish, qaytish, olib chiqish.
with [wɪð] *prep.* bilan; ~ **pleasure** jonim bilan.
within I [wɪˈðɪn] *adv* ichida.
within II [wɪˈðɪn] *n* ichki qismi.
without [wɪˈðaʊt] *prep.* ... siz (*yʻoʻq maʼnosida*).
withstand [wɪðˈstænd] *v* qarshi turmoq, bardosh bermoq.
witness [ˈwɪtnɪs] *n* guvoh, shohid.
woman [ˈwʊmən] *n* ayol, xotin kishi.
wonder [ˈwʌndə] *v* ajablanmoq, hayratda qolmoq, qiziqmoq.
wonderful [ˈwʌndəfʊl] *a* hayron qolarlik, ajoyib, yaxshi, koʻrkam, goʻzal.
wood [wʊd] *n* oʻrmon.
wooded [ˈwʊdɪd] *a* oʻrmonli.
wooden [ˈwʊdn] *a* yogʻochli.
woodworking [ˈwʊdwə:kɪŋ] *n* yogʻoch ishlash.
wool [wʊl] *n* jun.
woollen [ˈwʊlən] *a* junli, yungli.
word [wɜːd] *n* soʻz, mulohaza.
work I [wɜːk] *n* ish, mehnat.

work II [wɜːk] *v* ishlamoq, mehnat qilmoq; ~**hard(at)** koʻp (*tirishib*) ishlamoq.

worker [ˈwɜːkə] *n* ishchi, mehnatchi.

working [ˈwɜːkɪŋ] *a* ishchi, mehnatkash; ~ **day** ish kuni.

workshop [ˈwɜːkʃɒp] *n* ustaxona.

world [wɜːld] *n* dunyo, jahon.

world-policy [wɜːldˈpɒlɪsi] *n* dunyo siyosati.

world-wide [ˈwɜːldwaɪd] *a* olamshumul, butun dunyo taniydigan, butun dunyoda.

worsen [ˈwɜːsn] *v* ogʻirlashmoq, yomonlashmoq.

worth [wɜːθ] *n* baho, narx, qiymat.

wound [wuːnd] *n* yara, yarador qilish.

wrap [ræp] *n* roʻmol.

wrap [ræp] *v* oʻramoq.

wreck [rek] *v* burmoq, barbod qilmoq, avariya uchramoq.

writ [rɪt] *n* yozilgan narsa, xat, insho, yozuv-chizuv.

write [raɪt] *v* yozmoq.

writer [ˈraɪtə] *n* yozuvchi.

writing-table [ˈwraɪtɪŋˌteɪbl] *n* yozuv stoli.

wrong [rɒŋ] *a* notoʻgʻri, xato, nohaq.

wrongdoer [ˈrɒŋˈduə] *n* dilozor, jafokor, kimsani xafa qilgan, ranjitgan odam.

wrongdoing [ˈrɒŋˈduː(ː)ɪŋ] *n* 1) gunoh, yoziq; 2) ayb, ayb ish, aybdor.

wrote [raʊt] *v* yozmoq.

wry [raɪ] *a* egri, qiyshiq, qingʻir, qingʻir-qiyshiq, egri-bugri

wye [waɪ] *n* 1) *tex.* uchtalik (*trubadagi suv, gaz kabilarni uch tomonga ajratishga, boʻlib yuborishga moslashgan joʻmraksimon buyum*); 2) uchtalik; uchta bir xil narsadan iborat predmet.

X, x [eks] *n* (*pl* Xs, X's ['eksiz])
 1) ingliz tili alifbosining yigirma to'rtinchi harfi; 2) X shaklidagi nimadir narsa, X shaklidagi qandaydir narsa; 3) *matem.* iks-noaniq miqdor, kenglik; *ko'chma.* qandaydir sir, qandaydir maxfiy narsa, qandaydir noma'lum narsa; 4) *amer.* o'n dollarli qog'oz pul; 5) xoch, salb, but, bir-birini kesib o'tgan ikki narsa, ikki chiziq; 6) yanglish, xato; 7) bolalarning kirishi man'etilgan filmlar turkumi (*turi*).

Xanthippe [zæn'θipi] *n* Ksantippa; *ko'chma.* badjahl ayol, serjahl xotin, yomon xotin, yovuz kelin, ming'ir-ming'ir qiladigan xotin, quloqni tinchitmaydigan xotin, mijg'ov xotin, janjalkash xotin.

xanthous ['zænθəs] *a* sariq rang, sariq.

X-axis ['eks'æksis] *n* *matem.* abstsissa o'qi.

X-bit ['eksbit] *n* *tog'.* parmaning salb (*krest*) shaklidagi boshchasi.

X-bracing ['eks breisɪŋ] *n* 1) o'zaro aloqa, oldi-berdi qilish aloqasi, bir-biri bilan savdo-sotiq qilish aloqasi; 2) *tex.* krest shaklidagi aloqa, krest shaklidagi bog'lanish.

xebec ['zi:bek] *n* *tarix.* Shebeka (*den-gizdagi yelkanli kemalarning bir turi*).

X-engine [eksɛndʒin] *n* *tex.* silindrga X shaklida o'rnatilgan dvigatel.

xenial ['zi:niəl] *a* mehmondo'stlik bilan bog'liq bo'lgan, mehmondorlikka aloqamdor bo'lgan, mehmondorchilikka taalluqli bo'lgan; ~ **customs** mehmondorchilik qoida-qonunlari.

xenogamy [zi(:)'nɔgəmi] *n* *bot.* chetdan changlanish.

xenomania [zenou'meinjə] *n* *redk.* barcha xorijiy kishilarga bo'lgan havas.

xenon ['zenɔn] *n* *kim.* kenon (*kimyoviy element, gaz*).

xenophobia [zenou'foubiə] *n* xorijdan kelgan kishilarga nisbatan adovatli munosabatda bo'lish, xorijiy kishilarga nisbatan g'arazli munosabatda bo'lish.

Xerox ['ziəroks] *n* 1) kseroks (*foto ko'chirmalarni, matnlarni rasmga tushiriladigan asbob*); 2) foto ko'chirma.

Xerxes ['zə:ksi:z] *n* *tarix.* Kserks.

xiphoid ['zifoɪd] *a* *anat.* qilichga o'xshagan, shamshirga monand, shamshirga o'xshagan.

X-line ['ekslain] *n* *mat.* iks o'qi, absissa o'qi.

Xmas ['krisməs] *n* 1) Christmas *so'zining qisqartirilgan shakli*; rojdestvo, milod (*Iso payg'ambarning tug'ilganiga bag'ishlangan xristianlar bayrami*); 2) rojdestvo (*milod*) bayramida bo'ladigan, rojdestvo (*milod*) bayramiga oid.

X-ray I ['eks'rei] *n* 1) (*oddiy pl*) rentgen nurlari; 2) *attr.* rentgenga oid; ~ **therapy** rentgenoterapiya (*rentgen nurlari bilan davolash*); ~ **picture** rentgenogramma (*rentgen apparatida olingan surat*); ~ **photograph** rentgen surati (*rentgen apparatida olingan surat*).

X-ray II ['eks'rei] *v* nur sochmoq, rentgen nurlari yordamida tekshirib ko'rmoq.

xylanthrax [zai'lænθræks] *n* yog'och ko'mir, pista ko'mir.

xylograph [zailɔgra:f] *n* 1) yog'ochga o'yama naqsh solish; 2) yog'ochga o'yama naqsh solingan surat, gravvyura.

xylography [zai'lɔgrəfi] *n* randa-korlik, o'ymakorlik, naqqoshlik.

xylonite ['zailənait] *n* selluloid (*sellyulozadan tayyorlangan qattiq plastik material*).

xylophone ['zailəfoun] *n* ksilofon (*changga o'xshagan musiqiy asbob*).

xylose ['zailous] *n* *kim.* ksiloza.

xyster ['zistə] *n* *tib.* raspator.

Y, y [wai] *n* (*pl* **Ys, Y's** [waiz])

1) ingliz tili alifbosining yigirma beshinchi harfi; 2) **Y** shaklidagi biror narsani bildiradi; 3) *mat.* noma'lum qiymat, kattalik, miqdor.

yacht I [jɔt] *n* yaxta.

yacht II [jɔt] *v* suzmoq, yaxtada yurmoq.

yacht-club [ˈjɔtklʌb] *n* yaxt-klub (*1*) *suv sporti bilan shug'ullanadigan sport tashkiloti*; (*2*) *shu tashkilot joylashgan bino yoki suv stansiyasi*).

yachting I [ˈjɔtɪŋ] *v* suzmoq, cho'milmoq, yaxtada yurmoq, yaxtada suzmoq.

yachting II [ˈjɔtɪŋ] *n* yelkanli qayiq sporti.

yachtsman [ˈjɔtsmən] *n* 1) yaxta egasi; 2) *sport.* yaxtsmen, yaxtachi (*sportchi*).

yaffil, yaffle [ˈjæfl] *n* yashil, qizil ishton.

yah [ja:] *int.* (*nafratlanish, jirkaniyshni bildiradi*) qo'ysangiz-chi.

yahoo [jəˈhu:] *n* qishloqda o'sgan sodda odam.

yak [jæk] *n zool.* qo'tos.

yakut I [jæˈkut] *n* yakut, yakut ayoli.

yakut II [jæˈkut] *a* yakutlarga oid.

yalelock [ˈjeɪlək] *n* avtomatik "Amerika" qulfi.

yam [jæm] *n bot.* botat (*janub o'simligining bir turi va uning kartoshka tamli ildiz mevasi*).

yammer [ˈjæmə] *v amer.* og'z. 1) shikoyat qilmoq; 2) zirqiramoq, sirqiramoq.

yank I [jænk] *n* yanki, yankilar (*amerikaliklar laqabi*).

yank II [jæŋk] *n* siltov, siltash, siltanish, sapchish.

yank III [jæŋk] *v* siltab tort-

moq, siltamoq.

yankee [ˈjæŋki] *n* 1) yanki-amerikalik; 2) falon joylik *yoki* Angliyaning yangi yashovchisi; 3) *attr.* Amerikaga oid.

yankeefied [ˈjæŋkifaɪd] *a* amerikalikka aylangan, amerikalashgan.

yap I [jæp] *n* 1) vovillash, akillash, uvillash, hurish, hurgandek chiyilash; 2) og'z. safsata, bekor gap; 3) og'z. pechkaning og'zi.

yap II [jæp] *v* 1) qattiq vovillamoq, hurgandek chiyillamoq; 2) og'z. valjiramoq, aljiramoq.

yapp [jæp] *n* yumshoq charm muqova.

yard I [ja:d] *n* 1) hovli; 2) paxta-yog'och ombori; 3) park (*avtomobil va sh.k. transportlarni tuzatish joyi*); navlarga ajratish stansiyasi; 4) otar, qo'ton, molxona.

yard II [ja:d] *v* haydamoq (*molni hovliga*).

yard-bird [ˈja:dbə:d] *n* *harb.* og'z. askarlikka endi chaqirilgan soldat.

yardman [ˈja:dmən] *n* depo *yoki* park ishchisi.

yard-master [ˈja:dma:stə] *n* poyezdlarni tartiblovchi, stansiya dispatcheri.

yard-measure [ˈja:d.meʒə] *n* o'l-chash chizig'i *yoki* 1 yardga teng bo'lgan (*metr, ruletka*).

yardstick [ˈja:dstɪk] *n* o'lchov, andoza, mezon belgisi.

yard wand [ˈja:dwənd] = **yard-measure**.

yarn I [ja:n] *n* 1) yigirilgan ip, g'altak; 2) og'z. hikoya, latifa.

yarn II [ja:n] *v* ertak aytmoq, valdiramoq, aljiramoq.

yarn-beam [ˈja:nbi:m] *n* to'quv stanogi g'altagi.

yarn-dyed [ˈja:ndaɪd] *a* bo'yab

yigirilgan ip.

yarrow [ˈjærou] *n bot.* oddiy dastorbosh (*boʻy modaron*).

yashmak [ˈjæʃmæk] *arab. n* chodir (*paranjisimon yopinichiq, chimmatsiz paranji*).

yataghan [ˈjætəgən] *turk. n* egri qilich.

yawl [jɔ:l] *deng.* kemandagi maxsus qayiq.

yawn I [jɔ:n] *n* 1) esnash, esnoq tortish, esnoq; 2) *tex.* zazor (*mashina qismlari oʻrtasidagi juda tor tirqish*).

yawn II [jɔ:n] *v* 1) esnamoq; **he ~ ed good night** u esnab xayrli tun tiladi; 2) chuqur (*subsiz*) boʻlib koʻrinmoq; 3) katta (*keng*) ochmoq, keramoq.

Y-axis [ˈwaɪ æksis] *n mat.* ordinalar oʻqi.

yclept [iklept] *a* eski, qiziq, ataladigan, aytiladigan.

ye [ji:] *pron. pers.* eski; shoir; **You how dʻye do?** Salom, ahvolingiz qanday?

yea I [jei] *n* rozilik; ijobiy (*tastiqlovchi*) javob.

yea II [jei] *adv* 1) ha; 2) eski bundan tashqari, (*ham*) yana ham, hatto; **I will give you a pound, ~ two pounds** Men sizga 1 funt, hatto 2 funt sterling ortiqcha beraman.

yeah [jeə] *part sl.* ha, shunday.

yeen [ji:n] *v* qoʻzilamoq (*qoʻy, echki haqida*).

yeanling [ˈji:nliŋ] *n* uloq (*echki bolasi, shirvoz*), qoʻzichoq.

year [jɛ:] *n* 1) yil; ~ **by** ~ har yili; ~ **in** ~ **out** yildan-yilga; **from** ~ **to** ~; ~ **by** ~, ~ **after** ~ yil sayin; ~ **s** (**and** ~ **s**) **ago** juda ancha ilgari, abadiylikni nazarda tutmoq; **the** ~ **of** **grace** bizning davrimiz yili; **in the** ~ **of** **grace** (*yoki of our Lord*) 1975 1975 yilga; 2) *pl* yosh, yillar; **he looks young for his** ~ **s** koʻrinishidan yoshga oʻxshaydi; **in** ~ **s**

yoshi qaytgan, qariy boshlagan.

year-book [ˈjɛ:buk] *n* yilnoma (*yilda bir marta chiqadigan toʻplam*).

yearling I [ˈjɛ:liŋ] *n* bir yoshli hayvon; koʻchat.

yearling II [ˈjɛ:liŋ] *a* bir yashar, bir yoshli.

yearly I [ˈjɛ:li] *a* har yili, har yilda, yil sayin.

yearly II [ˈjɛ:li] *adv* har yilgi, yilda bir marta boʻladigan, yillik.

yearn [jɛ:n] *v* 1) intizor boʻlmoq, azob chekmoq, toliqmoq, tinkasi qurimoq, azoblanmoq; sogʻinmoq, qoʻmsamoq, sogʻinib siqilmoq, diqqat boʻlmoq, zerikmoq; (**for, after** - *kimnidir, nimanidir*); **he-ed to be home again** uyga ketishga oshiqardi, intilardi; 2) orzumand boʻlmoq, zoʻr ishtiyoq bilan orzu qilmoq, zoriqmoq; yelib bormoq, otilmoq, intilmoq; (**for, to-nimaga**dir).

yearning [ˈjɛ:nɪŋ] *n* kuchli xohish, qattiq xohish; kuchli sogʻinish; **popular** ~ **s** xalqning orzu-umidi, ezgu orzu-umid.

yeast [ji:st] *n* xamirturush, achitqi, tomizgʻi.

yeasty [ˈji:sti] *a* 1) koʻpikli, koʻpigi bor, serkoʻpik; 2) sayoq, daydi, beqaror, koʻchmanchi, qoʻnimsizlik; 3) boʻmboʻsh, xoli (*soʻzlar sh. k.lar haqida*).

yegg [jɛg] *n amer.* qulfbuzar oʻgʻri, bosqinchi, bosmachi, oʻgʻri.

yelk [jelk] *n* tuxum sarigʻi.

yell [jel] *n* 1) qattiq, qichqiriq, kuchli baqiriq; 2) *amer.* maʼqullash ovozlari.

yell [jel] *v* 1) chinqirmoq, qichqirmoq, dodlamoq, dod-voy qilmoq; 2) baqirmoq (*baland ovoz bilan*), aytmoq; **to~ out** **curses** laʼnat soʻzlari yogʻdirmoq, laʼnatlamoq.

